ISAKULOVA N.J., DJURAYEV D.U., JUMANIYOZOVA M.T.,
JUMAYEV A.SH., YO`LDASHEVA S.M., SHARIPOVA S.B.,
ATAXANOVA S.O., KARIMOVA N.X.

UMUMIY PEDAGOGIKA



ISBN: 978-9910-572-21-0

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISAKULOVA N.J., DJURAYEV D.U., JUMANIYOZOVA M.T., JUMAYEV A.SH., YO`LDASHEVA S.M., SHARIPOVA S.B., ATAXANOVA S.O., KARIMOVA N.X.

UMUMIY PEDAGOGIKA

DARSLIK

Toshkent - 2025

UO`K 371.031
KBK 74.00
U 49

Mazkyp darslik 5 ta modulga ajratilgan. “Umumiy pedagogika – ta’lim-tarbiya nazariyasi” deb nomlangan birinchi modulida “Umumiy pedagogika” – ta’lim-tarbiya nazariyasi, pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi, O‘zbekistonda ta'lim tizimini modernizasiyalash jarayonlari, uning huquqiy-me'yoriy asoslari, ta'lim muassasasi menejmenti o`rganilgan. “Tarbiya nazariyasi” deb nomlangan ikkinchi modulida tarbiya nazariyasi, globallashuv jarayonlarining tarbiyaga ta‘siri, milliy tarbiya usullari va vositalari, yoshlarda ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati tahlil etilgan. “Ta’lim nazariyasi” deb nomlangan uchinchi modulida didaktika-ta’lim nazariyasi, pedagogik jarayon, ta‘lim tamoyillari va qoidalari, ta‘lim shakllari, metodlari va vositalari tasnifi, zamonaviy dars tipologiyasi va unga qo‘yiladigan didaktik talablar o`rganilgan. “Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi” deb nomlangan to`rtnichi modulida ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi sifatida, O`zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi, ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar, shaxsni rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va tarbiyalash masalalari, ijtimoiylashuv omillari va vositalari, bolaning sotsiumda rivojlanishi, oilada sog‘lom ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, maktab yoshidagi bolalar va mahalla bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat yoritilgan. “Pedagogik kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat” deb nomlangan beshinchi modulida pedagogik kasbiy kompetentlik, unga xos sifatlar, pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari o`rganilgan.

Mazkur darslikdan professor-o‘qituvchilar, malaka oshirish tinglovchilari, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar, doktorantlar va talabalar foydalanishi mumkin.

Данный учебник разделено на 5 модулей. В первом модуле под названием «Общая педагогика – теория образования и воспитания» изучаются «Общая педагогика» как теория образования и воспитания, методология педагогических исследований, процессы модернизации системы образования в Узбекистане, её правовые и нормативные основы, а также менеджмент образовательных учреждений. Во втором модуле под названием «Теория воспитания» рассматриваются теория воспитания, влияние процессов глобализации на воспитание, национальные методы и средства воспитания, необходимость формирования у молодёжи научного и общекультурного мировоззрения. В третьем модуле под названием «Теория образования» изучаются дидактика и теория образования, педагогический процесс, принципы и правила обучения, классификация форм, методов и средств обучения, современная типология урока и предъявляемые к нему дидактические требования. В четвёртом модуле под названием «Социальная педагогика как область практической деятельности» рассматривается социальная педагогика как сфера практической деятельности, история развития социальной педагогики в Узбекистане, социально-педагогические исследования, вопросы развития личности, социализации и воспитания, факторы и средства социализации, развитие ребёнка в социуме, укрепление здоровой духовной среды в семье, социально-педагогическая работа с детьми школьного возраста и с обществом (махалла). В пятом модуле под названием «Педагогическая профессиональная компетентность и педагогическое мастерство» изучаются педагогическая профессиональная компетентность, её характерные качества, основы педагогического мастерства и его составные элементы.

Данный учебник может быть использован профессорами, стажерами, независимыми исследователями, докторантами и студентами.

This textbook is divided into five modules. The first module, titled “General Pedagogy – Theory of Education and Upbringing,” covers “General Pedagogy” as a theory of education and upbringing, the methodology of pedagogical research, the processes of modernizing the education system in Uzbekistan, its legal and regulatory foundations, and the management of educational institutions. The second module, titled “Theory of Upbringing,” examines the theory of upbringing, the impact of globalization on upbringing, national methods and tools of upbringing, and the necessity of forming a scientific and general cultural worldview among young people. The third module, titled “Theory of Education,” explores didactics and the theory of education, the pedagogical process, principles and rules of teaching, classification of forms, methods, and means of education, modern lesson typology, and the didactic requirements for lessons. The fourth module, titled “Social Pedagogy as a Field of Practical Activity,” addresses social pedagogy as a field of practical activity, the history of social pedagogy development in Uzbekistan, social-pedagogical research, issues of personality development, socialization and upbringing, factors and means of socialization, child development in society, maintaining a healthy spiritual environment in the family, and social-pedagogical activities with school-aged children and communities (mahalla). The fifth module, titled “Pedagogical Professional Competence and Pedagogical Mastery,” studies pedagogical professional competence, its characteristic qualities, the foundations of pedagogical mastery, and its constituent elements.

This textbook can be used by professors, teachers, participants of professional development courses, independent researchers, postgraduate students, doctoral candidates, and university students.

Mas`ul muharrir:
pedagogika fanlari doktori, professor Yu.G`.Maxmudov

Taqrizchilar: pedagogika fanlari doktori, professor Lochin Zaripov
pedagogika fanlari doktori, professor Tarmiza Xurvaliyeva

O`zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025 yil 20-iyundagi 297/11-08-son buyrug`iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (ro`yxatga olish raqami 297/11-08-2).

ISBN: 978-9910-572-21-0

ISAKULOVA N.J., DJURAYEV D.U., JUMANIYOZOVA M.T., JUMAYEV A.SH, YO`LDASHEVA S.M., SHARIPOVA S.B, ATAXANOVA S.O., KARIMOVA N.X.

© “Lavita print”, 2025

KIRISH

Pedagogika – bu insonni tarbiyalash va ta’lim jarayonlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, jamiyatning ma’naviy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish masalalari nafaqat oilada, balki maktabda, oliy ta’lim muassasalarida va jamiyatning boshqa institutlarida ham amalga oshiriladi.

“Umumiy pedagogika” darsligi talabalarga pedagogik nazariya va amaliyotning asosiy tamoyillari, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish metodlari hamda ta’lim-tarbiya tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari bilan tanishish imkonini beradi. Ushbu darslikning maqsadi – talabalarda pedagogik fikrlash, o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarini tizimli o‘rganish, shuningdek, mustaqil pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Ta’lim va tarbiya insonning shaxs sifatida rivojlanishi, jamiyatdagi o‘rni va kelajakdagi faoliyatini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. U insonni ma’naviy, intellektual va jismoniy jihatdan rivojlantiradi, ijtimoiy tajribani o‘rgatadi va shaxsiy qobiliyatlarni boyitadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni nafaqat bilim berish, balki insonning axloqiy qadriyatlari, madaniyati va jamiyatga moslashuv qobiliyatini rivojlantirishga ham qaratilgan. Ilm-fan esa jamiyat rivojining asosi. U inson tafakkurini chuqurlashtiradi, yangi bilimlar yaratadi va mavjud bilimlarni tizimlashtiradi. Ta’lim-tarbiya bilan birgalikda ilm-fan shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalarini mukammal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darslik talabalarga ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarining asosiy tushunchalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va jamiyatdagi ahamiyati bilan tanishish imkonini beradi. Talabalar ta’lim jarayonlarini tashkil etish, pedagogik va ilmiy tadqiqotlar metodlarini qo‘llash, shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimlarida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Shu bilan birga, darslikda ta’lim-tarbiya va ilm-fanning nazariy asoslari bilan bir qatorda, amaliyotga yo‘naltirilgan vazifalar va misollar keltirilgan bo‘lib, talabalarda mustaqil pedagogik va ilmiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

«Umumiy pedagogika» fanidan o‘quv dasturi xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo`nalishi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda pedagogikaning ilmiy asoslari, O‘zbekiston ta’lim tizimini boshqarish, ta’lim jarayonining mohiyati, ta’lim nazariyasining maqsad va vazifalari, ta’lim jarayonining tamoyillari va metodlari, ta’limni tashkil etish shakllari va baholash mezonlari, tarbiya jarayonining tamoyillari va metodlari, barkamol shaxsni tarbiyalashga doir yo‘llar va vositalar, pedagogik mahoratning tavsifi, o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni, pedagogik qobiliyati, pedagogik muloqot, nutq texnikasi va talabalarni pedagogik faoliyatini tashkil etishga ijodiy yondashish va pedagogik tajriba to‘plash, shuningdek, ta’lim texnologiyalari va rivojlanishiga oid tarixiy asoslari yoritilgan. «Umumiy pedagogika» fani quyidagi modullar asosida o`qitiladi:

1-modul. Umumiy pedagogika – ta’lim-tarbiya nazariyasi (1-2-mavzu);

2-modul. Tarbiya nazariyasi (3-4-mavzu);

3-modul. Ta’lim nazariyasi (5-7 mavzu);

4-modul. Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi (8-10 mavzu);

5-modul. Pedagogik kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat (11-12 mavzu).

Mazkur darslikdan professor-o‘qituvchilar, malaka oshirish tinglovchilari, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar, doktorantlar va talabalar foydalanishi mumkin.

1-MODUL. UMUMIY PEDAGOGIKA – TA’LIM-TARBIYA NAZARIYASI

§ 1.1. UMUMIY PEDAGOGIKA – TA’LIM-TARBIYA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Reja:

1. Ta’lim-tarbiya tizimida pedagogika fanlarining o‘rni va ahamiyati.
2. “Pedagogika” fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi va asosiy kategoriyalari.
3. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari.
4. “Umumiy pedagogika” fanining obyekti, predmeti va tuzilishi.
5. Ta’limda zamonaviy yondashuvlar.

Tayanch so`z va iboralar: ta’lim, tarbiya, ta’lim-tarbiya tizimi, pedagogika, pedagogika tarmoqlari, fanlararo aloqadorlik, integrativ aloqadorlik, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari, falsafiy yo‘nalish, psixologik yo‘nalish, didaktik yo‘nalish, kibernetik yo‘nalish, matematik yo‘nalish, psixoteropevtik yo‘nalish, akmeologik yo‘nalish, yosh davrlar pedagogikasi, perinatal pedagogika, yasli pedagogikasi, maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta’limi pedagogikasi, o‘rta maxsus ta’lim pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, androgogika, uchinchi avlod pedagogikasi,maxsus pedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya, kasbiy pedagogika, sanoat pedagogikasi, harbiy pedagogika, tibbiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, davolash pedagogikasi, gender pedagogikasi, etnopedagogika, oila pedagogikasi, qiyosiy pedagogika, axloq tuzatish pedagogikasi,turli fanlarni o‘qitish metodikalari, kasb-hunar ta’limi uslubiyati, oliy ta’lim uslubiyati, malaka oshirish uslubiyati, maxsus ta’lim uslubiyati, umumiy ta’lim uslubiyati, maktabgacha ta’lim uslubiyati, pedagogik aksiologiya, pedagogik akmeologiya, pedagogik riskologiya, pedagogik kvalimetriya, neyropedagogika, badiiy pedagogika, musiqiy pedagogika, teatr pedagogikasi, muzey pedagogikasi, tibbiy pedagogika, virtual pedagogika, pedagogika va ta’limning shakllanishi va rivojlanishi, sohaviy pedagogika, oldindan bog‘lanish, keyindan bog‘lanish, davomli bog‘lanish, ichki bog‘lanish, tashqi bog‘lanish, sinxron bog‘lanish, asinxron bog‘lanish, tushuncha va faktlar orasidagi bog‘lanish, tekshirish metodlari va ilmiy

tafakkur orasidagi bog‘lanish, umumiy ko‘nikma va malakalarini shakllanishidagi bog‘lanish, o‘qitishning bilish usullari orasidagi bog‘lanish, uzviy bog‘lanish, o`qitish, tarbiyalash, rivojlanish, sotsializatsiya, pedagogik tizim, o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat, pedagogik o‘zaro ta’sir, pedagogik vazifa, ta’lim texnologiyasi, nazariy kategoriyalari, empirik kategoriyalari, tarixiy kategoriyalar, fanlararo kategoriyalar, integrativ kategoriyalar, sohalararo kategoriyalar, umumiste’moldagi kategoriyalar.

Ta’lim-tarbiya tizimida pedagogika fanlarining o‘rni va ahamiyati

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda [2].

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi (1.1-rasmga qarang) [2].

Pedagogika atamasi ikki yunoncha so‘z: *pais, paidos* - bola, go‘dak va *ago* - yetaklayapman so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan va bola yetaklovchi yoki bolaga yo‘l ko‘rsatuvchi degan ma’noni anglatadi. Rivoyatlarga qaraganda, Qadimgi Yunonistonda quldorlar ularning bolalarini maktabga olib boruvchi va maktabdan olib keluvchi maxsus qulni tayinlaganlar. Uni *«paidagog»* deb ataganlar. Keyinchalik bolalarga ta’lim va tarbiya berish bilan shug‘ullanuvchi kishilarni pedagoglar deb atash odat tusini olgan. Pedagogika fanining nomi ham ayni shu so‘zdan kelib chiqqan [66].

“Pedagogika” so‘zi bir necha ma’nolarga ega. Birinchidan, ular pedagogika fanini belgilaydilar. Ikkinchidan, pedagogika – bu san’at, degan fikr ham bor, shuningdek u amaliyotga tenglashatiriladi. Ba’zan pedagogika deganda ta’lim sohasida ishlab chiqilgan faoliyat tizimi, ya’ni materiallar, usullar, tavsiyalarda loyihalashtirish

tushuniladi. Bunday noaniqliklar koʻpincha noaniqlikni hosil qiladi. Bunday qarashlar ta’limga muayyan yondashuvlar, usullar va tashkiliy shakllarga oid tasavvurlarni keltirib chiqardi: hamkorlik pedagogikasi, rivojlanish pedagogikasi, muzey pedagogikasi, xavf pedagogikasi, identifikatsiya pedagogikasi va boshqalar.



1.1-rasm. Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari

Biroq, terminni talqin qilishda bunday noaniqlik aniq tushunishga imkon bermaydi. Buning uchun asosiy tushunchalar, mazmun-mohiyat aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Pedagogika terminini “pedagogika fani” sifatida ishlatamiz [64].

Pedagogika fan sifatida ijtimoiy shaxs, belgilangan pedagogik maqsadi hamda pedagogik rahbarligi tavsiflanib, insonni jamiyat hayoti bilan tanishtirish faoliyatini o‘rganadi. Pedagogikaning predmeti – tarbiya, obyekti esa ta’lim jarayonini olingan [64]. Pedagogika fanining vazifalari quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

ta’lim jarayonining obyektiv qonuniyatlarini aniqlash;

zamonaviy pedagogik tizimlarni asoslash;

ta’limning yangi mazmuni, usullari, shakllari, ta’lim-tarbiya, jarayonini boshqarish tizimlarini ishlab chiqish [64].

Pedagogika fani insonda jahon tajribalarida sinalgan tizim bo‘lgan bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy meros, an’analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning boy manbalari bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy tushunchalar haqida bilim, malaka hosil qilishda boshqa fanlar qatori o‘z o‘rni va aloqadorligi bor. Pedagogika birinchi navbatda falsafa bilan mushtarak rivojlanib kelgan. Chunki falsafadan ajralib chiqqan pedagogika insoniy jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlaridan ilmiy manba sifatida foydalanadi [44].

X.Ibraimov, M.Quronovlar pedagogika – insonshunoslik fani bo‘lib, jamiyat va shaxs munosabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va ta’lim muammolarini o‘rganadi. Unda hozirgi zamon fani va metodologiyasining quyidagi umumiy masalalari yoritiladi:

fan tarixi va taraqqiyoti;

fan haqidagi asosiy konsepsiyalar;

hozirgi zamon fanidagi asosiy dolzarb muammolar.

Pedagogika fanining predmeti sifatida quyidagilar belgilangan:

ta’lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari;

ta’lim-tarbiya mazmuni;

ta’lim-tarbiyaning usullari, vositalari;

dunyonining moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi [48].

Pedagogika fan sifatida shakllanib, takomillashib borib, ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqidagi fanga aylandi.

Pedagogika jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan insoniy faoliyat sohasi. Bu fan o‘qituvchilarga bilim berish va bu bilmilarni hayotda qo‘llay olish sirlarini o‘rgatadi. Insonga ta’lim-tarbiya u ona qornida ekanligidan boshlab, to qabrga kirgunga qadar berilishi kerak. Demak, ta’lim-tarbiya, birinchidan, jarayon, ikkinchidan, u uzluksiz. *Pedagogika fanining tadqiqot obyekti* – uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonidir. *Pedagogika fanining predmeti* bo‘lgan ilmiy bilim asosida jamiyatning alohida funksiyasi – tarbiya mazmuni yotadi. *Pedagogika fanining predmeti* – o‘qitish ta’lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo‘lganligi uchun uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamolati uyg‘unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi [66].

A.Asqarov, Z.Axrorova, E.Ro‘zimatov, Sh.Sadikova, U.Sodikovlarning hammualliflikda yaratilgan “Umumiy pedagogika” fani bo‘yicha O‘UMda pedagogika – ta’lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o‘rganadigan fan sohasi sifatida o‘rganilgan. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogika fanining obyekti – yaxlit pedagogik jarayon. Pedagogika fanining predmeti – ta’lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari tashkil etadi. Pedagogika fanining vazifalari quyidagicha belgilangan:

pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlash;

ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar;

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob

beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish [43]. Pedagogika fani rivojining falsafiy, psixologik, didaktik, kibernetik, matematik, psixoteropevtik, akmeologik kabi asosiy taraqqiyot yo‘nalishlaridan iborat [66] (1.2-rasmga qarang):



1.2-расм. Pedagogika fani rivojining asosiy taraqqiyot yo‘nalishlari

Zamonaviy sharoitda pedagogikaning asosiy vazifalari inson turmush tarzining barcha yo‘nalishlari(ijtimoiy, shaxsiy, siyosiy va boshqalari)da samarali pedagogik tizimlarni yaratishga yo‘naltirilgan. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

ta’lim-tarbiya, ta’limiy va tarbiyaviy tizimlarni boshqarish sohasiga doir qonuniyatlarni aniqlash va o‘rganish;

pedagogik tajribani o‘rganish va joriy etish;

ta’lim tizimlarining istiqboldagi rivojlanishini tashxis etish;

ta’lim-tarbiyaning yangi shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish;

pedagogik tadqiqot natijalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

xalqaro pedagogik loyihalarda ishtirok etish, axborotlar almashish, pedagogik yo‘nalishga doir xalqaro tajribalarni o‘rganish;

pedagogik muasssalarning barqaror tizimini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish [66].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4884-son Qarorida 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab pedagogik tayyorgarlik modullarga quyidagicha e’tibor qaratilgan:

oliy ta’lim tashkilotlarining pedagogik bo‘lmagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalari uchun ixtiyoriy ravishda o‘zlashtiriladigan pedagogik tayyorgarlik modullarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish;

pedagogik tayyorgarlik modullarining mazmuni va hajmiga qo`yiladigan talablarni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishish [3].

Ta’lim jarayonida pedagogika fanlarining ahamiyatini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

o‘qitish metodikalarini ishlab chiqish;

pedagogik jarayonlar tadqiq qilish;

pedagogik nazariyalarni rivojlantirish;

pedagogik amaliyotni qo‘llab-quvvatlash [62].

“Pedagogika” fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi va asosiy kategoriyalari

Hozirgi vaqtda “pedagogika” tushunchasi pedagogik fanlarning butun tizimini anglatadi. Pedagogika fanlari tizimi turli adabiyotlarda turlicha tasniflari keltirilgan.

1. *Umumiy pedagogika* – bu ta’limning asosiy qonuniyatlarini o‘rganadigan, barcha turdagi ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining umumiy asoslarini ishlab chiqadigan asosiy fan. U quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1) pedagogik faoliyatga kirish (kasbiy pedagogik faoliyatning mohiyatini, uning muammolari, vazifalari, xarakterli xususiyatlarini o‘rganadi);

2) pedagogikaning umumiy asoslari (talabalarning yosh xususiyatlaridan, pedagogik qoidalar va tamoyillardan qat’iy nazar, pedagogikaning kategorik apparati, pedagogik qonunlar va asosiylarni o‘rganadi);

3) ta’lim nazariyasi (tarbiyaviy ish sohalarida maxsus tashkil etilgan ta’lim jarayonini o‘rganadi);

4) didaktika (ta’lim-tarbiya jarayonini o‘rganadi, asosan bilimlarni o‘qitish va o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, turli xil o‘quv mashg‘ulotlarining ta’lim imkoniyatlari);

5) menejment nazariyasi.

2. *Yosh davrlar pedagogikasi* turli yosh bosqichlarida inson tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Yosh xususiyatlariga qarab quyidagilar mavjud:

1) *perinatal pedagogika* (yosh davrlar pedagogikasi, uning shakllanishi va rivojlanishi, bolalarni tug‘ilishidan oldin o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini o‘rganadigan bo‘lim);

2) *yasli pedagogikasi* (chaqaloqlarni tarbiyalash shartlarini o‘rganadi);

3) *maktabgacha pedagogika* (maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, shaxsini shakllantirish qonuniyatlarini o‘rganadi. Maktabgacha pedagogika sohalariga maktabgacha ta’lim didaktikasi, maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning xalqaro standartlari, maktabgacha ta’lim va ta’lim sohasida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash nazariyasi va amaliyoti kiradi);

4) *maktab pedagogikasi* (maktab yoshidagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari, tamoyillari, usullari, shakllari va vositalarini ishlab chiqadi. Maktab pedagogikasiga quyidagilar kiradi: boshlang‘ich maktab pedagogikasi, o‘rta maktab yoshidagi pedagogika, katta maktab yoshidagi pedagogika);

5) *kasb-hunar ta’limi pedagogikasi* (malakali ishchilarni tayyorlash qonuniyatlarini o‘rganadi);

6) *o‘rta maxsus ta’lim pedagogikasi* (maxsus ta’limning o‘rta va yuqori darajalari chegarasida kasbiy tayyorgarlik nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi);

7) *oliy maktab pedagogikasi* (kelajakdagi yuqori malakali mutaxassislarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini o‘rganadi);

8) *androgogika* (kattalarni tarbiyalash, rivojlantirish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi);

9) *uchinchi avlod pedagogikasi* (pensiya yoshidagi odamlarni o‘qitish, rivojlantirish, tarbiyalash tizimini ishlab chiqadi).

3. *Maxsus pedagogika* jismonan va aqlan rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta’lim-tarbiyasining shakl va vositalari, tamoyillari, metodlari va vositalari, nazariy asoslarini ishlab chiqadi. Maxsus pedagogika defektalogiya va korreksion pedagogika deb ham nomlash mumkin. Quyidagi bo‘limlardan iborat:

1) *surdopedagogika* (kar-soqov bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi. U bir qator ilmiy fanlardan iborat: surdopedagogika nazariyasi, surdopedagogika tarixi, labdan, yuzdan o‘qish va talaffuzni o‘rgatish metodikasi, akupediya va b.);

2) *tiflopedagogika* (ko‘zi ojiz bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi: ko‘zi ojiz bolalarni har tomonlama rivojlanishini rivojlantirish, ularning to‘liq yoki qisman ko‘rish qobiliyatini yo‘qotishlarini bartaraf etish, ularni umumiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, jamoat hayotida va amaliy ishlarda ishtirok yetishga tayyorgarlik ko‘rish);

3) *oligofrenopedagogika* (aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o‘qitish qoidalarini rivojlantiradi. Uning mazmuni: bolalarda aqliy zaiflikning mohiyati haqidagi ta’limot, g‘ayritabiiy bolaning xususiyatlarini pedagogik va psixologik o‘rganish usullari va vositalari; aqli zaif bolani o‘qitish nazariyasi);

4) *logopediya* (nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish masalalarini o‘rganadi, nutq kamchiliklarining namoyon bo‘lishi va tabiatini, nutqni rivojlantirishdagi og‘ishlarning sabablari va mexanizmlarini o‘rganadi, ularni bartaraf etish tamoyillari va usullarini ishlab chiqadi) [34].

4. *Kasbiy pedagogika* – muayyan kasbiy faoliyat sohasiga yo‘naltirilgan shaxsni tarbiyalash va o‘qitish tamoyillari, texnologiyalari, qoidalarni ishlab chiqadi, nazariy asoslashni amalga oshiradi. Kasbiy sohaga qarab quyidagi bo‘limlar ajratiladi:

1) *sanoat pedagogikasi* (ishchilarni tayyorlash, ularni yangi ishlab chiqarish vositalariga yo‘naltirish, ularning malakasini oshirish, yangi kasblarga qayta tayyorlash qonuniyatlarini o‘rganadi. Pedagogik bilimlarning ushbu sohasidagi rivojlanish zarurati ham moddiy, ham ma’naviy ishlab chiqarishni rivojlantirishning obyektiv qonuniyatlari bilan belgilanadi. Ilm-fan institutlar, markazlar, qayta tayyorlash kurslari va malaka oshirish tarmoqlarini nazariy asoslar va didaktik vositalarni ishlab chiqish bilan ta’minlaydi);

2) *harbiy pedagogika* (barcha darajadagi harbiy xizmatchilarni tayyorlash va o‘qitish tamoyillari, usullari, shakllarini ishlab chiqadi, qoidalarni aniqlaydi, nazariy asoslaydi. Harbiy pedagogika elementlari maktablar va oliy ta’lim tizimida mavjud);

3) *tibbiy pedagogika* (sog‘liqni saqlash muassasalarida tibbiyot xodimlarini tayyorlash va o‘qitish tamoyillari, usullari, shakllarini ishlab chiqadi, qoidalarni aniqlaydi).

Kasbiy pedagogikaning muhandislik va sport pedagogikasi kabi bo‘limlari ham mavjud.

5. *Ijtimoiy pedagogika* bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida ijtimoiy tarbiya qonuniyatlarini o‘rganadi, bolalar va kattalarning maktabdan tashqari ta’lim sohasidagi nazariy va amaliy ishlanmalarni o‘z ichiga oladi.

6. *Davolash pedagogikasi* zaif va kasal maktab o‘quvchilari bo‘lgan o‘qituvchilarning o‘quv va tarbiyaviy faoliyati tizimini ishlab chiqadi. Bu tibbiy va pedagogik fanlarning integratsiyasi.

7. *Gender pedagogikasi* bolalarga maktabda o‘zlarini qulay his qilishlari va sotsializatsiya muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradigan yondashuvlar to‘plamini o‘rganadi, ularning muhim tarkibiy qismi bolani o‘g‘il yoki qiz sifatida o‘zini-o‘zi aniqlashdir. Gender pedagogikaning maqsadi gender stereotiplarining ta’sirini individual shaxsiy moyilliklarning namoyon bo‘lishi va rivojlanishi foydasiga tuzatishdan iborat.

8. *Etnopedagogika* xalq, etnik ta’limning qonuniyatlari va xususiyatlarini o‘rganadi, pedagogikaning usullari va manbalaridan foydalanadi, lekin shu bilan birga etnografik, etnolingvistik, arxeologik, etnopsixologik va sotsiologik usullardan foydalanish dolzarbdir. Etnopedagogikaning maqsadi ko‘p millatli davlatga qo‘shilish jarayonida ona tilini, o‘ziga xos xalq madaniyatini va etnik o‘ziga xosligini yo‘qotish xavfiga duch kelgan alohida etnik guruhlar vakillarining ta’lim manfaatlarini hisobga olishdir.

9. *Oila pedagogikasi* oilada bolalarni tarbiyalash qonuniyatlarini ishlab chiqadi.

10. *Qiyosiy pedagogika* turli mamlakatlarda ta’lim tizimlari, o‘xshashlik va farqlarni taqqoslashni o‘rganadi.

11. *Axloq tuzatish pedagogikasi* qamoqda bo‘lgan shaxslarni qayta tarbiyalash amaliyotining nazariy asoslarini o‘rganadi. Axloq tuzatish pedagogikasining yana bir nomi penitensiar pedagogika yoki penitensiar muassasalar pedagogikasi mavjud. Ushbu fanning bolalar va kattalar tarmoqlari mavjud.

12. *Turli fanlarni o‘qitish metodikalari* muayyan fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos qoidalarini o‘z ichiga oladi, texnologik vositalarni to‘playdi.

Amaliyotda pedagogika fanlar majmuini quyidagicha tasniflangan (1.1-jadvalga qarang) [44]:


1.1-jadval.

Pedagogika fanlar majmui

Pedagogika tarixi va nazariyasi	**Maxsus pedagogika**	**Yosh davrlar pedagogikasi**	**Uslubiyat**
Pedagogika tarixi	Ijtimoiy pedagogika	Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi	Kasb-hunar ta’limi uslubiyati
Umumiy pedagogika	Surdopedagogika	Oliy ta’lim pedagogikasi	Oliy ta’lim uslubiyati
Ta’lim falsafasi	Tiflopedagogika	Malaka oshirish pedagogikasi	Malaka oshirish uslubiyati
Raqamli pedagogika / Elektron pedagogika	Oligofrenopedagogika	Oila pedagogikasi	Maxsus ta’lim uslubiyati
Kiber pedagogika	Logopediya	Maktabgacha tarbiya pedagogikasi	Umumiy ta’lim uslubiyati
			Maktabgacha ta’lim uslubiyati

Fanlar integratsiyasi jarayonida paydo bo‘lgan pedagogikaning zamonaviy tarmoqlari: “Pedagogik aksiologiya”, “Pedagogik akmeologiya”, “Pedagogik riskologiya”, “Pedagogik kvalimetriya”, “Neyropedagogika”, “Badiiy pedagogika”, “Musiqiy pedagogika”, “Teatr pedagogikasi”, “Muzey pedagogikasi”, “Tibbiy pedagogika”, “Virtual pedagogika” [66], “Pedagogika va ta’limning shakllanishi va rivojlanishi” va “Sohaviy pedagogika” [63]. Biz tomonimizdan yuqorida qayd etilgan pedagogika fanlari turkumi umumlashtirildi (1.3-rasmga qarang).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi PF-6108-son Farmonida fanlararo



1.3-rasm. Pedagogika fanlari tarmoqlari

o‘zaro aloqadorlik va sinflar kesimida davriylikka to‘liq rioya qilgan holda o‘quv dasturlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash masalalari ko`rsatilgan.

O’quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta’lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta’sir ko’rsatib, ta’limni modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytiradi. Integratsiya jarayonini o'rganishda didaktik olim Yan Amos Komenskiy quyidagi fikrlarni bildirgan: “Bir-biri bilan bog’liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak”. Fanlararo bog’liqlik g’oyasiga keyinchalik juda ko‘p pedagoglar yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g’oyasiga ko'ra: “Ta’lim mazmuning aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak”. Xuddi shuningdek, I.V.Pestalossi o'zining didaktik maqolasida o'quv darsliklaridagi fanlararo bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: “Bir-biri bilan bog’liq fanlarni ongingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla” - deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi, hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Fanlararo aloqa va integratsiyaning OTMlarda o‘qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko‘p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Jumladan, I.D.Zvernov, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranov, N.M.Skatkin; metodist olimlar M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Yu.M.Kolyagina, G.N.Pristupa va boshqalar. Bir qator olimlar T.L.Ramzayev, G.N.Akvilev, N.YA.Vinelkin, G.V.Beltyukovlarning ilmiy ishlari boshlang'ich fanlararo va fanlar ichidagi bog'liqliklar muammosiga bag'ishlangan. Fanlarni integratsiya qilib dars o’tilganda quyidagilarga e`tibor berish kerak:

har bir dars muayyan maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi kerak;

fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo’shimcha material o’tiladigan mavzu bilan bog’lanishi shart;

fan o’quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo’llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta`limiy bo’lib qolmasdan, o’quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo’lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga

ishonch va e’tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo’lishi kerak. Bu esa o‘quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo’lishi kerak. Boshlang’ich bosqich o‘qituvchisiga integrirlangan darslarga o‘tish oson, chunki bir o`zi hamma fanlarni o‘qitadi [77].

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ko‘rib chiqib, quyidagilarni ta’kidlash lozim:

pedagogik bilimlar tizimini biron bir fandan olish mumkin emas;

pedagogik nazariya va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun boshqa fanlardan ma’lumotlar kerak;

bir xil ma’lumotlar turli maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin;

pedagogika pedagogik jarayonni to‘liq bilish va uni maqbul tashkil etishning turli usullarini ishlab chiqish uchun boshqa fanlarning ma’lumotlarini qayta ishlaydi [35].

Pedagogika mavzu, bob, modul, metod, rejalar, tushunchalar asosida fanlararo va integrativ aloqadorligi kuzatiladi. Pedagogikaning fanlararo bog`lanishi majburiy va tanlov fanlari bilan quyidagicha amalga oshiriladi (1.4-rasmga qarang):




1.4-rasm. Fanlararo bog`lanishlar

Pedagogikaning integrativ bog`lanishi esa pedagogika turkum fanlari bilan amalga oshiriladi. Ya’ni “Maxsus pedagogika”, “Elektron pedagogika”, “Pedagogika

tarixi va nazariyasi”, “Yosh davrlar pedagogikasi”, “Kasbiy pedagogika” va boshqa pedagogika fanlari bilan integratsiyalashadi.

Aksariyat pedagogik muammolarni o‘rganish fanlararo yondashuvni, boshqa gumanitar fanlarning ma’lumotlarini talab qiladi, ular birgalikda o‘rganilayotgan obyekt haqida eng to‘liq bilimlarni beradi (1.5-rasmga qarang):



1.5-rasm. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Oliy ta’limda “Xorijiy til va adabiyoti” yo`nalishi bo`yicha “Umumiy padagogika” fani majburiy va tanlov fanlari bilan fanlararo bog`lanadi. Quyidagi rasmda “Umumiy padagogika” fanining tanlov fanlari bilan fanlaro aloqadorligi ko`rsatilgan (1.6-rasmga qarang):

O`zbekiston-ning eng yangi tarixi	O`zbek/rus tili	Ta’limda axborot texnologiyalari	Tilshunoslik	Adabiyotshunoslik
Jismoniy tarbiya va sport	Og`zaki nutq amaloyoti	O`qish va yozish amaliyoti	Amaliy fonetika	Amaliy grammatika

1.6-rasm. “Umumiy padagogika” fanining tanlov fanlari bilan fanlaro aloqadorligi

Pedagogika fanining taraqqiyotiga ta’sir etuvchi ayrim jihatlar quyidagilardan iborat:

matematik-statistik, biopsixologik va gnoseologik-semasiologik fanlari natijalaridan keng foydalanish asosida pedagogikaning boshqa insonshunoslik fanlari bilan mustahkam aloqalarini o‘rnatish va ilmiy bilimlarning integratsion jarayonini chuqurlashtirish;

dunyoni pedagogik anglashning nazariy-fundamental doirasini kengaytirish, ya’ni fanning ilmiy maqomi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish uchun nazariyadan amaliyotga tomon harakatlanish kerak;

pedagogik fanlar taraqqiyotini ta’minlashda matematik-statistik va semantik-semasiologik axborot manbalaridan tizimli foydalanish;

ijtimoiy xulq-atvor meyorlarini optimallashtirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini boshqarishda pedagogik jarayonni axborotlashtirishga alohida e’tibor qaratish;

pedagogika o‘z rivojining individual trayektoriyasini saqlab qolishi hamda boshqa fanlarning tushuncha va kategoriyalaridan o‘rinsiz foydalanish hisobiga uning tushunarsiz va murakkablashuviga olib kelmaslik;

global planetar muammolarni hal etish uchun shaxslararo, millatlararo va davlatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirish va ahloqiy meyorlarning to‘liq ta’minlanishiga doir ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish [66].

Kategoriya – yunoncha kategoriya “ko‘rsatma”, “dalil”, “tushuncha” degan ma’nolarni anglatib, pedagogikada pedagogik jarayonlar xususiyatlari, mazmun-mohiyatini, shaxs va jamiyat, shaxs va guruh, shaxs va jamoa o‘rtasidagi, ta’lim va tarbiya, ma’naviy-axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va h. munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Kategoriyalar bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo‘ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqni, tevarak-atrofni, ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni o‘rganadi [48].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida kategoriya (yun. kategoriya – ayblash, ta’na qilish) quyidagi ma’nolarni bildiradi:

1. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlari va aloqalarini ifodalovchi umumiy tushuncha. Masalan, zamon kategoriyasi, sababiyat kategoriyasi.

2. Muayyan belgilarning umumiyligi bilan birlashgan narsa, hodisa, shaxslar turi, turkumi, guruhi, daraja.

3. Ilmiy terminologiyada: predmet turlari yoki ularning umumiy belgilarini bildiuvchi tushuncha [80].

Falsafa qomusiy lug‘atida kategoriyalar (yun. kategoriya – belgi, izohlash) – falsafiy tafakkur uchun nihoyatda muhim, olamdagi o‘zgarish, rivojlanish, aloqadorlik va uzviy bog‘liqlikka xos umumiy jihatlarning in’ikosi; narsa va hodisalarning o‘ziga xosligi, o‘xshashligi va farqlarini, barqarorligi va o‘zgarishini anglatuvchi, bilishning asosini tashkil etuvchi eng umumiy tushunchalar. Ma’lumki, har bir fan ikkinchi fandan o‘zining tadqiqot obyektining xususiyatiga, unda ishlatilayotgan tizimining o‘ziga xosligiga qarab farqlanadi. Tushunchalar tizimi esa har bir fanning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini ko‘rsatadi [74].

Ilmiy kategoriyalar – bu ilmiy tafakkurning shakllari va tashkiliy tamoyillarini ifodalovchi eng umumiy, fundamental tushunchalar. Ilmiy kategoriyalar tizimi yoki kategorik tuzilish – bu ilmiy fikrlashning asosiy tushunchalari tarmog‘i, ularning barqaror konfiguratsiyasi va o‘zaro bog‘liqligi, unda ba’zi elementlarning o‘zgarishi boshqalarning o‘zgarishiga olib keladi [69]. Asosiy pedagogik kategoriyalarga quyidagilar kiradi: ta’lim, o‘qitish, tarbiyalash, rivojlanish, sotsializatsiya, pedagogik tizim, o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat, pedagogik o‘zaro ta’sir, pedagogik vazifa, ta’lim texnologiyasi [72] (1.7-rasmga qarang):



1.7-rasm. Pedagogika kategoriyalari

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga ta’lim, tarbiya, bilim, ko`nikma, malaka, ma’lumot, mahorat, shaxs, rivojlanish, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, bilish, o`rgatish, ta’lim-tarbiya metodlari, prinsiplari va boshqalar kiradi (1.8-rasmga qarang):



1.8-rasm. Pedagogika kategoriyalari

Pedagogika kategoriyalarini quyidagicha tasniflaymiz:

nazariy kategoriyalari;

empirik kategoriyalari;

tarixiy kategoriyalar;

fanlararo kategoriyalar;

integrativ kategoriyalar;

sohalararo kategoriyalar;

umumiste’moldagi kategoriyalar.

Nazariy kategoriyalarga shaxs, faoliyat, pedagogik muhit, pedagogik tizimlar kiradi. Empirik kategoriyalar bilim, ko‘nikma, malaka, tarbiyalash, rivojlanish, ijtimoiylashuv, ta’lim texnologiyasidan iborat. Tarixiy kategoriyalarga usuli savtiya, muallim, dorilfunun, tolibi ilm, falakiyot kabilarni kiritish mumkin. Fanlararo kategoriyalar ta’lim (“Falsafa”, “Pedagogika”, “Psixologiya”, “Tarix”), shaxs (“Falsafa”, “Pedagogika”, “Psixologiya”), faoliyat (“Pedagogika”, “Psixologiya”),

o‘qitish (“Pedagogika”, “Psixologiya”, “Metodika”) va boshqalar hisoblanadi. Integrativ kategoriyalar – bu pedagogika turkum fanlari hamda modullari kategoriyalaridir. Masalan, ta’lim, tarbiya, shaxs, o‘yin, o‘qitish kabi kategoriyalari “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Umumiy pedagogika”, “Bolalar pedagogikasi”, “Maxsus pedagogika” va boshqa pedagogika fanlarida mavjud. Sohalararo kategoriyalar o‘z nomi bilan aniqlab turibdi, turli sohalarda qo‘llanilib kelayotgan kategoriyalar tushuniladi. Masalan, ma’lumot, mahorat, faoliyat kategoriyalari – tibbiyot, texnika, san’at sohalarida qo‘llaniladi. Umumiste’moldagi kategoriyalar – kundalik hayotimizda ishlatilib kelayotgan pedagogik kategoriyalarni ifodalaydi. Ya’ni, bilim, o‘qitish o‘quv jarayoni, tarbiya, ta’lim kabilar.

Pedagogika turkum fanlarining rivojlanishi, tarmoqlarining orttishi natijasida kategoriyalar ham shakllanishi kuzatiladi. Ular quyidagicha shakllanadi:

bir kategoriyadan boshqa kategoriyalarining mazmunan shakllanishi;

o‘zlashtirma kategoriyalar;

so‘z birikmali kategoriyalar.

Bir kategoriyadan boshqa kategoriyalarining mazmunan shakllanishiga quyidagi misollarni keltiramiz:

shaxs kategoriyasidan o‘quvchi, o‘qituvchi, talaba, jamiyat a’zosi, fuqaro, rahbar, tarbiyalanuvchi, ta’lim oluvchi, ijtimoiy xodim va b.;

mahorat kategoriyasidan pedagogik mahorat, kasbiy mahorat va b.;

faoliyat kategoriyasidan pedagogik faoliyat, o‘yin faoliyati, o‘qish faoliyati, mehnat faoliyati, ijodiy faoliyat, amaliy faoliyat va b.;

muhit kategoriyasidan pedagogik muhit, ijtimoiy muhit, tabiiy muhit, o‘quvchilar muhiti, o‘qituvchilar muhiti va b.

O‘zlashtirma kategoriyalar innovatsiya, modernizatsiya, ta’lim menejmenti, kreativlik, kompetensiya, sotsium, blended learning, case study, вебинар дарслар, модератор, тьютор, супервайзер, фасилитация, ассесмент технологиялари kabilar inobatga olingan.

So‘z birikmali kategoriyalarga o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat, ta’lim texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar, ta’lim menejmenti, pedagogik mahorat,

kasbiy bilim, pedagogik tizim, pedagogik vazifa, ta’lim tamoyillari, tarbiya tamoyillari, ta’lim shakllari, tarbiya turlari va boshqalar kiritiladi.

O‘quv adabiyotlari tahlili asosida har bir fanning kategoriyalari umumiy xususiyat bilan birga xususiy xususiyatni anglatadi. Pedagogikada ham kategoriyalarning umumiy va xususiy xususiyatlari mavjud. Masalan, ta’lim kategoriyasini ko`rib chiqamiz (1.2-jadvalga qarang):

1.2-jadval.

“TA’LIM” kategoriyasining umumiy va xususiy xususiyatlari

Kategoriyaning umumiy xususiyatlari	Fan / soha	Kategoriyaning xususiy xususiyatlari
TA’LIM – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o‘tkaziladigan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o‘stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir	Surdopedagogika	**TA’LIM** – kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib, maxsus o‘quv-tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarini tashkil etish tartib-qoidalarini ishlab chiqadi
	Oligofrenopedagogika	**TA’LIM** – aqliy zaif bolalarni o‘qitish masalalarini ishlab chiqadi
	Tiflopedagogika	**TA’LIM** – ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalarni o‘qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiqadi

«Umumiy pedagogika» fani quyidagi modullari bo`yicha kategoriyalarni tahlil qilamiz (1.3-jadvalga qarang):

1.3-jadval.

«Umumiy pedagogika» modullari kategoriyalari

Modul	Modul nomlari	Modul kategoriyalari
1-modul	Umumiy pedagogika – ta’lim-tarbiya nazariyasi	pedagogika, pedagogika tarmoqlari, bilim, ko‘nikma, malaka, pedagogik tizim, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari, ta’lim tizimi, modernizatsiya, pedagog xodim, ta’lim menejmenti
2-modul	Tarbiya nazariyasi	tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiya turlari, tarbiya metodlari, tarbiya maqsadi, tarbiya tamoyillari
3-modul	Ta’lim nazariyasi	ta’lim, ta’lim jarayoni, bilim olish, dars, o‘quv fani, ta’lim tamoyillari, ta’lim turlari, ta’lim shakli, ta’lim metodlari
4-modul	Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi	ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy adaptasiya, sotsium, ijtimoiy himoya qilish, yetim bola, jismoniy nuqson, aqliy nuqson, ruhiy nuqson

5-modul	Pedagogik korreksiya	pedagogik diagnostika, tarkibiy diagnostika, tuzilmaviy diagnostika, tizimli diagnostika, korreksiya, kompensatsiya, oilaviy tarbiya, reabilitasiya, inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar
6-modul	Deviatsiya konsepsiyasi	deviatsiya, reabilitatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, zamonaviy profilaktika, shaxsiy profilaktika, jamoat profilaktika, tibbiy profilaktika
7-modul	Pedagogik kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat	pedagogik mahorat, kasbiy bilim, pedagogik tizim, pedagogik vazifa, kompetensiya
8-modul	Ta’lim innovatsiyalari	novatsiya, innovatsiya, ta’lim texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta’lim, innovatsion ta’lim, interfaol ta’lim, an’anaviy ta’lim, pedagogik texnologiya tamoyillari, innovatsion faoliyat
9-modul	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari	innovatsion ta’lim, hamkorlik ta’limi, interfaol ta’lim, masofaviy ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha ta’limi, kompyuter ta’limi, rivojlantiruvchi ta’lim, tabaqalashtirilgan ta’lim, modul ta’limi, individual ta’lim, mustaqil ta’lim, dasturiy ta’lim, o‘yin texnologiyalari
10-modul	Kreativ fikrlash pedagogikasi	kreativlik, ijodiy yo‘nalganlik, eruditsiya, refleksiya, tabaqalashtirish, davrlashtirish, kreativ sifat
11-modul	Ilg‘or xorijiy tajribalar	modulli kredit tizimi, blended learning, case study, vebinar darslari, evristik metodlar, mahorat darslari, masofali o`qitish, moderator, tyutor, supervayzer, fasilitatsiya, assesment texnologiyalari, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fanining kategoriyalarini o‘rganish fanning muhim xususiyatlari va aloqalarini ifodalashga imkon beradi. O`quv jarayonida quyidagi takliflarga e’tibor berish lozim:

pedagogika kategoriyalarining mazmun-mohiyatini anglash;

pedagogika kategoriyalari tasniflaridan foydalanish;

yangi pedagogika kategoriyalarini topish va yaratish.

Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shartsharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada

o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo’lgan jarayon bo’lib, uning samarali bo’lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;

2) ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;

3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;

4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;

5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;

6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o‘tish;

7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi [24].

Pedagogik ilmiy tadqiqot – bu yangi pedagogik bilimlarni shakllantirish jarayoni, ta’lim va rivojlanishning obyektiv qonuniyatlarini kashf etishga qaratilgan kognitiv faoliyat turi. Pedagogik tadqiqotlarning uchta darajasi mavjud: 1) empirik – pedagogika fanida yangi faktlar o‘rnatiladi; 2) nazariy – ilgari kashf etilgan faktlarni tushuntirish va ularning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilishga imkon beradigan asosiy, umumiy pedagogik qonunlarni ilgari suradi va shakllantiradi; 3) uslubiy – empirik va nazariy tadqiqotlar asosida, umumiy tamoyillar va pedagogik hodisalarni o‘rganish usullari [36].

Hozirda asosan mavjud bo’lgan pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari quyidagilarni tashkil etadi (1.9-rasmga qarang):



1.9-rasm. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari

Shuningdek, pedagogikada ilmiy tadqiqot metodlari quyidagicha tasniflanadi:

nazariy. Analiz, taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish, induksiya va deduksiya;

empirik. So'rovnoma, suhbat, anketa, test, kuzatish asosida haqiqiy pedagogik tajribani o'rganish;

matematik yoki statistik. Ular olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va uni miqdoriy ko'rsatkichlarda aks ettirish uchun ishlatiladim [55].

Pedagogikada sifatli tadqiqot metodlari. Pedagogika fanida yuqori sifatli tadqiqot metodlaridan foydalanish mumkin. Sifatli metodlar ijtimoiy voqelikni, shu jumladan pedagogik amaliyotni tabiiy muhit sharoitida tushunish va talqin qilishga qaratilgan. Sifatli tadqiqot metodlari intervyular, fokus-guruhlar, jarayon ishtirokchilarining xatti-harakatlarini kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish va boshqalarni qo'llashni o'z ichiga olishi mumkin. Ular pedagogik hodisalar, jarayonlar va ularning pedagogik jarayon ishtirokchilariga ta'siri to'g'risida batafsil va chuqur ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlardan yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, mavjud nazariyalar, modellarni ishlab chiqish va ta'limni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun foydalanish mumkin [55].

Pedagogikada nazariy tadqiqot metodlari. Nazariy metodlar adabiyotni o'rganish bilan bog'liq bo'lib, ular muammoni aniqlashga, gipotezani shakllantirishga, to'plangan axborot manbalarini baholashga va mantiqiy tuzishga yordam beradi. Adabiyot bilan

ishlashda yozuvlar, izohlar, iqtiboslar, referatlar, tarjimai hollar tuzish kabi amaliyotlardan foydalaniladi [55].

Pedagogik tadqiqotning empirik metodlari. Yunon tilidan tarjima qilingan "empeirikos" sezgi organlari yordamida qabul qilingan "tajribadan olingan" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun empirik metodlar guruhiga pedagogik tajribaga asoslangan metodlar kiradi. Ya'ni, haqiqiy faktlarga asoslangan. Bu tajriba, kuzatish, suhbat, reyting, sinov va b. Pedagogik tadqiqot metodi sifatida kuzatish keyingi tahlil va umumlashtirish uchun odamlarning xatti-harakatlarini, ularning tajribalarini, holatlarini idrok etishga asoslangan ma'lumotlarni olishga tayanadi. Kuzatuvning muntazamligiga qarab quyidagilar ajratiladi:

davriy kuzatish – ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshiriladi;

tasodifiy kuzatish – rejalashtirilmagan (1.4-jadvalga qarang):

1.4-jadval.

Kuzatish turlari

Kuzatuvning muntazamligiga ko`ra	**Tadqiqotchi va kuzatilgan obyektning o'zaro ta'sir turiga ko`ra**	**Eksperimentatorning pozitsiyasiga ko`ra**
davriy kuzatish – ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshiriladi	to'g'ridan-to'g'ri kuzatish – jarayon to'g'ridan-to'g'ri tadqiqotchi tomonidan o'rganiladi	neytral kuzatish
tasodifiy kuzatish – rejalashtirilmagan	bilvosita kuzatish – u jarayonning xususiyatlari haqida uchinchi shaxslar orqali bilib oladi	tadqiqotchi-ta'lim yoki ta'lim muassasasi rahbari
		jarayonning haqiqiy ishtirokchisi tadqiqotchi rolini o'ynaydi

Tadqiqotchi va kuzatilgan o'zaro ta'sir turiga asoslanib, quyidagilar mavjud:

to'g'ridan-to'g'ri kuzatish – jarayon to'g'ridan-to'g'ri tadqiqotchi tomonidan o'rganiladi;

bilvosita kuzatish – u jarayonning xususiyatlari haqida uchinchi shaxslar orqali bilib oladi.

Eksperimentatorning pozitsiyasiga qarab quyidagilar ajratiladi:

neytral kuzatish;

tadqiqotchi-ta'lim yoki ta'lim muassasasi rahbari;

jarayonning haqiqiy ishtirokchisi tadqiqotchi rolini o'ynaydi.

Natijalarni qayd etish uchun quyidagi usullardan foydalaning: protokollar, kundaliklar, DVR, audio yozuvlar. Amaliyotda kuzatichning bir necha turlari mavjud *Diagnostik eksperiment.* Ushbu termin mavjud amaliyotni o'zgartirishga imkon beradigan qoidalarni tadqiqotchining pedagogik hodisaga aralashuvi jarayonini anglatadi. Tadqiqotning maqsadlari, vazifalari, predmeti va obyekti aniq o'ylangan, dasturi tuzilgan va kognitiv natijalari bashorat qilingan. Shundan keyin tadqiqotchi eksperimentni, uning bosqichlarini rejalashtiradi, eksperimental jarayondagi rolini va amaliyotga kiritilgan o'zgarishlarni aniqlaydi, pedagogik eksperimentga tashqi ta'sirlarning tabiatini baholaydi. Transformatsion eksperimentning natijasi bo'lishi mumkin: o'qitishning yangi metodi; pedagogik jarayonning samaradorligiga ta'sir qiluvchi shartlar ro'yxati; uslubiy tamoyillar; rivojlanish jarayonining modeli [55].

Diagnostik eksperiment metodlari tipologiyasi deganda – shaxsning bilim, koʻnikma, malaka, psixologik holati, rivojlanish darajasi yoki faoliyat natijalarini aniqlash uchun qoʻllaniladigan usullar tasnifi tushuniladi. Ularni bir necha mezonlarga koʻra ajratish mumkin (1.5-jadvalga qarang):

1.5-jadval.

Diagnostika metodlari tipologiyasi

Qoʻllanish maqsadiga koʻra	**Oʻlchov vositalariga koʻra**	**Tadqiqot shakliga koʻra**	**Vaqt omiliga koʻra**
Pedagogik diagnostika – oʻquvchining bilim, koʻnikma va malaka darajasini aniqlash	Subyektiv metodlar – shaxsning oʻzi yoki boshqalar fikri asosida baholash (suhbat, anketa, oʻzini baholash)	Individual diagnostika – bir shaxs faoliyatini chuqur oʻrganish	Bir martalik diagnostika – muayyan paytdagi holatni aniqlash
Psixologik diagnostika – shaxsning qobiliyatlari, temperament, xarakter, motivatsiyasini oʻrganish	Obyektiv metodlar – aniq mezon va standartlarga asoslangan baholash (testlar, eksperimental topshiriqlar, reyting)	Guruhiy diagnostika – sinf, jamoa yoki bir necha shaxsni birgalikda baholash	Dinamik diagnostika – vaqt davomida oʻzgarishlarni muntazam kuzatish
Kasbiy diagnostika – shaxsning kasbiy qobiliyatlari va layoqatini baholash			
Ijtimoiy diagnostika – guruhdagi munosabatlar, ijtimoiy faollik va kommunikativ sifatlarni aniqlash			

Suhbat va intervyu metodi. Muloqotga asoslangan pedagogik tadqiqotlarni o'tkazishda juda mashhur ilmiy va pedagogik metod. Tadqiqotchi va respondent o'rtasidagi aloqaning muvaffaqiyati suhbat o'tkaziladigan muhitga bog'liq. Suhbatdosh uchun qulay muhitni tanlash tavsiya etiladi. Agar u talaba bo'lsa, uni o'qituvchiga chaqirishning hojati yo'q, chunki u bunday aloqani so'roq qilish deb biladi. O'smir, kattalar singari, bu psixologik to'siqni yengib o'tolmaydi. So'rov eng yaxshi sinfda yoki unga tanish bo'lgan boshqa joyda o'tkaziladi. Suhbat odatda oldindan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq amalga oshiriladi. Pedagogik tadqiqotlar uchun rasmiy intervyu kabi so'rov metodi mos keladi. Bu anketadan deyarli farq qilmaydi. Faqatgina farq shundaki, tadqiqotchi javoblarni yozib oladi, shu bilan birga u suhbatdoshni kuzatib borish va uning tadqiqot mavzusiga bo'lgan munosabatini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa hukmlarni yaxshiroq talqin qilish imkonini beradi [55]. Suhbat metodi, intervyu metodi, anketa metodi, anketa-sorivnima metodlarining farqli va o`xshash jihatlari mavjud (1.6-jadvalga qarang):

1.6-jadval.

Suhbat metodi, intervyu metodi, anketa metodi, anketa-sorivnima metodlarining farqli va o`xshash jihatlari

Farqli xususiyatlari	**Suhbat metodi**	**Intervyu metodi**	**Anketa metodi**	**Anketa-so‘rovnoma metodi**
Mohiyati	Tadqiqotchi va respondent o‘rtasida bevosita muloqot bo‘ladi	Suhbatning tizimlashtirilgan, ilmiy tadqiqotga moslashtirilgan shakli	Oldindan yozma tarzda tuzilgan savollar yig‘indisiga respondent mustaqil javob beradi	Anketaning kengroq, batafsilroq shakli bo‘lib, respondentlarning fikrini, munosabatini, bahosini aniqlash uchun qo‘llaniladi
Xususiyatlari	Erkin yoki oldindan tayyorlangan savollar asosida olib boriladi	Oldindan ishlab chiqilgan savollar asosida rasmiy yoki norasmiy tarzda o‘tkaziladi	Odatda yozma ravishda, anonim bo‘lishi mumkin	Savollar turlicha (ochiq, yopiq, yarim ochiq) bo‘lishi mumkin. Ko‘proq ijtimoiy fikr, munosabat va bahoni o‘rganishga yo‘naltiriladi
Afzalligi	Javoblarning chuqurligi va izchil izoh olish imkoniyati mavjud	Ma’lumotlarni tizimli, solishtirish imkoniyati bilan yig‘adi	Ko‘plab odamlarni qisqa vaqtda qamrab olish imkonini beradıı	Ko‘p sonli respondentlardan tizimli va statistik jihatdan tahlil qilinadigan ma’lumot olish imkoniyati bor

Kamchiligi	Subyektivlik yuqori, ko‘proq vaqt talab qiladi	Tayyorlanish jarayoni ko‘p mehnat talab qiladi	Javoblar yuzaki yoki samimiy bo‘lmasligi mumkin, nazorat cheklangan	avoblarning haqqoniyligi kafolatlanmaydi, noto‘liq qaytarilish ehtimoli bor

Test metodi. Pedagogik amaliyotda ushbu metod o'zining afzalliklari tufayli keng qo'llaniladi: ishonchlilik, haqiqiylik, obyektivlik. Darhaqiqat, u to'liq bilimlarni qamrab oladi va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini tez, obyektiv va yetarli darajada baholashga imkon beradi [55]. Test tipologiyasi deganda testlarning maqsadiga, shakliga, mazmuniga va qo‘llanilish sohasiga ko‘ra turlarga ajratilishi tushuniladi. Ularni bir nechta asosiy mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin (1.7-jadvalga qarang):

1.7-jadval.

Test tipologiyasi

Maqsadiga ko‘ra testlar	**Tuzilishiga ko‘ra testlar**	**Javob turiga ko‘ra testlar**	**Qo‘llanilish sohasiga ko‘ra testlar**	**O‘tkazilish shakliga ko‘ra testlar**
Diagnostik test – bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini aniqlash uchun	**Yopiq test** – to‘g‘ri javob variantlari beriladi (masalan, tanlovli test)	**Tanlash testlari (multiple-choice)** – berilgan variantlardan to‘g‘ri javobni tanlash	**Pedagogik test** – o‘quvchilarning bilimini o‘lchash uchun	**An’anaviy test** – qog‘ozda, sinfda o‘tkaziladigan test
Nazorat (summativ) testi – o‘quv jarayonida erishilgan yakuniy natijani baholash uchun	**Ochiq test** – respondent mustaqil ravishda javob yozadi	**Moslashtirish testlari** – ikki ustundan to‘g‘ri juftliklarni topish	**Psixologik test** – shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘lchash uchun	**Kompyuter testi** – elektron shaklda
Formativ test – o‘quv jarayonida oraliq darajani aniqlash, o‘qitishni boshqarish uchun	**Aralash test** – ochiq va yopiq savollar kombinatsiyasi	**To‘ldirish testlari (gap-filling)** – matnda bo‘sh joylarni to‘ldirish	**Kasbiy (professional) test** – kasbiy malaka va ko‘nikmalarni aniqlash uchun	**Onlayn test** – internet orqali, masofadan turib
Prognoz (prognostik) testi – o‘quvchi yoki talabada kelajakdagi muvaffaqiyatni		**Tartiblash testlari** – ma’lum ketma-ketlikni to‘g‘ri joylashtirish	**Standartlashtirilgan test** – xalqaro yoki davlat miqyosida ishlab chiqilgan yagona mezon asosidagi test	

oldindan aniqlash uchun		**Qisqa javobli testlar** – qisqa yozma yoki raqamli javob berish		
		Haqiqat – yolg‘on (True/False) – berilgan gapning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash		

Anketa metodi. Anketa – bu ma'lum bir dastur bo'yicha savollar tuzilgan so'rovnoma varag'i. Ular ikki xil bo'lishi mumkin: ochiq va yopiq. Ochiq savollar respondentning bepul javobini taklif qiladi va yopiq savollar mavjud javob variantlarini taklif qiladi. Bu olingan ma'lumotlarni yanada chuqurroq qayta ishlashga, ma'lumotlarni turli sharoitlarda taqqoslashga, hukmlarning mazmunini aniqlashga imkon beradi [55].

Reyting metodi. Ilmiy pedagogik tadqiqotning ushbu metodi ekspert baholash metodi deb ham ataladi. Bu tajribali mutaxassislar tomonidan faoliyat tomonlarini baholashni nazarda tutadi. Ular pedagogikada tegishli bilim va tajribaga ega bo'lgan malakali xodimlar bo'lishi mumkin – obyektivlik, adolat, o'zini tanqid qilish kabi fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar [55]. Reyting turlari mavjud (1.10-rasmga qarang):



1.10-rasm. Reyting turlari

Mustaqil xususiyatlarni umumlashtirish metodi. Ushbu metod so'rovnomalar guruhini to'ldiradi va tadqiqot davomida boshqalar bilan bir qatorda qo'llaniladi. Bu o'rganilayotgan obyekt haqida turli xil ma'lumotlarni faol to'plash, tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat. Agar eksperimental ish talabalar bilan olib borilsa,

so'rovnomada ularni o'rab turgan shaxslar ishtirok etishi mumkin: o'qituvchilar, ota-onalar, ijodiy jamoalar rahbarlari, sport bo'limlari, tibbiyot mutaxassislari va boshqalar [55].

Diagnostika metodlari. "Pedagogik diagnostika" atamasi vazifalar to'plamiga asoslangan jarayonni anglatadi. Ular mavzuni, bilimlarni o'zlashtirishda, ko'nikmalarni egallashda qiyinchiliklarni aniqlashga va bunday hodisalarning sabablarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bunday metodlar o'quv jarayoni va talabalar rivojlanishidagi barcha o'zgarishlarni nazorat qilishga yordam beradi. Diagnostika metodlarining asosiy vazifasi har bir talabaning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maqbul sharoitlarni ta'minlashdir [55]. Diagnostika metodlari tipologiyasi deganda — shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka, psixologik holati, rivojlanish darajasi yoki faoliyat natijalarini aniqlash uchun qo‘llaniladigan usullar tasnifi tushuniladi. Ularni bir necha mezonlarga ko‘ra ajratish mumkin ():

Miqdoriy va sifatli tahlil metodlari. Taqdim etilgan metodlarning nomiga asoslanib, miqdoriy metodlar savollarga javob berishini tushunish mumkin: "qancha?, qanchalik tez-tez?, necha marta?, sifatli esa nima uchun?, qanday qilib?, nima uchun?». Miqdoriy tahlil ma'lumotlari asosida diagrammalar, grafikalar tuziladi va reytinglar aniqlanadi. Sifatli tahlil natijasida olingan ma'lumotlar sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. Metod hukmlarga, fikrlarga, sezgilarga tayanadi, shuning uchun naqshlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi [55].

“Umumiy pedagogika” fanining obyekti, predmeti va tuzilishi

Umumiy pedagogika fanining maqsadi quyidagilardan iborat:

respublikamizda komil insonni voyaga yetkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal etish;


ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;

umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

pedagogika – tarbiyashunoslik qoida-qonunlarini ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish va yangi ish shakllarini izlashga oid tadbirlar belgilash;

bo‘lajak o‘qituvchi va tarbiyachilarni voyaga yetkazish masalalarini tadbiq qilish; ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini bartaraf etish.

Umumiy pedagogikaning tuzilishi quyidagi modullardan iborat (1.11-rasmga qarang):



1.11-rasm. Umumiy pedagogikaning tuzilishi

Umumiy pedagogikaning obyekti – ta’lim-tarbiya jarayonini nazariy va metodologik hamda amaliy asosini ta’minlovchi fan emas, balki barkamol inson shakllanishi va rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya jarayonini o`z ichiga oladi. Umumiy pedagogikaning predmetini quyidagilar tashkil etadi (1.8-jadvalga qarang):

1.8-jadval.

Umumiy pedagogikaning predmeti

O`qitishning, ta’lim-tarbiyaning qonuniyatlarini o`rganish	**O`rganiladigan tushunchalar**	**O`rganiladigan asosiy g`oyalar**
Ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari bilan qurollantirish	Bilim	Insoniy fazilatlar
Fanning metodologik asoslarini o`rgatish	Ta’lim	Komil inson
Dunyoviy milliy ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg`unligi qonuniyatlarini o`ziga xos o`rganish	Tarbiya	Axloqiy sifatlar
Ta’lim-tarbiya to`g`risidagi g`oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirish sohalari, usul va yo`llarini, vositalarini o`rganish	Ma’lumot	Barkamol avlod
	Ko`nikma	Vatan ravnaqi
	Malaka	Odob-axloqqa o`rgatish
	O`qitish	
	Rivoglanish	
	Shaxs	
	Odob-axloq	

Ta’limda zamonaviy yondashuvlar

Biz tadqiqot muammosini ilmiy o‘rganish quyida keltirilgan zamonaviy yondashuvlarga asoslandik (1.12-rasmga qarang):



1.12-rasm. Ta’limning zamonaviy yondashuvlari

Gnoseologik yondashuv – ilmiy bilish tabiat, jamiyat va inson haqida tasdiqlangan bilimlarni yaratishga qaratilgan faoliyat turi sifatida tabiiy, ijtimoiy, ruhiy-ma’naviy jarayonlar mohiyati va qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, uni amalga oshirish uchun bir qancha maxsus tushunchalar, tamoyillar va tadqiqot usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Ilmiy bilishning asosiy maqsadi obyektiv haqiqatga erishish bo‘lib, bunda isbotlash, tasdiqlash, tadqiqot natijalarining asoslanganligi, xulosalarining ishonchli bo‘lishi ahamiyatlidir. Ilmiy bilish yangi g‘oyalar, tasavvurlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida inson va borliq voqealar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va ta’sir jarayonini o‘rganish obyekti sifatida talqin qiladi. Kreativ malakalar turkumidagi bilishga oid (gnostik) malakalar rivojlanishi tamoyillari ushbu yondashuvga asoslanadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining ilk davrlaridan boshlab to bugungi kungacha tabiat insonga voqealar, muammolar, o‘zgarishlar beradi. Mos ravishda rivojlanib boruvchi jarayon sifatida insonning bilish faoliyati voqealar, muammolar, o‘zgarishlar haqidagi tasavvurlarni, g‘oyalarni, konsepsiyalarni yaratadi va amalga oshiradi.

Tizimli yondashuv shaxsning tizimli shakllanishida kasb va bilim egallash faoliyatiga, kasbiy faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarga, kasb tanlashga qiziqish va ehtiyojlardan kelib chiqish zarurligini e’tirof etadi. Tizimli yondashuv vakillari tartiblangan, o‘zaro uzviy bog‘langan va birgalikda umumiy fuksiyani

bajarishga bo‘ysundirilgan alohida elementlarning bir butun ketma-ketligi tizim deb qarab, obyektiv borliqdagi barcha narsa, hodisalar, jarayonlar, faoliyat shakllari ham o‘ziga xos tizimlarni tashkil etishini ilmiy asoslab berishgan. Tizimli yondashuv tamoyilining o‘ziga xos, ancha murakkab qonun va qoidalari mavjud. Har qanday tizim ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo‘lib, ayni vaqtda o‘zi ham, o‘zidan yuqori pog‘onada turgan tizimga qism bo‘lib kiradi. Uning qismlari bir pog‘ona pastdagi tizimlar hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat bo‘ladi. Bu hodisa chekli va cheksiz bo‘lishi mumkin.

Tizimni tashkil qiluvchi qismlar deb faqat o‘zaro uzviy (funksional) aloqadorlikda bo‘lgan qismlarga aytiladi. Tizimni tashkil qiluvchi qismlarning bir xususiyati o‘zgarsa, shu tufayli boshqa qismlarning ham xususiyatlari o‘zgarishlarga uchrasa, u funksional aloqadorlik deyiladi. Tizim xususiyatlari faqat boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Har qanday tizim asosini aloqadorliklar tashkil qilib, ular o‘z asoslariga nisbatan tartibli va tartibsiz, harakatchan va statsionar, qarama-qarshi va ko‘p tomonlama, nuqtaviy, chiziqli, tiklanuvchan va tiklanmaydigan, oddiy va murakkab, determinlashgan, markazlashgan va markazlashmagan, bir yoki ko‘p pog‘onali hamda hokazo tarzda bo‘ladi. Kreativlikni tizimlar yondashuv doirasida tahlil qilishda o‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati tizimni hosil qilishi, bu tizim o‘z tarkibiga pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiyalarni, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar ham qamrab olishiga e’tibor qaratiladi. O‘qituvchining kreativ kompetensiyasi mana shu tizimning bir elementi sifatida faoliyat, mahorat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan o‘zaro funksional bog‘liq holda rivojlanadi. V.Morozov kreativlikni o‘qituvchi faoliyatida uni novatorlikka undovchi pedagogik kategoriya sifatida ko‘rsatib, kreativ kompetentlik va o‘qituvchining konstruktiv (loyihalash) faoliyatga oid malakalari shakllanishini, o‘qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni tuzish talablarini va uning eng maqbul variantini har bir dars mavzusiga bog‘liq holda loyihalashini tizimli yondashuv bilan bog‘lab tushuntiradi.

Texnologik yondashuv – ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etishda ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirilishini kafolatlash, ta’lim jarayonining mohiyati,

bosqichlari, o‘ziga xos xususiyatlari, talaba va pedagog o‘rtasida kechadigan ta’limiy munosabatlarning mazmuni, aniq maqsadga va ijtimoiy g‘oyaga asoslangan hamda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirishni ilgari suradi. Masalan, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish o‘qituvchilarining texnik-texnologik bilimlari majmuasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

asosiy texnologik tushunchalar: texnologiya, texnologik madaniyat, texnologik muhit, transformatsion faoliyat usullari, texnologik etika, texnologik estetikani bilish;

texnika va texnologiyani insonning intellektual, hissiy, aqliy va mehnat faoliyati natijasi sifatida tushunish;

ta’limga oid amaliy va istiqbolli texnologiyalar haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

kasbiy o‘z-o‘zini belgilash va shaxsni rivojlantirish texnologiyalarini bilish;

texnologik va ijtimoiy-gumanitar bilim sohalarining aloqadorligi va o‘zaro rivojlanishini tushunish;

texnikaning inson, tabiat va jamiyatga ijobiy va salbiy ta’sirini hamda sivilizatsiya mavjudligining sharti sifatida texnosferaning optimal rivojlanishi zarurligini asoslash;

texnologiyalarning iqtisodiy jihatlarini shaxsning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorligi ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashtirish.

Integrativ yondashuv olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o‘zaro aloqadorligiga asoslanib, ta’lim mazmunini integratsiyalash ya’ni o‘zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o‘quv predmetlari mazmunini sintezlash, ularni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirish, o‘rganilayotgan obyektlarning xususiyatlarini tizimlashtirishni nazarda tutadi. P.Drapeau, V.V.Moroz, N.V.Vishnyakova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida kreativlik – o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasi sifatida qaraladi va izchillikni ta’minlovchi (protsessual) malakalar shakllanishini tushuntirishda ushbu nazariy yondashuv asos sifatida olinadi. O‘qituvchining kreativ kompetentlik o‘quv materialini izchil va mantiqiy taqdim etish, ishonchli ma’lumotlar va ularning ketma-ketligini to‘g‘ri tanlash va bayon etish, aqliy operatsiyalarda taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya

va umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash va tizimga solish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion yondashuv asosida o‘qituvchining kreativ faoliyatida ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish jarayonlari tahlil etiladi. Innovatsion yondashuv pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni o‘ziga xosligini, pedagogik innovatsion faoliyatning namoyon bo‘lishida ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash; mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati; tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish; o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish; hamkasblar bilan hamkorlik; fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik; ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish; yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish” [92; 20-b.] kabi malakalarni shakllanishini tushuntiradi. Pedagoglarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy jarayoni: tashkil etish; hamkorlikda olib borish; takomillashtirish; tahlil qilish; qiyoslash; umumlashtirish; xulosa chiqarish; boshqarish; nazorat etish; baholashni ilmiy asoslashga yordam beradi.

Pedagogning yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi; pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; novatorlik darajasi; kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; ijodkorligi, ijodiy faollik; faoliyatga yangilik (o‘zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik; yangicha fikrlash; yuksak muommala madaniyati. innovatsion faoliyati innovatsion yondashuv tamoyillariga asoslanadi.

Individual-faoliyatli yondashuv kasbiy faoliyat sharoitlari bilan bog‘liq qobiliyatlarni shakllantirish muammosi, muhim kasbiy jihatlarning shakllanishida yuzaga keladigan psixologik o‘zgarishlar darajasi, shaxsning faoliyat borasidagi qiziqishlari, maqsadlari va faoliyat tizimi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati, talabaning faol o‘quv bilish faoliyati, pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati

asoslarini nazariy jihatdan tahlil qiladi. Kasbiy ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish malakalari, pedagogning kasbiy-shaxsiy axborot maydonini yaratish ko‘nikmalarini takomillashtirish mexanizmlari individual-faoliyatli yondashuv tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Kompetensiyali yondashuv tayyorlanayotgan kadrlarning sifatli mutaxassis bo‘lib yetishishiga qaratilgan, ta’lim mazmunining takomillashib borish bosqichida bo‘lg‘usi mutaxasislarning kasbiy ahamiyatli sifatlarini belgilab berishga xizmat qiladigan ta’limiy yondashuv bo‘lib, kreativ kompetentlikni tahlil qilishda asosiy yondashuv sifatida qaraladi.

Kompetensiya – mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin etilib, bu yondashuv vakillari o‘qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarni kompleks takomillashtirishning ikki guruhi:

1. Ijtimoiy mezonlar (ijtimoiy moslashuvchanlik, psixologik moslashuvchanlik, kommunikativ moslashuvchanlik);

2. Kasbiy-pedagogik mezonlar (pedagoglik kasbi va pedagogik faoliyatga ijobiy hissiy-baholovchi munosabat, kasbiy-axloqiy sifatlar, shaxsiy-pedagogik jihatdan o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy muhitni muvafaqqiyatli o‘zlashtirish, kasbiy muloqot uslubi, kasbiy-pedagogik malakalarni uzluksiz takomillashtirib borish)ni ajratib ko‘rsatadilar.

Pedagogning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish, tadqiqotchilik malakalari shakllanish xususiyatlarini aniqlashda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayaniladi. Tadqiqotchilik malakalari yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bilish faoliyatining turi sifatida o‘zgaruvchan jamiyat potensialiga bog‘lik bo‘lib, uning strukturasiga bilish vositalari: eksperiment, uni o‘tkazishga imkoniyat beradigan asboblar, vositalar va moslamalar kiradi.

Akmeologik yondashuv – insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan nazariy yondashuv sifatida individ, shaxs, individuallik va subyektning hayot faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil topgan. Akmeologik yondashuvga ko‘ra, shaxs kasbiy faoliyatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish masalalarida kreativ

qobiliyatlarni subyekt sifatida qarab chiqadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish asosida insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, faol hayot tarafdori bo‘lish, ezgu fikrlash, o‘z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunish yotadi. Yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, kasbiy faoliyat natijalari, ijtimoiy tan olinish, o‘z etukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni shakllantirish akmeologik yondashuvning asosini tashkil etadi. Kasbni muvaffaqiyatli egallash, ijtimoiy va mehnat faoliyati, ta’lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish; refleksiya, ijodiy tafakkur kilish, ta’limni ichki ehtiyojga aylanishi, bilish motivlarining bo‘lishi ta’lim sifatining oshirish imkonini beradi. Akmeologik yondashuv kasbiy kommunikativ sifatlar va malakalarni tarkib topishida asosiy rol o‘ynaydi.

Aksiologik yondashuv madaniyatni inson hayotining mazmuni sifatida tushuntirib, qadriyatlarni reallikning namoyon bo‘lish shakllari, voqelikdagi narsa, hodisa va jarayonlar, olamda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya sifatida talqin qiladi. Aksiologik yondashuv asosida qadriyatlar tizimini jamiyat hamda inson hayoti uchun ahamiyati, uning ijtimoiy funksiyalari, jamiyat va inson faoliyatida o‘ziga xos ta’siri masalalari tahlil etiladi. Qadriyatlar ba’zan ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasa, gohida ma’naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi, faoliyatni boshqaradi va tartibga solib turadi. Bunda qadriyatlarning tartibga soluvchi vazifasi va ma’naviy mezon sifatidagi ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo‘lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi.

Aksiologik ong o‘z navbatida, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulosa va tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir.

Qadriyatlarni anglash, o‘rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg‘unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirish, tabiiy va ijtimoiy

voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog‘liq uzviy jarayonni anglatadi. Bunda qadriyatlar tartibsiz namoyon bo‘ladigan va bir-biri bilan bog‘lanmagan ijtimoiy hodisalar sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyektlar va boshqalar bilan bog‘langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuqlari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga tayanish qo‘l keladi” - deb tushuntiradi professor Q.Nazarov [89; 79-b.]. Kreativ faoliyat jarayonida tashkilotchilik malakalarini shakllantirish xususiyatlarini aksiologik yondashuv asosida tahlil qilish uni ilmiy asosda tushunishga imkon beradi.

Psixogenetik yondashuv – biologiya va ijtimoiy muhit ahamiyatini inkor etmagan holda psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Psixogenetik yondashuv vakillarining fikrlariga ko‘ra, shaxsni shakllantirishning asosiy manbai, gen-atrof-muhitning o‘zaro ta’siri omillari bo‘lib, ba’zi yo‘nalishlar asosan genetika, boshqalari esa atrof-muhit ta’sirini ta’kidlaydi. Masalan, xususiyatlar nazariyasining asoschisi G.Olport [90] har bir shaxsni uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali yaxshiroq tushunish mumkin, deb hisoblagan. Xususiyatni odamning turli vaqtlarda va turli vaziyatlarda o‘zini bir xil tutishga moyilligi sifatida tasniflaydi. Kognitiv psixologiya yo‘nalishi vakillari shaxs shakllanishining eng muhim omili sifatida intellekt va fikrlash jarayonlarini keltirib o‘tadilar. Ushbu yondashuv doirasida psixodinamik orientatsiya vakillari shaxsning xulq-atvorini hissiyotlar, harakatlar va psixikaning boshqa noratsional komponentlari orqali tushuntiradi. Psixogenetik yondashuv o‘qituvchi kreativ kompetentligini tashkil etuvchi kommunikativ (muloqotga kirishuvchanlik) malakalarni rivojlanish xususiyatlarini ilmiy talqin qilishda yordam beradi.

Kognitiv nazariya vakillari (J.Piaje, D.Kelli va boshqalar) shaxs psixikasining intellektual - bilish doirasi xususiyatlariga suyanadilar. J. Piajening nazariyasida shaxs "tushunuvchi, tahlil qiluvchi" sifatida tashqi muhitga moslashadi, bu assimilyatsiya (atrof-muhit elementlarining o‘zlashtirilishi) va turar joy (tirik organizmning atrof-muhit sharoitlariga moslashishi) jarayonlarini muvozanatlash orqali sodir bo‘ladi.

J.Piaje [89] shaxsning intellektual rivojlanishini psixik rivojlanishning boshqa jihatlari uchun asos deb hisoblaydi. Olimning fikricha, axloqning rivojlanishi kognitiv qobiliyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda sodir bo‘ladi.

Ko‘p subyektli (dialogik) yondashuv shaxsni odamlar bilan muloqotning mahsuli va natijasi sifatida olib, unga xos bo‘lgan munosabat tarbiyaviy ta’sirning dialogik tamoyilini shakllantiradi, deb tushuntiradi. Ko‘p subyektli yondashuv o‘qituvchining avtoritar pozitsiyasi va talabalarning bo‘ysunuvchi pozitsiyasini rad etib, o‘zaro munosabatlarni subyekt-subyekt shaklida amalga oshirishga, ya’ni muloqotda sheriklar pozitsiyalarining muvozanatiga, boshqa shaxsning ichki dunyosini qadriyat sifatida qabul qilishga asoslanadi. Ushbu yondashuv natijasida fasilitatorlar va talabalar o‘rtasida ishonch va hamkorlik muhiti paydo bo‘ladi, bu muloqot jarayoni ta’lim oluvchi shaxsiyatini rivojlantirishning asosiy xususiyati hisoblanadi. Pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarning mohiyatini shaxs fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltiradi. Ko‘p subyektli (dialogik) yondashuv asosida istiqbolni ko‘rish, prognoz qilish malakalarini shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi.

XXI-asr katta yoshlilar ta’limining falsafiy asosini hayot davomida ta’lim olish g‘oyasi tashkil etganligi sababli klassik pedagogika va andragogikadan farqli ravishda kasbiy faoliyat jarayonida o‘qituvchi o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun paydo bo‘lgan savollarga o‘zi javob izlashi, mustaqil o‘qib o‘rganishi, har doim va hamma joyda o‘qishi talab etiladi. Uzluksiz ta’lim masalalariga bag‘ishlangan xorijiy adabiyotlarda o‘z-o‘zini tarbiyalash, rivojlantirish, mustaqil uzluksiz malaka oshirish ma’nosini bildiruvchi xyutagogika (ingl. heutagogy) atamasi tobora keng tarqalmoqda. Xyutagogika (evtagogika) – bu hayot davomida doimiy ravishda o‘z-o‘zini o‘rganishga yangicha yondashuv sifatida talqin etiladi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga, ta’limni shaxsga mustaqil ravishda o‘z maqsadlari va qiziqishlariga muvofiq nimani, qachon va qanday o‘qishini aniqlashga imkon berishiga yo‘naltiradi. Uzluksiz ta’lim tushunchasi birinchi marta 1968 yilda YUNESKO faoliyati doirasida tilga olingan bo‘lsa, Xyutagogika atamasi birinchi marta 2000 yilda Styuart Xasse va Kris Kenyon tomonidan "Andragogikadan Xyutagogikaga" *(“From Andragogy to Heutagogy”*) asarida ilmiy asoslab berilgan. Atamaning ma’nosi "ixtirolar, kashfiyotlar, topilmalar,


xulosalarga olib borish"degan ma’noni anglatib, uning semantikasi shaxsning yangi kashfiyotlarni ixtiro qilish jarayonini sifatida talqin etiladi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Ta’lim-tarbiya tizimida pedagogika fanlarining qanday o‘rni va ahamiyati mavjud?
2. “Pedagogika” fanining qanday tarmoqlari bor?
3. “Pedagogika” fanining boshqa fanlar bilan qanday aloqadorligi mavjud?
4. “Pedagogika” fanining qanday asosiy kategoriyalari bor?
5. Qandau ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlarini bilasiz?
6. “Umumiy pedagogika” fanining obyekti, predmeti va tuzilishi nimadan iborat?
7. Ta’limda qanday zamonaviy yondashuvlar mavjud?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Pedagogika tushunchasini “Klaster” metodi asosida loyihalashtiring:




2. “Pedagogika” fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi va asosiy kategoriyalarini “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:

“Pedagogika” fanining tarmoqlari	“Pedagogika” fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi	“Pedagogika” fanining asosiy kategoriyalari

3. Pedagogika fanlar majmuini “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:

Pedagogika tarixi va nazariyasi	Maxsus pedagogika	Yosh davrlar pedagogikasi	Uslubiyat

4. Pedagogikaning fanlararo va integrativ bog`lanishini “Venna diagrammasi” metodi asosida loyihalshtiring:



5. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarini “Tushunchalar tahlili” metodi asosida loyihalshtiring:

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
Adabiyotlarni o’rganish metodi	
Kuzatish metodi	
Suhbat metodi	
Bolalar ijodini o’rganish metodi	
Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi	
Eksperiment-tajriba, sinov usuli	
Test sinovlari metodi	
Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usuli	
Matematik va kibernetik usullar	

§ 1.2. O‘ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZASIYALASH JARAYONLARI VA UNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

Reja:

1. O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari.
2. O‘zbekistonda ta’lim tizimi va uning boshqaruvi.
3. Ta’lim tizimida modernizatsiya jarayonlari.
4. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi.

Tayanch so`z va iboralar: ta’lim-tarbiya tizimi, taraqqiyot strategiyasi, boshqaruv, modernizatsiya jarayonlari, ta’lim tashkiloti, pedagog xodim, huquqiy maqom, ta’lim turlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’lim, boshqaruv, funksiya, boshqaruv vazifalari, vakolatli davlat boshqaruvi organlari, modernizatsiya, ta’lim tizimining modernizatsiyasi, Universitet 1.0, Universitet 2.0, Universitet 3.0, Universitet 4.0, qo‘shma ta’lim (ikki diplomli) dasturi, abiturientlar uchun oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishdagi imtiyozlar, mutaxassislik bo‘yicha mustaqil malaka oshirish, muqobil malaka oshirish, ta’lim dasturlari asosida ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish, muassasalarida bevosita o‘qish, pedagog xodimlarning maqomi, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi, pedagog xodimlarning majburiyatlari.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot qabul qilindi [6]. Taraqqiyot strategiyasining adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida 37-51-maqsadlarida belgilangan (1.9-jadvalga qarang):

1.9-jadval.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishi maqsadlari

Maqsad	Maqsad nomi	Maqsadda belgilangan vazifalar
37	Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-	Kasbiy ta’lim bilan tizimli ravishda shug‘ullanish masalalarini to‘liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish.

	hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish	Umumta’lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish
38	Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish	2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish
39	Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish	Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish. 2022-2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish
40	Maktabgacha ta’lim tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash	Maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish
41	Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish	Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O‘quv o‘rinlari sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish. Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026 yilda 8 foizga, shu jumladan 2022 yilda 3 foizga oshirish. 2022-2026 yillarda 217 ta «Barkamol avlod» bolalar maktabini rivojlantirish bo‘yicha dasturni amalga oshirish. Yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta’lim muassasalarigacha transport qatnovini yo‘lga qo‘yish
42	2026 yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish	Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026 yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022 yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish. Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish. Umumta’lim maktablarda darslik va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimini joriy etish
43	Malakali o‘qituvchilarning oylik	Iqtidorli o‘qituvchilarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqalashtirilgan holda oshirib borish.

	maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish	O‘qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko‘rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish
44	Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish	Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash. Toifaga ega bo‘lmagan maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish. Umumta’lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish. Maktablarda direktor va uning o‘rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o‘qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta’minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish. Xalq ta’limi tizimi tuman bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish
45	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta’minlash	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tajriba-sinov tariqasida boshlang‘ich sinf (1-4-sinf) o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimini joriy etish. Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra boshlang‘ich sinf (1-4-sinf) o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimini kengaytirish masalasini ko‘rib chiqish
46	Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish	Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish. 2022 yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish. To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta’lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish. 2026 yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish. Davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish. Davlat oliy ta’lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash
47	2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash	Oliy ta’lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish. 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini tanlash. Salohiyati va o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash
48	Qariyb 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish	Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etishda loyihalarni moliyalashtirishning maqbul usullarini yo‘lga qo‘yish. 2022 yilda 18 800 o‘rinli 47 ta talabalar turar joylarini barpo etish.

		2026 yilga qadar 72 400 o‘rinli 181 ta talabalar turar joylarini barpo etish natijasida talabalarni yotoqxona bilan ta’minlash darajasini 60 foizdan oshirish
49	2026 yilgacha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish	2022 yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygohlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo‘ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish. Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish. Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o‘quv yurtlari soni 10 taga yetkazish. Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo‘ljallangan «Yoshlar shaharchasi»ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish. Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg‘armasini, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang‘ich raqs san’ati maktab-internatini tashkil etish. 2026 yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish
50	«El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish	Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o‘tkazish. Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta’lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg‘arma tomonidan ochiq tanlov e’lon qilish va o‘tkazish
51	Iqtisodiyotga innovasiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperasiya aloqalarini rivojlantirish	Innovasion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xom ashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovasion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so‘mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida to‘lov-grant asosida o‘qishni tashkil etish

UWC (United World Colleges) – global harakat bo‘lib, ta’limni odamlar, xalqlar va madaniyatlarni tinch va barqaror kelajak yo‘lida birlashtira oladigan kuchga aylantiradi. UWC harakatining negizini – ta’lim turli madaniyatlarga

mansub yoshlarni umumiy qarashlari va insonparvarligiga asosan, shuningdek, shaxsiy namunasi va mardona yetakchilik xususiyati bilan ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlar qilishga intilishiga asosan birlashtira olishiga ishonch tashkil qiladi. Mazkur harakat vakillari uchun quyidagi qadriyatlar mushtarakdir:

turli xalqlar va madaniyat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish;

xilma-xillik tantanasi;

shaxsiy mas’uliyat va har bir kishining intizomliligi;

atrofdagilarga nisbatan mas’uliyat va o‘zaro hurmat-izzat;

rahmdillik va jamiyatga xizmat qilish;

atrof-muhit haqida g‘amxo‘rlik;

ideallarga sadoqat;

salmoqli natijalarga intilish;

faoliyat va shaxsiy iborat [28].

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilmoqda:

1) maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida;

2) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

3) proofessional ta’lim;

4) oliy ta’lim;

5) oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

6) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

7) maktabdan tashqari ta’lim.

Har bir model o‘sha mamlakatning tabiiy-geografik, iqtisodiy shart-sharoitlari, ishlab chiqarish omillari va resurslari, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, va albatta, mamlakat aholisining mentaliteti, tarixiy va madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, an’analari, siyosiy tuzum hamda ijtimoiy tarkibidan kelib chiqadi.

Qanday model haqida gap bormasin, asosiy maqsad samarali iqtisodiyotni barpo etish va uning asosida xalq turmush farovonligini oshirishdan iborat. Model yo‘l, yo‘nalish eng avvalo mavjud tabiiy, ishlab chiqirish, nisbiy afzallik (ustunlik) va buyuk aql-zakovatning amaldagi ifodasidir [27; 22-b.].

“O‘zbek modeli” tushunchasining hayotga kirib kelganiga 25 yildan oshdi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida o‘zbek modelining mohiyati va shakl shamoyillari hamda tamoyillarini belgilab bergan edi. O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot modeli o‘z xalqining tarixiy tajribasi, milliy va madaniy an’analariga asoslanadi [27; 22-b.].

Mustaqillik yillarida «O‘zbek modeli» deb nom olgan va dunyoda e’tirof etilgan ana shu taraqqiyot strategiyasining negizida ta’lim tizimi tubdan isloh qilindi. To‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limini o‘z ichiga olgan, davlat tomonidan kafolatlangan bepul majburiy ta’lim tizimi joriy etildi. Ta’lim muassasalari yangitdan qurildi, mavjudlarida kapital ta’mirlash ishlari bajarilib, zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan jihozlandi, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun har tomonlama qulay sharoit yaratildi. O‘quv jarayoni sifat va metodik jihatdan yangilanib, adabiyotlarning yangi avlodi joriy etildi, uzluksiz ta’lim tizimi modernizatsiya qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», 2020 yil 23 sentabrda «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zR-637-son Qonuni qabul qilinishi yoshlarning zamon talablari darajasida ta’lim-tarbiya olishi va kasb-hunar egallashiga muhim asos bo‘ldi (1.10-jadvalga qarang):

1.10-jadval.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun boblari

Boblar	**1997 yil 29 avgust (5 ta bob, 34 ta modda)**	**2020 yil 23 sentabr (11 bob, 75 modda)**
I	Umumiy qoidalar (1-8 modda)	Umumiy qoidalar (1-5 modda)
II	Ta’lim tizimi va turlari (9-19 modda)	Ta’lim tizimi, turlari va shakllari (6-22 modda)
III	Ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish (20-24 modda)	Ta’lim tizimini boshqarish (23-28 modda)
IV	Ta’lim tizimini boshqarish (25-29 modda)	Ta’lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish (29-43 modda)

V	Yakunlovchi xulosalar (30-34-modda)	Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi (44-46 modda)
VI		Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari (47-51 modda)
VII		Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish (52-56 modda)
VIII		Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta’lim tashkilotlarini attestasiyadan va davlat akkreditasiyasidan o‘tkazish. Xorijiy davlatda olingan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatni tan olish, ta’lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo‘yish (57-61 modda)
IX		Ta’limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash (62-66 modda)
X		Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik (67-69 modda)
XI		Yakunlovchi qoidalar (70-75 modda)

2020 yil 23 sentabrda «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zR-637-son Qonunida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi (1.11-jadvalga qarang):

1.11-jadval.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zR-637-son Qonunidagi asosiy tushunchalar

№	Asosiy tushunchalar	Tushunchalarning mazmun-mohiyati
1.	davlat akkreditasiyasi	davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon
2.	davlat ta’lim muassasasi	davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa
3.	davlat ta’lim standartlari	davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui
4.	davlat ta’lim talablari	ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar
5.	malaka	shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi
6.	mutaxassislik	malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi
7.	nodavlat ta’lim tashkiloti	davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan lisenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs
8.	tarbiya	aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy

		qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon
9.	ta’lim	ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon
10.	ta’lim kampusi	yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti
11.	ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari	ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari
12.	ta’lim tashkilotlari attestasiyasi	ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli

Ta’lim turlari 1997 yil va 2020 yilda qabul qilingan Qonunlarda quyidagilardan iborat deb belgilangan (1.12-jadvalga qarang):

1.12-jadval.

Ta’lim turlari

1997 yil 29 avgust	2020 yil 23 sentabr
maktabgacha ta’lim	maktabgacha ta’lim va tarbiya
umumiy o‘rta ta’lim	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi	professional ta’lim
oliy ta’lim	oliy ta’lim
oliy ta’limdan keyingi ta’lim	oliy ta’limdan keyingi ta’lim
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
maktabdan tashqari ta’lim	maktabdan tashqari ta’lim

O‘zbekistonda ta’lim tizimi va uning boshqaruvi

Ta’limni boshqarish – ta’limdagi o‘quv, innovasion va qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini maqsadga muvofiqligi va tashkil etilishini qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy boshqaruv turi hisoblanadi. Ijtimoiy boshqaruvning umumiy qonunlariga bo‘ysunib, muayyan sharoitlarda ta’lim jarayonining ijtimoiy maqsadlariga erishish yo‘llari tufayli natijalarga erishiladi.

Boshqarish vazifalarini amalga oshirish va ta’minlash uchun rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat tizimlaridan iborat. Shuningdek, turli iyerarxik darajada

milliy (Federal), mintaqaviy, shahar (mahalliy) kabi maxsus va davlat, jamoat va aralash kabi ta’lim muassasasi darajasida hamda organlar tashkil etilishi darajasida boshqariladi [82; 146-b.]. Boshqaruvning ko‘plab ta’riflari mavjud, masalan:

boshqaruv – har qanday faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq tashkilot faoliyatining majmui;

boshqaruv – jarayonlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish uchun zarur tashkilot;

boshqaruv – bu uyushmagan olomonni samarali maqsadli va samarali guruhga aylantiradigan maxsus faoliyat turi;

boshqaruv – bu ma’lum bir tuzilmaning saqlanishini ta’minlovchi, tejab qoluvchi tashkiliy tizimlarning funksiyasidir faoliyat tartibini saqlash va dasturni amalga oshirish, maqsad va faoliyati;

boshqaruv – ofis obyektiv zarur vazifani bajaradi, tashkil etish, muvofiqlashtirish, uyg‘unlashtirish, tartibga solish va odamlarning har qanday birgalikdagi ishini nazorat qilish [82; 145-b.].

“Boshqaruv” so‘zi aniq maqsadga erishishdagi boshqariluvchi tizim (yoki boshqaruv obyekti)ga faol ta’sir ko‘rsatishda qo‘llaniladi. Zamonaviy adabiyotlarda boshqaruvning ma’nosi bo‘yicha uch xil yo‘nalishdagi tushunchalari mavjud (1.13-jadvalga qarang):

1.13-jadval.

Boshqaruv tushunchalari va uning xususiyatlari

№	Boshqaruv ma’nolari	Boshqaruv xususiyatlari
1.	faoliyat	A.Fayol boshqarishni: - kelajakni ko‘ruvchi; - faoliyatni tashkillashtiruvchi; - tashkilotni idora kiluvchi; - faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi; - qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat kiluvchi kuchli qurol
2.	boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga “ta’sir etishi”	boshqaruv - maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir etish bo‘lib, subyektning obyektga ta’siri natijasida obyektning o‘zgarishi
3.	subyektlar	S.N.Tidor boshqaruv ma’nosini quyidagicha tavsiflaydi: - maqsad yo‘nalishida obyektni muvofiqlashtirish; - maqsadga erishish uchun obyektga ta’sir etish; - maqsadga erishish yo‘nalishida tizimni tashkil etuvchilariga ta’sir etishni vertikal muvofiqlashtirish

Ta’lim tizimi faoliyat va rivojlanish kabi ikki rejimda ishlashi mumkin. Shunga ko‘ra, ta’limni boshqarishning turlari ham mavjud: birinchi holatda, obyekt o‘quv jarayonlari bo‘lib, dastur, metodik, kadrlar, moddiy-texnik, meyoriy sharoitlar bilan ta’minlanadi va ikkinchi holatda esa ta’lim tizimida mavjud salohiyatdan samarali foydalanib, samaradorligini oshirishdan iborat.

Ta’lim muassasasi rahbari jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash va ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish hisoblanar ekan, ular o‘z boshqaruv faoliyatlarida ta’lim muassasasida mavjud barcha jarayonlarni tartibga solib turish uchun boshqaruv funksiyalarining mazmun va mohiyatini bilish zarur hisoblanadi.

“Funksiya” so‘zi lotincha bajarish, vazifa, faoliyat, majburiyat ma’nolarini bildiradi. *Boshqaruv vazifalari* – esa biror obyektga rahbarlik qilishi bo‘lgan faoliyat turidir. Boshqaruv vazifalarining tarkibi boshqaruv texnologiyasini ifodalaydi. Boshqaruv vazifasining ma’nosida avval tizimda nima qilinayotganini belgilash, so‘ngra “qanday qilib?” savoliga javob berish kabi ikkita element tushuniladi [82; 88-b.]. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 3-bobida ta’lim tizimini boshqarish berilgan (1.14-jadvalga qarang):

1.14-jadval.

Ta’lim tizimini boshqarish

Moddalar	Moddlarning mazmuni
23-modda	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari
26-modda	Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari
27-modda	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari
28-modda	Ta’lim tashkilotini boshqarish

Boshqaruv butun boshqaruv tizimining uzluksiz amal qilishi jarayonini ifodalaydi. U mehnat jarayonining barcha xususiyatlariga ega. Umuman boshqaruv jarayonini texnologiya (qanday amalga oshiriladi), tashkil etish (kim va qanday tartibda) nuqtai nazaridan tavsiflash mumkin. Boshqaruv jarayonining texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy kabi jihatlari ajratiladi. Texnikaviy jihati mahsulot ishlab chiqarishni boshqarish; ishlab chiqarishda bo‘linma, sex, korxonalar o‘zaro ta’sirini tashkil etish va boshqarish; iqtisodiy jihati ishlab chiqarish, ish kuchi va butun iqtisodiy munosabatlar tizimiga rahbarlik qilish; ijtimoiy jihati – bu mehnat

jamoasi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, insonni tarbiyalash. Boshqaruv jarayoni texnologiyasi boshqaruv xodimlari tomonidan bajariladigan operasiya va amallardan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagi vakolatlari bilan birga qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin (1.15-jadvlaga qarang):

1.15-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari

Ta’lim sohasida	Ta’lim muassasalari	Ta’lim yo‘nalishlari
ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi	pedagogik kadrlarni ta’lim tashkilotlariga ishga qabul qilish va ular faoliyatini baholash tartibini belgilaydi	eksternat tartibida o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydigan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro‘yxatini tasdiqlaydi
ta’lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi	xorijiy davlatlarning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi hududida ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga doir ruxsatnomalar beradi	faqat davlat ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro‘yxatini tasdiqlaydi
ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi	xorijiy davlatlarda olingan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi	davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlariga qabul qilish tartibini belgilaydi
ta’lim tashkilotlarini attestasiya va davlat akkreditasiyasidan, pedagog kadrlarni va ilmiy xodimlarni attestasiyadan o‘tkazish, ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarga apostil qo‘yish tartibini belgilaydi	davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlaydi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar berish tartibini belgilaydi	ta’lim oluvchilarni akkreditasiya qilingan bir ta’lim tashkilotidan boshqasiga ko‘chirish, shuningdek, ularni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibini belgilaydi
davlat oliy ta’lim muassasalari rektorlarini, shuningdek davlat ishtirokida tashkil etiladigan oliy ta’lim tashkilotlari rektorlarini lavozimga tayinlaydi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etadi	ta’lim tashkilotlari reytingini aniqlash tartibini belgilaydi	kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi
darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash hamda nashr etish tartibini, shuningdek, ularni yetkazib berishga va ulardan ta’lim tashkilotlarida foydalanishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi	ta’lim tashkilotlariga nisbatan moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarni belgilaydi	mehnat bozori talablarini prognoz va tahlil qilish asosida ta’lim tashkilotlarida kadrlarni tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmalarini shakllantiradi

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari belgilangan (1.16-jadvalga qarang):

1.16-jadval.

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari

Ta’lim sohasida	Ta’lim muassasalari	Ta’lim yo‘nalishlari
ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi	ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi	ta’lim oluvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash tartibini belgilaydi
ta’lim sohasidagi tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi	ta’lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, o‘quv dasturlarini takomillashtiradi	professional ta’limning kasblar va mutaxassisliklar, oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, shuningdek bilim sohalari va ta’lim sohalari ro‘yxatini belgilaydi
davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarida kadrlarning ma’lumoti darajasiga va kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo‘yilgan talablarning ta’lim tashkilotlari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi	ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi	ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta’minlaydi
davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartini) va davlat ta’lim talablari ishlab chiqilishini ta’minlaydi va ularni tasdiqlaydi	ta’lim tashkilotlarida moddiy-texnika resurslaridan foydalanishga doir talablarni ishlab chiqadi ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi	o‘zlashtirishni baholashga, o‘quv jarayonini, ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestasiyasini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi, shuningdek, eksternat tartibida ta’lim oluvchilarning toifalarini belgilaydi
o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilishni tashkil etadi	ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi	davlat oliy ta’lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi

Mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari belgilangan (1.17-jadvalga qarang):

1.17-jadval.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari

Ta’lim sohasida	Ta’lim tashkilotlari
ta’lim sohasidagi vakolati davlat boshqaruvi organlari bilan kelishilgan holda davlat ta’lim muassasalarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi, bundan respublika tasarrufidagi ta’lim muassasalari mustasno	fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan hamkorlik qiladi

o‘z vakolatlari doirasida tegishli hududda davlat ta’lim muassasalari uchun moliyalashtirish hajmini belgilaydi	davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlarni (mikrouchastkalarni) belgilaydi
ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ta’lim tashkilotlariga ko‘maklashadi	ta’lim oluvchilar uchun sifatli ta’limni, tarbiyani ta’minlash, ularning iste’dodini shakllantirish va namoyon etish maqsadida joylarda ularga zarur sharoitlar yaratish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqadi
o‘z vakolatlari doirasida ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantiradi va nodavlat ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishga ko‘maklashadi	umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari bandligini ta’minlashga ko‘maklashadi

Ta’lim tashkilotlarini boshqarishda va kadrlar tayyorlashda kadrlar talabgorlari ishtirok etadi. Ta’lim tizimidagi monitoring va ta’lim sohasidagi davlat nazorati ham belgilangan (1.18-jadvalga qarang):

1.18-jadval.

Ta’lim tizimidagi monitoring va ta’lim sohasidagi davlat nazorati

Ta’lim tizimidagi monitoring	Ta’lim sohasidagi davlat nazorati
Ta’lim tizimidagi monitoring ta’limning holatini, ta’lim natijalarining o‘zgarishi sur’atlarini, ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish va kuzatishni, shuningdek ta’lim oluvchilarning kontingenti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va boshqaruv qarorlari qabul qilinishini tahlil etishni o‘z ichiga oladi	Ta’lim sohasidagi davlat nazorati berilayotgan ta’limning mazmuni va sifati davlat ta’lim standartlariga, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga, shuningdek ushbu Qonun talablariga muvofiqligini aniqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi
	Ta’lim tashkilotlari ta’lim sifati ustidan nazoratni amalga oshirishda Ta’lim inspeksiyasiga, ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga ko‘maklashadi
Ta’lim tashkilotlarining monitoringi Ta’lim inspeksiyasi, ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi	Ta’lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta’limning mazmuni va sifati ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilikka nomuvofiqligi aniqlangan hollarda Ta’lim inspeksiyasi nomuvofiqlikni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnoma kiritadi. Aniqlangan nomuvofiqlik bartaraf etilmagan taqdirda Ta’lim inspeksiyasi ta’lim tashkilotining davlat akkreditasiyasi to‘g‘risidagi sertifikatini qonunchilikka muvofiq bekor qilishga haqli
Ta’lim holatining tahlili va uni rivojlantirish istiqbollari to‘g‘risidagi axborot Ta’lim inspeksiyasining, ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining va ular hududiy bo‘linmalarining, shuningdek ta’lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi	Ta’lim sifati ustidan nazorat qilish vakolatlariga ega bo‘lmagan organlar tomonidan ta’lim tashkilotlarining ta’lim sifatini, ta’lim jarayoni tashkil etilishini, pedagog xodimlarining mehnat faoliyatini, ta’lim oluvchilarining o‘zlashtirishini tekshirishga yo‘l qo‘yilmaydi
Ta’lim tizimidagi ma’lumotlar jumlasiga rasmiy statistika ma’lumotlari, ta’lim tizimi monitoringi natijalari, ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining va ular hududiy	Ta’lim inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilgan holda nodavlat

bo‘linmalarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ta’lim tashkilotlarining ma’lumotlari kiradi	ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshiradi

Ta’lim tashkilotini boshqarishni tegishincha quyidagilar amalga oshiradi: pedagogik kengash; kuzatuv (vasiylik) kengashi;oliy ta’lim tashkilotining kengashi; ta’lim tashkilotining rahbari. Ta’lim tashkilotlarida jamoatchilik boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Ta’lim tizimida modernizatsiya jarayonlari

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg‘or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so‘nggi yillarda umumiy tarzda “modernizatsiyalash” tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Xo‘sh, “modernizasiya” tushunchasi lug‘aviy jihatdan qanday ma’noni anglatadi? Ushbu tushuncha negizida qanday holat tavsiflanadi?

Modernizatsiya (ingl. “modern” – zamonaviy, ilg‘or, yangilangan) – obyektning yangi talablar va meyorlar, texnik ko‘rsatmalar, sifat ko‘rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi.

Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o‘tadi. Falsafiy talqinda ifoda etganda miqdor o‘zgarishlari tub sifat o‘zgarishlariga aylanadi. M: o‘rta asrlarda agrar xarakter kasb etgan jamiyat ilm-fan, texnika, sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan industrial jamiyatga aylani. Ijtimoiy modernizasiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo‘ladi. Jumladan, ta’lim sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

Ta’lim tizimining modernizatsiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta’lim olish bo‘lgan talabini qondirish, ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi. Mazkur modernizatsiya shaxsni o‘qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an’analarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta’lim tizimining barcha sohalarini to‘la qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ta’lim tizimining modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

har bir shaxsning to‘laqonli ta’lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta’lim olishning ochiqligini ta’minlash;

uzluksiz ta’lim tizimida yangi sifat ko‘rsatkichlariga erishish;

yangi ta’lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta’lim tizimida samarali meyoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;

davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi negizida ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;

ta’lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta’lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta’lim muassasalarining rolini oshirish.

Barcha davlatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekiston sharoitida ham ta’lim tizimini modernizatsiyalashda davlat, jamiyat, mahalliy va ijtimoiy tashkilotlar, yuqori hamda quyi boshqaruv organlarining o‘rni va roli, ular o‘rtasidagi o‘zaro birlik, hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar sanaladi:

elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish;

o‘qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o‘zaro muvofiqlashtirish;

o‘quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan mustaqillik o‘zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish [50].

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida ta’lim turlari berilgan. Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim va tarbiya;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

professional ta’lim;

oliy ta’lim;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta’lim [1].

Ta’lim turlari bo‘yicha qator islohotlar olib borilgan.

8-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya. Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek, «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi [1].

9-modda. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim o‘quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Umumiy o‘rta ta’lim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar);

tayanch o‘rta ta’lim (V-IX sinflar);

o‘rta ta’lim (X-XI sinflar) [1] (1.19-jadvalga qarang):

1.19-jadval.

Umumiy o‘rta ta’lim (I-XI sinflar) bosqichlari

Boshlang‘ich ta’lim	Tayanch o‘rta ta’lim	O‘rta ta’lim
ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan	o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning	o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar

savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan	zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tayanch o‘rta ta’lim doirasida (VII sinfdan so‘ng) ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi	o‘zlashtirilishini, shuningdek ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish, shuningdek, ta’lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. Umumiy o‘rta ta’lim umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo‘lgan o‘n bir yil davomida amalga oshiriladi. O‘rta maxsus ta’lim akademik litseylarda to‘qqiz yillik tayanch o‘rta ta’lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashti-rilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim to‘lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Iqtidorli va iste’dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim oladi. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta’lim oluvchilar soni o‘ttiz besh nafardan oshmasligi kerak [1].

10-modda. Professional ta’lim. Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi: boshlang‘ich professional ta’lim; o‘rta professional ta’lim; o‘rta maxsus professional ta’lim [1] (1.20-jadvalga qarang):

1.20-jadval.

Professional ta’lim darajalari

Boshlang‘ich professional ta’lim	O‘rta professional ta’lim	O‘rta maxsus professional ta’lim
kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi	kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi	texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan fuqarolar ham o‘rta professional va o‘rta maxsus professional ta’lim olish huquqiga ega. Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar ta’lim oluvchilarning o‘zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo‘lishini ta’minlaydi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta’limni olish huquqiga ega [1].

O‘zbekiston Respublikasida 339 ta kasb-hunar maktablari, 163 ta kollejlar va 214 ta texnikumlar viloyatlar kesimida shakllantirildi.

11-modda. Oliy ta’lim. Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi. Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o‘rta (o‘n bir yillik ta’lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta’lim), boshlang‘ich professional ta’lim (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta’lim) olgan shaxslar, , ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan shaxslar oliy ma’lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta’lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka

va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’limdir. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining ro‘yxati ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni olish huquqiga ega [1].

O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati. Bugungi kunda O‘zbekistonda 159 ta, shu jumladan Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida hayotimizga bosqichma-bosqich “Universitet 3.0” tushunchasini joriy etish masalasi ta’kidlangan. Universitetlar tarixiy rivojlanish yo‘lida bir nechta modellar orqali o‘tib kelmoqda [73] (1.21-jadvalga qarang):

1.21-jadval.

Universitet modellari

№	Universitet modellari	Modellarning mazmuni
1.	Universitet 1.0	“birinchi avlod universiteti” faqat ta’lim berish makoni bo‘lib, uning maqsadi bilim yetkazib berishdan iborat.
2.	Universitet 2.0	“ikkinchi avlod universiteti” modeli ta’lim berishga qo‘shimcha ravishda ilmiy tadqiqot ham olib borishga ixtisoslashgan dargoh sanaladi. XIX asrdan boshlab rivojlangan ta’lim muassasalari “tadqiqot universitetlari” deb ataladi. “Universitet 2.0” ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi; bozor ishtirokchilari uchun konsalting xizmatlari markazi bo‘ladi; sanoat tomonidan buyurtmalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi, yangi texnologiyalarga asos soladi
3.	Universitet 3.0	"Uchinchi avlod universiteti”, yoki " esa fan-ta’lim bilan bir qatorda innovasiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan ham shug‘ullanadi. “Universitet 3.0”da tadbirkorlik madaniyati rivojlangan bo‘lib, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatilgan bo‘ladi. Bunday universitetda texnologik startaplar yaratilib, patentlar muntazam ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Kaliforniya shtatidagi Kremniy vodiysi bunga yaqqol misol. Tadqiqotlarga ko‘ra, dunyo universitetlari umumiy sonining atigi 0,3 foizi “Universitet-3.0” modeliga mos, deb tan olinar ekan. Mamlakatimiz universitetlari oldida 2030 yilga qadar ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish masalasi qo‘yilgan. Bu holda oliygohlarimiz xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallash imkoni bo‘ladi
4.	Universitet 4.0	yuqoridagi barcha sifatlarni o‘zida jamlab, u raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sanaladi. “Universitet 4.0” yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda yetakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste’molchilarning individual talablari asosida xizmatlar

		yetkazadi. Bu borada “Universitet 4.0” talabalarning individual ehtiyojlari asosida o‘quv reja va dasturlar tayyorlaydi. “Universitet 4.0” talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy ko‘nikmalariga ham ustuvor e’tibor qaratadi

Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti – “Times Higher Education” agentligi “Young University Rankings – 2022” (Yosh universitetlar reytingi – 2022) reyting natijalarini e’lon qildi [30]. Reyting natijasiga ko‘ra, respublikadagi 4 ta oliy ta’lim muassasasi ilk bor yangi turdagi maqom – “Reporter” universitetlar qatorida e’tirof etildi. Bular:

Toshkent davlat yuridik universiteti;

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Turin politexnika universiteti;

Urganch davlat universiteti.

Ushbu maqom orqali yuqoridagi oliygohlar dunyoning TOP universitetlari reytingiga kirish uchun nomzod sifatida yana bir katta qadamni qo‘yishdi. Ma’lumot o‘rnida, “Young University Rankings” reytingi dunyoning 50 va undan kichik yoshdagi eng yaxshi universitetlari ro‘yxatini tuzadi. Ro‘yxat “World University Rankings” flagmani bilan bir xil 13 ta mezon ko‘rsatkichlariga asoslanadi. 2022 yilgi reyting 539 ta universitetni o‘z ichiga olib, shundan 251 ta oliygoh “Reporter” maqomiga ega bo‘ldi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 14 fevraldagi 01/qq- va 6-q/q -sonli qo‘shma qarori bilan xalqaro tan olingan Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan oliy ta’lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro‘yxatiga kiritilgan oliy ta’lim muassasalarining (https://tdi.uz/upload/top-1000-2021.pdf) 2022 yil uchun ro‘yxati tasdiqlandi [84].

Qayd etish lozim, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 iyundagi “Xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tartibini takomillashtirish haqida”gi 620-son qaroriga muvofiq (https://lex.uz/docs/4441142#4444712), ushbu ro‘yxatga kiritilgan, ya’ni xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (QS, THE, ARWU) reytingida birinchi 1000 talik ro‘yxatidan joy olgan xorijiy oliy ta’lim muassasalarida

olingan diplomlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri (maxsus sinovlarsiz) tan olinadi [8]. O’zbekistonda mavjud ba’zi xorijiy universitetlarni keltiramiz (1.22-jadvalga qarang):

1.22-jadval.

O’zbekistonda xorijiy universitetlar

№	Xorijiy universitetlar	Yo‘nalishlari
1.	Westminster International University in Tashkent (WIUT) wiut.uz	Buyuk Britaniyadagi Westminster universitetining filiali Toshkent shahrida 2002-yilidan boshlab ta’lim berib boshlagan. Universitet ekonomika ya’ni iqtisodiyot kabi fanlarni o’qitishga yo’naltirilgan. Quyidagi yo‘nalishlari mavjud: Business Administration Commercial Law Economics With Finance Business Information Systems
2.	Turin Polytechnic University in Tashkent polito.uz	Italiyaning Turin Politexnika universiteti Toshkent shahrida 2009-yildan boshlab ta’lim berib boshlagan. Bu universitet avtomobilsozlik, mashinasozlik kabi fanlarga yo’naltirilgan. Quyidagi yo‘nalishlari mavjud: Mechanical Engineering Industrial and Civil Engineering and Architecture Information Technologies and Programming in Industry (Computer Engineering)
3.	YEOJU technical institute in Tashkent ytit.uz	Architecture and Urban design Civil engineering Renewable energy Tourism International Marketing Preschool education Primary education Korean Philology Business Management International economic relations Beauty aesthetics and fashion design
4.	Management Development Institute of Singapore in Tashkent mdis.uz	Singapurning managimentni rivojlashtirish instuti Toshkentda shahrida 2007-yilda o’z ishini boshlagan. Bu ta’lim dargohida asosan moliya**,** biznes va marketing yo’nalishlari mavjud: Banking & Finance Industrial Management International Hospitality and Tourism Management Applied Travel, Tourism & Hospitality Management Business and Economics Finance, Investment and Risk Management Computer Information Systems for Business Accounting and Finance Business and Financial Management Business and Marketing Management Business and Management Fashion Product and Promotion
5.	Bucheon University in Tashkent but.uz	Koreyaning Bucheon universitetining filiali Toshkent shahrida 2018-yilda o’z ishini boshladi. Ushbu universitet-da boshlang’ich

		ta’lim, arxitektura va kores tili kabi yo’nalishlar o’qitishga yo’naltirilgan. Yo’nalishlar royhati: Department of preschoool education (3+1) Department of architecture (3+1) Department of Korean language and business administration (2+2)
6.	AMITY University in Tashkent amity.uz	Hindistonning AMITY universiteti 2019-yildan boshlab Toshkent shahrida o’z ishini boshladi. Universitet turli yo’nalishlarda ta’lim beradi: Axborot texnologiyalar, Komputer injering, iqtisodiyot, Turizm, Biznes boshqaruvi. Universitetda quyidagilar yo’nalishlar mavjud: IT Computer Science & Engineering Economics Tourism Administration Business Administration
7.	Sharda University www.shardauniversity.uz	Yangi Hindistion universitetlardan biri Shard universiteti. Bu yangi universiteti. Hozirda quyidagi yo’nalishlar mavjud: Computer Science & Engineering Computer Science & Engineering CSE with specialization in Cyber Security and Forensic CSE with specialization in AI & Machine Learning Information Technology Bachelor of Business Administration BBA – Human Resource Management BBA – Entrepreneurship BBA – Marketing BBA – International Business International University Fast Track Programme
8.	British Management University *bmu-edu.uz*	British Management universiteti endi O’zbekistonda. Ushbu universitet yangi, hozirda 2020-2021 o’quv yili uchun qa’bul boshlangan. Hozirda bakalavr va magistura(2021-sentabr oyidan) quyidagi turli yo’nalishlar bor. Bakalavr: Bachelor’s (Bsc) in Banking and Finance Bachelor’s (Bsc) in Finance and Investments Bachelor’s (Bsc) in International Accounting Bachelor’s (Bba) with Project Management Bachelor’s (Bba) with International Logistics & Trade Bachelor’s (Bba) with Digital Marketing Bachelor’s (Bba) with Tourism And Hospitality
9.	Webster University in Tashkent webster.uz	Webster universiteti Toshkent shahridagi filiali Amerika Qo’shma Shtatlari ta’lim tizimi asosida talabalar yuqori bilim berishni universitet o’z oldiga maqsad qilib qoydi. Hozirda ushbu universitet Bachelor’s Degree va Master’s Degree uchun talabalarni qa’bul qilmoqda. Bakalavr: Bachelor of Arts in Economics Bachelor of Arts in Media Studies Bachelor of Science in Business Administration English as a Second Language (ESL) Program

Yurtimizda bu universitetlardan tashqari yana bir qator oliy dargohlari mavjud. Masalan, Rossiya universitetlari filialari ham mavjud:

Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti – msu.uz;

Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti – gubkin.uz;

Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti – rea.uz;

Shuni ham aytib o'tish kerakki, boshqa universitetlari ham mavjud. Ushbu universitetlarni havolarini quyidagi topishingiz mumkin:

Akfa University – akfauniversity.org;

Cambridge International College – cambridge.uz;

Team University – teamuni.uz;

Japan Digital University – jdu.uz;

Ajou University in Tashkent – ajou.uz [32].

"O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Vazirlar Mahkamasining 2021 qil 6 iyuldagi 421-son qarori tasdiqlandi. Unga ko'ra:

2022-yil 1-yanvardan boshlab qo'shma ta'lim dasturlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ekspertizadan o'tkazish tartibi joriy etiladi va faqat ijobiy ekspertiza xulosasiga ega bo'lgan qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etishga ruxsat beriladi;

2022-yil 1-yanvarga qadar qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirayotgan oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan ushbu qo'shma ta'lim dasturlari mazkur qaror talablariga muvofiqlashtiriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida ekspertizadan o'tkaziladi [20].

Qo'shma ta'lim (ikki diplomli) dasturi – O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari o'rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq kadrlar tayyorlashni va bitiruvchilariga oliy ma'lumot olganligi to'g'risidagi barcha xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari joylashgan davlatlarda tan olinadigan kvalifikatsiya (diplom) berilishini nazarda tutuvchi ta'lim dasturi. Filologiya yo'nalishida

OTMlarning xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo‘shma dasturlari reyestri 2021-2022 o‘quv yili uchun ishlab chiqildi (1.23-jadvalga qarang):

1.23-jadval.

2021/2022 o‘quv yili qabuli uchun xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlarining reyestri

№	Oliy ta’lim muassasasi nomi	Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar nomi	Hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasasi nomi va joylashgan davlat
1.	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	**Bakalavriat**	
		Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili	Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		O‘zga tilli guruhlarda rus tili	Adigey davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		Kompyuter lingvistikasi	Adigey davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi
2.	Buxoro davlat universiteti	**Bakalavriat**	
		Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili	Sofiya universiteti, Bolgariya Respublikasi
3.	Qoraqalpoq davlat universiteti	**Bakalavriat**	
		Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili	Linkoln Universitet Kolleji, Malayziya
		Gid hamrohligi va tarjimonlik foaliyati (ingliz tili)	Linkoln Universitet Kolleji, Malayziya
		Magistratura	
		Lingvistika: ingliz tili	Linkoln Universitet Kolleji, Malayziya
4.	Qarsha davlat universiteti	**Bakalavriat**	
		O‘zga tilli guruhlarda rus tili	Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)	Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		Magistratura	
		Lingvistika (ingliz tili)	Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		Lingvistika (rus tili)	Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya Federatsiyasi
5.	Namangan davlat universiteti	**Bakalavriat**	
		O‘zga tilli guruhlarda rus tili	A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi
6.	Samarqand davlat chet tillari intstituti	**Bakalavriat**	
		Filologiya va tillarni o‘qitish: koreys tili	Sunchunyan universiteti (Soonchunhyang university), Koreya Respublikasi
		Filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili	Oltoy davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi

		Filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili	Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili	Malayziya shahar universiteti (City Univercity of Malaysia), Malayziya
		Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili)	
		Magistratura	
		Lingvistika: ingliz tili	Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya Federatsiyasi
7.	Termez davlat universiteti	**Bakalavriat**	
		Turizm	A.G. va N.G. Stoletovlar nomidagi Vladimir davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili)	A.G. va N.G. Stoletovlar nomidagi Vladimir davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi
8.	Urganch davlat universiteti	**Bakalavriat**	
		Filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili	Astraxan davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi
		Magistratura	
		Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (tillar bo‘yicha)	Astraxan davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi
9.	Farg‘ona davlat universiteti	**Bakalavriat**	
		Filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili	Qozon (Volgabo‘yi) Federal universiteti, Rossiya Federatsiyasi

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga xorijiy fuqarolarni o‘qishga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2008 yil 4 avgustdagi 169-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qarorga muvofiq:

xorijiy fuqarolar oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga OTM tomonidan belgilangan tartibda o‘tkaziladigan suhbat natijasiga ko‘ra qabul qilinadi; oliy ta’lim muassasalariga umumiy o‘rta yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ma’lumotiga muvofiq ma’lumotga ega bo‘lgan xorijiy fuqarolar qabul qilinishi mumkin;

chet el fuqarolarini to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati oliy ta’lim muassasasi tomonidan tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha O‘zR fuqarolari uchun belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda belgilanadi [29].

2021/2022 o‘quv yili uchun respublika oliy ta’lim muassasalariga talabalar o‘qishini ko‘chirish bo‘yicha arizalar quyidagi elektron tizimlar orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi:

respublikaning bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa oliy ta’lim muassasasiga yoki bir oliy ta’lim muassasasi doirasida – “transfer.edu.uz”;

xorijiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalaridan – “transfer.dtm.uz” [26].

Interaktiv xizmatlar ro‘yxati shakllantirilgan (1.24-jadvalga qarang):

1.24-jadval.

Interaktiv xizmatlar ro‘yxati

№	Xizmatlar	Havolalar
1.	O‘qish joyidan ma’lumotnoma olish (oliy ta’lim muassasasidan)	havola
2.	Xorijiy davlatda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) uchun elektron ariza yuborish	havola
3.	Xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) uchun qayta elektron ariza yuborish	havola
4.	Yuridik texnikumiga o‘qishga kirish uchun ariza yuborish	havola
5.	Xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha imtihon topshirish xarajatlarini qoplab berishga ariza yuborish	havola
6.	Magistraturaga onlayn hujjat topshirish tizimi	havola
7.	Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash uchun onlayn hujjat topshirish tizimi (ichki)	havola
8.	Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash uchun onlayn hujjat topshirish tizimi (tashqi)	havola
9.	Ikkinchi mutaxassislik uchun onlayn hujjat topshirish tizimi	havola
10.	Kasb-hunar maktablariga onlayn hujjat topshirish tizimi	havola
11.	Akademik litseylarga onlayn hujjat topshirish tizimi	havola
12.	Kollejlarga onlayn hujjat topshirish tizimi	havola
13.	Texnikumlarga onlayn hujjat topshirish tizimi	havola
14.	Tabaqalashtirilgan to'lov-shartnomalarini onlayn taqdim etish axborot tizimi	havola

Abiturientlar uchun oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishdagi imtiyozlar:

1. Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining farzandlari;

2. Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlar va musobaqalar g‘oliblari bo‘lgan bitiruvchilar;

3. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari;

4. «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti sohiblari;

5. «Yilning eng yaxshi tarbiyachisi» respublika tanlovi g‘oliblari;

6. Tibbiyot muassasalari hamshiralarining «Hamshira» respublika tanlovi g‘oliblari;

7. Badiiy akademiyaning tasviriy san’at bo‘yicha respublika tanlovi g‘oliblari;

8. «Nihol» mukofoti sovrindorlari;

9. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining respublika komissiyasi bergan tavsiyanoma sovrindorlari (pedagogika yo‘nalishlariga);

10. To‘liq davlat ta’minotidagi yetim bolalar;

11. Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tab, harbiy tavsiyanomaga ega bo‘lganlar;

12. Chet tilini bilish darajasi to‘g‘risida davlat namunasidagi B1 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega abiturientlar;

13. Harbiy qism qo‘mondonligi va Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti tavsiyanomasiga ega bo‘lganlar [14].

12-modda. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim. Oliy ta’limdan keyingi ta’limni oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganish va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi [1] (1.25-jadvalga qarang):

1.25-jadval.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakllari

Tayanch doktorantura	Doktorantura	Mustaqil izlanuvchilik
falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi	fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi	falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek, harbiy, tibbiyot va boshqa ta’lim tashkilotlarida oliy

ta’limdan keyingi ta’lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Oliy ta’limdan keyingi ta’limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga asosan, 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning *ikki pog‘onali:*

dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura;

dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimi joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son Qarori qabul qilindi.

13-modda. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta’minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta’lim talablari bilan belgilanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustda qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni asosida oliy ta’lim

muassasalari huzurida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha 4 ta mintaqaviy va 17 ta tarmoq markazlar hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazida oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari o‘z malakalarini oshirib kelmoqdalar (1.26-jadvalga qarang):

1.26-jadval.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari

Mintaqaviy markazlar	Tarmoq markazlar
QQDU, BuxDU, SamDU, FarDU	TDTU, TATU, O‘zMU, TDAU, TKTI, TDPU, O‘zDJTU, TTESI, TDIU, TAQI, TTA, O‘zRJTSV, O‘zDSMI, TIQXMMI, TDYU, TDO‘TAU, SamVMI

Ushbu Farmon asosida malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to‘ldirish tamoyillari asosida rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirish tizimi amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, bunda uzluksiz malaka oshirish tizimi mutaxassislik bo‘yicha mustaqil malaka oshirish, muqobil malaka oshirish, ta’lim dasturlari asosida ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida bevosita o‘qish shakllarini o‘z ichiga oladi.

Rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish tizimi quyidagi shakllarni o‘z ichiga oladi:

mutaxassislik bo‘yicha mustaqil malaka oshirish;

muqobil malaka oshirish;

ta’lim dasturlari asosida ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida bevosita o‘qish.

Bunda akademik ilmiy unvoniga ega bo‘lish, xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish yoki stajirovka o‘tash, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilish, himoya qilingan dissertatsiya ishlariga ilmiy rahbarlik qilish, darslik yoki o‘quv qo‘llanma tayyorlash kabi faoliyat turlari muqobil malaka oshirish shakllari sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida ishdan ajragan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) o‘qish umumiy davomiyligi 144 soat etib belgilandi. Nafaqa yoshidagi, uch yoshga to‘lmagan farzandi bor ayollar hamda nogironligi

bo‘lganlarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qishi masofaviy shaklda tashkil etildi. Masofadan o‘qitish kurslarining on-layn va of-layn texnologiyalariga asoslangan dasturiy platformasi, o‘quv-metodik resurslari yaratildi, shuningdek, onlayn ma’ruza va konsultatsiyalar, vebinar kabi zamonaviy shakllari amaliyotga joriy etildi [23].

14-modda. Maktabdan tashqari ta’lim. Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo‘nalishidagi maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Maktabdan tashqari ta’lim bolalarga uzluksiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi. Maktabdan tashqari ta’lim berish tartibi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi [1].

Xalq ta’limi sohasidagi maktabdan tashqari ta’lim tizimining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 30 sentabrdagi PQ-4467-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 maydagi 331-son Qarorida «Barkamol avlod» respublika bolalar maktabining tuzilmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar) «Barkamol avlod» bolalar maktablarining namunaviy tuzilmalari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari to‘g‘risidagi Nizom, respublika «Bolalar kutubxonasi»ning tuzilmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar «bolalar

kutubxonalari»ning namunaviy tuzilmasi hamda «Bolalar kutubxonalari» to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan [5].

Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 5-bobida ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi berilgan.

44-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi. Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi. Ishlab chiqarish ta’limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o‘tmasdan professional ta’lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli. Zarurat bo‘lganda professional ta’lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta’limi ustalarini, shuningdek, tegishli bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, oliy ma’lumoti bo‘lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo‘shimcha mashg‘ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin [1].

45-modda. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari. Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘ladi. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega [1]:

o‘z sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish;

o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish;

zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovasiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

ta’lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek, ta’lim tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a’zosi bo‘lish, xodimlarining vakillari bo‘lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;

o‘z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;

o‘z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalanish;

davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish (davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari uchun);

ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

46-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari. Pedagog xodimlar [1]:

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;

o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi;

axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovasion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratishi;

voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

ta’lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;

o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestasiyadan o‘tishi;

tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonunchilikka, shuningdek, ta’lim oluvchi va ta’lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi. Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta’lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi [1].

Nazorat va muhokama savollari:

1. O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishning qanday huquqiy asoslari bor?
2. O‘zbekistonda qanday ta’lim tizimi turlari mavjud?
3. O‘zbekistonda ta’lim tizimi boshqaruvi nimalarni anglatadi?
4. Ta’lim tizimida qanday modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilgan?
5. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining qanday huquqiy maqomi mavjud?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Taraqqiyot strategiyasining adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishidagi 37-51-maqsadlarini “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:


Maqsad	Maqsad nomi	Maqsadda belgilangan vazifalar
37-maqsad		
38-maqsad		
39-maqsad		
40-maqsad		
41-maqsad		
42-maqsad		
43-maqsad		
44-maqsad		
45-maqsad		
46-maqsad		
47-maqsad		
48-maqsad		
49-maqsad		
50-maqsad		
51-maqsad		

2. Ta’lim turlarini “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:

Maktabgacha ta’lim va tarbiya	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim	Professional ta’lim	Oliy ta’lim

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	Maktabdan tashqari ta’lim	


3. Ta’lim tashkilotini boshqarishni “Klaster” metodi asosida loyihalashtiring:



4. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomini “Toifalash jadvali” metodi asosida loyihalashtiring:

Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi	Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi mazmuni
Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi	
Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari	
Pedagog xodimlarning majburiyatlari	

5. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun boblarini “Venna diagrammasi” metodi asosida loyihalshtiring:



2-MODUL. TARBIYA NAZARIYASI

§ 2.1. TARBIYA NAZARIYASI (GLOBALLASHUV JARAYONLARINING TARBIYAGA TA‘SIRI)

Reja:

1. Tarbiya jarayonining tasnifi, mohiyati va mazmuni.
2. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.
3. Tarbiya metodlari va usullari.
4. Tarbiya turlari.
5. Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi.
6. Globallashuv jarayonlarining tarbiyaga ta’siri

Tayanch so`z va iboralar: tarbiya, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, tarbiya turlari, usullari va vositalari, globallashuv, axborot xurujlari, globallashuvning tarbiyaga ta’siri, globallashuv, axborot xurujlari, globallashuvning tarbiyaga ta’siri, tarbiyaviy aloqalarning to‘g‘ri shakllanishi qonuniyati, tarbiyaning maqsadi va amalga oshiriladigan tarbiyaviy harakatlarning bir-biriga mosligi qonuniyati, ijtimoiy amaliyot bilan tarbiyaviy ta’sirning yo‘nalishi va mazmuni tarbiyalanuvchilarga mos bo‘lishi qonuniyati, obyektiv va subyektiv omillarning umumiy ta’sirini hisobga olish

qonuniyati, o‘z-o‘zini tarbiyalashning intensivligi qonuniyati, tarbiyaga yordam beruvchi jarayonlarning samaradorligi qonuniyati, tarbiyaviy ta’sirning sifati qonuniyati, tarbiyalanuvchining «ichki sohasiga» ta’sir qilish intensivligi qonuniyati, jamiyatga yo‘naltirish tamoyili, tarbiyani hayot va mehnat bilan bog‘lash tamoyili, tarbiyada ijobiy xususiyatlarga tayanish tamoyili, shaxsiy yondashuv tamoyili, tarbiyaviy ta’sirlarning yagonaligi tamoyili, maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili, izchillik va uzluksizlik tamoyili, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi tamoyili, majburiylik, komplekslik, teng ahamiyatlilik, shaxsning ongini shakllantirish metodlari, faoliyatni tashkil etish va jamiyat xulq-atvorining tajribasini shakllantirish metodlari, xulq-atvor va faoliyatni rag‘batlantirish metodlari, aqliy tarbiya, mehnat/texnologik tarbiya, estetik tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy tarbiya, erkin tarbiya, oila tarbiyasi, diniy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, axloqiy tarbiya, maktab tarbiyasi, maktabdan tashqari tarbiya.

Tarbiya jarayonining tasnifi, mohiyati va mazmuni

Tarbiya – bu insonning ma’naviy, axloqiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishiga yo‘naltirilgan maqsadli ta’sir jarayoni. U jamiyat, oilaviy muhit, ta’lim muassasalari va turli ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayoni insonni ijtimoiy muhitga moslashishiga, uning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig’indisi. Tarbiya inson faoliyatining muhim sohasidir. Insonni maxsus tarbiyalash ehtiyojini undagi axloqiy xislatlarni shakllantirish, insoniyatning madaniy merosiga daxldorlikni uyg‘unlashtirish, jamiyat talablariga mos keladigan hayot pozitsiyasini tarbiyalash, shaxsning jamiyatga kerakli va foydali qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va kommunikativ faoliyatni rivojlantirish bilan bog‘liq.

Tarbiya shaxsning va jamiyatning faoliyatini tashkil etishga, shaxsiy va jamoaviy muvaffaqiyatga erishish tajribasini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli Abu Nasr Forobiy insonning ma’naviy kamolotini ta’lim va tarbiya orqali

rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan, Abu Rayhon Beruniy tarbiya va ilm-fan uyg‘unligini ta’kidlagan, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida axloqiy tarbiyaning muhimligini tushuntirgan, Alisher Navoiy insoniy fazilatlar va axloqiy tarbiya haqida ko‘plab fikrlar bildirgan, Anton Makarenko tarbiyada jamoaning o‘rnini ta’kidlagan, Jan-Jak Russo bolalar tarbiyasida tabiat va erkinlikka asoslangan yondashuvni ilgari surgan. Hozirgi jamiyatda tarbiyaning uchta asosiy funutsiyasi bor:

madaniy-ijodiy funksiya (insoniyatning madaniy merosini saqlash, yangi avlodga o‘tkazish va qayta ishlash);

shaxsda gumanizm yoki insonparvarlikni shakllantiruvchi funksiya (bolaning shaxsiy potensialini rivojlantirish);

ijtimoiylashuv va ijtimoiy adaptatsiya funksiyasi (tarbiyalanuvchini jamiyat munosabatlar tizimiga kirishishga tayyorlash).

Tarbiyaning jamiyat hayoti bilan yaqin aloqasi uning turli xalqlarning madaniyati va tarixi, milliy an’analar va urf-odatlari, milliy mentaliteti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tarbiyaning milliy xosliklari tarbiya jarayoni va natijasining asosi bo‘lgan qadriyatlarda, maqsad va vazifalarda, tarbiya jarayonining mazmuni va tashkil etilishida namoyon bo‘ladi.

Milliy o`ziga xosliklarni tarbiyalashni amalga oshirishda XIX asrning mashhur nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan asoslangan madaniyatga moslik tamoyili asosiy rol o‘ynaydi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, inson tarbiyalanadigan va yashashi kerak bo‘lgan joy va vaqtning madaniy xususiyatlarini hisobga olishdir. Lekin madaniyatga moslik tamoyilini amalga oshirish, bolada o‘z xalqining boshqa xalqlardan ustunligini his qilishni tarbiyalashni anglatmaydi. Xususan, A.Disterveg umuminsoniy qadriyatlarni milliy maqsadlardan yuqori qo‘ygan: “Inson – mening ismim, nemis – mening lafzim” [78].

Hozirgi pedagogik konsepsiyalarda tarbiya, pedagogik jarayonining umumiy qismi sifatida qaraladi. Tarbiya jarayonini o‘quv jarayoni bilan solishtirganda, ikki jarayonning ham umumiy xususiyatlari va tarbiya jarayonining aniqligini

koʻrsatuvchi oʻziga xos xususiyatlari ajratiladi. Tarbiya jarayonining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilarda aniqroq namoyon boʻladi:

koʻpfaktorlik (tarbiyaga oʻqitishdan koʻra koʻproq omillar ta’sir qiladi, shu jumladan, ba’zi omillar ta’sirini avvaldan aniqlashning imkoni yoʻq);

natijalarning oʻzgaruvchanligi (tarbiya natijalarini oʻqitish natijalariga nisbatan aniqlash va qayta ishlash qiyin);

davomiylik (tarbiyada aniq ijobiy natijalarga erishish oʻqitishga qaraganda koʻproq vaqt talab etadi);

uzluksizlik (insonni tarbiyalash faqat ta’lim jarayonida emas, balki oilada ham, oila va maktabdan tashqari boshqa subyektlar bilan oʻzaro ta’sirda ham yuz beradi;

hatto yoshlarga boʻlgan erkin muloqot ham shaxsga tarbiyaviy ta’sir koʻrsatadi);

kerakli sifatlarni shakllantirishning komplekskligi (oʻquv materialini qismlarga boʻlib, modullar orqali oʻzlashtirish mumkin, lekin tarbiyani avval turlarga ajratib, keyin ularni navbat bilan shakllantirib boʻlmaydi).

Demak: tarbiya jarayoni-koʻpfaktorli, kompleks, davomiy, natijalarning oʻzgaruvchanligi va noaniqligi bilan tavsiflanadi.Tarbiya jarayonining dialektikasi uning uzluksiz rivojlanishida, dinamikaligida, harakatchanligida, oʻzgaruvchanligida namoyon boʻladi. U ichki va tashqi ziddiyatlarda oʻzini koʻrsatadi. Shaxsning shakllanishining barcha bosqichlarida namoyon boʻladigan asosiy ichki ziddiyatlardan biri - uning yangi ehtiyojlari bilan ularni qondirish imkoniyatlari orasidagi ziddiyatdir. Bu «mos kelmaslik» odamni faol ishlashga, tajribasini toʻldirishga, yangi bilimlarni olishga, me’yorlar va qoidalarni, xulq-atvor shakllarini oʻzlashtirishga majbur qiladi.

Tashqi ziddiyatlar shaxs yashayotgan muhitning talablari va shaxsning ularga moslashish imkoniyatlari orasida namoyon boʻladi. Tashqi ziddiyatlar tarbiya jarayonining yoʻnalishlariga va natijalariga juda katta ta’sir koʻrsatadi. Masalan, maktab va oila oʻrtasidagi ziddiyatlar, oilaning pedagoglar talablariga qarshi chiqishi juda yomon ta’sir koʻrsatadi. Gap va amal oʻrtasidagi ziddiyat koʻpincha tarbiyadagi koʻplab qiyinchiliklar va kamchiliklarga sabab boʻladi; shuningdek, gaplashish usullarining ustunligi va ularning shaxsning amaliy xulq-atvoriga nisbatan ajralib

turishi. Har qanday ziddiyat tarbiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin, agar quyidagi asosiy shartlar amalga oshirilsa:

ziddiyat muhim bir narsa sifatida tushuniladi va uni yengib o‘tish hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinadi;

ziddiyatni yengish tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun imkoniyati bo‘lishi kerak;

ziddiyatlar bosqichma-bosqich, har bir qadamda oldingi tajribaga tayangan holda yengib o‘tilishi lozim.

Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari

Tarbiya qonuniyatlari tarbiya jarayonida paydo bo‘ladigan hodisalar, ularning o‘zaro aloqalari va tarbiya jarayoniga ta’sir ko‘rsatayotgan omillar hamda tarbiya jarayonida olinadigan samarali natijalarga ta’sir etuvchi komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari sifatida pedagog olimlar quyidagilarni sanab o‘tadi:

1. Tarbiyaviy aloqalarning to‘g‘ri shakllanishi (agar pedagog va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi aloqalar e’tiborga olinmasa bir xil tarbiya ta’siri turli natijalarga olib kelishi mumkin);

2. Tarbiyaning maqsadi va amalga oshiriladigan tarbiyaviy harakatlarning bir-biriga mosligi (tarbiyaviy ta’sirlar, aloqalar, shart-sharoitlar, ishlash usullari va tarbiya metodlari jamiyatning real ehtiyojlariga mos kelmasa, tarbiya jarayoni muvaffaqiyatga erishmaydi).

3. Ijtimoiy amaliyot bilan tarbiyaviy ta’sirning yo‘nalishi va mazmuni tarbiyalanuvchilarga mos bo‘lishi lozim (tarbiya jarayonida odam o‘ylaydi, harakat qiladi, bilim oladi va amaliyotda tajriba ega bo‘ladi, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtiradi va darhol ularni amaliyotda sinab ko‘radi. Bunda pedagogning so‘zi va ishi orasida farq bo‘lmasligi muhim, pedagog o‘rgatgan narsalar bolaning hayotiy tajribasida tasdiqlanishi va qo‘llanilishi kerak);

4. Obyektiv va subyektiv omillarning umumiy ta’sirini hisobga olish (subyektiv omillar – bu pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari bo‘lib, ular

o‘zaro munosabatga ta’sir qiladi. Obyektiv omillar tarbiya sharoitlarini, masalan, moddiy, pedagogik va boshqalarni ko‘rsatadi);

5. O‘z-o‘zini tarbiyalashning intensivligi (o‘z-o‘zini muvaffaqiyati tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchi o‘zini to‘g‘ri baholashni o‘rganishi, o‘zida ijobiy va salbiy tomonlarni sezishi, hayotiy rejalarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni yengishga yordam beradigan iroda kuchiga ega bo‘lishi talab etiladi);

6. Tarbiyaga yordam beruvchi jarayonlarning samaradorligi (agar ta’lim jarayoni samarali tashkil etilsa va shaxs rivojlanishida muvaffaqiyatga erishilsa, tarbiya natijalari ham yuqori bo‘ladi);

7. Tarbiyaviy ta’sirning sifati (tarbiyalanuvchilarning faoliyatini, muloqotini, aqliy, emotsional va irodaviy sohalarini maqsadga muvofiq tartibda, tizimli va rejali rivojlantirish nazarda tutiladi);

8. Tarbiyalanuvchining «ichki sohasiga» ta’sir qilish intensivligi (“ichki sohasi” – shaxsning motivatsiyasi, ehtiyojlari, emotsiyalari va intellekt tizimi bo‘lib, tarbiya jarayonida tashqi ta’sirlar tarbiyalanuvchining ichki muvaffaqiyatiga aylanadi).

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiya jarayonini tashkil qilishga oid umumiy talablarni aks ettiradigan asosiy qoidalardir. Tamoyillar tarbiya jarayonini ilmiy tahlil qilish asosida shakllantiriladi, ular tarbiyaning qonuniyatlari, maqsadlari va vazifalari, pedagogika fanning rivojlanish darajasi, mavjud ta’lim tizimining imkoniyatlari bilan bog‘lanadi. I.P.Podlasiy quyidagi tarbiya tamoyillari tizimini sanab o‘tadi [68]:

Jamiyatga yo‘naltirish tamoyili tarbiya jarayonida bolani faol jamiyat hayotiga tayyorlash, uni jamiyat a’zosi bo‘lishga o‘rgatish kerakligini ta’kidlaydi.

Tarbiyani hayot va mehnat bilan bog‘lash tamoyili tarbiya bolani kattalar hayotining amaliy sharoitlarida mehnat faoliyatiga yo‘naltirishi, o‘z mehnatiga va boshqalarning mehnatiga munosabatni shakllantirish, mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, kasb tanlashda yordam berish kerakligini anglatadi.

Tarbiyada ijobiy xususiyatlarga tayanish tamoyili shunday ma’noga ega: ijobiy fazilatlarni ko‘rish, ularni rivojlantirish va bu fazilatlar orqali kamchiliklarni yengish.

Tarbiyaning gumanizm tamoyili pedagogdan bolaning huquq va erkinliklariga hurmat ko‘rsatishni, tarbiyalanuvchining kerakli fazilatlarni shakllantirishni talab qiladi.

Shaxsiy yondashuv tamoyili har bir tarbiyalanuvchi uchun individual yondashuvni, ularga eng mos metod, usul, vosita va tarbiya shakllarini tanlashni talab qiladi; bu tamoyil tarbiyada bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish orqali amalga oshiriladi va tarbiya insonning ijtimoiylashuviga xizmat qilishi kerak.

Tarbiyaviy ta’sirlarning yagonaligi tamoyili turli tarbiya subyektlari tomonidan bolaga qo‘yilgan talablarning yagona va ziddiyatsiz bo‘lishini, pedagogning o‘zi ham bolada tarbiyalashni xohlagan fazilatlarga mos bo‘lishini anglatadi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili – tarbiya aniq maqsadga ega bo‘lishi lozim.

Izchillik va uzluksizlik tamoyili – tarbiya uzluksiz davom etuvchi jarayondir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi tamoyili – tarbiya jarayoni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim.

Tarbiya tamoyillarini amalga oshirishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

majburiylik (tamoyillar har qanday pedagogik harakatda majburiy tarzda bajarilishi kerak, aks holda tarbiya jarayoniga jiddiy zarar yetkazilishi mumkin);

komplekslik (barcha tamoyillar bir vaqtning o‘zida amalga oshirilishi kerak, bir tamoyilni bugun amalga oshirib, ertaga boshqa tamoyilni amalga oshirish mumkin emas);

teng ahamiyatlilik (barcha tamoyillar bir xil darajada muhimdir, ular orasida muhim va kam muhimlari yo‘q).

Tarbiya metodlari va usullari

Tarbiya metodi – bu tarbiyalanuvchilarning ongiga, irodasiga, his-tuyg‘ulariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazish usuli bo‘lib, ularda muayyan fazilatlarni shakllantirish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni shuningdek, shaxsning ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi, o‘zini-o‘zi amalga oshirish jarayonida faoliyatni boshqarish usuli sifatida ham ta’riflash mumkin. Tarbiya metodlarining turli klassifikatsiyalari mavjud bo‘lib, tarbiya metodlarining asosiy klassifikatsiyasi ularning yo‘nalishiga ko‘ra amalga oshiriladi (G.I.Shukina, Yu.K.Babanskiy [45]). Metodning yo‘nalishi – bu kompleks

hodisa bo‘lib, unga maqsad (nega qo‘llaniladi), mazmun (nima shakllantiriladi), jarayon (qanday ta’sir ko‘rsatiladi, tarbiyalanuvchiga ta’sir qilish usullari) kiradi.

Har qanday metod o‘ziga xos yaxshi yoki yomon emas, uning samaradorligi qo‘llaniladigan sharoitlarga bog‘liq. To‘g‘ri tanlangan va moslashgan metodlar istalgan natijalarga olib keladi va tarbiya jarayonini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Tarbiya usullari pedagogik vazifalarni bajarish uchun o'quvchilarni ongini, his-tuyg'ularini, xulq-atvorini ta'sir qilishning aniq yo'llari bo‘lib, o'quvchining ongiga, iroda, his-tuyg'ulariga ta'sir qilish usullari va o'zaro aloqalarni o‘z ichiga oladi. Tarbiyaning usullari ba'zan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vositalar va uslublarning tizimi deb ta'riflanadi. Bu klassifikatsiyaga ko‘ra, tarbiya metodlarining uchta asosiy guruhi ajratiladi:

shaxsning ongini shakllantirish metodlari;

faoliyatni tashkil etish va jamiyat xulq-atvorining tajribasini shakllantirish metodlari;

xulq-atvor va faoliyatni rag‘batlantirish metodlari (2.1-jadvalga qarang):

2.1-jadval.

Tarbiya metodlarini yo‘nalishiga ko‘ra klassifikatsiyalash

Yo‘nalish	**Mazmun (metodlar guruhi)**	**Maqsad**	**Jarayon (metodlar)**
Shaxsning ongini shakllantirish metodlari	Jamiyat xulq-atvorining to‘g‘ri shakllari, ijtimoiy va madaniy normalar haqida bilim va tasavvurlar, ularni so‘zda qabul qilishni shakllantirish	Bolalarda ijtimoiy xulq-atvorning to‘g‘ri ko‘rinishlari haqida bilim va tasavvurlar shakllantirish	Hikoya, suhbat, leksiya, hisobot, bahs, namuna, ko‘rsatma, tushuntirish, izohlash, ishontirish
Shaxsni ahloqini shakllantirish metodlari	Faoliyatni tashkil etish va jamiyat xulq-atvorining tajribasini shakllantirish Tarbiyalanuvchilarga jamiyat xulq-atvorini to‘g‘ri o‘rgatish	Tarbiyalanuvchilarga jamiyat xulq-atvorini to‘g‘ri o‘rgatish	Namuna ko‘rsatish, mashq qilish, odatlantirish, pedagogik talab, topshiriq, jamiyat fikri, tarbiya jarayoni
Xulq-atvor va faoliyatni rag‘batlantirish metodlari	Shaxs xulq-atvorini to‘g‘ri rag‘batlantirish	To‘g‘ri xulq-atvorni rag‘batlantirish uchun motivatsiya shakllantirish	Tanlov, rag‘batlantirish, jazo, o‘z o‘zini tarbiyalash

Tarbiya usuli – umumiy metodning bir qismi, alohida harakatdir. Tarbiyaning usullari o'z mazmunini quyidagi orqali namoyon qiladi:

tarbiyalanuvchiga bevosita ta'sir (misol, talab, odatlantirish);

tarbiyalanuvchini munosabatini o'zgartirishga majbur qiluvchi sharoitlar va vaziyatlarni yaratish;

jamoaviy fikrni yaratish;

pedagog tomonidan tashkil etilgan muloqot, faoliyat;

ta'lim maqsadida axborot uzatish jarayonlari, keyin esa o'z-o'zini ta'minlash;

san'at va ijod dunyosiga kirish.

Tarbiya jarayonida bir qator metod va vositalar qo‘llaniladi. Ishontirish – nasihat, tushuntirish, dalillar keltirish orqali tarbiya berish. Rag‘batlantirish va jazolash – insonning yaxshi xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, noto‘g‘ri xatti-harakatlarni tuzatish. O‘rnak ko‘rsatish – pedagog yoki ota-onalar shaxsiy namuna orqali tarbiya berishlari mumkin. Mashqlar va odatlar shakllantirish – ma’lum harakatlarni muntazam takrorlash orqali odatga aylantirish. Muammoli vaziyatlar yaratish – shaxsni fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish

Tarbiya vositasi – bu usul emas, lekin hali metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasidir, ammo mehnatni ko‘rsatish, baholash, ishdagi xatolarni ko‘rsatish – bu vositani tarbiya maqsadida qanday ishlatishni tashkil qiladigan usullardir. Tarbiya vositalariga pedagogning nutqi, shuningdek, turli faoliyatlar: mehnat, o‘yin, ta’lim kiradi. Tarbiyaning alohida vositasi – kommunikativ faoliyat (muhokama)dir, chunki muhokamada faqat ma’lumot almashish emas, balki ishtirokchilarning o‘zaro ta’siri ham ro‘y beradi. Vositalarga shunga qo‘shimcha, tarbiya jarayoniga yordam beradigan har xil obyektlar (plakatlar, rasmlar, reproduksiyalar, musiqa va san’at asarlari, atrof muhitning estetik bezaklari va boshqalar) kiradi.

Har qanday metod amalga oshirilishda muayyan vositalar va usullardan foydalanilishi sababli, amaliyotda metodni usullar va vositalar tizimi sifatida ta’riflash mumkin. Shunga qo‘shib, har bir metodning strukturasida vositalar va usullarning turli kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin, bu esa metodni qo‘llashning aniq shart-sharoitlariga moslashish imkonini beradi.

Tarbiya turlari

Aqliy tarbiya. Aqliy rivojlanishga, shuningdek, atrof-muhitni va o‘zini mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat faoliyatiga mas’uliyatli va ijodiy munosabatni shakllantirish hamda kasbiy tajriba orttirishga yo‘naltirilgan.

Estetik tarbiya. Estetik dunyoqarashni shakllantirib, go‘zallikni ko‘rish va idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Fuqarolik tarbiyasi. Ushbu tarbiya turi natijasida inson oilasi, atrofdagilar va Vatanga nisbatan mas’uliyatli va hurmatli munosabat shakllantiradi.

Iqtisodiy tarbiya. Insonning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan jarayon.

Ekologik tarbiya. Tabiat va yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarning ahamiyatini anglashni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Huquqiy tarbiya. Huquq va majburiyatlarni tushuntirish bilan birga, ularning buzilishiga javobgarlikni ham o‘rgatadi.

Erkin tarbiya. Bolaning atrof-muhitni o‘rganish jarayonida erkin rivojlanishiga ko‘maklashish va yo‘naltirishni nazarda tutadi.

Oila tarbiyasi. Har qanday insonning asosiy ijtimoiylashuv tarkibiy qismi hisoblanadi. Oila doirasida bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi va uning natijalari oilaning ta’lim darajasi hamda ijtimoiy mavqei bilan chegaralanadi. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar, hayot tarzi va qadriyatlar tarbiya natijasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Diniy tarbiya. Diniy dunyoqarashni shakllantirish, muayyan axloqiy qoidalarni singdirish va diniy marosimlar orqali dunyoni muqaddaslashtirish tamoyillariga asoslangan.

Ijtimoiy tarbiya. Ijtimoiylashuvni tartibga soluvchi tarkibiy qism. Bu bosqichma-bosqich maxsus sharoitlar yaratish va ular ichida odamlar, jamoalar va

Axloqiy tarbiya. Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va jamiyat tomonidan unga yo‘naltirilgan ta’sirni ifodalaydi. Bu jarayon shaxsiy va tabiiy tarzda kechadi.

Maktab tarbiyasi. O‘quv muassasasi ichida o‘quv jarayonini tashkil etish. Bu turda asosiy rol o‘qituvchiga tegishli bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida ijobiy muloqot va psixologik muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabdan tashqari tarbiya. Maktabdan tashqarida amalga oshiriladi, ammo tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qiladi. U maxsus ta’lim-tarbiyaviy muassasalar, tashkilotlar va turli jamiyatlar tomonidan tashkil etiladi.

Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi

Globallashuv tushunchasining mazmun-mohiyati. Bu jarayon qadim zamonlarda boshlangan, Rim imperiyasi O'rta Yer dengizi ustidan hukmronlik qilgan. Ikkita Jahon urushlari to'xtatib turolmasdi va uning yakunlanishi barcha davlatlarni bir butunga birlashtirib turadigan bo'lib, hatto qadimgi yunon mutafakkirlari Diogenes tomonidan ham taxmin qilingan. Ushbu jarayonning manbai iqtisodiyotning rivojlanishi. Har qanday yagona davlat endi yopiq tizim emas: erkin savdo, kapital oqimlari va soliq va majburiy qisqarishlar kuzatiladi. Shu asosda davlatlarning milliy suverenitetini buzadigan yagona tarmoq bozor iqtisodiyoti shakllantiriladi. Natijada, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarni birlashtiradigan mamlakatlarning jahon integratsiyasi mavjud. Globallashuv tushunchasi barcha to'siqlar va chegaralarni bosqichma-bosqich yo'q qilish va yagona jamiyatni yaratish bilan bog'liq.

Globallashuv tarafdorlarii kimlar va ular nimani xohlashadi? Bu jarayon avvalo iqtisodiy jihatdan bo'lgani uchun dunyodagi yirik kompaniyalar va global monopoliyalar vakillari birlashtirilgan jamiyat g'oyasi uchun kurashmoqda. Ular mehnat qonunchiligini soddalashtirishni istaydilar, chunki buning uchun ko'proq moslashuvchan mehnat bozori talab qilinadi. Bundan tashqari, ular davlat ustidan nazoratni kamaytirishga va hatto hukumatning o'zlarini nazorat qilishga harakat qilishadi. Globallashuvning mohiyati to'siqsiz umumiy bozorni yaratishdan iborat, dunyodagi yagona totalitar hukumat bu dunyoning qudrati hamma narsani boshqaradigan markazdir.

Globallashuvning sabablari. Globallashuv bozor-kapitalistik munosabatlarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Yevropa savdosi va Yevropa jahon iqtisodiyotining rivojlanishi bilan barqaror iqtisodiy o'sish boshlanadi. Globallashuv

jarayoni Amerikani mustamlaka qilish, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdo-sotiqning o'sishi va texnologik taraqqiyotning rivojlanishi va Internetning paydo bo'lishi bilan uni davom ettirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, JST, Yevropa Ittifoqi singari ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar, bu globallashuv va uning dunyoni qanday o'zgartirganligi. Ushbu tashkilotlarga vakolat berish bilan ularning siyosiy ta'siri sezilarli darajada oshdi. Insonlarning migratsiyasi va sarmoyaning erkin harakatlari fonida davlatning o'z fuqarolariga berilgan kuchlari kamaydi. Natijada, jahon siyosatining muammolari G-8 turidagi ochiq klublar va yopiq yashirin jamiyatlar - Masonlar va boshqalar tomonidan hal etila boshlandi.

Globallashuv belgilari. Bu jarayon inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Globallashuvning asosiy omillari:

1. Milliy davlatlarning zayıflaması.

2. NATO, BMT kabi jahon tashkilotlarining paydo bo'lishi va ularning kuchini oshirish.

3. Globallashuv jarayoniga qiziqqan kishilar uchun bu erkin savdo, kapital harakatlari va soliqlarning kamayishi shakllanishidir.

4. Reklama taraqqiyoti.

5. Eksport va import hajmini oshirish.

6. Qimmatli qog'ozlar birjasining aylanmasi.

7. Turli qit'alarda joylashgan korxonalarni birlashtirish.

8. Madaniyatlarni birlashtirish, xalqaro tilning paydo bo'lishi.

9. Xalqaro turizmni rivojlantirish [11].

Globallashuvning tarozi va kamchiliklari. Butun dunyodagi siyosatchilar va olimlar bu jarayonning odamlarning hayotidagi o'rni haqida bahslashmoqda. Biroq globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini inkor eta olmaydi. Ha, u xalqaro raqobatni yuzaga keltirdi va bu kompaniya o'z mahsulotlarining sifatini yaxshilashga, texnik taraqqiyotni tezlashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga majbur qiladi. Shu bilan birga, transmilliy kompaniyalar davlatni bosim ostiga olib, ularni o'z fuqarolarining manfaatlarini maksimal foyda bilan ta'minlashga majbur qilishmoqda,

ammo ularning barchasi oligarxlarning qo'liga topshiriladi va oddiy fuqarolar faqat kambag'al bo'lib qoladilar.

Globallashuv jarayonlari. Dunyoni yagona tizimga aylantirishning mahorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ishlab chiqish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish;

b) globallashuvning oqibatlari o'lchov iqtisodiyoti bilan bog'liq. Iqtisodiyotda sakrashlar kamaydi, buning oqibatida narxlar pasayishi bo'ldi;

c) bozor munosabatlarining barcha subyektlari xalqaro savdoda qiziqish uyg'otadi va bu faqat globallashuv jarayonini tezlashtiradi;

d) zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, mehnat unumdorligini oshiradi;

e) uchinchi dunyo mamlakatlari rivojlangan davlatlarga erishib, iqtisodiy vaziyatni yaxshilash imkoniyatiga ega.

Globallashuvning kamchiliklari. Globallashuvning nima ekanligi haqidagi tushunchani aks ettiradigan universal integratsiya va unifikatsiya qilish kiruvchi oqibatlarga olib keldi, ular orasida:

1. Sanoatning yo'q qilinishi, ishsizlik, qashshoqlik. Buning barchasi globallashuvning tengsiz taqsimlanishi va kuchli kompaniyalar katta foyda keltirishi bilan birga, raqobatbardosh bozorni yo'qotish keraksiz bo'lib qolmoqda.
2. Globallashuvning salbiy ko'rinishi ham tug'ilishni qisqartirishga qaratilgan.
3. Iqtisodiyotni deinstrializatsiya qilish qayta o'qitish zarurligiga olib keladi. Natijada, inson hayoti uchun 5 yoki undan ortiq kasblarni o'zgartirish mumkin.
4. Globallashuvning salbiy oqibatlari atrof-muhitning yomonlashuvida yotadi. Dunyo falokat yoqasida turibdi: noyob jonivorlar o'ladi, iqlim isitadi, havoning tiqilib qolishi va hokazo.
5. Globallashuv va uning oqibatlari mehnat qonunlariga ta'sir ko'rsatdi. Ishchilar soni ortib bormoqda, norasmiy ishlaydi. Ularning huquqlari hech kim tomonidan himoyalanmagan.
6. Spekulyativ iqtisodiyotning o'sishi, ishlab chiqarishni monopollashtirish.
7. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farqni oshirish [11].

Globallashuv turlari. Bu jarayonda ko'plab mamlakatlar ishtirok etmoqda. Jahon jamiyati hayotining barcha sohalari o'zgarishlarga uchraydi. Globallashuv shakllari odamlar hayotining ustun tomonlari bilan belgilanadi, ikkinchisi - savdo, iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni kengaytirishdir. Dunyoning deyarli barcha davlatlari moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarini boshdan kechirdilar. Siyosiy sohada davlatlar va ayrim shaxsiy kuchlar o'rtasida barqaror aloqalar mavjud. Bundan tashqari, turli xalqlarning biznes madaniyatlarini birlashtirish bor (2.2-jadvalga qarang):

2.2-jadval.

Globallashuv turlari

№	Globallashuv turlari	Globallashuvning mazmun-mohiyati
1.	Iqtisodiy globallashuv	Bu dunyo taraqqiyotining asosiy muntazamligi. Dunyo ahvolini hisobga olgan holda, tarmoqlar tuzilishi, ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, texnologiya va axborotni katta iqtisodiy makonga aylantirish aniqlanadi. Jahon moliya bozorlari kuniga 24 soat ishlaydi va poytaxtlar bu qadar tez harakat qiladi, bu esa barqaror iqtisodiy tizimlarning vujudga kelishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, bu esa globallashuvdir. Bu jarayon iqtisodiyotning periferiya modelini aniqlaydi
2.	Siyosiy globallashuv	Uning asosiy natijasi - hukumat subyektlarining markazlashtirilishi. Milliy davlatlar zaiflashmoqda, ularning suvereniteti o'zgarib, kamayib bormoqda. Siyosatda globallashuv katta transmilliy korporatsiyalarning rolini oshirishga olib keladi va bu bilan mintaqalar davlatning ichki ishlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Aniq bir misol Yevropa Ittifoqi, mintaqalarning ahamiyatini va ularning Yevropa Ittifoqidagi rolini belgilaydi
3.	Madaniy globallashuv	Bu jarayon ikkinchi darajali, ammo odamlarning milliy urf-odatlardan qanday qilib asta-sekin tark etayotgani, umuminsoniy qadriyatlarga va madaniy qadriyatlarga o'tishi mumkin emas, bu mumkin emas. Madaniyatning globallashuvi maktabdan o'yin-kulgi va modaga qadar barcha sohalarga ta'sir ko'rsatdi. Butun dunyo bo'ylab ular bo'sh vaqtni o'tkazish va boshqa xalqlarning oshxonalaridan kelgan ovqatlarni sevib qolgani kabi, taxminan xuddi shunday libos kiyishni boshladilar. Kitoblar bir nechta tillarga tarjima qilinib, ko'plab mamlakatlarga ketadi

Couchsurfing juda mashhur bo'ldi. Dunyoni ko'rish, boshqa xalqlarning urf-odatlari va madaniyati bilan tanishish uchun odamlar odamlarni uylariga taklif qiladilar, shuningdek sayyoradagi boshqa har qanday nuqtaga butunlay begona odamlarni tashrif buyuradilar. Bu Internet tarmog'i tomonidan targ'ib qilinmoqda, buning natijasida odamlar boshqa millat vakillari bilan muloqot qilish, tajriba va bilimlarni almashish imkoniga ega bo'ldilar.

Zamonaviy dunyodagi globallashuv. Ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi shaxslar uni boshqarish mumkin emasligini va tabiiy xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi, ammo agar pul siyosatini isloh qilish uchun oqilona protektsion siyosatni olib boradigan bo'lsak, salbiy oqibatlarni kamaytirish va o'z qadr-qimmatini oshirish mumkin. Global iqtisodiyotning salbiy ta'siridan himoyalangan milliy yoki mintaqaviy "erkin savdo hududlarini" shakllantirish kerak. Zamonaviy globallashuv dunyodagi muayyan turdagi milliy madaniyatni ommalashtiradi, biroq ekspertlar ba'zi mamlakatlarda milliy qadriyatlar nafaqat yo'qolib qolmay, balki qayta tiklanishiga ham ishonadilar. Hatto dunyodagi tarqalgan McDonald's tarmog'i ham mahalliy aholi ovqatlanish odatlarini hisobga oladi va mahalliy odatlar va preferentsiyalarga muvofiq ovqatlarni taklif qiladi [11].

Globallashuvning xususiyatlari. Globallashuvning boshlanishi haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Iqtisodchi Aldo Ferrer (1927-2016) uchun bu hodisa 1492-yilda boshlandi, chunki shu paytdan boshlab sayyorani birlashtirgan dengiz tarmog'i tashkil etildi. Boshqa tomondan, faylasuf Marshal Maklyuan (1911-1980) 1960-yillarning boshlarida ommaviy axborot vositalari mamlakatlarni real vaqt rejimida bog'lab turadigan global aloqani o'rnatadi. Boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, globallashuv 1958-yilda odamlarning Oyga kelishi bilan birga chipni ixtiro qilish bilan boshlangan. Ushbu jarayon 1969-yilda insoniyat tarixidagi eng muhim va inqilobiy ixtirolardan biri bo'lgan Internet yaratilishidan boshlangan deb hisoblanadi. Biroq, globallashuvning boshlanishi, Sovet Ittifoqi tarqatib yuborilgan va 1989-yilda Berlin devorining qulashi sodir bo'lgan Sovuq Urushning oxiriga to'g'ri keladi.

Bugungi globallashuv jarayoni. Hozirgi kunda o'zlarini globallashuv targ'ibotchilari deb hisoblaydigan ba'zi xalqaro tashkilotlar mavjud, masalan Jahon Savdo Tashkiloti (JST), Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVF). Biroq, globallashuv bu siyosiy institutlardan mustaqil ravishda boshqariladigan fuqarolik va tijorat jarayonidir. Shunga qaramay, globallashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashdan iborat Jahon iqtisodiy forumi deb nomlangan xususiy tashkilot mavjud [87] (2.3-jadvalga qarang):

2.3-jadval.

Globallashuvning xususiyatlari

№	Globallashuv xususiyatlari	Xususiyatlarning mazmun-mohiyati
1.	Bu dinamik jarayon	Globallashuv har bir millat qonunlariga moslashishi shart bo'lmagan dinamik va uzluksiz hodisadir
2.	Yangi bozorlarni yaratish	Globallashuv mamlakatlar o'rtasidagi jismoniy to'siqlarni keskin kamaytirishni nazarda tutadi. Bu bozorni diversifikatsiya qilish va kengaytirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga imkon berdi. Diversifikatsiya natijasida yangi bozorlar paydo bo'ldi. Globallashuvning ayrim tanqidchilari, bu boy mamlakatlar uchun kambag'al mamlakatlar bilan ishlash imkoniyatlaridan foydalanish uchun ideal maydon yaratganligini ta'kidlamoqdalar, chunki bu mamlakatlardagi ishchi kuchi arzonroq
3.	Telekommunikatsiya bozorini ekspluatatsiya qilish	Globallashuv telekommunikatsiya bozorini doimo oziqlantirib turadi, chunki u millatlar o'rtasida ishtirok etish va ittifoq tarmoqlarini o'rnatishga mas'uldir. Klaus Bodemerning matniga ko'ra, 1995 yilda ushbu bozor bir trillion uch yuz ming million dollarga etdi
4.	Kompyuter jamiyatining kelib chiqishi	Globallashuv hodisasi axborot jamiyatining tug'ilishini vujudga keltirdi, bu erda yaqin kelajakda aholi ikki sinfga bo'linadi: raqamli savodli va aloqa tizimlari yoki texnologik ishtiroki bo'lmaganlar
5.	Erkin savdoni tashkil etish	Globallashuv jarayoni erkin savdoni qo'llab-quvvatlaydi va ko'paytiradi, natijada dunyo mamlakatlari o'rtasida xizmatlar va tovarlar bilan savdo qilinadigan shartnomalar amalga oshiriladi; bu ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiyotni ko'paytirish maqsadida
6.	Xalqaro moliya tizimi	Globallashuv paydo bo'lishi bilan moliya tizimi baynalmilallashishi kerak edi, bu esa jahon kapital bozoriga olib keldi. Hozirgi kunda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon Banki kabi institutlar mavjud bo'lib, ularning javobgarligi global korporatsiyalarni himoya qiladigan moliyaviy siyosatni ishlab chiqishdir
7.	Turli madaniyatlar o'rtasidagi almashinuv	Globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlarida qadriyatlar, urf-odatlar va urf-odatlar almashinishini keltirib chiqardi. Aloqa tarmoqlari tufayli odamlar minglab chaqirim uzoqlikda bo'lishiga qaramay, aloqada bo'lishlari mumkin. Biroq, bu ko'proq konservativ bo'lgan jamiyatlarda tortishuvlarni keltirib chiqardi
8.	Xalqaro qoidalar	Globallashgan dunyo har bir mamlakat yoki mintaqaga nisbatan global qoidalarga ustuvor ahamiyat beradi. Bu jinoyatchilik, biznes, intellektual mulk, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat standartlari, sog'liqdan foydalanish, raqobat siyosati va boshqa jihatlar kabi xalqaro qoidalarni ishlab chiqadigan dunyo tashkilotlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro qoidalar, ko'p hollarda, mahalliy qoidalarga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega. Globallashuvni yomonlashtiradigan ayrimlarning fikriga ko'ra, bu holat ayrim mamlakatlar uchun zararli bo'lishi mumkin, chunki bu avtonomiyani kamaytirishi mumkin
9.	Suverenitetga tahdid	Globallashuv doirasida xalqaro tashkilotlar, aksariyat hollarda, mamlakatlarning mahalliy qoidalaridan tashqariga chiqadigan qoidalarni ilgari surmoqdalar. Olimlarning ta'kidlashicha, buning

		natijasida har bir millatning ichki qonunlari past baholanib, savdo, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy kabi turli sohalarda salbiy natijalarga olib keladi
10.	Xalqaro ijtimoiy harakatlar	Globallashuv turli mamlakatlardagi odamlarga o'zaro ta'sir o'tkazishga va shu kabi xavotir va manfaatlarga muvofiq guruhlar tuzishga imkon beradi. Shu tufayli, ijtimoiy harakatlar atrof-muhitni muhofaza qilish, qochqinlarni himoya qilish, kam ta'minlangan odamlarga g'amxo'rlik qilish va boshqa sohalarda sezgir ravishda paydo bo'lishini ko'rish mumkin
11.	bag'rikenglik	Globallashuv turli mintaqalardagi odamlarning umumiy makonda birga yashashiga olib keldi, bu ularni kuzatishga va o'zaro munosabatda bo'lishga undaydi. Globallashuv, shuningdek, boshqa ko'rinishlar qatorida kino, televidenie, adabiyot va san'at orqali turli xil haqiqatlarni bilishga imkon beradi va ularni o'z kontekstidan tushunish uchun joy beradi

Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi. Agar tarixga nazar tashlasak, o‘z faoliyatida boshi berk ko‘chaga kirib qolganda, hamma vaqt ilmiy-texnikaviy yangilikka intilgan va erishilgan muvaffaqqiyat evaziga o‘z ko‘chasini ochiq qilib olgan: olov paydo bo‘lishdan, bug‘ mashinasi, yadro, atom energiyasi paydo bo‘lishiga qadar biz uning guvohimiz. Axborotni qayta ishlash, boshqaruv jarayonining boshi berk ko‘chaga kirib qolishi o‘z navbatida tezkor elektron hisoblash mashinalari bunyod etilishiga olib keldi.

Jamiyatni axborotlashtirish ishlab chiqarishning yuqori darajasidagi jarayon bo‘lib, axborotdan jamoat resursi sifatida foydalaniladi. Axborotlashtirish, bu umumjahon jarayoni bo‘lib, taraqqiy etgan mamlakatning jahon bozoridagi peshqadamligi, iqtisodiy o‘sishi va milliy xavfsizligini ta’min etadi. Ma’lumki, globallashuv jarayoni obyektiv va qonuniy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqishga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik olib borishga hamda o‘z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta’minlashga keng imkoniyatlar beradi.

Shuni aytish kerakki, vaqt o‘tishi bilan globallashuv jarayonining o‘ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo‘la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga sezilarli darajada o‘sgan bog‘liqligi shuni ko‘rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea-hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va

barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya’ni an’anaviy tahdidlar bilan o‘zaro qo‘shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘sishi kuzatilmoqda. Bu holat esa milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda jahon geosiyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o‘zgarishi, ko‘p qutbli markazlar yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat hamda ayrim davlatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan — ochiq da’volari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu geosiyosiy raqobat oqibatida xalqaro xavfsizlikning yangi noan’anaviy tahdidlari: xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi, separatizm vujudga kelishi kuzatiladi. Mazkur tahdidlar esa zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi globallashuv va integratsiyalashuv natijasida kundan-kunga milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka xavf solmoqda.

So‘nggi davrlarga kelib, geosiyosiy vaziyatning o‘zgarishi hamda raqobat kuchayishi natijasida yuqorida ko‘rsatilgan omillardan tashqari, ilgari kuzatilmagan tahdidlar yuzaga kela boshladi. Ayrim g‘arb davlatlari tomonidan o‘z milliy manfaatlarini kengaytirishda «demokratiya eksporti» «ikkilamchi meyor» siyosiy va «axborot huruji» kabi asosiy vositaga aylanmoqda. Globallashuv jarayonini bevosita axborot bilan bog‘liq ekanligini tushinish qiyin emas, albatta [12].

Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSh Strategik tadqiqotlar institutining ma’lumotlariga ko‘ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg‘i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko‘ra bir necha barobar ko‘p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihati, uning siyosiy jihati esa o‘z shaxsiy manfaatlariga o‘ta arzon, o‘ta qulay yo‘llar bilan erishish sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini

ta’minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda.

Prezidentimiz aytganlaridek, axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib borayotir. Agar mazkur omilga alohida e’tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo‘lida asosiy «qurol»ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, balki xalqaro miqyosda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini anglashga e’tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati «Xavfsizlik»ka bo‘lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg‘or g‘oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e’tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo‘layotgan olamshumul o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma’lum bo‘lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo‘lsinki, o‘tgan asrning oxirlari, XXI yuz yillikning dastlabki yillarida G‘arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o‘rniga boshqa buyurtmali «ezgulikka» xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu holni sobiq ittifoq parokanda bo‘lgach, uning o‘rnida tashkil topgan mustaqil respublikalar, xususan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston bilan bog‘liq jarayonlarda uchratish mumkin [12].

Agarda mustaqilligimizning dastlabki yillarida G‘arb matbuotining Respublikamizga bo‘lgan munosabatini tahlil etadigan bo‘lsak, «Ozodlik», «BBS» va boshqa radio hamda gazetalarda ko‘proq ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy va shu kabi sohalardagi kamchiliklarga e’tibor qaratilar edi. Lekin, O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida qat’iy va dadil yo‘l tuta boshlaganidan, ayrim xalqaro tashkilotlaru «Buyuk derjava» larning yo‘rig‘iga yurmaganidan, ularning geostrategik rejalarini barbod etgandan so‘ng axborot hurujlar avj ola boshladi. So‘nggi vaqtlarda ayrim ommaviy axborot vositalarida terroristik tajovuzlar dunyoning Yevropa qismida «terrorizm» deb baholanib, O‘zbekistonda «inson haq-huquqlarining himoyasi» sifatida qaralmoqda. Mana shunday sharoitda, ya’ni, demokratik jarayonlarga baho berishda kim holis yondoshayotganligi, kimning esa berayotgan bahosi uydirma bo‘lib, haqiqiy demokratiyaga va milliy manfaatlarga zid ekanligini anglash uchun har birimizda fuqaroviy pozitsiya bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda ulug‘ alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e’tiborni qaratmoqchimiz. Alloma bundan ming yil burun shunday yozib ketganlar.

«Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg‘onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o‘rtasida tortishish va talashish ko‘p. Shunday kishilar ham bo‘ladiki, ularning tabiatiga yolg‘on xabar tarqatish o‘rnashib qolib, go‘yoki unga shu vazifa yuklangandek bo‘ladi va xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi». Qarang bundan o‘n asr avval yashab o‘tgan bobokalonimiz bugungi kun voqeligi, ayniqsa, o‘zini adolatparvar, inson huquqlari himoyachisi, oddiy so‘z bilan aytganda, «jurnalist» deb yurgan ayrim kimsalarga bahs berib o‘tgan ekanlar. Axborotni himoyalash masalalariga rivojlangan mamlakatlar katta ahamiyat beradi. Hozirgi paytga kelib xalqaro munosabatlar yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani bois, axborotni himoyalash va kompyuter tizimlari xavfsizligini ta’minlash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarida «axborot quroli»ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun yiliga 137 mln. dollar sarf qilinadi.

Kurashning bu turida eng samarali qurol – axborot. Shu bois, axborotni o‘z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Axborot, uni uzatish, qayta ishlash va yig‘ish bosqichlari o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya’ni, insonning oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan qarorlarining manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Mutaxassislarning xulosalariga qaraganda, rahbarlar, boshqaruv xodimlari axborotlar bilan ishlashga o‘z vaqtlarining 30 foizdan 80-95 foizgachasini sarflashar ekan. Bu tabiiy holat. Chunki o‘z vaqtida va ishonchli axborotlarga ega bo‘lish hamda ularni o‘z vaqtida yetkazish va amaliyotda unumli foydalanish samarali boshqarishni ta’minlashning sharti hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, endilikda axborot- davlat faoliyatida boshqaruvchilik kuchini sezilarli darajada namoyon qiladi. O‘zbekistonning mustaqil bo‘lishi uni ayrim davlatlarning bizning mintaqamizga intilishlari mohiyatida ikki muhim jihat-mintaqada geosiyosiy ta’sirga va bu yerdagi tabiiy hamda notabiiy resurslarni tasarruf etishda o‘z ulushiga ega bo‘lish alohida ko‘zga tashlanadi. Boshqa ayrim davlatlardan farqli o‘laroq, buning O‘zbekiston hukumati tomonidan anglab yetilgani va mazkur masala uning tashqi siyosatida aks etib turishi «katta o‘yin» qatnashchilarini o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday usul hamda vositalardan foydalanishga majbur etadi [12].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyo bo‘ylab o‘z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli – axborot hurujlari bo‘lsa, eng samarali vosita – axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi.

Axborot hurujlarining tez-tez uyushtirilayotgani aslida «urush»ga munosabatni o‘zgarganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Axborot bilan qurollangan bunday hurujlar davlatlar tomonidan o‘z manfaatlari doirasini kengaytirish maqsadida uyushtirilar ekan, bunday vaziyat mavjud bo‘lmaydi. Hozirda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ‘ibot va tashviqotlarning asl maqsadi-inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan. Bu kurash natijasiga ko‘ra uchta asosiy bosqichdan iborat.

Birinchisi – muayyan axborot inson tomonidan qabul qilinmaydi. Ikkinchisi – axborot inson ongida ma’lumot sifatida saqlanib qolishi va u bundan boshqa bir masala yuzasidan qarorlar qabul qilishda solishtiruvchi manba sifatida foydalanish mumkin. Uchinchisi – axborot fikr yoki g‘oya sifatida inson qalbini egallashi, ma’naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylanishi hamda bu uning amaliy faoliyati asosini tashkil qiluvchi omil bo‘lib qolishi mumkin.

Axborot uchinchi holatda insonni harakatga da’vat etuvchi, rag‘batlantiruvchi kuchini to‘la namoyon etadi. Hozirda axborot hurujlari haqida ko‘p gapirilayotgan bo‘lsada, mutaxassislar tomonidan mazkur tushunchaga hali to‘la ta’rif berilganicha yo‘q. Buning ustiga, hatto soha tadqiqotchilari, mutaxassislar ham «axborot urushi» degan jumlaning qachondan muomalaga kirgani va axborot-qurol sifatida ilk bor qachon foydalanilgani haqida bir to‘xtamga kelgani yo‘q. Dunyoning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarida axborot hurujlari masalasiga jiddiy munosabatning shakllanib ulgurgani, bu borada aniq konsepsiyalarning yaratilgani nafaqat mintaqada, balki jahonda o‘zining munosib o‘rnini egallash sari intilayotgan O‘zbekiston uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning geosiyosiy joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va boshqa iqtisodiy hamda ijtimoiy salohiyati uning manfaatdor kuchlar tomonidan «axborot hurujlarining obyekti» sifatida qaralishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

«Sovuq urush» davrida yadroviy hurujlardan cho‘chib yashagan dunyo endi terrorizmning shavqatsiz tajovuzlaridan saqlanish yo‘llarini izlamoqda. Zero, vaqt va makon tanlamaydigan bu ofat xohlagan vaqtda, xohlagan joyda o‘zining mash’um basharasini namoyon etib qolishi mumkin. Kishini xavotirga soladigan sabab shuki, terroristik hurujlar kiber makonda ham faollashib bormoqda. Shu bois, ko‘plab davlatlarning oldida axborot- kommunikatsiya va kompyuter tizimlarida ishonchli axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi turibdi.

Dunyoda kim axborot bozorini egallasa, o‘sha hukmronlik tizginini tutadi, deyishadi. Chunki ayni paytda dunyoni inson emas, aynan axborot boshqarmoqda. SNN bilan BBS ning ovozi yetmayotgan joyda «Al-jazira»ning mahsulotlari sotilayotgan ekan, bu axborot bozorida yangicha qarashning paydo bo‘lishiga imkon

beradi. Shu o‘rinda rossiyalik olim A.Zinovevning «Globallashuv yangi jahon urushi. U yangi tipdagi jahon urushi» degan ta’kidi kishini ancha sergak torttiradi. Yana bir olim A.Parshev esa «Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo‘shimcha qiymatini dunyodagi asosiy zahiralarni o‘zlashtirishdan iboratdir» deydi. Ochig‘i bu kabi farazlarning mohiyatida globallashuv jarayoniga qarshilik ko‘rsatishdan ko‘ra, uning zamiridagi «siyosiy o‘yin»larni fosh qilishga nisbatan norozilik yotibdi desak, to‘g‘ri bo‘lar edi.

Ayrim gegemonlik vasvasasiga tushgan davlatlarning globallashuv geosiyosati negizida «Demokratiyani faol ilgari surish prinsipi» yotibdi. «Universal va barchaga taalluqli» demokratiyani jahonga yoyishga urinishlar, bugungi kunda jadallashib ketganidan ko‘z yuma olmaymiz. Demak, «demokratchi»lar o‘z g‘oyalari va turmush tarzini tiqishtirmoqchi bo‘lmoqdalar [12].

Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko‘rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o‘rni yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham «Axborot asri» - deb nom olgani bejiz emas. Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog‘liqligini ta’kidlashmoqda. Shu o‘rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlariga buzg‘unchilik maqsadida ta’sir etishni ko‘zda tutuvchi yangi «axborot quroli»ning ta’siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o‘tish joiz. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko‘rish va ularning benuqson faoliyatini ta’minlashga da’vat etmoqda.

Globallashuvning avj olishi millat «chegaralarini» yo‘q qilib yubormoqda, ommaviy ma’naviyatni shakllantirishga olib kelmoqda. Buning natijasida har bir millatga xos bo‘lgan urf-odat, an’ana, qadriyatlar o‘z ahamiyatini «yo‘qota» borish xavfi yuzaga kelmoqda. Bu millatning ma’naviy qashshoqlashuvi sodir bo‘lishga,

ularning o‘zligini anglamaydigan manqurtlariga olib keluvchi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda.

Umuminsoniy ma’naviyat turli-tuman millatlarning o‘ziga xos boshqa millatlar uchun ham ma’naviy oziqa bera oladigan qirralarini o‘zida mujassamlashtirganligi bois, tabiiy ravishda keng yoyilib boradi hamda jahonda yashayotgan turli millatlarning ma’naviyati rivojlanishiga yordam beradi. Shuning bilan birga umuminsoniy ma’naviyatning shakllantirish jarayonining o‘zi ham milliy ma’naviyatlar rivojlanishiga yordam beradi. Chunki bu jarayonda turli millat va elatlar teng huquq imkoniyatga ega bo‘lib, ularning har biri o‘z ma’naviyatining boshqalar uchun ham zavq-shavq va ilhom bera oladigan jihatlarini rivojlantirishga harakat qiladi hamda uni ommaviylashtirishda o‘zi faol ishtirok etadi. Uning zaminida zo‘ravonlik yo‘li bilan o‘zga millat va elatlar ongi, qalbini egallash maqsadi turmaydi, balki ma’naviy tenglik, samimiylik, o‘zaro do‘stlik, qardoshlik va bir-birini ulug‘lash kabi umuminsoniy qadriyatlar turadi. Shuning uchun ham turli millatlarni o‘zaro boyitib boradi, ularni yaqinlashtiradi va ma’naviyatlarning yuksalishiga yordam beradi.

Axborot globallashuvi va yoshlar ma’naviyati, har qanday axborot oqimining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri xususida so‘z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero bu mavzuda so‘z yuritar ekanmiz avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy tahdid; ikkinchisi – yoshlar ma’naviyati, ya’ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan immunitet masalalaridir.

Gap shundaki, axborot oqimi o‘z mohiyatiga ko‘ra ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uning qanchalik yoshlarimizga ta’sir qilishi uning oldiga qo‘yilgan maqsad sari puxta yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta’siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bog‘liq.

O‘tish davrida axborot mafkuraviy idrok etish bilan bog‘liq vaziyatning murakkabligi, ya’ni davlat, jamiyat va shaxsda mafkuraviy raqobat borasida yetarlicha demokratik tajriba yo‘qligida hamdir. Ommaviy axborot vositalari tinglovchilarining

koʻpchiligi siyosiy mavzudagi har qanday axborotni rasmiy axborot sifatida qabul qiladi. Axborotlar xarakteri va tartibi siyosiy osoyishtalik va barqarorlikning oʻziga xos barometri boʻlib xizmat qiladi. Agar fikrlar xilma-xilligi holati namoyon boʻlsa, beqarorlik koʻrsatkichi, siyosiy munosabatlar tizimida muammoli vaziyat yetilib kelayotganining oʻziga xos alomati sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi masalada avvalo, yoshlarimizning mafkuraviy immuniteti bugungi kunda qanday shakllangan degan savol paydo boʻladi. Masalani inson omili nuqtai nazaridan oʻrganadigan boʻlsak, mafkuraviy immunitet – har qanday axborot taʼsiriga tushib qolmaslik, avvalo, oʻsha inson ongu-tafakkuri, idroki nechogʻlik oʻtkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bogʻliq.

Toʻgʻri, avvalo hammada ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok koʻnikmalarini hosil qilish, inson tugʻilganidan to shaxs sifatida shakllanguniga qadar davom etadi. Xususan, bunda maʼlum bir yoshning koʻp kitob oʻqishi, oʻz mamlakati tarixini oʻrganishi, urf-odatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir soʻz bilan aytganda, unda milliy eʼtiqod – milliy faxr shakllanishi muhim oʻrin tutadi. Oʻz millati qadriyatlarini qadrlagan, oʻz tarixini bilgan, Vatanga eʼtiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining taʼsiriga tushib qolish ehtimoli kam. Chunki bunday yoshlarda oʻziga xos psixologiya va masalaga oʻziga xos yondashuv paydo boʻlgan boʻladi. U har qanday axborot zamirida maʼlum bir maqsadni oʻrgana boshlaydi.

Sobiq ittifoq davrida chetdan kirib kelayotgan axborot oqimi qattiq nazorat qilingan. Mustaqillikka erishganimizdan soʻng, axborot oqimiga keng yoʻl ochildi. Tabiiyki, hali axborotga «och boʻlgan» aholi kirib kelayotgan axborotni saralamay turib, «isteʼmol» qila boshlaydi. Ular hali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdilar, bir soʻz bilan aytganda, aholida xolis axborot oqimidan noxolisini ajratib olish uchun idrok shakllanib ulgurmagan edi. Shuning asorati hozirgi kunda, ayniqsa, sezilmoqda. Bu baʼzan yoshlarimizda har qanday axborotni mutloq haqiqat sifatida qabul qilinishini keltirib chiqarmoqda.

Internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi, oʻz maqsadlarini terroristik yoʻl bilan amalga

oshirishni odat qilib olgan – yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. Endilikda Internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning manzillari aniqlangan. Terrorizm Internetda o‘ta izchil voqelik: saytlar to‘satdan paydo bo‘ladi va tez-tez formatini o‘zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o‘z mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o‘zgartirish yo‘li bilan ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Internetning ta’siri va terroristik saytlar asosan uchta auditoriyaga yo‘naltirilgani aniqlandi (2.4-jadvalga qarang):

2.4-jadval.

Internetning ta’siri va terroristik saytlar

Internetning ta’siri	Terroristik saytlar
a) yot, buzg‘unchi g‘oyalarning kirib kelishi (diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm misolida); b) G‘arb yashash tarziga xos, lekin o‘zbek mentalitetiga zid g‘oyalar, qarashlarning yoshlarga ta’siri (kiyinish, chekish, pirsing, tatuirovkalar va hokazo); c) pornografik axborotlarning yoshlar tarbiyasiga ta’siri; d) tekshirilmagan axborotlar (bo‘xtonlar)	a) avvaldan mavjud va potensial tarafkashlar b) xalqaro jamoatchilik fikri c) muayyan mamlakat jamoatchiligi

Ko‘pgina mutaxassislar kiberterrorizmning xavfi haqida bot-bot gapirishsada, terroristlar tomonidan Internetdan shunchaki foydalanishni nazardan chetda qoldirar ekanlar. Zamonaviy terroristik guruhlar Internetdan asosan quyidagi sakkiz usul orqali foydalanadilar:

psixologik urush;

reklama va targ‘ibot;

ma’lumotlar to‘plash;

vositalar to‘plash;

qo‘lga tushirish va safarbar etish;

tizimlar tashkil etish;

axborot ta’minoti;

rejalashtirish va koordinatsiya.

Aholini (jamiyatimizni) kiberterrorizm va Internetdagi terroristik harakatlardan himoya qilish bilan birga, bir qator antiterroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

A) dunyoqarashning kengayishi;

B) obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunda yosh yigit yo qizning axborotga «to‘q bo‘lishi» va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo‘lgan «did» bo‘lmasa, u axborot oqimida «cho‘kib» ketishi mumkin ya’ni, ta’siriga berilib ketishi);

C) masofaviy o‘qishlarda ishtirok etish imkoniyati;

D) axborotlarni tanlash imkoniyati borligi [12].

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo‘lmish «Internet» orqali ma’naviyatga salbiy ta’sir vujudga kelishi mumkin. Nega ta’sir qiladi? Balki yoshlar ma’naviyatining yetarli darajada shakllanmaganligi emasmikan? Bugungi kunda yoshlarimiz – turli xil G‘arb seriallari ta’sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o‘sayotganligi sababli ma’naviyatga qaytadan chuqur e’tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o‘tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo‘lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilishlariga, begona g‘oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e’tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakkina, istalgan buzg‘unchi axborotlarga nisbatan o‘z axborot immunitetlari shakllanadi. Axborot qurollari sifatida qaraladigan vositalar:

axborot massivlarini yo‘q qilish, buzish va to‘g‘rilash;

himoyalash tizimini aylanib o‘tish;

qonuniy foydalanuvchilar imkoniyatlarini cheklash;

kompyuter tizimining texnik vositalari ishlashini buzib tashlash;

kompyuter viruslari;

mantiqiy bombalar;

test dasturlarini ishdan chiqaruvchi vositalar

axborot ayriboshlashni yo‘q qiluvchi vositalar;

har xil turdagi xatoliklar [12].

Axborot qurolining universalligi, yashirinligi, dasturiy apparat amalga oshirilishi shakllarning ko‘p variantligi, ta’sirlarning radikalligi, vaqt va joy tanlash imkonining yetarliligi va nihoyat tejamliligi, uning juda xavfsizligini ko‘rsatadi: u osongina

himoya tizimiga yashirinishi mumkin, urush e’lon qilmasdan anonim shaklda hujum harakatlarini olib borishi mumkin.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish va boshqarish, mudofaa va aloqa, transport va energetika, moliya va fan, ta’lim, OAV – barchasi axborot almashuvi jadalligiga, haqqoniyligiga, to‘liqligi va tezligiga bog‘liq. Shuning uchun jamiyatning axborot infrastrukturasi – axborot qurolining nishonidir. Rangli inqiloblar davrida axborot huruji bo‘ladi (2.5-jadvalga qarang):

2.5-jadval.

Rangli inqiloblar davrida axborot huruji

№	Rangli inqilob	Rangli inqilob mazmun-mohiyati
1.	Rangli inqilob	qonuniy hukumatlarni noqonuniy yo‘llar bilan ag‘darib tashlash demakdir (Serbiya, Gruziya, Ukraina)
2.	Rangli inqilob	G‘arbning kuchli axborot bosimi asosida amalga oshiriladi
3.	Rangli inqilob	amalga oshirishda zamonaviy va qimmatbaho elektron axborot vositalaridan keng foydalaniladi

Axborot hurujlariga qarshi turish uchun kiberterrorizm va axborot hurujlarining turlarini bilish talab etiladi (2.6-jadvalga qarang):

2.6-jadval.

Axborot hurujlariga qarshi turish hamda kiberterrorizm turlari

Axborot hurujlariga qarshi turish	Kiberterrorizm turlari	Axborot hurujlarining turlari
Loqayd bo‘lmaslik; O‘z qat’iy pozisiyasiga ega bo‘lish; O‘z pozisiyasini argumentlay bilish; Hozirjavoblik (har bir hurujga vaqtida javob qaytarish)	Virus tarqatish; Internetda noqonuniy boylik orttirish; Kiber-manyakchilik; Turli xil kiberjinoyatlar va h.k.; Turli bo‘xton va uydirmalar tarqatish orqali biror mamlakatni yoki shaxsni obro‘sizlantirish	Yolg‘on axborot tarqatish; Ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish; Milliy-ma’naviy qadriyatlarni yemirib tashlash; Yetti yot begona ma’naviy qadriyatlarni singdirish; Xalqning tarixiy xotirasini buzish va o‘zgartirish; Kiberterrorizm

Axborot hurujining asosiy qismlari mavjud (2.7-jadvalga qarang):

2.7-jadval.

Axborot hurujining asosiy qismlari

№	Axborot hurujining asosiy qismlari	Axborot hurujlari
1.	Psixologik operatsiyalar	axborotdan fuqarolarga ta’sir etishda foydalanish
2.	Elektron huruj	aniq ma’lumotlarni olish imkonini bermaydigan vosita
3.	Dezinformatsiya	dushmanga soxta axborot berish
4.	Fizik buzilish	axborot hurujining qismi sifatida qaralishi mumkin, agarda axborot tizim elementlariga ta’sir etish ko‘zda tutilgan bo‘lsa
5.	Ochiq axborot hurujlar	axborotni ko‘zga ko‘rinmaydigan o‘zgartirishlarsiz buzish

Axborot hurujlarining maqsadlari o‘z axborot funksiyalari va resurslarini himoyalagan holda axborot muhitini nazoratga olish.

Axborot hujumlarini olib borish uchun nazorat qilinayotgan axborotlardan foydalanishdan iborat.

Globallashuv jarayonlarining tarbiyaga ta’siri

Globallashuv jarayonlarining tarbiyaga ta’siri keng va murakkab mavzu bo‘lib, u ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy omillarning o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Globallashuvning tarbiyaga bo‘lgan ta’siri bir qator ijobiy va salbiy omillarni o‘z ichiga oladi. Quyida globallashuv jarayonlarining tarbiyaga ta’sirini ba’zi jihatlarda ko‘rib chiqamiz:

1. Madaniy ta’sir. Globallashuv orqali turli madaniyatlar bir-biriga yaqinlashmoqda. Bu, o‘z navbatida, yoshlarni global miqyosda boshqacha qadriyatlar, urf-odatlar va hayot tarziga o‘rgatadi. Madaniy boyliklar va turli an’analarning o‘zaro ta’siri tarbiyaning mazmunini yangilashga olib kelishi mumkin. Masalan, yoshlar orasida turli tillar, urf-odatlar va an’analarga bo‘lgan qiziqish ortadi.

2. Texnologik rivojlanish va axborot oqimi. Globallashuv jarayonida texnologik rivojlanish va internetning keng tarqalishi tarbiyani o‘zgartiradi. Yoshlar axborot va bilimlarni tezda olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Biroq, bu jarayon ba’zan axborotning sifatsizligi va noto‘g‘ri ma’lumotlarga asoslanishi xavfini ham tug‘diradi. Shuningdek, texnologiyalarning tarbiyaga ta’siri yoshlarning vaqtini va e’tiborini qisqartirishi mumkin.

3. Ta’lim tizimi va yondashuvlar. Globallashuv, shuningdek, ta’lim tizimlarini ham o‘zgartiradi. Dunyo bo‘ylab ta’lim metodlari, o‘qitish usullari va standartlar bir-biriga yaqinlashadi. Bu, o‘z navbatida, ta’limda innovatsiyalar va yangi pedagogik yondashuvlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, interaktiv o‘qitish usullari, onlayn ta’lim va global miqyosda hamkorlikda o‘qitish kengayadi.

4. Yoshlarning dunyoqarashi va identifikatsiyasi. Globallashuv yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ular o‘zlarining madaniy yoki milliy identifikatsiyasini yanada kengroq kontekstda, ya’ni global miqyosda ko‘rishga boshlaydilar. Biroq,

ba’zan bu globalizm mahalliy madaniyat va an’analarni yo‘qotish xavfini ham tug‘diradi.

5. Ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik. Globallashuvning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlari ham tarbiyaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy resurslar va imkoniyatlarning tengsizlik darajasi yoshlar orasida o‘qish va rivojlanish imkoniyatlarini ta’sir qiladi. Boshqa tomondan, global iqtisodiyotning ijobiy ta’siri yoshlarni yangi ish imkoniyatlariga va kasblarga tayyorlashga olib kelishi mumkin.

6. Tarbiyaviy qadriyatlar. Globallashuv tarbiyaning qadriyatlar tizimini ham o‘zgartiradi. Ota-onalar va o‘qituvchilar global tendensiyalarni hisobga olgan holda o‘z farzandlarini yoki o‘quvchilarini tarbiyalashda yangi usullarni qabul qilishadi. Bu, ayniqsa, yoshlarni global fuqarolar sifatida shakllantirishga olib keladi.

7. Globallashuv tarbiyaga ijobiy va salbiy ta’sirlar ko‘rsatadi. Uning ijobiy tomoni madaniy, texnologik va ilmiy taraqqiyotlarni tarbiya jarayoniga olib kirish bo‘lsa, salbiy tomoni esa an’anaviy qadriyatlar va madaniyatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tarbiyachilar va ta’lim muassasalari globallashuv jarayonida yoshlarni sog‘lom va barqaror dunyoqarashga ega qilish uchun yangicha yondashuvlar ishlab chiqishlari zarur.

Starizm – bu subyektiv ehtiroslar asosida estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlar va boshqa mashhurlarni ilohiylashtirish yoki ularni haddan tashqari ulug‘lash holatini anglatadi. Bu fenomenda, odamlar o‘zlarini mashhur shaxslar bilan bog‘lash, ularga haddan tashqari hurmat ko‘rsatish yoki ulardan ilohiy xususiyatlarni kutishadi. Starizmning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Mashhurlarga haddan tashqari hurmat. Mashhur shaxslar (estrada yulduzlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlar va hokazo) o‘z fanatlari tomonidan ilohiylashtiriladi. Ularning hayoti va faoliyati to‘g‘risida fikrlar subyektiv, hissiyotlarga asoslangan bo‘ladi.

2. Ilohiylashtirish. Starizmda mashhur shaxslarni hatto oddiy insonlardan farqli ravishda "yuksak" yoki "mukammal" deb qarashadi, ularning xatolari yoki nuqsonlari kamdan-kam tan olinadi yoki umuman e’tiborga olinmaydi.

3. Ehtirosli qabul qilish. Mashhurlarni tomosha qilayotganlar (fanatlar) ularga kuchli hissiy bog‘lanish hosil qiladilar, bu esa obyektiv tahlil qilishdan ko‘ra subyektiv ehtiroslar asosida hukm chiqarishga olib keladi.

4. Maqsadli reklama va marketing. Starizm ko‘pincha ommaviy axborot vositalari, reklama va marketing strategiyalarining natijasidir. Mashhurlarni idealizatsiya qilish va ularga ijobiy imidj yaratish orqali ular tomoshabinlar yoki iste’molchilarni jalb qiladi.

Starizmning ijtimoiy ta’siri quyidagilarda ko`rinadi:

Madaniy ta’sir. Mashhurlarni ilohiylashtirish, ularni ideal holatda ko‘rish yoshlar va jamiyatda ba’zan haqiqiy hayotning qiyinchiliklarini inkor qilishga olib kelishi mumkin. Bu holatda, yoshlar mashhur shaxslar orqali haqiqatni emas, balki ularning yuksak va mukammal imidjlarini ko‘rishga moyil bo‘lishadi.

Reallikdan qochish. Starizm shuningdek, odamlarga haqiqiy hayot va uning muammolaridan qochish, idealizatsiyalangan va noaniq obrazlarni qabul qilishga majburlashi mumkin.

Starizm, umuman olganda, mashhurlarni o‘rganish va ular bilan bog‘lanishning bir ko‘rinishi bo‘lib, ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zo‘ravonlik – bu boshqa shaxsga jismoniy, ruhiy yoki emotsional zarar yetkazish maqsadida amalga oshiriladigan agressiv yoki kuch ishlatish harakatlarini anglatadi. Zo‘ravonlikning bir nechta shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarga bo‘linadi:

1. Jismoniy zo‘ravonlik. Bu turdagi zo‘ravonlikda jismoniy kuch ishlatilib, odamga zarar yetkaziladi. Misollar: urish, kaltaklash, tiqish, bosim o‘tkazish va boshqalar.

2. Psixologik (ruhiy) zo‘ravonlik. Bu turdagi zo‘ravonlikda odamning ruhiy holatiga zarar yetkaziladi. Masalan, tahdidlar, so‘kishga, kamsitishga, qo‘rqitishga yoki ruhiy bosim qilishga asoslangan harakatlar.

3. Seksual zo‘ravonlik. Bu turdagi zo‘ravonlikda odamga jinsiy harakatlar orqali zarar yetkaziladi. Bunga zo‘rlik, jinsiy tajovuz yoki boshqa jinsiy zo‘ravonlik shakllari kiradi.

4. Ijtimoiy zo‘ravonlik. Ijtimoiy zo‘ravonlik, odamning ijtimoiy hayotiga zarar yetkazish, ularni kamsitish, izolyatsiya qilish yoki jamiyatdan tashqari qilish bilan bog‘liq.

Zo‘ravonlikning sabablari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy va iqtisodiy omillar. Ijtimoiy tengsizlik, salbiy iqtisodiy sharoitlar va tajribalar zo‘ravonlikni kuchaytirishi mumkin;

madaniy ta’sir. Ba'zi jamiyatlarda zo‘ravonlikni adolat yoki kuchning ifodasi sifatida ko‘rishadi;

shaxsiy psixologik omillar. Stress, qasos olish istagi yoki psixologik kasalliklar zo‘ravonlikni keltirib chiqarishi mumkin;

oilaviy sharoitlar. Ota-onalar o‘rtasidagi zo‘ravonlik yoki oilaviy sharoitlar ham kelajakda shaxslarning zo‘ravonlikka moyil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Zo‘ravonlikning ta’siri quyidagilarda namoyon bo`ladi:

shaxsga ta’siri. Zo‘ravonlikka uchragan odamlar ruhiy va jismoniy travmalarni boshdan kechirishi mumkin. Bu holat uzoq muddatli psixologik muammolar, xavotir, depressiya va travmatik tajribalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin;

jamiyatga ta’siri. Zo‘ravonlik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni buzishi, shuningdek, jamiyatdagi xavfsizlikni kamaytirishi mumkin. Zo‘ravonlikning keng tarqalishi, qonunlar va ijtimoiy institutlarga nisbatan ishonchsizlikni oshiradi.

Zo‘ravonlik – bu barcha shakllarda ham jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan zararli va odatda xavfli oqibatlarga olib keladigan harakatlardir. Bu, faqat individual shaxsga emas, balki jamiyatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun zo‘ravonlikni kamaytirish va unga qarshi kurashish uchun keng qamrovli yondashuvlar zarur.

Zo‘ravonlik – insonga yetkaziladigan har qanday jismoniy, ma’naviy, ruhiy, moddiy tazyiqlar. Jumladan, *o‘ziga nisbatan tazyiq o‘tkazish* ham zo‘ravonlik sanaladi. Bunday holatlar keng avj olib bormoqda. Uning ko‘rinishlari ham turlicha.

1. Xeppining.

2. To‘da-to‘da bo‘lib (bir yoki bir necha kishini) do‘pposlash.

3. Yo‘q joydan janjal qo‘zg‘ab, vahshiyona urushlar uyushtirish.

4. O‘zidan zaif bo‘lgan kishilarga kuch ishlatib, ularni biror bir nojo‘ya xatti-harakatga undash yoki majburlash (yoki biror foydali xatti-harakat qilishdan qaytarib qolish) va boshqalar.

Individualizm va egotsentrizm ikki xil ijtimoiy va psixologik tushunchadir. Ular o‘rtasidagi farqni tushunish uchun, har birining ma’nosini alohida ko‘rib chiqamiz.

Individualizm – bu shaxsning o‘z manfaatlarini, erkinligini, huquqlarini va mas'uliyatini yuqori baholashga asoslangan dunyoqarash yoki hayot tarzidir. Individualizm jamiyatda shaxsning o‘zini mustaqil va o‘zgalar tomonidan cheklanmagan holda rivojlantirishga intilishdir. Individualizmning asosiy tamoyillari quyidagilar:

shaxsiy erkinlik va mustaqillik. Har bir inson o‘z hayotini o‘zi boshqarishi, o‘z tanlovlari va qarorlarini o‘zi qabul qilishi kerak;

shaxsiy javobgarlik. Har bir kishi o‘z yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi uchun javobgar bo‘lishi kerak;

o‘z qadrini va o‘ziga bo‘lgan hurmat. O‘ziga bo‘lgan ishonch va o‘z qadrini hurmat qilish individualizmdan kelib chiqqan asosiy prinsipdir.

Egotsentrizm – bu o‘zini boshqalar yoki atrof-muhitdan yuqori qo‘yish va faqat o‘z manfaatlarini va qarashlarini markazga olishga asoslangan psixologik holatdir. Egotsentrik odamlar o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini boshqalarnikidan ustun deb bilishadi va ko‘pincha o‘zining nuqtai nazaridan boshqa odamlarning fikrlarini tushunishda yoki qadrlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Egotsentrizmning xususiyatlari:

o‘z manfaatlarini boshqalardan ustun qo‘yish. Egotsentrik shaxslar o‘z manfaatlarini boshqalarning manfaatlaridan yuqori qo‘yadilar;

boshqalar nuqtai nazarini tushunmaslik. Egotsentrik odamlar o‘zlarini atrofdagi dunyodan ajratilgan deb bilishadi va boshqalar bilan emotsional yoki ijtimoiy bog‘lanishda qiyinchiliklar yuzaga keladi;

empatiya yetishmasligi. Egotsentrik shaxslar boshqalarning his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglash yoki ularga o‘zining hissiy javoblarini moslashtirishda qiynalishadi.

Individualizm shaxsning erkinligini va mustaqilligini qadrlaydi, lekin bu boshqalar bilan munosabatlarni va boshqalar huquqlarini inobatga olishni o‘z ichiga oladi. Individualizmning maqsadi o‘zini rivojlantirish va o‘z maqsadlariga erishishdir, biroq bu boshqalarni chetlab o‘tish yoki ularning manfaatlarini e’tiborsiz qoldirishni anglatmaydi. Egotsentrizm esa faqat o‘z manfaatlariga e'tibor qaratadi va boshqalarning ehtiyojlarini, fikrlarini yoki his-tuyg‘ularini inobatga olmaydi. Egotsentrik odamlar boshqalarga ta’sir ko‘rsatishi yoki ularni tushunishdan ko‘ra, o‘zini markazda ko‘rishga moyil bo‘ladilar.

Individualizm – bu shaxsiy erkinlik va mustaqillikni qadrlash, lekin boshqalar bilan ham muvozanatni saqlashga harakat qilish. Egotsentrizm esa faqat o‘z manfaatlarini va qarashlarini ustun qo‘yish, boshqalarning nuqtai nazarini esa e’tiborsiz qoldirish. Shu bilan birga, individualizm jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni hurmat qilishga asoslanishi mumkin, egotsentrizm esa ko‘pincha ijtimoiy aloqalarda qiyinchiliklarga olib keladi.

Jamiyat manfaatlarini mensimaslik – bu shaxsning yoki guruhning o‘z manfaatlarini jamiyatning umumiy manfaatlaridan ustun qo‘yishi yoki jamiyatning ehtiyojlariga e’tibor bermaslik holatidir. Bu holat ijtimoiy mas'uliyatni yengil qabul qilish yoki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar va me'yorlarni chetlab o‘tish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Jamiyat manfaatlarini mensimaslik quyidagi holatlarda ko‘rinishi mumkin:

1. Ijtimoiy mas'uliyatni rad etish. Shaxs yoki guruh o‘z harakatlari va qarorlarining jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini hisobga olmaslik. Misol uchun, biror kishi o‘z shaxsiy manfaatlarini o‘ylab, jamiyatda muammolar yaratishi mumkin (masalan, noto‘g‘ri ishlash, qonunlarga amal qilmaslik yoki ekologik zarar yetkazish).

2. Jamiyatda tartib va qonunlarga bo‘ysunmaslik. Bu holatda, biror shaxs jamiyatning rasmiy tartiblariga, huquqiy va axloqiy qoidalarga e’tibor bermaydi. Bunday xatti-harakatlar ijtimoiy barqarorlikni buzishi va boshqa insonlarga zarar yetkazishi mumkin (masalan, korrupsiya, jinoyat, normativlarga qarshi chiqish).

3. Boshqalarning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish. Jamiyat manfaatlarini mensimaslik, boshqalarning ehtiyojlari, huquqlari va manfaatlariga befarqlikni ham

anglatishi mumkin. Misol uchun, biror shaxsning o‘zining shaxsiy manfaatlari uchun jamiyatdagi zaif yoki himoyasiz guruhlarni chetlab o‘tishi.

4. Empatiya va hamjihatlikning yo‘qligi. Jamiyat manfaatlarini mensimaslik, boshqalarni tushunmaslik, empatiya qilmaslik va o‘z manfaatlarini jamiyatga nisbatan ustun qo‘yish bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday holatlar o‘z manfaatlarini boshqalardan ustun qo‘ygan odamlarning jamiyatdagi o‘zaro yordam va hamjihatlikka qarshi turishlarini ko‘rsatadi.

Jamiyat manfaatlarini mensimaslikning oqibatlari quyidagilarda namoyon bo`ladi:

ijtimoiy beqarorlik. Bunday xulq-atvor jamiyatda ishonchsizlik, norozilik va beqarorlikni kuchaytirishi mumkin;

resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi. Shaxslar yoki guruhlar o‘z manfaatlari uchun jamiyatning resurslarini noto‘g‘ri ishlatishi, natijada ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlikni kuchaytiradi;

ijtimoiy savodning pasayishi. Jamiyatda umumiy axloqiy va etik me'yorlar buzilishi mumkin, bu esa jamiyatning umumiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Jamiyat manfaatlarini mensimaslik – bu ijtimoiy mas'uliyatni va umumiy farovonlikni e’tiborsiz qoldirish, shaxsiy yoki guruh manfaatlarini jamiyatning manfaatlaridan ustun qo‘yishdir. Bu holat jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarishi, ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytirishi va umumiy farovonlikni kamaytirishi mumkin. Shuning uchun, jamiyatning manfaatlarini hurmat qilish va ularga amal qilish ijtimoiy barqarorlik va rivojlanish uchun zarurdir.

Nigilizm – bu dunyoqarash yoki falsafiy qarash bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan qiymatlar, maqsadlar, axloqiy normalar yoki ijtimoiy tizimlar inkor qilinadi. Nigilizm, odatda, hayotda hech qanday haqiqiy ma'no yoki qiymat yo‘qligini ta’kidlaydi. Nigilistlar uchun dunyo va inson hayoti ko‘pincha befoyda yoki maqsadsiz bo‘lib, ular odatda an'anaviy axloqiy, diniy yoki ijtimoiy me'yorlarga shubha bilan qarashadi. Nigilizmning asosiy xususiyatlari:

Ma'no va qiymatlarning inkori. Nigilizm, umuman olganda, hayotda hech qanday haqiqiy ma'no, maqsad yoki qiymat yo‘qligini ta’kidlaydi. Bunga ko‘ra, axloqiy, diniy yoki madaniy qadriyatlar aslida sun'iy va inson tomonidan yaratilgan.

Axloqiy nihilizm. Bu nuqtai nazar, an’anaviy axloqiy qadriyatlarni inkor qiladi. Nigilistlar uchun axloqiy me'yorlar, yaxshi yoki yomon tushunchalari – bu faqat ijtimoiy konstruktsiyalar bo‘lib, ularning haqiqiyligi yoki obyektivligi yo‘q.

Diniy nihilizm. Nigilizm, shuningdek, dinni ham inkor qiladi. Diniy tushunchalarga shubha bilan qarash va hayotning ma'nosi faqat diniy nuqtai nazardan emas, balki shaxsiy yoki dunyoviy nuqtai nazardan ham izlanadi.

Metafizik nihilizm. Bu nuqtai nazar hayot va mavjudlikning asosiy ma'nosi yo‘qligini ta’kidlaydi. Nigilistlar uchun borliq va mavjudlikning o‘zi maqsadsiz va befoyda bo‘lishi mumkin.

Existensial nihilizm (mavjudlik nihilizmi). Bu falsafa hayotning umumiy maqsadi yoki ma'nosiga shubha bilan qaraydi. Bu qarashlarga ko‘ra, har bir insonning hayoti o‘zida ma'no yoki mazmun yaratmasdan o‘tadi, va ularning mavjudligi aslida qaysidir ma'nosizdir.

Nigilizm atamasi Rus falsafasida XIX asrda keng tarqalgan va ko‘plab adabiy va falsafiy asarlarda muhokama qilindi. Ayniqsa, Friedrich Nietzschening asarlarida bu falsafa o‘z ifodasini topdi. Nietzsche, ayniqsa, “Xudoning o‘limi” deb ataladigan konsepsiya bilan tanilgan, bu konsepsiya, odamlarning eski diniy va axloqiy qadriyatlarni yo‘qotishlarini va yangi qiymatlar yaratish zarurligini anglatadi.

Nigilizmning ijtimoiy va shaxsiy ta'siri quyidagialardan iborat:

ijtimoiy beqarorlik. Nigilizm, agar jamiyatda keng tarqalgan bo‘lsa, an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarning noto‘g‘ri yoki befoyda ekanligini anglatadi, bu esa jamiyatdagi barqarorlik va yaxlitlikni buzishi mumkin;

shaxsiy noaniqlik. Nigilizm shaxslarning hayotdagi maqsadlarini aniqlashda qiyinchiliklarga olib kelishi, o‘zini yo‘qotish va depressiyani kuchaytirishi mumkin.

Nigilizm – bu hayotda haqiqiy ma'no va qiymatlarning yo‘qligini ta’kidlovchi falsafiy qarashdir. Nigilistlar an'anaviy axloqiy, diniy va ijtimoiy qadriyatlarni inkor qilib, mavjudlik va hayotning maqsadsizligini anglatadilar. Bu dunyoqarash ba’zan

ijtimoiy beqarorlikka, shaxsiy izlanishlarga va hayotning ma'no topilmasligiga olib kelishi mumkin.

Skeptitsizm – bu bilim va haqiqatga bo‘lgan shubha yoki ehtiyotkorlikka asoslangan dunyoqarash yoki falsafiy qarashdir. Skeptitsizm, asosan, insonning bilim olish qobiliyatiga, haqiqatni bilib olish mumkinligiga yoki mavjud bilimlarning haqqoniyligiga shubha bilan qaraydi. Skeptitsizmning asosiy nuqtai nazari shundan iboratki, bizning bilimimiz, tushunchalarimiz va qarorlarimizni doimiy ravishda sinchiklab, shubha qilish va tekshirish zarur. Skeptitsizmning asosiy tamoyillari quyidagicha ifodalanadi:

Bilimning shubhaligi tamoyili. Skeptiklar, odamlarning bilim olish qobiliyatiga shubha bilan qarashadi. Ular haqiqatni bilish mumkinmi yoki yo‘qmi, degan savolga javob berishda ehtiyotkorlikni ko‘rsatadilar. Ba'zan ular, bilim va tajriba insonning cheklangan imkoniyatlariga asoslangan, shuning uchun barcha narsalarni bilib bo‘lmaydi, deb hisoblashadi.

Haqiqatni bilishdagi qiyinchiliklar tamoyili. Skeptitsizm, odamlar haqiqatni to‘liq va obyektiv ravishda bilib olishlari mumkinligiga shubha bilan qaraydi. Ular, hatto ma'lum bir narsaning haqiqatligini tasdiqlash uchun, barcha imkoniyatlarni sinchiklab tekshirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Shubha qilish tamoyili. Skeptitsizm har doim savol berish, tekshirish va shubha qilishni targ‘ib qiladi. U bilimni faqat to‘liq va ishonchli dalillar orqali qabul qilishni maqsad qiladi. Boshqacha aytganda, skeptiklar “haqiqatni bilishga” jiddiy shubha bilan yondashadilar va bu bilimni doimo tekshirish kerakligini tushunadilar.

Skeptitsizmning turlari quyidagilardan iborat:

Bilimli skeptitsizm. Bu skeptitsizmning asosiy shakli bo‘lib, odamlar barcha bilimlarni bilib olishga qodir emasligini, yoki ular mavjud bilimlarning haqqoniyligi doimo shubha ostida bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan, agar biz faqat sezgi organlarimizga tayanadigan bo‘lsak, bizning sezgilarimizni aldagan yoki noto‘g‘ri talqin qilgan holatlarda bilim olish mumkinligi haqida savollar tug‘iladi.

Pinhoniy skeptitsizm. Bu skeptitsizmning tarixiy shakli bo‘lib, eski yunon falsafasida paydo bo‘lgan. Pinhoniy skeptiklar, biron bir fikrni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri

deb aytishning imkonsizligini ta'kidlaganlar. Ular haqiqatni aniq bilishning hech qanday ishonchli usulini topolmasliklarini e’tirof etganlar.

Pragmatik skeptitsizm. Bu turda skeptiklar, har qanday narsaga yoki haqiqatga to‘liq ishonch hosil qilishning imkonsizligi haqida shubha qilishadi, ammo ular kundalik hayotda foydali va amaliy bilimlarni ishlatishni davom ettiradilar. Bu turdagi skeptitsizm amaliyotda, bilimni ba'zan ishonchli va foydali deb qabul qilishni qabul qiladi, lekin uni doimiy ravishda tekshirib, tahlil qilishni tavsiya etadi.

Skeptitsizmning ahamiyati va ta'siri quyidagilarda namoyon bo`ladi:

Bilimni chuqurroq tekshirish. Skeptitsizm, har qanday bilimni yoki haqiqatni qabul qilishdan oldin uni batafsil tekshirish va tahlil qilishni rag‘batlantiradi. Bu, bilimning mustahkam asoslanganligini va haqqoniyligini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Shubha va tanqidiy fikrlash. Skeptiklar, odatda, ijtimoiy yoki ilmiy qabul qilingan haqiqatlarni shubha bilan ko‘rib chiqadilar. Bu ularga ko‘proq tanqidiy fikrlashni va yangi fikrlarni sinchiklab o‘rganishni o‘rgatadi.

Ijtimoiy va ilmiy taraqqiyot. Skeptitsizm, ko‘pincha ilm-fan va jamiyatda taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Odamlar yangi bilimlarni va haqiqatlarni qidirishda, ilgari qabul qilingan tushunchalarni shubha bilan tekshirish zarurati mavjud.

Skeptitsizm – bu bilim va haqiqatga bo‘lgan ehtiyotkorlik, shubha va tanqidiy yondashuvni ta'kidlovchi falsafiy qarashdir. Skeptiklar, barcha bilimlar va haqiqatlar doimo shubha ostida ekanligini va ular doimiy ravishda sinchiklab tekshirilishi kerakligini tushunadilar. Bu dunyoqarash insonlarga ilmiy va falsafiy sohalarda chuqurroq izlanishlar va yangiliklarni kashf qilishga yordam beradi.

Vandalizm – bu ijtimoiy me'yorlar va qonunlarga zid ravishda jamoat mulkini yoki shaxsiy mulkni qasddan yo‘q qilish, buzish yoki shikastlashdir. Bu harakatlar odatda nomaqbul, maqsadsiz va yomon niyatli bo‘ladi, shuningdek, ijtimoiy tartibni buzish va boshqalarga zarar yetkazish niyatida amalga oshiriladi. Vandalizmning asosiy xususiyatlari quyidagilarda ko`rish mumkin:

Mulkni shikastlash. Vandalizmning eng ko‘p uchraydigan shakli – bu turli xil mulk, jumladan, jamoat joylaridagi inshootlar, transport vositalari, binolar, haykallar va boshqa jismoniy obyektlarni buzish, sindirish yoki shikastlash.

1. Ma'naviy zarar. Boshqa bir turdagi vandalizm – bu obyektlarga yoki joylarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlar, yozuvlar yoki grafiti yozish. Ba'zan bu tasvirlar yoki yozuvlar odamlarning hissiyotlariga, etnik yoki diniy guruhlarga qarshi bo‘lishi mumkin, bu esa jamiyatda ma'naviy zarar keltiradi.

2. Ijtimoiy tartibni buzish. Vandalizm, shuningdek, jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin, chunki bu odatda ijtimoiy qoidalar, tartiblar va hurmatni inkor qilishni anglatadi.

Vandalizmning turlari quyidagilardan iborat:

Grafiti yoki ko‘cha san'ati. Ba'zida vandalizm ko‘cha san'ati (grafiti) bilan bog‘lanadi. Grafiti, ba'zida estetik yoki ijtimoiy ifoda sifatida qabul qilinishi mumkin, lekin ko‘pincha noqonuniy ravishda va mulkni shikastlab yoki buzib amalga oshiriladi:

1. Jamoat mulkini shikastlash. Bu yo‘l bilan odamlar jamoat joylaridagi inshootlarni, mashinalarni yoki boshqa mulklarni buzadilar. Bu, masalan, avtobus bekatlariga zarar yetkazish, mashinalarni vandalizm qilish, shuningdek, hozirgi kunda ko‘chalarni buzish yoki ular ustiga yozuvlar tushirishni o‘z ichiga oladi.

2. Tarixiy yoki madaniy merosga zarar yetkazish. Ba'zan vandalizm tarixiy yoki madaniy ahamiyatga ega obyektlarga zarar yetkazish sifatida namoyon bo‘ladi. Misol uchun, haykallarni buzish yoki tarixiy binolarni vandalizm qilish.

Vandalizmning oqibatlari quyidagilarda namoyon bo`ladi:

1. Vandalizm jismoniy mulkni shikastlashga olib keladi va bu jarayon ko‘pincha katta moddiy zarar keltiradi. Tashkilotlar va hukumatlar vandalizmga qarshi choralar ko‘rish uchun ko‘p mablag‘ sarflashga majbur bo‘ladi.

2. Vandalizm jamiyatda beqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Bu, ijtimoiy huquq va tartibning buzilishi, ishonchsizlik va jamiyatda salbiy ruhiyatni keltirib chiqarishi mumkin.

3. Tarixiy obyektlar, san'at asarlari yoki madaniy merosga zarar yetkazish nafaqat jismoniy zarar keltiradi, balki jamiyatning madaniy merosini yo‘qotishga olib keladi.

Vandalizm – bu jamiyat mulkini yoki shaxsiy mulkni maqsadsiz ravishda buzish, shikastlash yoki yo‘q qilishdir. Bu ijtimoiy me'yorlarga zid bo‘lgan va ko‘pincha ijtimoiy, ma'naviy va moddiy zarar keltiradigan harakatdir. Vandalizm ijtimoiy beqarorlikka, jamiyatda ishonchsizlikka va iqtisodiy zarar keltirishga olib kelishi mumkin.

Sinnizm – bu falsafiy qarash yoki dunyoqarash bo‘lib, unda odamlar va jamiyatga nisbatan juda salbiy va ishonchsiz munosabatda bo‘lish, odatda, shaxsiy manfaatlar yoki ehtiroslarga asoslangan harakatlar mavjudligini ta'kidlaydi. Sinnizmning asosiy tamoyili shundan iboratki, odamlar ko‘pincha faqat o‘z shaxsiy manfaatlari uchun harakat qilishadi va ular yaxshi niyatlar yoki fazilatlarni ko‘rsatishga intilmaydilar. Sinnizmning asosiy xususiyatlari:

Shubha va ishonchsizlik. Sinnistlar jamiyatdagi insonlar yoki ijtimoiy tizimlarga nisbatan doimo shubha bilan qaraydilar. Ular, ko‘pincha, insonlar o‘z faoliyatlarida haqiqatan ham halol yoki yaxshi niyatlar bilan emas, balki o‘z manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishlarini tushunadilar.

Inson tabiati va motivatsiyalariga nisbatan salbiy qarash. Sinnistlar, odatda, inson tabiatini salbiy tarzda tasvirlaydilar, ya'ni ular insonlarning faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishini va ular uchun yaxshilik yoki fazilatlarning borligini shubha ostiga olishadi. Ular, odamlar ko‘pincha o‘z manfaatlariga erishish uchun yolg‘on yoki manipulyatsiyalarga murojaat qilishadi deb hisoblaydilar.

Idealizmni inkor qilish. Sinnizmda odatda idealizm yoki yuqori maqsadlarni inkor qilish mavjud. Sinnistlar yaxshilik va fazilatlarni ko‘pincha befoyda yoki mavjud bo‘lmagan narsalar deb hisoblaydilar, chunki ular barcha insonlarning maqsadlari va harakatlarini faqat shaxsiy foyda olishga yo‘naltirilgan deb tushunadilar.

Qarshi qarashlar. Sinnistlar jamiyatdagi axloqiy qoidalarga va an'anaviy qadriyatlar tizimiga qarshi chiqadilar. Ular uchun axloqiy normalar ko‘pincha sun'iy va foydasiz bo‘ladi, chunki ular insonlarning haqiqiy niyatlarini yoki motivatsiyalarini inkor qiladilar.

Sinnizmning falsafiy ildizlari Antik Yunonistonda joylashgan bo‘lib, eng mashhur sinniklardan biri Diogenes bo‘lgan. Diogenes, sinnik fikrlarining eng ko‘zga

koʻringan vakili sifatida, jamiyatning rasmiy qadriyatlarini va ijtimoiy odob-axloq me'yorlarini rad etdi. U ozodlik va oʻziga xoslikni qadrlagan, lekin bu qadriyatlar koʻpincha jamiyat tomonidan rad etilgan edi. Sinniklar ijtimoiy hayotga va uning me'yorlariga qarshi chiqib, insonlarni oddiy va tabiiy hayotga chaqirganlar. Ular idealist yoki madaniy inshootlarga e'tibor bermasdan, oddiy hayot tarzini afzal koʻrishgan. Sinnizmning oqibatlari va ijtimoiy ta'siri:

Ijtimoiy idealizmni pasaytirish: Sinnizm jamiyatdagi idealist qarashlarga, ijtimoiy islohotlarga va yaxshilikka boʻlgan ishonchni kamaytirishi mumkin. Bu, oʻz navbatida, jamiyatda ishonchsizlik va nihilizmga olib kelishi mumkin.

Skeptitsizm va tanqidiy fikrlashni oshirish: Sinnizm, ba'zan, salbiy qarashlarni shakllantirgan boʻlsa-da, odamlarni tanqidiy fikrlash va mavjud tizimlarni sinchiklab tahlil qilishga undaydi. Biroq, bu salbiy va ishonchsiz dunyoqarash ijtimoiy hayotda koʻpincha beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatdan chetlashish: Sinnizm, ba'zan, ijtimoiy mas'uliyatni e'tiborsiz qoldirishga, axloqiy qadriyatlarni inkor etishga va odamlarni oʻz manfaatlarini boshqalar manfaatlaridan yuqori qoʻyishga undaydi.

Sinnizm – bu dunyoqarash yoki falsafiy qarash boʻlib, unda insonlarning koʻpincha oʻz manfaatlari uchun harakat qilishi va jamiyatda yaxshi niyatlar, fazilatlar va idealizmning mavjudligini inkor qilish ta'kidlanadi. Sinnizm jamiyatning rasmiy qadriyatlarini, axloqiy me'yorlarini va ijtimoiy tizimlarni shubha bilan qaraydi, shuning uchun ba'zan salbiy va ishonchsiz dunyoqarashni shakllantiradi.

Xeppining (vahshiyona "koʻngil ochish"lar) – bu insonlarning jinsiy ehtiroslarini yoki qiziqishlarini boshqarishda, ijtimoiy va axloqiy me'yorlar doirasidan chiqib, qoʻllaniladigan nojoʻya, koʻpincha sharmandali yoki vahshiyona usullarni anglatadi. Bu turdagi "koʻngil ochish"lar odatda odamlarning boshqalariga qarshi tajovuzkor yoki zararli harakatlarni, shuningdek, axloqiy jihatdan qabul qilinmaydigan faoliyatlarni oʻz ichiga oladi. Xeppiningning asosiy xususiyatlari:

Jinsiy va jismoniy tajovuz. Xeppining, ba'zan, jinsiy ehtiroslarni uygʻotish uchun insonlarni majburlash yoki ularga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish holatlariga olib

kelishi mumkin. Bu turdagi faoliyatlar ko‘pincha ahloksiz va qonuniy jihatdan taqiqlangan hisoblanadi.

Keng tarqalgan axloqiy buzilishlar. Xeppining shaxsiy va jamoat axloqiga qarshi turadi, chunki bu jinsiy va shaxsiy haq-huquqlarni buzishga olib keladi. Boshqa odamlarning roziligi yoki ehtiroslariga hurmat qilmasdan amalga oshiriladigan harakatlar ko‘pincha jamiyat tomonidan salbiy baholanadi.

Ijtimoiy me'yorlarning buzilishi. Bu turdagi harakatlar, umuman olganda, ijtimoiy me'yorlar va qonunlarga zid keladi. Xeppiningning ko‘plab shakllari erkaklar yoki ayollarni majburlash, kamsitish yoki tajovuz qilishni o‘z ichiga oladi, bu esa jamiyatda qabul qilinmagan va zararli holat hisoblanadi.

Xeppiningning oqibatlari quyidagilarda namoyon bo`ladi::

1. Xeppiningning tarqalishi jamiyatda zo‘ravonlikni kuchaytirishi va odamlarga zarar yetkazish imkoniyatini oshirishi mumkin. Bu ijtimoiy beqarorlikka va insonlarning bir-biriga nisbatan ishonchsizligiga olib keladi.

2. Xeppiningga duchor bo‘lgan odamlar ko‘pincha jismoniy yoki ruhiy zarar ko‘radilar. Bu turdagi tajovuzlar jismoniy travmalarni keltirib chiqarishi, shuningdek, ruhiy travma, xavotir, depressiya va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

3. Xeppiningning ko‘p shakllari qonuniy jihatdan jazolanishi mumkin. Bu jamiyatdagi axloqiy me'yorlarga, qonunlarga va inson huquqlariga qarshi bo‘lib, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Xeppining (vahshiyona "ko‘ngil ochish"lar) – bu jinsiy va shaxsiy haq-huquqlarga nisbatan tajovuzkor, axloqan qabul qilinmaydigan va zararli harakatlarni anglatadi. Bu turdagi faoliyatlar jamiyatda zo‘ravonlik, travma va jinoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jamiyatda bunday harakatlarga qarshi kurashish va inson huquqlarini himoya qilish muhimdir.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Tarbiya jarayonining o'quv jarayonidan farqlanishi qanday namoyon bo'ladi?

2. Tarbiyaviy jarayonning asosiy qarama-qarshiliklari nimalardan iborat?

3. Tarbiyaning maqsadlari va mazmunida jamiyat ehtiyojlari qanday amalga oshiriladi?

4. Bugungi kunda tarbiyaning eng umumiy maqsadi nima?

5. Tarbiyaviy jarayonning qonuniyatlari misollarini keltiring.

6. Tarbiyaning asosiy prinsiplari nima, ularning ma'nosini tushuntiring.

7. Metod, usul va tarbiya vositalari qanday o'zaro bog'lanadi?

8. Shaxsning ongini shakllantirish uchun qanday metodlar qo'llaniladi?

9. Xulq-atvor tajribasini shakllantirish uchun qanday metodlar qo'llaniladi?

10. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasini yaratish uchun qanday metodlar mavjud?

11. Tarbiyaning shakllari qanday belgilarga ko'ra tasniflanadi?

12. Tarbiyaviy jarayonda bolalar jamoasini rivojlantirish zarurligini asoslang.

13. Tarbiyaviy tizimning asosiy komponentlarini sanab bering.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. “Bizga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda ota-onalarimiz va o‘qituvchilarimiz qanday yo‘llardan foydalanishgan?” mavzusida erkin yozish topshirig‘i. “Bizga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda ota-onalarimiz va o‘qituvchilarimiz qanday yo‘llardan foydalanishgan?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting. Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.

2. Besh daqiqa tugagach,vaqt tuganganligi ma’lum qilinadi.Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

2. Shaxs ongini shakllantirish metodlariga oid amaliy topshiriqlar. Quyidagi jadvalni to‘ldiring. Shaxs ongi va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari uchun tegishli bo‘lgan talablarni belgilang:

Talablar	Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari	Ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari
Odatlantirish		
Etik suhbat		
Hikoya		
Mashqlantirish		
Pedagogik talablar		
Ma’ruza		
Izohlash		
Tushuntirish		
Jamoatchilik fikri		
Tarbiyalovchi vaziyatlar		
Nasihat		
Munozara		
Ishontirish		
Yo‘riqnoma		
Namuna		


3. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlariga doir amaliy topshiriqlar. Qaysi guruhda rag‘batlantirish metodlari to‘g‘ri tasnif etilgan?

1. Hikoya, ma’qullash, ko‘ngilni ko‘tarish, tushuntirish, hikoya, dalda berish, ishonch bildirish, namuna


2. Rag‘batlash, jazolash, ma’qullash, ko‘ngilni ko‘tarish, dalda berish, ishonch bildirish, mukofotlash, tanbeh berish, tashakkur bildirish.

3. Mashq, rag‘batlash, o‘rgatish, jazolash, ma’qullash, dalda berish, hikoya, tushuntirish, talab, topshiriq berish.

4. Tarbiyaning umumiy metodlarini aniqlashga doir nostandart topshiriq. 1. Ijtimoiy fikr. 2. Nasihat. 3. O‘z-o‘zini baholash. 4. Jazolash. 5. Munozara. 6. Musobaqa. 7. Rag‘batlantirish. 8. Izohlash 9. Hikoya. 10. Mashq. 11. Namuna. 12. Ishontirish. 13. O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish. 14. Yo‘riqnoma. 15. Topshiriq. 16. Ma’ruza. 17. Tushuntirish. 18. Odatlantirish. 19. Etik suhbat 20. Pedagogik talablar. 21. Tarbiyalovchi vaziyat.



5. Tarbiyada rag’batlantirish va jazolash metodlari “T-jadval” metodi asosida loyihalashtiring:



§ 2.2. MILLIY TARBIYA USULLARI VA VOSITALARI (YOSHLARDA ILMIY VA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI)

Reja:

1. Milliy tarbiya mazmuni va mohiyati.
2. Milliy tarbiya mezonlari, usullari va vositalari. Milliy ong va milliy iftixor o‘sishining tarbiyaviy ahamiyati
3. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi va uni amalga oshirish bosqichlari.
4. Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish.
5. Milliy qadriyatlar, milliy o‘yinlar – tarbiya vositasi sifatida.
6. Yoshlarda ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati.

Tayanch so`z va iboralar: milliy tarbiya, milliy g‘urur, milliy ong, ma’naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy tarbiya uslublari, milliy qadriyatlar va an’analar, tarixiy va madaniy meros, axloqiy tarbiya prinsiplari, vatanparvarlik va ma’naviy yuksalish.

Milliy tarbiya mazmuni va mohiyati

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, u milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YuNESKO tamoyili) vositasi; turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma’naviy manbai; o‘quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go‘zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlararo muloqot va O‘zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo‘li va vositasi; ijtimoiy va maktab tarbiyalari uyg‘unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg‘unlikka olib borishning pedagogik yo‘li; ijtimoiy- ma’naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta’minlashning strategik obyekti va vositasi; etnopsixologik nuqtai-nazardan o‘quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, rivojlantirish jarayoni hisoblanadi [21].

Odamdagi evolyusion rivojlanishning yakunlanishi undagi madaniy rivojlanishni boshlab bergani tarixdan ma’lum. Har bir inson o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonida o‘z ajdodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy o‘zlashtiruvchi,

zamoniylashtiruvchi, boyituvchi va o‘zgartiruvchidir. O‘zining ana shunday insoniy burchlarining har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy, rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Demak, pedagogik nuqtai-nazardan har bir inson tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko‘rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiyaning mahsulidir.

Turli xalqlarning bir-birlarini tanishida, bilishida, bilvosita va bevosita millatlararo muloqotlarda insonning milliy jihatlariga e’tibor berilgan. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyoxlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar (Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayxon Beruniy, Mikluxo Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, H.Vamberi va boshqalar) qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta’limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini qiyosiy o‘rganish yo‘nalishi mavjud edi.

XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, “Boshqa dunyo kishisi” muammosini o‘rgana boshladi. Bu aslida, boshqacha tarbiya – milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarni ilmiy nuqtai-nazardan o‘rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri amerikalik kulturantropolog Margaret Mid bo‘ldi [18]. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip (odamning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig‘indisi)ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip (o‘z xalqi haqidagi bilimlar yig‘indisi)ning shakllanishiga ham turtki bo‘ldi. Zero M.Mid tomonidan 1927 yili nashr ettirilgan Coming of age in Samoa: a psychological study of primitive youth for western civilization (Samoada ulg‘ayish) kitobi tarbiyaning milliyligini isbotlangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasi edi [18].

M.Mid har bir kishining ma’lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta’sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta’sirni qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe’l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud [15]. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tib keluvchi an’analar, marosim, udum, ishlab chiqarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor shakllari,

bolalarga, o‘smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o‘ziga xosligi katta rol o‘ynashini M.Mid alohida qayd etadi [18].

Bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo‘lgan fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan namunaviy milliy shaxs siymosi mavjudligini birinchi bo‘lib A.Kardiner qayd qiladi. U “milliy shaxs”ning shakllanishida eng avvalo oilaning milliy tarbiyaviy ta’sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining yetakchi rolini alohida qayd qildi [61].

Milliy tarbiya vositasida avloddan-avlodga o‘tuvchi milliy madaniyat va uning sivilizatsiya bilan munosabatini misrlik mashhur pedagog Sote’ al-Xusri (1880-1968) o‘z tadqiqotlarida yaqqol ochib berdi. “Menga madaniy birlikning kafolatini bering, men esa sizga birlikning boshqa barcha turlarining kafolatini beraman” degan mashhur fikr ana shu allomaning qalamiga mansub [21].

“Madaniyat”, “milliylik” tushunchalari tarixiy, zamonaviy tushunchalar bo`lsa, “Sivilizatsiya” tushunchasi ko‘proq jug‘rofiy, mintaqaviy xususiyatga ega bo‘lib, fan va texnika yutuqlarini egallaganlik darajasidir. Demak, madaniyat-milliydir, sivilizatsiya esa umuminsoniy zamonaviylikdir. Milliylik va sivilizatsiyalashganlik uyg‘unlashgandagina insoniyat ma’naviy va moddiy madaniyatlar uyg‘unligiga erishadi. Zero “milliyliksiz insoniyat mantiqiy mavhumlikka, mazmuni yo‘q so‘zga, ma’nosi yuq tovushga aylanib qoladi” [47].

Har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati ham umumbashariy ehiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog‘i kerak. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri barcha xalqlarga bir xil qimmatlidir.

Milliy tarbiya mezonlari, usullari va vositalari. Milliy ong va milliy iftixor o‘sishining tarbiyaviy ahamiyati

Milliy tarbiya jarayoning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun o‘sha etnos vakillarining faoliyat, xulq-atvor va muloqatlari jarayonlarini o‘rganish samaralidir. Zero milliy tarbiya milliy(ichki) va millatlararo (tashqi) munosabatlarning muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Milliy tarbiya jarayonida makondagi

muqimlik va milliy-madaniy jipslikni, birlikni ta’minlovchi etnik, milliy ma’lumotlar sinxron va diaxron shaklda avloddan avlodga uzatiladi. Shunday qilib, faqat shu millatgagina xos bo‘lgan o‘ziga xos tarbiyaviy tizim ushbu millatning boshqa millatlardan farq qilishini, ichki yaxlitligini, benazirligini ta’minlaydi. Agarda milliy tarbiya e’tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o‘zligini anglash darajasi, milliy g‘ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir individ o‘ziga xos milliy-madaniy an’analar, me’yorlari bo‘lgan jamiyatda shakllanadi. Ana shu urf-odat, me’yorlar, an’analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy-tarixiy birlikning a’zosiga aylantiradi.

Sharq, xususan o‘zbeklarning milliy tarbiyasining falsafiy, metodologik asoslarini dunyoni idrok qilishning sharqona “ruhi”, uslubi mavjudligini tushunmasdan aniqlab bo‘lmaydi.

G‘arb kishisining ongidagi personalistik qarash xristianlikni, Sharq kishisi ongidagi antipersonalistik qarash esa Islomni bevosita ta’sirida yuzaga kelgan. Ana shuning uchun ham yevropalik shaxs mohiyatini xristianliksiz (Xristian dini – Yevropaning o‘qituvchisidir. N.S.Trubeskoy), Sharq kishisining mohiyatini Islom dinining axloqiy qarashlarisiz tadqiqot qilib bo`lmaydi. Shu sababli Sharq axloqining qomusini - Qur’oni Ma’jid, Hadisi shariflar tashkil etadi [21].

Dinning insoniyat ma’naviyatida tutgan roli beqiyosdir. Chunki din – dunyoqarashni tashkil qiluvchi ongning tarkibiy qismidir. Dinda inson, uning mohiyati. milliyligi haqida mulohazalarning ulkan, yaxlit tajribasi mavjud. Uning vazifasi e’tiqod orqali inson, jamiyatning ruhiyatini uygunlashtirish, tarbiyalashdir. Ana shu nuqtai-nazardan har bir din – o‘zi asoslagan ma’naviy ta’lim va axloqiy tarbiya tizimidir. Bu odatda muayyan dinga mansub xalqlar, millatlar (masalan, Islom diniga mansub arab, tatar, tojik, turk, qozoq, o‘zbek va boshqalar)ning umumdiniy yoki baynalmilal ma’naviyatini va axloqini hosil qilib kelgan.

Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir!. “Millat”, “milliylik”, “milliy g‘urur”, “milliy odob”, “millatlararo muloqat madaniyati” tushunchalarining o‘zagini arabcha “mil” so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada “o‘zak”, “tub mohiyat”, “negiz”

ma’nolarini anglatadi. “Millat” so‘zi esa bir necha ma’noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma’nolarini anglatadi [21].

“Tarbiya” so‘zi “milliy tarbiya” tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta’rif bermoq kerak. Arabcha "tarbiya", “tarbiyat” so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘z-quloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘p qirrali mazmunga ega [33]. “Tarbiyachi” so‘zi esa shu ko‘pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma’nosini "yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq" sifatida aniqlash mumkin [21]. O‘zbekning eng asosiy fazilatlari va xislatlari quyidagi ijobiy va salbiy sifatlar ta’sirida yuzaga keladi (2.8-jadvalga qarang).

“Millat”, ‘milliylik” tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomga borib tutashadi. Ya’ni Yevropa xalqlari tillariga “millat” tushunchasi lotincha “nation” - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo‘lsa, Osiyoga esa Islom ta’limoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelgan [21].

Milliylik – ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy tamoyili natijasida yig‘ilgan madaniy qadriyatlar sintezidir. Milliy tarbiya – ana shu madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayonidir: shaxsning milliyligi va zamonaviyligi – uning ijtimoiylashuvining madaniy darajasidir. Har bir milliy madaniyat – umuminsoniy qadriyatning muayyan ko‘rinishidir.

Chunki insoniyat – bu xalqlar, millatlardir. Ana shu nuqtai-nazardan milliy tarbiya – har bir insonni o‘z milliy madaniyati manbaida, ya’ni muayyan umuminsoniy qadriyat asosida shakllantirishdir. Milliy tarbiyalanganlik mezonlari o‘quvchi shaxsining milliy xususiyatiga bevosita aloqador bo‘lgan fazilatlari va uning o‘zaro aloqadorligi (milliy-madaniy determinizm) tamoyilidan kelib chiqib asoslandi. Buni quyidagicha sharhlash mumkin; “O`zbekiston vatanparvarligi”, o‘quvchining "milliy

g‘ururi", “milliy odobi”, "milliy mafkuraviy ongliligi", "millatlararo muloqot madaniyati" tushunchalari milliy o‘zakka ega.

2.8-jadval.

O‘zbekning eng asosiy fazilatlari va xislatlari

Ijobiy sifatlar	Salbiy sifatlar
Do‘stga vafodorlik	Beg`amlik
O‘rtoqlik	Manmanlik
Mehmondo‘stlik	Isrofgarchilik
Odamgarchilik	Laganbardorlik
Insonparvarlik	Tilyog‘lamalik
Tadbirkor-chaqqonlik	Xasislik
Axloqan teranlik	Tamagirlik
Turmushga nafosat bilan qarash	Shuhratparastlik
Uquvlilik	Xudbinlik
Fazilatlilik	Behayolik
Sahiylik	Manfaatparastlik
Xushmuomalalik	Bemehrlik
Ko‘p bilan birga bo‘lish	Qonunbuzarlik
Hayolilik	Jinoyatchilik
Sizlab muomala qilish	Bezorilik
Ozodalik	Giyohvandlik
Xushf’ellik	Muallimlarni haqoratlash
Mardlik	Ota-onaga mehrsizlik
Nazokatlilik	Marhumlarni yomonlash
Samimiylik	Milliy g‘ursizlik
Ziyraklik	Ma’naviy qashshoqlik
Lutf karamlilik	Andishasizlik
Ro‘zg‘orshunoslik	Loqaydlik
Shinavandalik	Behayolik
Ona tilida sof so‘zlash	Ma’naviy qashshoqlik
Tashabbuskorlik	Madaniy qashshoqlik
Milliy mafkuraviy e’tiqodlilik	Qimorbozlik
Milliy san’atga shaydolik	Ichkilikbozlik
Milliy g‘ururlik	Vatan tuyg‘usini his qilmaslik
Vatanga muhabbatlilik	Tajavuzkorlik
Sof vijdonlilik	So‘z va ish orasidagi tafovut
Or-nomuslilik	Xalq oldida burchsizlik
Ogohlik	Mahalliychilik
Boshqa xalqlarga hurmatlilik	Uyat so‘zlarni ishlatish
Vazminlik	Mahalliychilik
Milliy iftixor	Iymonsizlik
O‘tmishga hurmat	Beqarorlik
Diyonatlilik va boshqalar	O‘tmishga hurmatsizlik
	Xotin-qizlarga dag‘allik va boshqalar

Ya’ni qandaydir mavhum “g‘urur”, "mafkura", "odob", "muloqat madaniyati" emas, balki muayyan xususiyatga egaligi e’tirof etiladi. Ushbu fazilatlardagi milliylik o‘quvchining milliy o‘zligini anglash jarayoni bilan bevosita bog‘lanadi. Natijada yosh

avlodning milliy tuyg‘usi stixiyali emas, balki milliy istiqlol maqsadlariga, yaratuvchilik maqsadlariga yo‘naltiriladi, xizmat qildiriladi. Bu – milliy g‘ururni millatchilikdan, mahalliychilikdan, o‘z xalqiga befarqlikdan, manqurtlikdan himoya qiladi.

Milliy g‘urur – o‘quvchining yoshiga mos ravishda o‘z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi; uning madaniyati, ma’naviyati, iqtisodiyotida qo‘lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo‘lishga, ularni boyitishga intilishini o‘z ichiga oladi. Biroq milliy g‘urur stixiyali rivojlanib, o‘z-o‘ziga tanqidiy qarashdan ajratilsa, unda o‘z millatini boshqalardan ustun qo‘yish, milliy manmanchilik kabi salbiy natijalar berishi mumkin. Shuning uchun ham milliy g‘ururni maxsus, ya’ni yaratuvchan maqsadlarga qaratib, tanqidiylikni kamtarlnk bilan uyg‘unlashtirgan holda shakllantirish kerak.

O‘zbekiston vatanparvarligi – O‘zbekistonni yagona Vatan sifatida bilish va sevish: uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik; O‘zbekiston tarixini, madaniy merosini hurmat qilish, unga qiziqish; istiqlolga sadoqat; O‘zbekistonning kelajagi buyukligiga e’tiqod; Respublika manfaatlarini shaxsiy, guruhiy, mahalliy, hududiy manfaatlardan ustunligini anglash va namoyon qilish. O‘zbekiston vatanparvarligi o‘zbek o‘g‘il-qizlaridan alohida fidoyilikni, ma’suliyatni, Vatanga munosabatni talab qiladi. Milliy vijdoniylik esa universal xususiyatga ega-bo‘lib, yuqoridagi (milliy tuyg‘uga bevosita bog‘lanuvchi) fazilatlarning ishonchli shakllantirishning kafolatini ya’ni bilim - so‘z - hatti-harakat(amal qilish) birligini ta’minlaydi, nazorat qiladi.

Millatlararo muloqot madaniyati – o‘quvchining milliy va va baynalmilal ongining uyg‘unlik darajasi bo‘lib, boshqa millat bolalari ularning madaniyati bilan bo‘luvchi bevosita yoki bilvosita muloqatlarda namoyon bo‘ladi. Bu fazilat boshqa millatlarnnng an’analari, tili, milliy tuyg‘ulariga, qadriyatlariga samimiy hurmat, e’zozli munosabatda ko‘zga tashlanadi.

Milliy vijdoniylik – o‘quvchining hatti-harakatlarining o‘zi tomonidan ichki nazorat qilinishi; muayyan vaziyatda o‘z burch va huquqlarini o‘zi belgilab, o‘zi bajarishga shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usi; milliy g‘urur, millatlararo muloqat madaniyati, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, milliy istiqloliy mafkuraviy onglilikni talab

qiluvchi vaziyatlarda bilim, so‘z va ish birligini ta’minlovchi ichki ma’naviy nazoratchidir.

Milliy mafkuraviy onglilik – o‘quvchining yoshiga mos ravishda uning tafakkurida, hatti-harakatlarida, hayotiy maqsadida, munosabatlarida milliy istiqlol mafkurasi talablariga moslik, faollik darajasini ko‘rsatadi [21].

Milliy tarbiya uslublari – bu o‘zbek xalqining o‘z farzandlarida ijobiy fazilatlarni rivojlantirish, salbiy xulq-atvorlarni bartaraf qilish maqsadida qo‘llagan va qo‘llayotgan yo‘l-yo‘riqlar, harakat tartiblari, tarzlari tizimidir. Quyida sharhlanayotgan uslublar xalqimizning o‘g‘il-qizlarga madaniy, mehrli-talabchan munosabatini, bola shaxsiga hurmatini saqlab qolib, maktab tarbiyasida qo‘llash imkonini beradi. Bolaga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning salbiy usullari ham mavjud. Amaliyotda bartaraf qilish uchun ular ham tahlil qilinib, o‘rganilmog‘i kerak. Bu, ayrim o‘qituvchilar, ota-onalarda uchrab turadigan pedagogik xatolarni tuzatib olishlariga yordam beradi.

Baholamoq – bola xulqiga uning ahamiyati, qadr, qiymati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirmoq. *Bahslashmoq* – o‘quvchi bilan(maktabda), o‘g‘il-qiz(farzand) bilan maktabda, uyda ilmiy, adabiy, ahloqiy, milliy-mafkuraviy mazmunda munozara qilmoq. *Begona qilmoq* – bolaning yolg‘on gapirganligi aniqlangach, qo‘polligi muhokama qilingach va h.k. undagi vijdonni junbushga keltirish, qilgan ishi uchun pushaymon qilishi uchun o‘qituvchi, yoki ota-ona, yoki ona uni o‘zidan vaqtincha uzoq tutib yurishi. *Biriktirmoq* – odob-ahloqda, biror hunarda ko‘pchilikka namuna bo‘lgan ustoz tarbiyasiga bermoq. O‘tmishda qo‘shni ko‘rgan ota-onalar farzandlarining hayotini, odamlar, begonalar bilan muomala qilishni o‘rgansinlar deb o‘g‘illarini choyxonachiga xizmatkorlikka bergan ekanlar. *Bitim* – bolaning hayotiga, o‘qishiga, kelajagiga oid jiddiy masalani uning o‘zi bilan muhokama qilib, o‘zaro ijobiy kelishuv, to‘xtam, qarorga kelmoq. *Buyurmoq* – vaziyatning taqozosi bilan tarbiyaviy maqsaddan kelib chiqqan holda bolaning o‘zi uchun, jamoa, millat, Vatan manfaatlarini ko‘zlab buyruq bermoq. *Va’da olmoq* – bolaning o‘z so‘ziga sodiqligini, so‘zi va ishi birligini sinash maqsadida undan biror ishning, majburiyatning bajarilishi haqida so‘z olmoq. *Girgitton bo‘lmoq* – mehribonlik bilan, “aylanay”, “o‘rgilay”

so‘zlarini ishlatib, ismiga “jon”, “xon” qo‘shib bolani erkalash. *Inoqlashmoq* – bola bilan yaqin, do‘stona munosabat bog‘lamoq, ahillashib ketmoq. *Kafil bo‘lmoq* – bola bilmay, adashib xatoga yo‘l qo‘ygan chog‘da uning yaxshiligi haqida boshqalar (o‘qituvi, o‘quvchilar)ni ishontirib, bola uchun mas’uliyatni o‘z ustiga olmoq. *Kengashmoq* – bola sinf jamoasi oldida turgan muammoni birgalikda muhokama qilmoq. *Kuzatmoq* – sinf ahlining, har bir bolaning xulq-atvorini zimdan qarab, tekshirib turmoq, ko‘zdan kechirmoq, qayd qilmoq. *Ko‘rsatmoq* – bolaga, bolalarga o‘rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat e’tiborlarini jalb qilish. *Maqtamoq* – bolani uning o‘ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko‘rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko‘rsatmoq. *Nasihat* – sokin, xayrixohlik vaziyatda bolani yaxshi yo‘lga solish, ta’lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o‘git. *Ovutmoq* – bolaning, uning oilasining boshiga biror kulfat tushganda unga tasalli berib yupatmoq, ovuntirmoq, yig‘lashdan to‘xtatmoq. *Odatlantirmoq* – odob me’yorlarini mashq qildirish. Masalan, salomlashish, murojaat qilish, mehribonlik ko‘rsatish va hokazolarga odat paydo etmoq, o‘rgatmoq. *Oqlamoq* – shunday vaziyatlar bo‘ladiki, bola yil bo‘yi ajoyib xulq-atvor, o‘qit namunalarini ko‘rsatib keladi-yu, bilib-bilmay bir xatoga yo‘l qo‘yadi. Masalan, birov bilan urishib qoladi; hasharga kelmay qoladi va h.k. Shunday holda o‘qituvchi-sinf tarbiyachisi uni (oldingi namunali xulqi hurmati) oqlamog‘i kerak. *So‘ramoq* – bolaning ilmiy va axloqiy bilimlari haqida ma’lumot olmoq, tekshirmoq, norasmiy imtihon qilmoq. *Talab* – tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qa’iyat bilan so‘rab turish.

Tasalli bermoq – muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolani yupatish, ko‘ngil ko‘tarish uchun gapirmoq, ish-harakat qilmoq. *Ta’kidlamoq* – bolalar bilan o‘tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan ahloqiy mazmunni uqtirib, tayinlab bermoq. *Taqdirlamoq* – o‘quvchini, farzandni qadrlamoq, munosib baholamoq, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirmoq. *Taqiqlamoq* – tarbiyaviy maqsadda bolaga, o‘quvchiga biron narsani man etmoq. *Tahsinlamoq* – o‘quvchini, farzandni “balli”, “ofarin” kabi so‘zlar bilan qarshi olmoq, maktab yuksak baholamoq. *Tergamoq* – vaqti-vaqti bilan bolaga yetarli davrajada qattiqqo‘llikni namoyon qilib, tekshirib,

nojo‘ya hatti-harakatlari uchun koyib “yo‘li”dan qaytarib turish. *Uyaltirmoq* – noma’qul qilig‘i uchun bolaga o‘ta noqulaylik tug‘dirish, hijolat, andisha, nomus qildirmoq. *Shavqlantirmoq* – bolaning xulqi, o‘qishidagi muvaffaqiyatlari. Kelajagiga g‘oyat mamnunlik hissi bilan berilmoq, ruhiy ko‘tarinkilik bilan qiziqmoq, zavqlanmoq va zavqlantirmoq, qanoatlantirmoq. *Erkalatmoq* – o‘g‘il bolani “qo‘zichog‘im”, “she’rim”, qiz bolani esa “oppog‘im”, “onajonim” deya silab-siypalamoq, suymoq. *Yarashtirish* – oilada, sinfda ba’zan uchraydigan o‘zaro urush-janjalni to‘xtatish, urishmaslikka ahd qildirmoq, munosabatni yaxshilamoq, totuvlashtirmoq. *O‘ynamoq* – bola bilan unda ijobiy sifatlarni rivojlantirish, salbiy sifatlarni yo‘qotish maqsadiga yo‘naltirilgan ma’lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o‘yinlarni birga o‘ynash usuli. *O‘rgatmoq* – bolaga biror ish harakat (masalan, choy damlashni, turli joy, vaziyatlarda o‘zini tutishni, gapirishni va h.k.) bajarish usulini, yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntirmoq, bildirmoq va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilmoq. *O‘qitmoq* – yozilgan narsani yoki matnni undagi belgilar, harflar vositasida aynan aytib, eshittirmoq. *Qaytarmoq* – bola, o‘quvchi jahli chiqib, qizishib biror kor hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko‘rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo‘ya ishdan, hatti-harakatdan o‘zini tutishga undamoq, tiymoq. *Sovg‘a berish* – bolaga bayram, hayitlar munosabati bilan imkon darajasida tuhfalar qilib, uning mehrini yangilab, oshirib turish. *Homiylik qilish* **–** bolaga biror sohaga qiziqib, berilib shug‘ullansa, bu ishda unga yordam, madad berish, muhofaza etish.

Shu bilan birgalikda o‘quvchi, bolaga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning salbiy usullari mavjudligi va ularga barham berish uchun ulardan namunalar keltirildi: *Aldamoq* – yolg‘on-yashiq gaplar bilan, va’dalar bilan avramoq, laqillatmoq. *Bachkanalashmoq* – o‘qituvchi, ota-onaning kattalarga, ulug‘larga nomunosib qiliќlar, hatti-harakatlar qilishi. *Vaysamoq* – bolalarni, o‘quvchilarni tomonlarga bo‘lib, bir-biriga qarshi oyoqlantirib, tezlab, ular orasidagi ziddiyatni kuchaytirmoq; nizoni avj oldirmoq, olqishlamoq. *Gina qilmoq* – o‘quvchiga, bolaga nisbatan dilda xafalik, kek saqlamoq. *Yomonlamoq* – bolaning oldida yoki orqasidan uni yomonlab, yomonga chiqarib, qoralab gapirmoq. *Zarda qilmoq* – bolaga, o‘quvchiga hadeb zarda, jahl qilaverish. *Zorlanmoq* – bolalar qoshida biror narsadan, vaziyatdan nolimoq, shikoyat

qilmoq, hasad qilmoq, nochorlikni namoyon qilmoq. *Majbur qilmoq* – hech bir asossiz o‘quvchining, sinfning munosabati bilan hisoblashmay, amr, zo‘rlik bilan yoki biror narsa taqozosi bilan bir ishni qilishni buyurish, ko‘r-ko‘rona talab. *Nizo* – o‘qituvchi va o‘quvchi, bola va ota-ona orasida o‘zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovatli munosabat, ixtilof, nifoq hosil qilish. *So‘kmoq* – bolani yomon, uyat so‘zlar bilan urishmoq, haqorat qilmoq. (odatda bu usul so‘kiluvchining so‘kuvchiga behrligiga olib boradi). *Xo‘mraymoq* – farzandga, o‘quvchiga, qovog‘ini solib tikilmoq, yomon ko‘z bilan qaramoq. *Qarg‘amoq* – farzandga, bolaga yomonlik, baxtsizlik yoki o‘lim tilab koyimoq; yomon niyat tilamoq.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi va uni amalga oshirish bosqichlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori o‘zbek jamiyatida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishning zamonaviy huquqiy asosi hisoblanadi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr – homila davri, ikkinchi davr – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3-6(7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich – umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – 7(6)-10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr – 11-17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

to‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17-30 yosh, ikkinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davrda – hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy, tibbiy,

psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh ota-onalar bola parvarishi va tarbiyasiga tayyorlanadi;

ikkinchi davrda – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

Homilador ayollar o‘qishi tavsiya qilinadigan tibbiy-ma’rifiy, tarbiyaviy, badiiy va elektron adabiyotlar turkumlari tayyorlanadi, ro‘yxati shakllantiriladi va tarqatiladi.

Mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma’naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil etish asosida “Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti” mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o‘tkazish. Oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish, ajralishlarning oldini olishda “Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar” prinsipi asosida “Ota-onalik – baxt va burch” targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.

Oilada uzluksiz ma’naviy tarbiya xususiyatlari: muloqot, o‘yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasiga e’tibor qaratish; o‘zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o‘rgatish; ilk ma’naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish; o‘ziga-o‘zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko‘nikmalarini o‘rgatishni o`z ichiga oladi. Uch yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo‘ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to‘plami tayyorlanadi va hududlarga tarqatiladi. Bolalarga taklif etilayotgan o‘yinchoqlarni ma’naviy tahlil va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sirlarning oldi olinadi. Oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida: bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish; mahallalardagi “Ota-onalar universitetlari”da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo‘yicha treninglar o‘tkazish; “Tarbiya maktabi” rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko‘rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin,

rang-barang qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish; uzluksiz ma’naviy tarbiya amaliyotida to‘plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida “Yosh ota-ona kitobi” va boshqa metodik qo‘llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining ushbu bosqichi o‘z ichiga maktabgacha 3-6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi. Ushbu bosqichda 3-7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan: o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi; o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarining yuzaga kelishi; shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi; ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish; muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi; o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi; bola faoliyatining yetakchi turlari – muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar; nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish; muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish; o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish; faoliyat va sujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish; kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish; kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish; o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish; bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatiladi.

Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha “Bola aziz, odobi undan aziz” mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia

mahsulotlarini tayyorlash. Barcha turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida “O‘zbekiston – mening Vatanim!” tuyg‘usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish. O‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish etishni ta’minlash tarbiyalanuvchilarda ma’naviy tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi: birinchi davr – 7(6)-10 yoshli davrda – boshlang‘ich sinflarda; ikkinchi davr – 11-17 yoshli davrda – o‘rta va yuqori sinflarda.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar – Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar: “Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish; o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar); muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi; bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish; o‘zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish; kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi; bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi; o‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi; ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish; xavfsiz hayot ko‘nikmalarini

mustahkamlash; kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish; vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish; muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish; o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish; faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish; tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish.

Umumta’lim maktablarining o‘rta va yuqori sinflari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

o‘smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishi; irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi; ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi; faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi; shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo‘lishi; fuqarolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi; milliy qadriyatlar, an’analarga hurmatning namoyon bo‘lishi; o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi; o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish; xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi; axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e’tiqodning shakllanishi; pozitiv ijtimoiy mo‘ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo‘lidagi intilishlar; ma’naviy-axloqiy prinsiplarning qat’iylashuvi; ichki his-tuyg‘ularga e’tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo‘lishi; mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar – 17-30 yosh;

ikkinchi davr – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22(24) yosh.

O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda ular yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar – Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi asosida maqsadli ma’naviy-ma’rifiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar bilan ishlashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar: kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash; mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish; vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni o‘rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish; mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish; oilaviy burch, oilada o‘zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash.

O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar: ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish; o‘quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni rag‘batlantirish; kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish; faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish; ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e’tiqodni shakllantirish; baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur

bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish.

Milliy qadriyatlar, milliy o‘yinlar – tarbiya vositasi sifatida

O‘zbek milliy tarbiyasining metodologik asoslari tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari va prinsiplari orqali shakllanadi. Bu asoslar milliy qadriyatlar, an’analar, tarixiy meros va zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayangan holda rivojlanadi. Quyida ushbu asoslarni tahlil qilish mumkin:

1. Milliy qadriyatlar va an’analar. O‘zbek milliy tarbiyasining asoslari xalqning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analariga asoslanadi. Bunda quyidagilar e’tiborga olinadi:

Oilaviy tarbiya: Oila milliy tarbiyaning asosiy bo‘g‘inidir. Farzandlarga ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga g‘amxo‘rlik qilish kabi fazilatlar o`rgatiladi.

Milliy bayramlar: Navro‘z, Ramazon va Qurbon hayitlari tarbiya jarayonida milliy birlik va bag‘rikenglik tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Tarixiy va madaniy meros. Tarixiy shaxslar (Amir Temur, Al-Farg‘oniy, Alisher Navoiy), ulug‘ allomalar va ularning asarlari milliy tarbiyaning asosiy omillaridan biridir. Ularning hayoti va faoliyati yoshlarda vatanparvarlik, adolat va ilmga intilish ruhini shakllantiradi.

3. Axloqiy tarbiya prinsiplari. Milliy tarbiyada insonning axloqiy kamoloti asosiy e’tiborga olinadi. Bunda quyidagi prinsiplarga rioya qilinadi:

halollik va adolat;

mehnatsevarlik va sabr-toqat;

vatanparvarlik va insonparvarlik.

4. Vatanparvarlik va ma’naviy yuksalish. Yoshlar qalbida millatga sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish milliy tarbiyaning bosh maqsadlaridan biridir. Bunda tarixiy, madaniy va diniy meros bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati

Bugungi kunda yosh avlodni rivojlantirish, ularni jamiyat hayotiga faol, bilimli va mas’uliyatli shaxslar sifatida tayyorlash masalasi dolzarbdir. Ilmiy va umumdaniy dunyoqarash – bu insonning atrof-muhitni, jamiyatni, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni to‘g‘ri anglashga qodir bo‘lgan, o‘z fikrini asoslab ifodalash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi muhim omildir.

Ilmiy dunyoqarash – bu haqiqatni izlashga, hodisalarni mantiqiy va dalillarga tayangan holda tushunishga yo‘naltirilgan dunyoqarash shakli. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

fikrni tahliliy va tanqidiy rivojlantirish;

hodisalarni sabab-oqibat aloqalari asosida tushunish;

bilim va tajribaga asoslangan qaror qabul qilish;

ilmiy metodlarni qo‘llash orqali muammoni yechish.

Ilmiy dunyoqarash yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi**,** ularni noto‘g‘ri ma’lumotlardan ajratib olishga, fantaziya va stereotiplarga emas, balki haqiqatga asoslangan xulosalar chiqarishga o‘rgatadi.

Umumdaniy dunyoqarash – bu insonning madaniy, axloqiy, ijtimoiy va estetik qadriyatlarni tushunishi, jamiyat bilan bog‘liqligini anglashidir. Uning xususiyatlari quyidagicha:

tarixiy va madaniy tajriba asosida qarash shakllantirish;

etik va estetik qadriyatlarni qadrlash;

ijtimoiy mas’uliyatni his qilish;

boshqalar bilan muloqotda hamda jamiyat hayotida muvaffaqiyatli integratsiya qilish.

Umumdaniy dunyoqarash yoshlarni madaniyatli, mas’uliyatli va jamiyatga foydali shaxs bo‘lishga undaydi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishning ahamiyatini quyidagilarda ko`rich mumkin:

1. Ilmiy va umumdaniy dunyoqarash yoshlarning tafakkurini, qaror qabul qilish qobiliyatini, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. Bilimli va madaniyatli yoshlar jamiyatni rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va ijtimoiy masalalarni hal qilishga tayyor bo‘ladi.

3. Umumdaniy dunyoqarash shaxsni axloqiy, madaniy va estetik jihatdan yetuk qiladi, ularni ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiradi.

4. Ilmiy dunyoqarash yoshlarni tadqiqotga, yangilik kashf etishga va innovatsion faoliyatga yo‘naltiradi.

Yoshlarning ilmiy va umumdaniy dunyoqarashini shakllantirish – bu nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun ham zarur. Ilmiy dunyoqarash orqali ular haqiqatga asoslangan fikrlashni o‘rganadi, umumdaniy dunyoqarash esa madaniyat va axloqiy qadriyatlarni qadrlashni ta’minlaydi. Shu sababli, bu jarayonni ta’lim muassasalari, ota-onalar va jamoat birgalikda samarali amalga oshirishi kerak.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralari nimada?
2. Milliy tarbiya avloddan-avlodga o’tuvchi milliy madaniyat vositasi ekanligini misollarda tushuntiring?
3. Turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya kontseptsiyalarining mazmunini taqqoslang?
4. Ta’limning milliy yo’naltirilganligi nimani anglatadi?
5. O’zbek oilasi – milliy dunyoqarash manbai sifatidagi roli nimada?
6. O’zbekona tarbiyaning asosiy tamoyillari va milliy tarbiya tushunchasiga izoh bering?
7. Milliy tarbiyaning falsafiy, metodologik asoslari va vositalarini tushuntiring?
8. Islom dini va o’zbekona tarbiyaning mazmuni nimada?
9. Oila, mahalla va maktabda milliy tarbiyani amalga oshirish metodlari?
10. Milliy tarbiya milliy ma’naviy meros ekanligi nima bilan ifodalanadi?
11. Milliy tarbiya xususida o’zbek adiblari va jadidlarning qarashlarini taqqoslang?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Zamonaviy o‘quvchining milliy ma’naviyati va madaniyati darajasi bo’yicha FSMU jadvalini to’ldiring:

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko’rsating).
M (Ko’rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

2. Milliy tarbiya usillarini “Tushunchalar tahlili” metodi asosida loyihalashtiring:

Milliy tarbiyadagi ijobiy usullar	Milliy tarbiyadagi salbiy usullar

3. Milliy tarbiya tushunchalarini “Tushunchalar tahlili” metodi asosida loyihalashtiring:

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
Milliy tarbiya	
Milliy tarbiya mezonlari	
Milliy tarbiyaning tarkibiy qismlari	
Milliy tarbiyaning o‘ziga xosliklari	
Milliy tarbiyaning shaxs tarbiyasidagi ko‘rinishlari	

3-MODUL. TA’LIM NAZARIYASI

§ 3.1. DIDAKTIKA-TA’LIM NAZARIYASI (PEDAGOGIK JARAYON. TA‘LIM TAMOYILLARI VA QOIDALARI)

Reja:

1. Ta’lim mazmuni va mohiyati.
2. Didaktikaning asosiy tushunchalari va pedagogik jarayon.
3. O‘qitish mazmuni va tuzilishi. O‘quv reja va dasturlar (kalendar-tematik reja).
4. Ta’lim qonunlari va tamoyillari.

Tayanch so‘z va iboralar: ta’lim, ta’lim mazmuni, didaktika, didaktik kategoriyalar, o‘quv reja, o‘quv fani, o‘quv fani dasturi, bilim, ko‘nikma, malaka, tizim, qoidalar, ta’lim qonuniyatlari, o‘qitish vositalari, fanlar bo‘yicha nazariy materiallar, fanlar bo‘yicha amaliy materiallar, fanlar bo‘yicha didaktik materiallar, laboratoriya va ustaxonalar jihozlari, amaliyotlar, axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, multimediali kitoblar, yarimmedia kitoblar, gipermedia kitoblar, intellektual kitoblar, telemedia kitoblar, kibernetik kitoblar, elektron ta’lim resurslari, elektron nashr, elektron o‘quv nashri, elektron uslubiy qo‘lanma, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron pochta, elektron forum, axborotni uzatish funksiyasi, muvofiqlashtiruvchi funksiya, tizimlovchi funksiya, mutaxassislikka yo‘naltirilganlik funksiya, didaktik funksiya, o‘zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash va o‘z- o‘zini nazorat qilish funksiya, mustaqil bilim olishga qiziqtirish va ijodkorlikka undovchi funksiya, rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi funksiya, ta’lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili, ta’lim-tarbiya tizimi va uzviylik tamoyili, ta’lim-tarbiyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili, ta’lim va tarbiyaning birligi tamoyili, ta’lim-tarbiyaning muntazamiylik va davomiylik tamoyili, ta’lim-tarbiyada onglilik va faollik tamoyili, ta’limda o‘quv faoliyatini yaxlit shakllantirish tamoyili, ta’limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyili, ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyili, o‘zaro bog‘liqlik qonuni, mashq qonuni, intensivlik qonuni, assimilyatsiya qonuni, natijaviy qonun.

Ta’lim mazmuni va mohiyati

Ta’lim berish g‘oyatda murakkab va mas’uliyatli ish, buning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, pedagogning ta’lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta’minlashga urinish va harakatlarini saqlashga intilishi o‘rtasidagi ta’limga xos dialektik ziddiyat aslida yuksalishning manbaidir [65; 27-b.].

Ta’lim maqsad, mazmun, o‘qituvchining shaxsi, talabalardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o‘qitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Bunda o‘qituvchi talabalar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o‘zining ko‘rsatmalari, yo‘naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlar va hakozalar bilan ularning o‘quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar

kiritadi. Shunga koʻra ta’lim birinchidan, oʻqitish, ikkinchidan, oʻqitishni, ya’ni oʻqishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini oʻz ichiga oladi.

“Ta’lim ma’lum qonuniyatlarga boʻysinadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq bu qonunlar ta’lim jarayoni bilan ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar oʻrtasidagi umumiy, muhim zarur, barqaror aloqalardan, shuningdek, ta’limning alohida komponentlari, ya’ni uning maqsadi, mazmuni, shakli, usullari va uslublari oʻrtasidagi ichki bogʻlanishlardan iborat. Aniqlangan didaktik qonuniyatlardan qator asosiy talablar kelib chiqadi, ularga rioya qilish oʻqituvchining sifatli va samarali amalga oshiruvini ta’minlaydi”. Ta’lim natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniyatiga ega boʻladi. Ta’lim jarayoni ma’lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va u shaxsning qarashlari, e’tiqodi xatti-harakatlari, umumiy kamolotiga, pirovardida esa uning xulqiga ta’sir etadigan bilimlar, koʻnikmalar va malakalar majmuasining shakllanishiga bogʻliq holda namoyon boʻladi.


Ta’lim jarayoni – yagona dinamik tizim sifatida. Ta’lim jarayoni oʻzaro bogʻliq boʻlgan tashkil etuvchilar(koʻrsatkichlar)ning oʻzaro uzviy bogʻliqligi asosida tuzilgan yagona dinamik tizimni tashkil etadi. Dinamik tizim deyishiga sabab, ta’lim va ta’lim jarayonini tashkil etuvchilari jamiyat taraqqiyotiga mos holda muntazam rivojlanishda boʻlib, takomillashtirilib boriladi. Bunda tashkil etuvchilar quyidagilardir: maqsad, mazmun, shakl, usul, uslub, oʻqituvchi shaxsi, talabalardagi dastlabki bilim, oʻqitishning moddiy-texnik bazasi va shu kabilar. Bu ta’lim jarayonlarini bir butunlikda, ya’ni yagona yaxlit dinamik tizim sifatida qarash lozimligini taqozo etadi va bunday qarash ta’lim jarayonini boshqarish va boshqarishning optimal variantini topishga ham imkoniyat yaratadi.

Oʻqitish algoritmi intellektual asr ta’lim-tarbiyasida asosiy pedagogik terminlardan biri boʻladi, chunki zamonaviy oʻqitish texnologiyalari shu kabi terminlar asosida ta’limda yangicha sifat bosqichiga koʻtariladi.

Ta’lim – borliqni bilishning oʻziga xos shakli sifatida. Ta’lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri boʻlib, individual psixik rivojlanishni va

bilimlarni o‘zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O‘qituvchi ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta’lim oluvchiga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada ta’lim oluvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

3.1-rasmda ifodalangan ketma-ketlik o‘qitish jarayonining algoritmini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. O‘qitish algoritmini ishlab chiqish orqali olib boriladigan ta’lim jarayonining uzviyligi va uzliksizligini ta’minlovchi qat’iy ketma-ketlik yaratiladi, shuningdek, ta’lim didaktikasini joriy etishning aniq mexanizmlarini yaratish borasidagi ta’lim-tarbiyaviy va pedagogik tadqiqotlar sohalaridagi ishlar yanada rivoj topadi. Qayd etilgan ta’lim jarayonini tizim ko‘rinishida quyidagicha ifodalash mumkin (3.1-rasmga qarang) [65; 28-b.]:



3.1-rasm. Ta’lim jarayoni tashkil etuvchilari va ular dinamikasi

Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to‘qnash kelish yo‘li bilan bilib oladi, ularni o‘zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o‘zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo‘lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta’sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi. Bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so‘z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta’kidlab o‘tish joiz.


Bilish murakkab dialektik jarayon bo‘lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkuriga, so‘ngra amaliyotga o‘tish yo‘lidir [65; 29-b.]. Bilish shaxs uchun muhim ham o‘zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi.

Sezish ongning tashqi olam bilan bo‘ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlari(bizga ma’lumki, ular beshta)ga ta’sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P.Pavlov ta’kidlab o‘tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his ettiradi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunini ongda idrok etishiga olib keladi.

Idrok – sezish a’zolari orqali ongga ta’sir etib turilgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir. Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro‘y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur sezgi a’zolariga qachonlardir ta’sir etgan hamda idrok qilingan narsa va voqea-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zahirasi boyib, ko‘payib boradi. Tasavvuri fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o‘ynaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan bog‘liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qisimlari bo‘lsa-da, ular ham haqiqiy voqealikni bilish muammosini to‘la hal etishmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Bilish jarayonida bilim hosil bo‘ladi. Bilim – odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to‘plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim obyektiv borliqni to‘g‘ri aks ettiradi. Eng to‘g‘ri va mukammal bilimlar ham o‘z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib boradi. Bilimlar asosida ta’lim oluvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e’tiqod hosil bo‘ladi, ilmiy dunyoqarshni shakllantiruvchi g‘oyalar tizimi tarkib topadi. Ta’lim jarayonida biror bir fan sohasida insoniyat tomonidan o‘zlashtirilgan barcha bilimlarni o‘rganish mumkin emas. Ta’lim jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar – fanlarning asoslari o‘rganiladi.

Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o‘z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo‘lga qo‘yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtda bilimning to‘g‘riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g‘oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlanganda u inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo‘lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bilim amaliyotga o‘zining ilgarigi ko‘rinishida emas, balki ancha boyigan ko‘rinishida, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni quyidagi holatda ko‘rishimiz mumkin (3.2-rasmga qarang):



3.2-rasm. Bilimning amaliyot davomidagi yuksalishi [65; 30-b.]

Ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan o‘quv predmetlari soni o‘z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boriladi. Boshlang‘ich sinflarda tabiat va jamiyat qonuniyatlari borasidagi eng oddiy ma’lumotlarni berish asosida ularda dunyoqarash shakllantirilib boriladi. Mazkur bilimlar asosida ta’lim oluvchilar obyektiv borliq mohiyatini anglab boradilar.

Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilar bilimlar tizimini egallab qolmasdan, balki faoliyat ko‘nikma va malakalarini ham hosil qiladilar. Ko‘nikmalar muayyan vaziyatda emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o‘zgargan vaqtda ham ma’lum xatti-harakatlar qilish (hosil bo‘lgan tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ko‘nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Har qanday ko‘nikma asosida bilim yotadi. Bilimlar fikr-mulohazalarda, ko‘nikma esa xatti-harakatlarda ifodalanadi. Xatti-harakatlar aqliy yoki jismoniy bo‘lishi mumkin.

Malaka muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o‘rganib qolingan avtomatlashgan ongli harakatdir. Malaka bir xatti-harakatning o‘zini bir xil sharoitda ko‘p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo‘lsa, odam ishni shunchalik tez yo‘lga qo‘yadi. Malakalar turlicha bo‘ladi, chunonchi, o‘quv malakalari – o‘qish, sezish, og‘zaki hisoblash va boshqalar; mehnat malakalari ish qurollari bilan ishlash, materiallar va texnika bilan muomalada bo‘lish va hakazolar; harakat malakalari – yurish, yugurish va boshqalar. Ko‘nikma kabi malaka ham egallangan bilimlar asosida hosil qilinadi. Ko‘nikma va malaka o‘rtasida farqli tomonlari ham bor. Xususan, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar har xil tavsifda bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgandek, bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonida tarkib topadi. Ta’lim – dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo‘lib, unda ikki tomon ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi ishtirok etadi. Ta’lim berish ta’lim oluvchilarga bilimlar berish, ularda ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo‘naltirilgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir [65; 31-b.].

O‘qitish, o‘qitish jarayonlari tasniflari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘zaro aloqadorligi. O‘qish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish, o‘qitish qobiliyati, fikrlash hamda muayyan harakatlarni hosil qilish jarayoni sanaladi. O‘qish jarayonida ta’lim oluvchilar ma’lum bo‘lmagan, o‘zlashtirmagan ma’lumotlarni o‘zlashtira boradilar.


Didaktikaning asosiy tushunchalari va pedagogik jarayon

O‘qitish tushunchasi – insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

O‘qitish – ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida ta’lim oluvchilar bilan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkiliy va amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir. O‘qitish ta’lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi.

Pedagogik ta’lim mazmun-mohiyatini baholash va uning sifati hamda samaradorligini oshirish ta’lim jarayoniga tegishli bo‘lgan har bir komponentlarga

(jihatlarga, omillarga, ko‘rsatkichlarga) uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi va shu sababli ham pedagogik ta’lim tizimini yagona dinamik tizim deb qaraladi (3.3-rasmga qarang):



3.3-rasm. O‘quv jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy sxemasi [28; 32-b.]

O‘qitish jarayoni – bu ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonining qanday tashkil etishi va olib borish

kerakligini hamda shu jarayonda ta’lim oluvchilar qanday ish harakatlarini bajarish kerakligini belgilab beruvchi jarayondir.

Ta’lim jarayonini olib borishning sifati va samaradorligi ko‘p jihatdan ularni tashkil etuvchilarning nechog‘lik o‘zaro aloqadorlikda faoliyat yuritishiga bog‘liq. Bunda albatta ta’limning sifat nazoratini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi va ta’lim sifatini belgilovchi omillarni hamda ulardan foydalanishning mantiqiy ketma-ketligini algoritmik tarzda asoslashni taqozo qiladi. Ta’lim sifatini belgilovchi omillarga ta’lim tizimi komponentlari bilan quyidagilarni ham kiritish mumkin:

ta’lim beruvchilar;

DTS, o‘quv reja va o‘quv dasturlari;

darslik, o‘quv qo‘llanma va shu kabilar;

o‘qitish vositalari;

fanlar bo‘yicha nazariy materiallar;

fanlar bo‘yicha amaliy materiallar;

fanlar bo‘yicha didaktik materiallar;

laboratoriya va ustaxonalar jihozlari;

amaliyotlar;

axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari.

Ta’lim jarayoniga bunday yondashuv kadrlar tayyorlashning meyoriy, tashkiliy, o‘quv-uslubiy, axborot va moddiy-texnik sharoitlar tizimining bajarilishini ta’minlashdan iboratdir. Bunda fanlarni o‘qitishga e’tibor yanada kuchaytirilgan bo‘ladi. *Fanlarni o‘qitish* – bu o‘qitish xususiyatlarini tarbiyalash va takomillashtirish jarayoni bo‘lib, u ta’lim beruvchida ilmiy munosabatni va quyidagi xususiyatlarni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi (3.1-jadvalga qarang):

3.1-jadval.

Fanlarni o‘qitish xususiyatlari

№	Tushunchalar	Fanlarni o’qitish xususiyatlari
1.	qiziqish	bilish xohishi
2.	faoliyat	biror narsani anqilash uchun biror narsa qilish xohishi
3.	skeptitsizm	tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko‘rib chiqish xohishi
4.	dalillar	bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalaridan foydalanish mahoratlari

5.	xabardorlik	uning yordamida o‘ylash mumkin bo‘lishi uchun olam xaqida axborotlar fondining mavjudligi
6.	strategiyalar	izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishlari
7.	moyillik	yangi bilimlarni olish natijasida ta’lim beruvchi o‘zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta qurishni boshlashi uchun boshqalarning fikr va tushunchalarini qonuniyat asosida bir chiziqqa joylashishi

Demak, fanlarni o‘qitish jarayoni butun bir pedagogik jarayonda samarali faoliyat ko‘rsatishning didaktik asosidan iborat ekan. “Quyidagi shaklda taklif etilayotgan loyiha pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash orqali ta’lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi” [65; 33-b.].

Ta’lim tashkilotining namunaviy ustavi:

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari uchun – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan;


Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun – Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan;

oliy ta’lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktablar, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlari uchun – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha ta’lim tashkilotlari uchun – tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi.

Ta’limning asosiy mazmunini uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichida ilmiy va texnikaviy bilimlar hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar bilan qurollashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan tarixiy va madaniy qadriyatlar hamda ular hayotining ma’nosi, jamiyatda insonning tutgan o‘rni, ta’lim-tarbiyasi, odob-axloqi haqida hikmatli fikrlar borki, ular bugungi ta’lim taraqqiyoti uchun ham milliy maktab yaratishdagi yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, iymon-e’tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik millatlararo do‘stlik munosabatlari, qahramonlik, qadrlik singari tuyg‘ularni

tarbiyalashda o‘ta muhimdir. Ta’lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishga emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlangan kasbi to‘g‘ri ekanligiga ishonch hissini tug‘diradi [65; 34-b.] (3.4-rasmga qarang):



3.4-rasm. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta’minlash ketma-ketligi

O‘qitish mazmuni va tuzilishi. O‘quv reja va dasturlar (kalendar-tematik reja)

Shu bilan birga ta’lim-tarbiya muassasalari uchun alohida vazifalar qo‘yilgan bo‘lib, ularning mazmuni ham “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bilan mushtarakdir. O‘qitish mazmuni quyidagi hujjatlarga asoslanadi (3.5-rasmga qarang):



3.5-rasm. O‘qitish mazmuni asoslari

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 32-moddasida ta’lim tashkilotining ustavi yoritilgan. Ta’lim tashkilotining ustavi ta’lim turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi [1]. Ta’lim tashkilotining ustavi ta’lim

tashkilotining ta’sischilari tomonidan tasdiqlanadi va hududiy tegishlilik bo‘yicha Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro‘yxatga olinadi [1].

Ta’lim tashkilotining ustavida, qoida tariqasida, quyidagilar ko‘rsatiladi (3.6-rasmga qarang):



3.6-rasm. Ta’lim tashkilotining ustavi

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 34-moddasida Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari yoritilgan [2] (3.2-jadvalga qarang):

3.2-jadval.

Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari

Davlat ta’lim standartlari	Davlat ta’lim talablari
umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim	maktabdan tashqari ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini
professional ta’lim	ta’lim tuzilmasini va ta’limni amalga oshirish shartlarini
oliy ta’lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi	ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatlari to‘g‘risidagi normalarni belgilaydi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti qo‘llaniladi. Davlat ta’lim standartlarini va (yoki) davlat ta’lim talablarini bajarish barcha ta’lim tashkilotlari uchun majburiydir, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno. Nodavlat ta’lim

tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada yoki xabarnomada ko‘rsatilgan o‘quv dasturlari asosida ta’lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, oliy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim hamda professional ta’limning o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilishini ta’minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tayanch davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalarini belgilaydi.

Tayanch davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalari kadrlarning talabgorlari ishtirokida davlat ta’lim standartlarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini tayyorlashni amalga oshiradi. Davlat ta’lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilishini ta’minlaydi.

Oliy, professional, o‘rta maxsus va umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Tegishli vakolatlar berilgan boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar davlat ta’lim standartlarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi. Davlat ta’lim talablari ta’lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish maxsus o‘quv dasturlari asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi davlat oliy ta’lim muassasalariga mustaqil ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o‘quv dasturlari, malaka talablari hamda o‘quv rejalari asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha vakolatlarni berishi mumkin [1].

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasida ta’lim jarayoniga o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini joriy etish berilgan [1]. O‘quv rejalari va o‘quv dasturlari tegishli ta’lim bosqichlarining maqsad hamda vazifalari asosida ishlab chiqiladi. Tegishli

davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlaridagi o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarining mazmuni, ularni ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi (3.3-jadvalga qarang):

3.3-jadval.

Umumta’lim va kasbga oid fanlarning o‘quv dasturlari

Umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari	Kasbga oid fanlarning o‘quv dasturlari
Umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak	Kasbga oid fanlarning o‘quv dasturlari ta’lim oluvchilar tomonidan tegishli kasblar va mutaxassisliklarni egallashga qaratilgan

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 19 oktyabrdagi 35-2021-son buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti tasdiqlangan. Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti hamda asosiy qoidalari berilgan. *O‘quv reja* – oliy ta’limning muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjatdir. Oliy ta’limning birinchi bosqichida o‘quv rejalari va fanlar dasturlari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’lim bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. O‘quv rejalar majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi shart. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejalari va fanlar dasturini o‘zlashtirishda talabalarning o‘quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo‘yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uning o‘quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart [7].

O‘quv rejasining asosiy maqsadi — davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrlarning malakalariga qo‘yilgan talablarga muvofiq yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga oid o‘quv fanlar, ularning hajmi, mashg‘ulotlar turlari, o‘quv jarayonining mazmuni, tarkibi, muddatlari va o‘qitishning

mantiqiy ketma-ketligini belgilash hamda tartibga solish. O‘quv rejasining asosiy vazifasi — muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim jarayoni davomida o‘quv fanlarini semestrlar va o‘quv yillar tarkibida ta’lim oluvchilar tomonidan samarali o‘zlashtirilishini ta’minlovchi mantiqiy ketma-ketlikda maqbul holatga keltirish, o‘quv faoliyati davri, turlari, soatlar hajmi, kreditlar hamda yakuniy nazorat muddatlarini belgilash.

O‘quv rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta’lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o‘quv rejalar bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo‘yicha mazkur davlat standarti, «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablariga muvofiq ishlab chiqiladi;

o‘quv rejalar ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarga oid majburiy va tanlov fanlari belgilangan holda, ularning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, auditoriya (ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg‘ulotlar) va mustaqil mashg‘ulotlar, o‘quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari, kurs loyihasi, kurs ishi, ijodiy va boshqa o‘quv vazifalari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda, fanlarga ajratilgan kreditlarga amal qilgan tartibda shakllantiriladi;

o‘quv rejalarga davomiyligi kamida 15 o‘quv haftasiga teng semestrlar, har bir semestrdan so‘ng 2-4 haftalik attestatsiya sessiyalari, tegishli dovomiylikdagi malaka amaliyotlari, ta’tillar va boshqa akademik jarayonlar kiritiladi;

O‘quv rejalar reyting (baholash) tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining «kitob ko‘rinishida ikki tarafiga «Times New Roman" shriftining maqbul o‘lchamida bostirib chiqariladi; kredit-modul tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining «albom ko‘rinishida bir tarafiga «Times New Roman» shriftining maqbul o‘lchamida bostirib chiqariladi va birlashtirib tikiladi; zarur hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan tartibda o‘quv rejalar boshqa shaklda ishlab chiqilishiga yo‘l qo‘yiladi; o‘quv rejalar oliy ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi;

tasdiqlangan o‘quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta’lim muassasasida saqlanadi;

zarur hollarda oliy ta’lim muassasalari tomonidan o`quv rejalarga qo‘shimcha ravishda fakultativ, maxsus kurs va boshqa turdagi mashg‘ulotlar kiritilishi mumkin;

ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejalar ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta’lim shaklining tayanch o‘quv rejalari hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta’lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o‘quv rejalar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta’lim muassasalari tomonidan ixtiyoriy tarzda ishchi o‘quv rejalar quyidagi hollarda ham ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi mumkin:

muayyan ta’lim yo‘nalishlar tegishli turlari bo‘yicha ajratilishi nazarda tutilganida (masalan, sport turlari);

o‘quv rejalarda tanlov fanlarini dolzarbligiga qarab belgilash ehtiyoji mavjudligida.

Ishchi o‘quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta’lim muassasasida saqlanadi.

O‘quv dasturi – ta’lim mazmunini belgilovchi o‘quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan hujjat. O‘quv dasturining asosiy maqsadi davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, uquvi, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yilgan talablarga muvofiq o‘quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan raqobatbardosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy

qismlarini tartibga solishdir. O‘quv dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

o‘quv faniga oid ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda o‘quv mashg‘ulotlar mavzularini shakllantirish, ta’lim shakli va o‘quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o‘quv materiallarni mavzular va o‘quv mashg‘ulotlar turlari bo‘yicha taqsimlash, maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, ularning mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta’minlash;

uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta’lim turlaridagi hamda turdosh yo‘nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta’minlash;

fanni o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur o‘quv-uslubiy shartlar, o‘quv adabiyotlar, didaktik materiallarni hamda baholash vositalari va usullari yordamida ta’lim oluvchilar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

O‘quv dasturda o‘quv materiallar ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda belgilanadi, shuningdek, o‘quv fanining maqsadi va vazifasiga muvofiq kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ajratilgan vaqt meyorlariga muvofiq o‘quv dasturga kiritiladi. O‘quv dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi lozim:

muqovada oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi nomi, oliy ta’lim muassasasi nomi, «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»ga muvofiq tegishli bilim, ta’lim sohalari va ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik)larining kodi va nomlari, harakatdagi o‘quv rejasiga muvofiq fanning to‘liq nomi, tasdiqlangan sanalari va belgilari ko‘rsatiladi; o‘quv dasturining birinchi betida uning asosiy parametrlari (fan kodi, qaysi o‘quv yilidan joriy etilganligi, semestr, fanga ajratilgan kreditlar (soatlar), fan turi (majburiy, tanlov), ta’lim tili, haftadagi dars soatlari, fanning nomi, auditoriya va mustaqil mashg‘ulotlar hajmi, jami yuklama jadval shaklida belgilanadi;

«Fanning mazmuni» o‘quv fanining maqsadi va uning asosiy vazifalari tegishli yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlash vazifalariga bog‘langan holda bayon etiladi;

«Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)» o‘quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta’lim oluvchilarga davlat ta’lim standarti va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi. Asosiy nazariy qism modullar shaklida berilishi mumkin;

«Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar» o‘quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining mavzulari, ushbu mashg‘ulotlarni o‘tkazish shakllari, unda qo‘llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar, laboratoriya ishlarining mazmuni, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma’lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma’lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni, amaliyot jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko‘rsatmalar beriladi;

«Mustaqil ta’lim va mustaqil mashg‘ulotlar» qismida mustaqil ta’limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo‘ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo‘lgan ishlar referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma’ruza va boshqalar keltiriladi;

«Fanni o‘qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar» qismda ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik)ga muvofiq muayyan fan bo‘yicha ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bayon qilinadi;

«Talabalar kreditlarni olish tartibi» kredit-modul tizimida fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) va kreditlarni olishga oid talablar o‘rnatilgan tartibda belgilanadi;

Reyting (baholash) tizimi asosida ta’lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta’lim muassasalari uchun – «Talabalar reytingini belgilash tartibi» reyting tizimida fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) tartibi belgilanadi;

«Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari» o‘quv faniga oid asosiy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va qo‘shimcha adabiyotlar, Internet jahon axborot tarmog‘i resurslari, dissertatsiya, monografiya hamda boshqa tavsiya etilgan o‘quv, ilmiy va uslubiy ma’lumotlar manbalari keltiriladi;

o‘quv dasturning oxirgi betida uni ishlab chiqqan oliy ta’lim muassasasi nomi, tuzuvchilar ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, o‘quv dastur ko‘rib chiqilgan oliy ta’lim muassasasi kengashi bayonining raqami keltiriladi.

O‘quv dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ta’lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o‘quv dasturlar o‘quv rejalarda belgilangan har bir o‘quv fani bo‘yicha mazkur davlat standarti, «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari hamda o‘quv rejalariga muvofiq davlat oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

o‘quv rejalarga kiritilishi tavsiya etilgan «Falsafa» (tarkibiga «Dinshunoslik» hamda «Korrupsiyaga qarshi kurash» mavzular majmuasi (modullari) kiritilgan holda) va «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanlarining o‘quv dasturlari gumanitar fanlar bo‘yicha tegishli tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi hamda boshqa oliy ta’lim muassasalari undan foydalanishi lozim;

o‘quv dasturlar ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar maqsadi, vazifasi, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, fan mavzulari va mazmunini belgilangan tartibda mantiqiy ketma-ketlikda, o‘quv faniga ajratilgan vaqt meyoriga amal qilgan holda shakllantiriladi. O‘quv dasturlar mazkur davlat standartida belgilangan talablarga javob bergan holda Sillabus shaklida ham ishlab chiqilishi mumkin;

o‘quv dasturning matni A-4 formatli standart varaqlarda, «Times New Roman» shriftining 14-o‘lchamida, 1,15 intervalda, chap va o‘ng tomonidan – 20, pastidan –

25, yuqoridan – 20 mm o‘lchamida hoshiyalangan, betlarini raqamlanishi varaqning pastki qismining markazida joylashtirilgan holatda bostirib chiqariladi;

o‘quv dasturlari tasdiqlanganidan so‘ng A-5 formatida broppora shaklida chiqariladi;

oliy ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlangan o‘quv dasturlari oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va o‘quv rejalarga muvofiqligi hamda sifati nuqtai nazaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan tanlab monitoring va tahlil qilinadi. Monitoring va tahlil natijalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga olib chiqiladi va ularga baho beriladi;

tasdiqlangan o‘quv dasturlar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta’lim muassasasida saqlanadi;

ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o‘quv dasturlar (sillabuslar) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta’lim shaklining tayanch o‘quv dasturlari hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta’lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o‘quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi [7].

Ta’lim jarayoniga o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini joriy etish ta’lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llaniladi.

Ta’lim jarayoniga o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini joriy etish chog‘ida ta’lim tashkilotlari kredit-modul tizimiga asoslangan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishi mumkin. O‘quv rejasida, qoida tariqasida, ta’lim jarayonining jadvali, o‘qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o‘quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot,

ta’tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o‘rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi.

Professional va oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir o‘quv rejalarda ta’lim oluvchilar uchun amaliyot o‘tash nazarda tutiladi. Ta’lim oluvchilarning amaliyotni o‘tash tartibi va uni tashkil etish ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Professional va oliy ta’limga doir o‘quv rejalari davlat ta’lim standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlaridan, shuningdek umumkasbiy, matematika, tabiiy-ilmiy, gumanitar va qo‘shimcha fanlardan shakllantiriladi. O‘quv rejalariga davlat boshqaruvi organlarining topshiriqlariga asosan va ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa yo‘l bilan qo‘shimcha fanlarni kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ta’lim muassasalarida beriladigan ma’lumot mazmuni tarixiy xususiyatga ega. Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yosh avlodga beriladigan ma’lumot mazmuni, uning hajmi, muayyan ijtimoiy tizimning iqtisodiy talabi va ehtiyoji, fan-texnika taraqqiyoti darajasi, madaniyati holati bilan belgilanib kelingan. Fan-texnika va texnologiya taraqqiyoti yuqori darajada bo‘lgan bugungi kunda ta’lim muassasalarida beriladigan ma’lumot mazmuni ta’lim oluvchilarga ilmiy bilimlar berish, ularning faol ijtimoiy faoliyati tashkil etishlari yo‘lida ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni ifodalaydi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ta’limning mazmuni, avvalo, barkamol va malakaviy mutaxassisni tayyorlash jarayoni mazmuni bilan belgilanadi. Ushbu maqsadni o‘zida aks etgan ma’lumot mazmuni quyidagi Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari, o‘quv rejasi va darsliklar mazmunida namoyon bo‘ladi [65; 55-b.].

O‘quv reja – har bir mutaxassislik bo‘yicha malaka va DTSda keltirilgan talablarni ta’minlovchi muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni kurs va semestr davomida o‘rganishning izchilligi va soatlaridagi qatnashishini belgilaydigan hujjat [65; 55-b.].

O‘quv rejasiga kirgan fanlar mazmunini o‘quv dasturlari va mavzular rejasi tashkil etadi. O‘quv rejasi o‘quv shakllarini, o‘quv predmetlarining ro‘yxati va hajmini, ularning o‘quv haftalari, yarim yilliklari bo‘yicha taqsimlanishini belgilaydigan,

bo‘lajak mutaxassislarni o‘quv predmetlari, kasbiy va umumta’lim tayyorgarligi orasida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlovchi meyoriy hujjat.

O‘quv rejasining moduli – uzluksiz ta’lim mazmunining asosiy invariant tarkibiy komponentlarini aks ettiruvchi o‘quv rejasini taqdim etish shakli. Ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan o‘quv rejasi ishlab chiqiladi va tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi (Respublika Xalq ta’limi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan). O‘quv rejasi ta’lim muassasasi ma’muriyatiga yuboriladi hamda mazkur reja asosida o‘quv jadvali tuziladi. O‘quv jadvalida hafta davomida o‘qitiladigan o‘quv fanlarining nomi va ularga ajratilgan soatlar miqdori ko‘rsatiladi.

O‘quv fani – ta’lim muassasalarida o‘rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar tizimi.

O‘quv fani dasturi ham xuddi o‘quv rejasi kabi muhim davlat hujjati bo‘lib, unda muayyan o‘quv predmeti mazmuni ochib beriladi va o‘quv yili davomida ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi ko‘rsatiladi. O‘quv fani dasturi – ta’lim mazmuni, uning ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat. O‘quv fani dasturlari tegishli ta’lim (umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim) turidagi barcha ta’lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to‘la ravishda bajarilishi majburiydir.

Dastur tushuntirish xati, bo‘lim va mavzular bo‘yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur materiali mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tushuntirish xatida o‘quv predmetining ahamiyati, uning fanlar tizimida tutgan o‘rni, ular o‘rtasidagi aloqadorlik, materialni o‘rganish jarayonida hal etilishi lozim bo‘lgan ayrim bo‘lim va mavzularni o‘rganish xususiyatlari o‘rganiladi. O‘qitish (ta’lim) metodlari va vositalarini qo‘llashga doir tavsiyalar beriladi. Soatlar hisobini asosli o‘rinlarda o‘zlashtirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

O‘quv dasturi materiali bo‘limlar va mavzular bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, har bir mavzuni o‘rganish uchun o‘zlashtirishi majburiy bo‘lgan tushunchalar tizimini,

shuningdek, ko‘nikma va malakalarning aniq ko‘rsatkichi beriladi, nihoyat, ta’lim oluvchilarga qo‘yiladigan yakuniy talablar bayon etiladi [65; 69-b.].

O‘quv dasturidagi material ta’lim va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanlanadi va taqsimlanadi.

O‘quv dasturlari quyidagi *tamoyillar* asosida tuziladi:

1. Dastur mazmunining ilmiy xususiyatiga egaligi.

2. Dastur mazmunining ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyatga egaligi.

3. Nazariy g‘oyalarning amaliyot bilan birligi.

4. Dastur mazmunining ijobiy-tarixiy xususiyatga egaligi va aniq g’oyaga asoslanganligi.

5. Dastur mazmunining muayyan tizimga ega bo‘lishi.

6. O‘quv predmetlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘lanishlarning mavjudligi.

7. O‘quv dasturini tayyorlashdagi ta’lim oluvchilarning psixologik va ruhiy xususiyatlarini e’tiborga olish.

Demak, o‘quv rejasi va dasturi ta’lim muassasasi ma’muriyati, ta’lim oluvchilar jamoalarining so‘zsiz amal qilishlari lozim bo‘lgan davlat hujjatlaridir. Ta’lim jarayonini samarali olib borish uchun bularga mos darsliklar tayyorlanadi. Har bir o‘quv predmetining mazmunini DTS va o‘quv rejasida ko‘rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob (darslik) yoziladi.

Darslik – DTS, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g‘oyalari singidirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogik tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o‘qituvchi darslikda ta’lim oluvchilar bajarilishi kerak bo‘lgan o‘quv jarayonining ma’lum bosqichlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ta’lim oluvchilar uchun mavzularni o‘qib, undagi topshiriqlarni ma’lum harakatlar ko‘rinishida bajarishadi: tekshiradi, yechadi, javob beradi va h.k. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Demak, darslik bu – muayyan o‘quv predmeti mazmunini o‘quv dasturida ko‘satilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo‘lib, uning *harakterli xususiyati* darslik mazmunining o‘quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikdagi material bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo‘lgan bandlar asosida ochib beriladi (3.4-jadvalga qarang):

3.4-jadval.

Darslikdagi material bo‘limlar bo‘yicha taqsimoti [65; 70-71-b.]

№	Darslikdagi bo‘limlar	Darslikdagi materiallar
1.	Darslikning kirish qismida	fanning jamiyat va tabiatdagi o‘rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va yyechimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqidagi ma’lumotlar, fanga tegishgi soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti hamda talabaning fan bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim
2.	Darslikning asosiy matni	bu ta’lim oluvchi tomonidan o‘rganilishi va o‘zlashtirishi majburiy bo‘lgan o‘quv axborotining asosiy manbai vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi
3.	Darslikdagi qo‘shimcha materiallar	bu matnlar – asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv materialini o‘z ichiga oladi. Qo‘shimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma’lumotlar kiradi. Qo‘shimcha matnlar o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam berish bilan birga ijodkorlikka undovchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim
4.	Darslikning tushuntirish matni	o‘quv materialini tushunishga va chuqurroq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan xususiy yozma tuzilma. Bu matnlar ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tushuntiruvchi matnlarga izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug‘atlar, ramzlar va ko‘rsatkichlar kiradi. Bu matnlar tushunarli, qisqa va ma’lum tushunchani aniq shakllantiradigan bo‘lishi kerak
5.	Darslikning tajribaviy-amaliy matnlari	fan o‘quv materialini o‘zlashtirishda va mustaqil tarzda bilim olishda bilim oluvchi bajaradigan amaliy faoliyat usullari, aniq ma’lumotlar olish uchun nazariy bilimlarni qo‘llash tamoyili va qoidalari, asosiy tadqiqot usullari tavsiflanishi; masalalar, mashqlar, tajriba va eksperiment usullari bayon qilinishi lozim
6.	Darslikdagi mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar matni talablari	ta’lim oluvchilar tomonidan o‘tilgan mavzularning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlash; ta’lim oluvchilarni bilim olishga qiziqtirishni rivolantirish; fikrlash faoliyatini rivojlantirish, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirish;

		ta’lim oluvchilarning amaliy topshiriqlarni bajara olish imkoniyatlarini inobatga olish; tasdiqlarning aniqligi va tushunarliligi, yagona namunaga mos kelishi
7.	Darslikdagi bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilish materiallari	matnidagi nazorat savollari ta’lim oluvchilarni bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.
8.	Darslikdagi informatsion-uslubiy ta’minot	bu ushbu fanga oid asosiy va qo‘shimcha o‘quv manbalari, elektron ta’lim resurslari hamda uslubiy qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi
9.	Darslikdagi qo‘shimcha ma’lumotlar matni	mazkur darslikdan foydalanish tartibi, o‘quv materalini o‘ranishga tegishli elektron vositalar (multimedia, virtual stendlar, animatsiyalar va h.k.) va ulardan foydalanish tartiblari kiradi

O‘quv qo‘llanma – bu darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o‘zlashtirishni ta’minlovchi ayrim bob va bo‘limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg‘ulotlar olib borishga mo‘ljallangan nashr.

Keyingi paytlarda darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishga yangicha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Bu borada elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish o‘zining ijobiy pedagogik samaralarini bermoqda. Bunda elektron kitoblar (multimedia kitoblar, yarim media kitoblar, gipremedia kitoblar, intellektual kitoblar, telemedia kitoblar, kibernetik kitoblar), elektron nashr, elektron ta’lim resurslari, elektron uslubiy qo‘llanma, elektron forumlar, elektron shakldagi o‘quv-uslubiy materiallar, elektron o‘quv nashri va shu kabilarning ahamiyati beqiyos. Quyida ular tavsiflarini keltiramiz.

Elektron darslik – bu an’anaviy darslikdan farqli o‘laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya’ni foydalanuvchi e’tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimedia, audio va video animatsiyalar, gipermurojaatlardan o‘rinli foydalangan holda tuzilgan yoxud *dasturlarshtirilgan* darsliklar. U kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomonlama samarali o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan adabiyot. Shuningdek, u muayyan fanning o‘quv hajmini to‘liq qamragan va masofaviy o‘qitish hamda mustaqil o‘rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, unda materiallar (o‘quv va ilmiy materiallar faqat virtual (matn) shaklida, o‘quv materiallari esa virtual (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklida) multimedia elementlari, ya’ni ma’lumot ikki-uch o‘lchamli

grafik ko‘rinishida, video, animatsiya va qisman virtual (matn) shaklida, obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini ifodalaydigan shaklda yaratiladi.

Elektron kitoblar to‘rtta yo‘nalishdan iborat bo‘ladi. Ular: qomusiy, ma’lumot beruvchi, o‘qituvchi, imtihon oluvchi (3.5-jadvalga qarang):

3.5-jadval.

Elektron kitoblar

№	Elektron kitoblar	Elektron kitoblarning mazmun va mohiyati
1.	Multimediali kitoblar	bu axborotlarni bitta axborot tashuvchi vositasiga jamlagan bo‘lib, u matnli, ovozli, statik, dinamik va videotasvirli ma’lumotlardan tashkil topgan bo‘ladi
2.	Yarimmedia kitoblar	bu multimedia kitoblardan farqli ravishda ma’lumotlarni yetkazib berishda turli vositalarning kombinatsiyasidan foydalanuvchi kitoblar
3.	Gipermedia kitoblar	bu multimediali kitoblarning takomillashgan shakli bo‘lib, bunda foydalanuvchi asosiy matndan tashqari turli qo‘shimcha manbalarga ham (sharhlarga, atamalarning izohlariga, tuzatishlariga) murojaat qilishi mumkin
4.	Intellektual kitoblar	bu imtihon oluvchi kitoblarga o‘xshash bo‘lib, bunda ta’lim oluvchilarning qobiliyatlari, bilim darajalari maxsus testlar yordamida ularning kompyuter bilan muloqot jarayonida aniqlanadi va baholanadi
5.	Telemedia kitoblar	bu telekommunikatsiya vositalari yordamida masofadan o‘qitishga xizmat qiluvchi kitobdir
6.	Kibernetik kitoblar	bu matematik modellashtirish vositalari yordamida hodisalarni va obyektlarni har tomonlama o‘rganish va tadqiq qilishga yordam beruvchi kitobdir
7.	Elektron ta’lim resurslari	bu muayyan fan bo‘yicha yaratilgan elektron o‘quv qo‘lanma, elektron ko‘rsatmalar, elektron ma’lumotnomalar, lug‘atlar virtual stendlar, multimediali vositalar va boshqa elektron nashrlar majmuasidir
8.	Elektron nashr	bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, mustaqil, video-foto va boshqa axborot obyektlari majmuasidan iborat bo‘lib, ular elektron axborot tashuv vositalari yoki kompyuter tarmog‘i orqali taqdim etishga mo‘ljallangan
9.	Elektron o‘quv nashri	bu ta’lim oluvchilar tomonidan egallashi lozim bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni ijodiy va faol ravishda o‘zlashtirishiga ko‘maklashuvchi nashr bo‘lib, u ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o‘quv materialini o‘z ichiga oladi
10.	Elektron uslubiy qo‘lanma	bu ta’lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik tajribani (amaliyotni) umumlashtirish va uzatish hamda ta’lim-tarbiyaviy faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatishga mo‘ljallangan nashr
11.	Elektron o‘quv qo‘llanma	bu muayyan fanning o‘quv rejasidagi vaqt va o‘quv dasturidagi ma’lumot hajmini qisman yoki to‘liq qamragan va fanni o‘rganishga tegishli ma’lumotni to‘liq adaptatsiya qila olgan masofaviy o‘qitish va mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallab tayyorlangan nashr

Elektron kitoblarni yaratish ta’lim tizimiga CD – ROM va multimedia texnologiyalarining keng joriy qilinishi, elektron o‘quv adabiyotlarining ishlab chiqilishiga va ularning ta’lim-tarbiyada samarali qo‘llanishiga katta imkoniyatlar yaratish jarayonidan iborat bo‘ladi [65; 72-b.].

Multimediali elektron o‘quv qo‘llanmalar yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanishning quyidagi jihatlariga asosiy e’tibor qaratiladi:

1. Ichma-ich joylashgan turli bo‘g‘inlar va rangli bezaklarda gipermurojatlardan foydalanish.

2. Ma’lumotlarni tasvirlashda turli xil rangli bezaklardan foydalanish.

3. Audio va video effektlar va ularni boshqarishning samarali metodlaridan foydalanish.

Multimedia muhitida elektron o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqish uzoq muddatli va katta mablag‘larni talab qiluvchi jarayondir. Shuning uchun ham multimediya muhitida elektron o‘quv qo‘llanmalarni yaratishning barcha bosqichlarini hamda har bir bosqichida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi bosqichlarni bajarish zarur bo‘ladi:

tanlash bosqichida multimedia muhitida ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan o‘quv fani tanlanadi;

tayyorgarlik bosqichida kurs matnni yozish, ko‘rgazmali va ma’lumotli materiallarni tayyorlash, interfeys eskizlarini va o‘quv dasturining ssenariylarini yaratish mo‘ljallanadi;

asosiy bosqichda elektron o‘quv qo‘llanmani bevosita yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi;

yakunlovchi bosqichda elektron o‘quv qo‘llanmani testdan o‘tkazish va maqomiga yetkazish ishlari amalga oshiriladi. Bu bosqichda o‘quv materialining qurilmasi yoki tuzilmasi ishlab chiqiladi, shuningdek, foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqa mexanizmi loyihalashtiriladi. Asosiy va qo‘shimcha elementlar ajratiladi, axborotli bloklarning iyerarxik tuzilmasi yaratiladi. Foydalanuvchi interfeysi, alohida bloklar va ekranlar o‘rtasidagi asosiy aloqalar ishlab chiqiladi.

Multimediali materiallarni tayyorlashda odatda ikki o‘lchamli grafikadan va *“Macromedio Flash”* dasturiga joylashtirilgan interaktiv tizim Wib-sahifalar yaratish uchun ham qulay vosita hisoblanadi. Multimediali elektron o‘quv qo‘llanmani yaratishda gipermatn, giper ko‘rsatgich va ularga tasvir, kod nomi elementlarini kiritish hamda ularni o‘zaro bog‘lash maqsadida *HTML* – giperment tahrirlagichdan foydalaniladi.

Multimediali elektron-o‘quv qo‘llanma quyidagi afzalliklarga ega:

multimediali elektron-o‘quv qo‘llanmada o‘quv materialining multimedia, gipermatn, ovoz, elektron doska shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi, o‘quvchilarga berilayotgan o‘quv materialini chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish, dars mavzusi bo‘yicha to‘liq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi [65; 74-b.];

multimediali elektron-o‘quv qo‘llanmada berilayotgan ma’lumotlarning harakati, rang, tovush va jonli tasvirlar bilan uyg‘unligi mavzuni o‘rganishda monotonlik(bir xillik)ka chek qo‘yadi;

o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida interfaol tizim vujudga kelib, bevosita aloqa o‘rnatilishi natijasida o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning faolligiga qarab ularni baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi;

multimediali elektron-o‘quv qo‘llanmada o‘qish darajasi va sur’atini o‘rganuvchining o‘zi tanlash imkoniyati o‘qitishni individuallashtirish imkonini beradi;

multimediali elektron-o‘quv qo‘llanmaga kiritilgan test topshiriqlari va o‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar o‘quvchini o‘z-o‘zini tez va samarali baholashga va zaruriyatga qarab, tuzatishlar kiritishga imkon beradi;

olingan bilimlar o‘quvchi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishiladi.

Elektron pochta – bu axborot almashish xizmatini ko‘rsatish vositasidir. Undan foydalanuvchi har qanday o‘quv muassasasi va hattoki o‘z uyida terminal orqali kerakli manzilni ko‘rsatgan holda axborot jo‘natish mumkin yoki qabul qilib olish mumkin.

Buning uchun axborot kompyuterda yuboriladi, u yerda esa tegishli manzilning elektron qutisiga fayl jo‘natiladi.

Elektron pochta orqali bosma materiallar, fotografiya, jadval, grafik ish qog‘ozlari va jurnallar kerakli manzilga jo‘natiladi. Bunda asosan axborotlar (xat-xabarlar)ni uzatish va qayta ishlashning elektron usulidan foydalaniladi.

Axborot uzatishning ushbu imkoniyatidan ta’lim oluvchilar, masofaviy ta’lim bilan shug‘ullanuvchilar samarali foydalanishi mumkin.

Elektron forumlar – bu internetning xalqaro tarmog‘i va elektron pochtalardan foydalanib o‘tkaziladigan seminarlardir. Seminarning moderizatori ishtirokchilarga materiallarni beradi. Uning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, so‘ng savol beradi yoki mavzu mazmunini muhokama etadi. Seminar ishtirokchilarini material bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi, o‘z xulosalarini chiqaradi. Har bir ishtirokchi muhokamada ishtirok etadi. Muhokama natijalari asosida xulosalar chiqariladi. Xulosalar asosida seminar qatnashchisi to‘g‘ri, yakuniy javobni oladi. Bu esa olgan bilimlarni mustahkamlashga ta’sir etadi.

Elektron shaklidagi o‘quv-uslubiy materiallar – bular elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanmalari, elektron kutubxonalar, mos (CD, Flash va h.k.) sig‘imdagi audiovizual materiallar, interfaol o‘quv kurslari, ko‘mpyuterda hisoblash tajribasini o‘tkazish uchun labaratoriya vazifalari, test sinovlarini o‘tkazish bo‘yicha tizimlar [65; 75-b.].

O‘qituvchilarning o‘quv dasturlari va darsliklardan ijodiy foydalanishga yo‘llash.

O‘qituvchi – bu ta’lim oluvchilarni hayotga, ongli mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida, jamiyat oldida javob bera oladigan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan va pedagogik faoliyat bilan kasbiy jihatdan shug‘ullanuvchi shaxsdir.

O‘qituvchi va o‘quvchining dasturli faoliyati – bu o‘quv jarayonida ahamiyatsiz harakatlarni yo‘qotish, samarali o‘zaro aloqani ta’minlash va rejalashtirilgan natijalarga o‘z vaqtida erishish jarayonidan iboratdir. Bunda o‘qituvchi texnolog-nazoratchi sifatida qatnashadi. Ushbu jarayonda ta’lim maqsadini aniq ifodalab olish

muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘rganilayotgan o‘quv materiallarining mazmunini saralashda o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyat darajalarini, fanni bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi va nihoyat, tashkiliy shakllarining mosini tanlab belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi.

O‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatini olib borishdagi o‘quv dasturlari va darsliklardan foydalanishda quyidagi savollarga javoblar doimo ularda bo‘lishi kerak:

1. Ta’lim oluvchilar qanday konsepsiyani (qarashni) talqin qilishi va unga amal qilishi kerak?

2. Konsepsiya bilan tanishish uchun ta’lim oluvchilar qanday faoliyatni amalga oshirish kerak?

3. Ta’lim oluvchilar nimalarni kuzatishlari va yozib borishlari kerak?

4. Ta’lim oluvchilarga qanday ko‘rsatmalar berish kerak?

5. Ta’lim oluvchilar axborot yoki kashfiyotlarning qanday turlari to‘g‘risida fikr yuritishlari kerak?

6. Ularning “Kashfiyotlari”ni umumlashtirish uchun men ta’lim oluvchilarga qanday yordam bera olaman?

7. Men ta’lim oluvchilarni qanday boshqarishim va hatto, ularning tushunishlari yetarlicha bo‘lmasa-da, ular aniqlashi mumkin bo‘lgan narsalarni ularga yetkazishdan o‘zimni to‘xtatib turishim mumkin. Ular konsepsiyani to‘g‘ri shakllantirishlari (ifodalashlari) uchun ulardagi mavjud axborotdan foydalanishda men ularga qanday yordam bera olaman?

8. Agar ta’lim oluvchilar nima uchun ana shu konsepsiya muhim bo‘lib hisoblanadi, deb mendan so‘rashsa, men ta’lim oluvchilarga qanday javoblarni keltirishim mumkin?

9. Ta’lim oluvchilar ushbu konsepsiyaga daxldor bo‘lgan avvalgi tajribalarga egadir! Men ushbu konsepsiyani ta’lim oluvchilar intellektual salohiyati va tajribasi bilan qanday bog‘lay olaman?

10. Ushbu konsepsiya ta’lim oluvchilarga muayyan fandan o‘zlari uchun foydani ko‘rishda yordam berishiga qanday misollar bor? Fan, texnika-texnologiya va

jamiyatning o‘zaro munosabatlarini tushunishda yordam berishiga-chi? Fan tarixi va mohiyatiga oid axborot olish uchun ularga yordam berishiga-chi [65; 76-b.]?

Ma’lumki, o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi – bu ta’lim oluvchining oliy o‘quv yurti dargohida o‘quv-biluv faoliyatidan iborat bo‘lgan jarayon. Albatta, ularda tayyorlanadigan mutaxassis yo‘nalishga mos o‘quv reja hamda DTSga mos o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va ularga mos pedagogik jarayon davom ettiriladi. Bu orqali ta’lim oluvchilarga kasb sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, ta’lim oluvchining kasbiy mahorati haqida ma’lumotlar berib boriladi va ular o‘qituvchilik kasbi haqidagi bilimga ega bo‘lishi bilan birga ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va labaratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishga emas, balki ta’lim oluvchilarni amaliy faoliyatga ijodiy yondasha oladigan qilib tayyorlash ham e’tiborda bo‘lmog‘i lozim. Bunday mashg‘ulotlar egallamoqchi bo‘lgan kasbining to‘g‘ri tanlanganligiga ishonch hissini uyg‘otadi va o‘z sohasining deyarli barcha jabhalariga ijodiy yondasha olish qobiliyatini shakllantiradi.

Professor Q.T.Olimov, dots. R.X.Nurboyev va bosh mutaxassis M.R.Eshpo‘latovlarning tadqiqotlari natijalari ham zamonaviy o‘quv adabiyotlari (darslik, o‘quv qo‘lanma va shu kabilar)ni yaratish borasida o‘ta qimmatlidir. Quyida ularning “Oliy ta’lim darsligi modeli, funksiyalari va unga qo‘yilgan talablar” nomli ishidan zarur ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz. Darslik o‘quv metodik majmuaning yadrosi hisoblanib, uning atrofida qolgan o‘quv vositalari va manbalari guruhlashtiriladi. Boshqacha aytganda, darslik pedagog va talabaning o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi o‘qitish manbaidir.

“Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”ga muvofiq “Darslik – davlat ta’lim standarti, fanning o‘quv dasturi, metodikasi va didaktik talablari asosida belgilangan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr”, - deb ta’kidlangan.

Darslik – davlat ta’lim standartida belgilangan asosiy o‘quv materialini qamrab olgan holda bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o‘zlashtirib olishga, ularda ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o‘quv materialini mustaqil izlash va topishga, amaliy faoliyatda qo‘llashni o‘rgatish va ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilmog‘i lozim.

Zamonaviy darslikka muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi savollar, masalalar va topshiriqlarni kiritish orqali talabalarda zaruriy bilimni mustaqil izlash va topishga ehtiyoj hamda qiziqish uyg‘otishi lozim. Zamonaviy darslik quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi kerak (3.6-jadvalga qarang):

3.6-jadval.

Zamonaviy darslikning asosiy funksiyalari

№	Zamonaviy darslikning asosiy funksiyalari	Zamonaviy darslikning asosiy funksiyalarining mazmuni
1.	Axborotni uzatish funksiyasi	Bu funksiya talaba muayyan fan bo‘yicha egallashi majburiy bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar mazmunini qamrab olinishini ta’minlaydi
2.	Muvofiqlashtiruvchi funksiya	Darslikning bu funksiyasi o‘quv materialini loyihalash jarayonida boshqa o‘quv manbalarida keltirilgan materiallarni o‘rganish, ular orasidagi uzviylikni ta’minlash, talabalarga axborot oqimini tez o‘zlashtirish va olgan bilimlarni chuqurlashtirish hamda amaliy faoliyat jarayonida qo‘llash yo‘llarini topishni qamrab oladi
3.	Tizimlovchi funksiya	O‘quv fani mazmunini tizimlangan shaklda qat’iy ketma-ketlikda oddiydan murakkabga qarab bayon qilinishini ta’minlaydi. Darslikning ushbu funksiyasi, **birinchidan**, o‘quv materiali kasbiy faoliyatga bog‘liq bo‘lgan asosiy nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zida qamrab olishi; **ikkinchidan**, darislikda biron-bir faoliyatni bajarish ketma-ketligining ta’minlanishi; **uchinchidan**, darslikda alohida jarayonlarni bajarishga talabalarning individual ehtiyojlariga yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlar berilishi; **to‘rtinchidan**, o‘quv materiallari o‘zida reproduktiv faoliyat usullarini va unga mos holda produktiv jihatlarni o‘zida qamrob olishi; **beshinchidan**, tushunchalar va terminlar aniq bir tartibda saqlanishini ta’minlashi kerak
4.	Mutaxassislikka yo‘naltirilganlik funksiya	Darslikning mazmuni talabaning mutaxassislik bo‘yicha ishlab chiqarish va mehnat jarayonlari, obyektlari, texnika va texnologiyalari to‘g‘risidagi asosiy fundamental tushuncha va bilimga ega bo‘lishini ta’minlashi hamda kelajakda ularga tayanib yangi ma’lumotlarni mustaqil tahlil qilish va o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi kerak
5.	Didaktik funksiya	Talabalarning qobiliyati va ehtiyojiga mos ravishda o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishga hamda asosiy mazmunini ajratish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi

6.	O‘zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish funksiya	Talabaning o‘qituvchi rahbarligida yoki mustaqil tarzda darslikdagi nazorat savollari, test materiallaridan foydalanib, o‘z bilimini tekshirishi hamda ularga tayangan holda amaliy mashg‘ulotlarni bajara olish kabi faoliyatlarga ko‘maklashishdan iborat
7.	Mustaqil bilim olishga qiziqtirish va ijodkorlikka undovchi funksiya	Ushbu funksiya talabalarga mustaqil tarzda ta’lim olishga bo‘lgan ishtiyoq, ehtiyoj va zaruriyatni uyg‘otishi, qiziqtirishi, yetishmaydigan bilimlarni mustaqil tarzda to‘ldirishga yordam berishga yo‘naltirilgan
8.	Rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi funksiya	Ushbu funksiya o‘quv materiallari asosida shaxsning vatani va xalqiga e’tiqodi, ma’naviy-insoniy xislatlar: Vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy xislatlarning faol shakllanishiga ko‘mak berishdan iborat

Zamonaviy darsliklar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

o‘quv dasturiga mos keladigan va uni to‘laligicha qoplaydigan shaklda yozilishi va o‘quv maqsadining aniq yoritilishi;

ta’lim oluvchilarni faol bo‘lishga va tanqidiy fikrlashga undash;

faqat nazariy ma’lumot berish berish bilan cheklanmaslik [65; 77-b.];

amaliy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi muammoli savollar, loyihalar, mashqlar va ijodiy topshiriqlar berilishi;

ta’lim oluvchi bilimini o‘zini-o‘zi baholash va mustaqil ta’lim olish uchun imkoniyat yaratishi;

o‘quv materiali aniq maqsad va vazifalarga yo‘naltirilishi lozim;

mazmun dalillardan *namunalarga*, namunadan – *farazga*, farazdan – *izlanishga*, izlanishdan – *amaliy qo‘llashga*, abstrakt-ilmiy bilimdan – *aniq kasbiy bilimga*, bilimdan *amaliy ko‘nikma va konsepsiyani* shakllantirishga o‘tishni ta’minlanishi;


o‘quv materiali tushunarli, mantiqiy va tizimli bayon etilishi, muhim ma’lumotlar ajratib ko‘rsatilishi;

milliy xususiyatlar hisobga olinishi;

topshiriqlar va vazifalar keng ko‘lamli ta’lim oluvchilar bajaradigan amaliy ishlarni juftlikda yoki kichik guruhlarda tashkil etish imkoniyatini berishi;

yoshlarni shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, harakatdagi jarayonlarni ko‘rsatuvchi video materiallarga ega bo‘lishi;

nazariy, amaliy mazmunining o‘zaro bog‘liq holda ta’minlanishi;



3.7-rasm. Zamonaviy darslik modeli [65; 80-b.]

o‘quv materialini o‘rganish jarayonini osonlashtirish uchun rasmlar, sxemalar hamda chizmalarni qo‘shib joylashtirish;

mavzularning soddadan murakkabga taqdim etilishi va o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash;

fanlararo va fan ichida o‘zaro bog‘liqlikning ta’minlanishi;

fan, texnika hamda texnologiyalar so‘nggi yutuqlarining inobatga olinishi;

fanning o‘qitish texnologiyasi va metodikasi talablariga mos kelishi.

3.7-rasmdagi zamonaviy darslik modeliga muvofiq darslik ikki qismdan iborat bo‘ladi va quyidagii asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi (3.7-rasmga qarang).

Birinchi qismida bosma shakli kitob ko‘rinishida nashr etiladi va uning oxiriga ikki qismga tegishli komponentlar elektron shaklda disketada biriktiriladi [65; 79-b.].

Bosma shaklda. Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o‘rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va yyechimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqida ma’lumotlar, fanga tegishli soha yoki ishlab

chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti yoritilishi talab qilinadi. Kirishning oxirida fan bo‘yicha umumiy o‘quv maqsadlari keltirilishi kerak. O‘quv maqsadlari oldindan ko‘zlangan yakuniy ta’lim natijalari tavsifidir. Umumiy maqsadlarida ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar haqida umumiy tasavvurni beradi.

Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning ikkinchi qismi quyidagi afzalliklar va imkoniyatlariga ega:

darslikning ikkinchi qismi ochiq tizim bo‘lib, o‘qituvchi istalgan paytda yangi o‘quv materialini va so‘nggi yutuqlarini kiritish imkoniyatiga ega;

ta’lim oluvchining mustaqil bilim olish, izlanish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga o‘z-o‘zini baholashga imkoniyat yaratiladi;

murakkab obyektlar, jarayonlar va hodisalar haqida animatsiyalar orqali real tasuvvur hosil qildiradi;

elektron topshiriqlar va testlarining ko‘p variantiligi, ko‘p darajaliligi va xilma-xilligini ta’minlaydi;

o‘rganilayotgan materialni ko‘rish, eshitish va emotsional xotiralarga ta’sir qilish yo‘llari bilan yetkazish orqali tushunishni yengillashtiradi;

oliy ta’lim darsliklarining yangi avlodi yuqoridagi talablarga javob berishi, o‘qitish maqsadlariga erishishda barcha funksiyalarni bajarishi, talaba yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun umumiy topshiriqlar tizimiga ega bo‘lishi, rivojlantiruvchi va o‘z-o‘zini nazorat qilish komponentni qamrab olishi;

mazmuniy tuzilmasi talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatlarini boshqarishga yo‘nalitirilgan bo‘lishi kerak [65; 81-b.].

Kompyuterli qo‘llab-quvvatlashlardan foydalanib, o‘quv predmetining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko‘p sondagi ma’lumotlar va topshiriqlarni qarab chiqish, ko‘proq amaliy masalalar yechishga va topshiriqlarni bajarishga imkon yaratadi. Darsliklar yangi avlodining yaratilishi, o‘quv jarayoniga joriy etilishi – talaba va o‘qituvchi faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi model sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

O‘qitish tamoyillari va qoidalari

Ta’lim tamoyillari – ta’lim beruvchining faoliyati va ta’lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir. Ta’lim tamoyillari ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli formada, turli mazmunda va har xil yo‘sinda tashkil etiladigan ta’limning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta’lim tamoyillari ta’lim berishning ma’lum obyektiv qonuniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ta’lim tamoyillari quyidagilardan iborat:

Ta’lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili – ta’lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish, *birinchidan,* ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlanayotganda uni bir necha tur modifikatsiyani (xillarini) tayyorlash imkonini beruvchi unifikatsiyalashgan o‘quv rejalarini tizimni ko‘zda tutsa, *ikkinchidan,* umumtexnik va umum pedagogik hamda maxsus predmetlar mazmunini tabaqalashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishi an’analarini hisobga oladi [65; 43-b.].

Ta’lim-tarbiya tizimi va uzviylik tamoyili – bu ta’lim-tarbiyada qat’iy mantiqiy izchillikka rioya qilish kerak bo‘lgan jarayondan iborat bo‘lib, bunda o‘rganilgan bilimlar va shakllangan tasavvurlar oldingi o‘rganilganlardan kelib chiqadi, ularni

mustahkamlaydi, chuqurlashtiradi va keyingi ta’lim-tarbiyaviy jarayonga zamin hozirlanadi. Mazkur tamoyil o‘qish jarayonida didaktikaning umumiylikdan xususiylikka (deduksiya) va aksincha xususiylikdan umumiylikka (induksiya) qoidasini va o‘quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lishini ta’minlaydi;

Ta’lim-tarbiyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili – bu ta’lim mazmunining amalda o‘z ifodasini topish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda tarbiyani hayot bilan uzviylikda olib borishlik jarayoni qaraladi. Ushbu tamoyil didaktikaning asosiy qoidalaridan biri bo‘lib, ruhiy hodisalar bilan yaxlit ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etadi;

Ta’lim va tarbiyaning birligi tamoyili – bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo‘lib, unda egallangan bilim va ko‘nikmalarni hayotga qo‘llay olishga o‘rgatiladi hayotda ta’lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan uyg‘unlikda rivojlanishi ta’minlanadi. Yaxlit ta’lim-tarbiya jarayonida ikki o‘zaro bog‘liq juftlik, ya’ni bilim berish va tarbiyaviy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta’limiy-tarbiyaviy bilimlar va ko‘nikmalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish, obyektiv borliqdagi qonuniyatlarni o‘rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim oluvchilarga bilim berishda egallagan bilimni amalda ishlatishga o‘rgatish, ya’ni, tarbiyalash jarayoni ham uyg‘unlikda olib borilmog‘i lozim bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiyaning muntazamiylik va davomiylik tamoyili – bu ta’lim-tarbiyadagi zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, u bilimni mantiqiy bog‘liqlikda o‘rganishni ta’minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo‘yicha tuzilgan o‘quv reja va dasturlarda dasturiy va uslubiy tavsiyanomalarni yaratishda tadbiq etiladi. Amaliyotchi o‘qituvchi o‘quv reja va dasturlaridan chetga chiqmasligi lozim. Bu qonuniyat tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi, ularning tadrijidan kelib chiqqan aloqadorliklar qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Bu qonuniyat o‘qish faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Unga amal qilmaslik ta’lim oluvchilar tafakkurida o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan uzuq-yuluq bilimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday

bilimlardan kishining ijtimoiy mohiyatiga naf bo‘lmaydi, ular tafakkurni charchatadi xolos [65; 44-b.].

Ta’lim-tarbiyada onglilik va faollik tamoyili – ta’lim oluvchilar olayotgan bilimini hayotda qo‘llay bilishlari uchun ta’lim berish jarayonini faol fikrlashga aylantirish kerak. Bunda o‘qitishni shunday tashkil etish kerakki, ta’lim oluvchilar bilimlarini mashg‘ulotlarda ongli va faol qatnashib egallab olish. Shunda talabalarda ong o‘sib, ijtimoiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi.

Ta’lim-tarbiyaning onglilik tamoyili ta’lim oluvchilarda ta’rif, tushuncha va qoidalarni yodlash va esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlar, hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mazmunini tushuntirishlarini talab etadi. Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish ta’lim oluvchilarda bilimlarga nisbatan ma’lum munosabat hosil qilishni, hissiy kechinmalar uyg‘otishini o‘z ichiga oladi. Bu tamoyil tafakkurini shakllantiruvchi qoida bo‘lganligi uchun muammoni mustaqil hal qilish maqsadida darsda ta’lim oluvchilarga muammoli vaziyatlar tavsiya etiladi.

Ta’limda o‘quv faoliyatini yaxlit shakllantirish tamoyili – ta’lim oluvchilarning diqqatini boshqarish, ularga bajariladigan ishlarni tushuntirish, zaruriy ehtiyoj-motivatsion holatlarni faollashtarish, faoliyatga yordam berish, tuzatish kiritish jarayoni va ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatining natijasini baholash jarayoni.

Ta’limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyili – ta’lim oluvchilardagi o‘qitish ishlarini faollashtiradigan, ongini o‘stiradigan, ularni mustaqil bilim olishga yo‘naltiradigan usullarga o‘rgatadi hamda pedagogik, texnik atamalardan to‘g‘ri foydalanishga odatlantiradi.

Ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyili – bu o‘rganilayotgan hodisa va voqealarni jonli idrok etish asosida o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Bu tamoyil o‘quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida ko‘rgazmali vositalardan to‘g‘ri foydalanish talabalarning pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, o‘qitish uslubiyati va texnikaga oid fanlarni puxta o‘zlashtirib olishga, ularda malaka hosil bo‘lishiga yordam beradi. Agar ko‘rgazmali qurol biror fikrni bildirish uchun yordamchi vosita bo‘lsa, nutq asosiy qurol hisoblanadi. Ko‘rgazmali qurol kuzatishni rivojlantirish uchun qo‘llanilsa, nutq qisqa bo‘lib

kuzatishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Demak, ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyili – bu ta’lim jarayonidagi sifatni ta’lim oshirishga, talabalarning bilim olishlarini osonlashtirishga (oydinlashtirishga) qaratilgan faoliyat bo‘lib, unda talabalardagi o‘rganilayotgan jarayonlarni (narsa va hodisalarni) bevosita hissiy-amaliy jihatdan idrok qilish asosida bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish jarayoniga asosiy e’tibor qaratiladi [65; 45-b.].

Ta’lim qonunlari quyidagilardan iborat (3.7-jadvalga qarang):

3.7-jadval.

Ta’lim qonunlari

№	Ta’lim qonunlari	Ta’lim qonunlarining mazmun-mohiyati
1.	O‘zaro bog‘liqlik qonuni	ta’lim-tarbiya jarayonida ikkita ruhiy harakatning o‘zaro bog‘liqligidagi rivojlanish qonuni. Bu qonun bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayoni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi ruhining bir yo‘nalishdagi harakatini taqozo etadi. Bu qonunga binoan, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi ikki shaxsdan birining harakati ikkinchisiniki bilan mos kelmasa, ta’lim-tarbiya jarayoni sodir bo‘lmaydi. Bunda darsni samarali tashkil qilish va uni sifatli, mazmunli amalga oshirish uchun pedagog sinfda yoki auditoriyada bir xildagi holatni, ya’ni bilim berish va bilim olish holatini shakllantirish kerak
2.	Mashq qonuni	qonun bo‘yicha, egallangan bilimni ko‘nikma, so‘ng malakaga aylantirishda, mashqni iloji boricha tez amalga oshirishni taqozo etadi
3.	Intensivlik qonuni	bu qonun bo‘yicha, mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo‘lsa, shunchalik tez o‘zlashtiriladi
4.	Assimilyatsiya qonuni	bo‘yicha har bir yangi “turtki” qaytar reaksiyani vujudga keltiradi deyiladi. Shuning uchun egallagan bilimni qaytarish yo‘li bilimni “turtib” turish kerak, deyiladi
5.	Natijaviy qonun	reaksiya ijobiy bo‘lsa, bilim mustahkamlanadi, agar salbiy bo‘lsa, xotira uni o‘chirib tashlaydi, deyiladi

Nazorat va muhokama savollari:

1. Ta’lim jarayoni – yagona dinamik tizim sifatida deganda nimani tushunasiz?
2. Bilimning amaliyot davomidagi yuksalishi deganda nimani tushunasiz?
3. O‘qitish, o‘qitish jarayonlari tasniflari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘zaro aloqadorligi qanday amalga oshiriladi?
4. O‘quv reja nima?
5. O‘quv dasturi nima?
6. Kalendar-tematik reja nima?
7. O‘quv dasturlari qanday tamoyillar asosida tuziladi?
8. Darslik nima?

9. Uslubiy qo‘llanma nima?

10. Elektron darslik nima?

11. Elektron kitoblar qanday yo‘nalishdan iborat bo‘ladi?

12. Elektron o‘quv qo‘llanmalarni yaratishning nechta bosqichlari mavjud?

13. Multimediali elektron-o‘quv qo‘llanma qanday afzalliklarga ega?

14. Elektron pochta nima?

15. Elektron forumlar nima?

16. Elektron shaklidagi o‘quv-uslubiy materiallar nima?

17. Zamonaviy darslikning qanday asosiy funksiyalarni bajaradi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Zamonaviy ta’lim mazmuni va mohiyati bo’yicha FSMU jadvalini to’ldiring:

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko’rsating).
M (Ko’rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

2. Jadvalni to’ldiring va tahlil qiling: boshlang‘ich ta’lim bilan boshlang‘ich maktab tushunchalarining mazmun-mohiyati nimadan iborat:

Boshlang‘ich ta’lim	**Boshlang‘ich maktab**

3. “Tushunchalar tahlili” metodi asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Tushunchalar	**Tushunchalar mazmuni**
Didaktika	
Ta’lim jarayoni – yagona dinamik tizim	
Bilim	
Ko’nikma	
Malaka	

4. Didaktika – ta’lim nazariyasi mavzusiga “Assesment” tuzing. Ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida qanday namoyon bo‘lishini tushunchalar orqali belgilang. Maqsadi: baholash, nazorat qilish, ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli aspektlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi.

Test	**Muammoli vaziyat**
Simpton	**Amaliy ko`nikma**

§ 3.2. TA‘LIM SHAKLLARI, METODLARI VA VOSITALARI TASNIFI

Reja:

1. O‘qitish shakllari va turlari.
2. Ta’lim metodlari tasnifi.
3. Ta’lim vositalari.

Tayanch so‘z va iboralar: o‘qitish shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, oqitish turlari, ta’limni tashkil etish shakllari, ma’ruza, seminar, o‘qitish tamoyillari, o‘qitish qoidalari, kirish ma’ruza, ma’lumotli ma’ruza, anjuman-ma’ruza, muammoli-ma’ruza, ma’ruza-munozara, vizual-ma’ruza, konspektli-ma’ruza, maslahatli-ma’ruza, binar-ma’ruza, ma’ruza(doklad)li seminar, dialogli seminar, refleksiv seminar, seminar-fikrlar almashuvi, seminar-illyustratsiya, evristik seminar, Phet interactive

simulation, Labster, Virbela, tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim, muammoli o‘qitish, dasturlashtirilgan ta’lim yoki kompyuterli o‘qitish, ta’lim usuli, ta’lim metodi, ta’lim vositasi, ta’lim texnologiyasi, ta’lim shakli, ta’lim tamoyillari, an’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari, o‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari, asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari, ta’limning binar metodlari, yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari, ta’limning interfaol metodlari, ta’limnig og’zaki metodlari, ta’limning ko’rgazmali metodlari, ta’limning amaliy metodlari, ta’limning rag’batlantirish va tanbeh berish metodlari, ta’limning muammoli izlanish, mustaqil ishlar, reproduktiv evristik metodlari, ta’limning induktiv va deduktiv metodi, ta’limninh nazorat va o’z-o’zini nazorat qilish metodlari, matnli vositalar, tasvirli vositalar, audiyovizual vositalar, yordamchi vositalar, modelli vositalar, haqiqiy vositalar.

O‘qitish shakllari va turlari

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratilib ko‘rsatiladi (3.8-rasmga qarang):



3.8-rasm. Ta’limning shakllari

Ta’lim jarayoni shakllari quyidagilardan iborat:

tashkiliy shakliga ko’ra;

yakka tartibda, juftkik, kichik guruhda, guruhlararo, sinfda, auditoriyada, ta’lim muassasida;

dars o’tkazish joyiga ko’ra;

o’quv xonalarida, o’quv xonasidan tashqarida;

ajratilgan vaqtiga ko’ra;

bir soatlik darslar, qo’shma darslar, modulli darslar, qo’ng’iroqsiz darslar.

Hozirgi vaqtda respublika ta’lim muassasalarida o‘qitishning 1.1-rasmdagidek ko‘rinishlaridan foydalanilmoqda (3.9-rasmga qarang) [65; 123-b.]:



3.9-rasm. Ta’limni tashkil etish shakllari

Ulardan ta’lim oluvchilarni qamrab olishi, ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqiligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi asosiy turi iste’molda foydalanib kelinmoqda:

individual;

individual-guruhli;

sinf-dars;

ma’ruza-seminarli [65; 118-b.].

Ta’limning ma’ruza-seminar tizimi. Ma’ruza – oliy ta’limda o‘qitishning asosiy shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

1) yo‘naltiruvchi: talabalarni o‘quv materialining asosiy jihatlariga e’tibor qaratishga imkon beradi;

2) axborot: o‘qituvchi ma’ruza vaqtida muammoni, muammo bilan bog‘liq asosiy dalil va xulosalar mohiyatini ochib beradi;

3) metodologik: ma’ruza jarayonida muammoning falsafiy – nazariy asoslari namoyon etiladi.

4) tarbiyalovchi: talabalarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirish;

5) rivojlantiruvchi: talabalarda mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish (3.8-jadvalga qarang):

3.8-jadval.

Ma’ruza turlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari

№	Ma’ruza turlari	O‘ziga xos xususiyatlari
1.	Kirish ma’ruza	Talabalarda o‘quv fani to‘g‘risidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish
2.	Ma’lumotli ma’ruza	Talabalarda muammoga doir ma’lumotlarni axboriy-retseptli tarzda taqdim etish
3.	Anjuman-ma’ruza	Talabalar tomonidan o‘quv materialining izlanishli tarzda o‘zlashtirilishiga erishish
4.	Muammoli-ma’ruza	Talabalarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali o‘quv birliklarini bayon etish
5.	Ma’ruza-munozara	Fikrlar almashinuvini tashkil etish asosida ma’ruza qismlarini o‘zlashtirishga erishish
6.	Vizual-ma’ruza	Vizual-materiallarni taqdim etish orqali talabalar tomonidan materialni o‘zlashtirishga erishish
7.	Konspektli-ma’ruza	Talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirishga erishish maqsadida tushuntirish bilan birga eng asosiy qismlarini yozdirib borish
8.	Maslahatli-ma’ruza	Savol va javoblar tarzida ma’ruza mashg‘ulotini tashkil etish
9.	Binar-ma’ruza	Muammo yuzasidan tadqiqot olib borgan mutaxassis-olim bilan birgalikda ma’ruzani tashkil etish

Seminar – bu o‘qituvchining ta’lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta’minlovchi ta’limni tashkil etish shaklidir.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi:

1) nazariy materialni tartibga solish;

2) bilimlarni mustahkamlash;

3) ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

4) bilimlarni nazorat qilish.

Seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:

1. Nima uchun? – Seminarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad.

2. Qanday tarzda? – Seminarni olib borish texnologiyasini ishlab chiqish.

3. Nimani muhokama qilish? – Seminarni olib borish vaqtida muhokama qilinadigan materiallar mazmuni.

4. Qanday omillarni hisobga olish zarur? – Seminarni tashkil etish jarayonida ma’lum omillarni hisobga olish (3.9-jadvalga qarang):

3.9-jadval.

Seminar turlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari

№	Seminar turlari	O‘ziga xos xususiyatlari
1.	Ma’ruza(doklad)li seminar	Seminar mashg‘uloti talabalarning ma’ruzalarni tinglash va munozara shaklida o‘tkaziladi.
2.	Dialogli seminar	Seminar mashg‘uloti ommaviy va indiviudal savol-javoblar tariqasida tashkil etiladi
3.	Refleksiv seminar	Seminar mashg‘uloti mavzuga doir ma’lumotlarni muhokama qilish va aniq xulosalarga kelish tarzida o‘tkaziladi.
4.	Seminar-fikrlar almashuvi	Seminar mashg‘ulotini tashkil etishda manbalardan foydalaniladi va turli fikrlarni shakllantirishga erishiladi
5.	Seminar-Illyustratsiya	Seminar mashg‘uloti manbalar bilan ishlash tarzida tashkil etiladi va materiallar illyustratsiya tarzida namoyish etiladi.
6.	Evristik seminar	Seminar izlanishli-topshiriqli tarzda tashkil etiladi.

Amaliy mashg‘ulot o‘quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni talabalarning professor – o‘qituvchi bilan birgalikda bajarishini o‘zida aks ettiradi.

Amaliy mashg‘ulotining bosh maqsadi – biror bir fanga doir nazariy qoidalarning amaliy jihatlarini ochib berish; talabalarning o‘rganilayotgan qonuniyatlarning o‘ziga xosliklari va namoyon bo‘lish shakllarini chuqur tushunishlarini ta’minlash; bo‘lajak mutaxassislarda o‘rganilayotgan obyekt bilan amaliy muloqotga kirishish ko‘nikmasini shakllantirishdir.

Laboratoriya (amaliy) mashg‘ulotlar talabalarning ilmiy dunyoqarashini shaklantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Onlayn yoki virtual labaratoriyalar **–** bu foydalanuvchilarga internet orqali ilmiy yoki amaliy tajribalarni o‘tkazish imkonini beruvchi interaktiv platformalardir. Ular,

odatda, fizika, kimyo, biologiya, matematik yoki boshqa fanlar bo‘yicha turli tajriba va sinovlarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu laboratoriyalar haqiqiy jihozlar yoki laboratoriya materiallari talab qilmasdan, faqat kompyuter yordamida ishlaydi. Bunday laboratoriyalarni foydalanuvchilar masofadan turib o‘rganish, mashq qilish va sinovlar o‘tkazish uchun ishlatishlari mumkin. Ular talabalarga, ilmiy tadqiqotchilarga va o‘qituvchilarga yangi texnologiyalarni o‘rganishga yoki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Quyida misollar keltiramiz:

1. PhET Interactive Simulation – bu interaktiv simulyatsiyalar bilan tanilgan bir platforma, unda fizika, kimyo va biologiya sohalarida turli tajribalar amalga oshirilishi mumkin.

2. Labster – virtual laboratoriya platformasi, unda foydalanuvchilar biologiya, kimyo, fizika, va boshqa ilmiy fanlar bo‘yicha o‘z tajribalarini sinab ko‘rishlari mumkin.

3. Virbela – virtual makon yaratish orqali talabalar va o‘qituvchilarga onlayn laboratoriyalarda ishlash imkonini beradi.

Bunday laboratoriyalar yordamida, masalan, tajribalarni xavfsiz o‘tkazish, resurslardan samarali foydalanish va tajriba natijalarini tezda tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

Didaktik g‘oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g‘oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o‘ziga xos tizimlar ko‘rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta’lim turlari o‘quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir (3.10-jadvalga qarang):

3.10-jadval.

Pedagogik tizim turlari

№	Pedagogik tizim turlari	Mamlakatlar	Pedagogik tizim davri
1.	Arxaik		Ibtidoiy
2.	Qadimgi	Shumer, Misr, Xitoy	eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik
3.	Avesto	Baqtiriya, Sug‘diyona, Xorazm	eramizdan avvalgi VII-VI asrlar
4.	Yunon	Ellins, rim-yunon, rim	eramizdan avvalgi V-I asrlar
5.	O‘rta asr	dogmatik, sxolastik	V-XVI asrlar

6.	Yangi	tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog‘idan foydalanib o‘qitish va shu kabilar
7.	Xorijiy	tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog‘idan foydalanib o‘qish va shu kabilar

“Avesto” g‘oyalariga ko‘ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganida tashkil topdi. “Avesto” zardushtiylikning muqaddas manbai bo‘lib, u o‘z davrining qomusiy asari hisoblangan. Uning g‘oyalariga binoan yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash quyidagi tamoyillarga asoslangan:

yoshlarni diniy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash;

jismoniy jihatdan tarbiyalash;

yoshlarni o‘qish va yozishga o‘rgatish orqali ularning savodxonligini shakllantirish.

“Avesto” g‘oyalari bo‘yicha Yer, Quyosh, suv, olov muqaddas deb e’tirof etilganligi sababli yoshlarni tarbiyalashda Ona Yerga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini o‘yg‘otish muhim yo‘nalish hisoblangan. Shuningdek, unga barkamol shaxs obraziga qo‘yilgan talablar haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.

Muntazam o‘qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillar) va ularning o‘quvchilari tomonidan keng qo‘llanilgan *yordamchi savollarga javob topish metodi* hisoblanadi. Bu metod fanda *suqrotcha suhbat metodi* nomini olgan. Bu metodning mazmun-mohiyati quyidagicha bo‘ladi, ya’ni bunda eng avval o‘qituvchi o‘z o‘quvchisida qiziqish yo‘nalishini va bilishga intilishini o‘yg‘otadigan savollardan foydalanilgan; keyin esa mulohaza yuritish asosida o‘quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undagan. Demak, suqrotcha suhbat metodida qiziqishdan bilishga, bilishdan idrok etishga qarab induktiv metod asosidagi faoliyat dinamikasi shakllantirilgan. Mazkur jarayonda o‘qituvchining mulohazasi ko‘pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to‘ldirib turilgan. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o‘quvchilar ishtirokida tashkil etiladi [65; 110-b.].

Dogmatik o‘qitish – bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo‘lib, u o‘rta asrlarda keng tarqalgan. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada ularning ilk ko‘rinishlari iste’molda bo‘lib, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o‘rin tutgan. Bu borada musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli darajadagi ma’naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan. Ularning g‘oyalari bo‘yicha o‘z faoliyatlarida bilimlardan faol va ijodiy foydalana oladigan odamgina komillikka erishish mumkin, degan hukumiy fikr shakllangan.

“Haqiqiy g‘oyalar” deb nom olgan pedagogik tizimning asosiy tayanch nuqtasi *haqiqiy bilimlarni* o‘zlashtirishdan iborat bo‘lgan. Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” va “Bilimlar kitobi” nomli asarlarida ham mazkur muammo yyechimiga alohida e’tibor qaratilgan. Ularda ta’kidlanishicha haqiqiy bilimlarni o‘zlashtirishga ikkita to‘siq halaqit qiladi. Ular: so‘zlarning aniq emasligi, fikrlarning tushunarli emasligi. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etishda logika fani yutuqlari va ulardan iste’molda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musulmon mamlakatlarida yoshlarni o‘qitish va tarbiyalashda ular tomondan arab tilida yozilgan “Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”ni yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bulardan tashqari o‘sha paytda bir qator maktablarda fors tili ham o‘rgatilgan. Yoshlar asosiy ta’limni maktablar – boshlang‘ich maktabdan olganlar va unda ilohiy va muqaddas kitobni (“Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”) o‘qish, yodlash va talqin qilish mashg‘ulotlari, shuningdek, boshqa manbalar bo‘yicha ham o‘qish, yozish va hisoblash tafakkurini shakllantirish faoliyatlari amalga oshirilgan. Demak, dogmatik o‘qitishda yoshlarning asosiy faoliyatlarini tinglash, o‘qish, yod olish, eslab qolish va matnni so‘zma-so‘z takrorlashlar tashkil etgan.

Yoshlarning oliy ma’lumot olishi o‘sha davrlardagi nufuzli madrasalarda amalga oshirilgan. Movarounnahrdagi eng yirik o‘quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G‘ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma’rifiy markazlarining rivojlanishi XV-XVII asrlarga to‘g‘ri keldi. Madrasalarda, o‘qitish fors tilida olib borilgan. Ularda ta’lim oluvchilar majburiy tarzda arab tilini ham o‘rganganlar. Madrasalar o‘quv rejasiga grammatika, Qur’oni Karim, Hadisi Sharif,

ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, ilmi hujum, huquqshunoslik, riyoziyot, handasa, jug‘rofiya va shu kabi fanlar kirgan. O‘qitish asosan og‘zaki shaklda olib borilgan. Ulardagi o‘quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko‘p qirrali, turli-tuman bo‘lib boravergan.

Dogmatik o‘qitish o‘rniga asta-sekin o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta’lim shakllari qo‘llanila boshlandi [28; 111-b.]. Hozirgi vaqtda, respublikamizda faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta’lim muassasalarida ta’limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim. Bu an’anaviy yoki axborot beruvchi ta’lim deb ataladi;

muammoli o‘qitish;

dasturlashtirilgan ta’lim yoki kompyuterli o‘qitish.

Bugungi kunda o‘rta asrda keng qo‘llanilgan ta’lim turlari dogmatik va sxolastik o‘qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim turi. Uning asosiy metodi ko‘rgazmalilik asosida tushuntirishdan iborat bo‘lib, uning asosini tinglash va eslab qolish tashkil etadi. Bu ta’lim turi vaqtni tejash, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning vaqtni tejash, qiyin bilimlarni tushunishini osonlashtirish, ta’lim jarayonini optimal boshqarishni ta’minlaydi. Biroq bu ta’lim turida ayrim kamchiliklar mavjud, ya’ni “tayyor” bilimlarni berish va ta’lim oluvchilarni bilimlarini o‘zlashtirishida mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensiyallashtirish imkoniyatlarining kamligi.

Muammoli o‘qitishda o‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim tashkil etiladi. Bundagi ta’lim texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki ta’lim oluvchilarni faol ishtirok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish

muhim bosqich hisoblanadi, chunki mazkur jarayonda fikrlash jarayonida qiyinchilik his qilinadi.

Muammoli o‘qitishda muammoni ilgari surish *dastlabki bosqich* hisoblanadi. Muammoni hal etishning *keyingi bosqichida* ta’lim oluvchilar berilayotgan savol bo‘yicha mavjud muammoni aniqlaydilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. *Uchinchi bosqich* muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan faoliyat bo‘lib, u ta’lim oluvchida mustaqil fikr shakllanishi orqali aniqlanadi. Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, egallangan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonlari amalga oshiriladi.

Muammoli topshiriqlar savollar, o‘quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo‘lishi mumkin. Muammoli savolda javoblar izlash turli variantlarda bo‘lishi mumkin. Muammoli masala esa uni yechish yo‘llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o‘quv-o‘rganish topshirig‘idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi [65; 112-b.].

O‘qish jarayonida muammoli vaziyat subyekt (ta’lim oluvchi) o‘zi uchun qiyin bo‘lgan masalani yechishga qiziqishi, ammo unga ma’lumotlar yetishmasligi va uning o‘zi ularni izlab topishi zarurligini ko‘zda tutiladi.

Muammoli o‘qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatni tashkil etish asosida bilimlarni mustahkam egallash, o‘qishga qiziqishni uyg‘otish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o‘qitishning mustahkam va amaliy natijalariga erishish. *Kamchiliklari* ta’lim oluvchilarning idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo‘yish va hal etish uchun ko‘p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil hal qilish imkoniyatini har bir ta’lim oluvchiga taqdim etishning qiyinchiligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta’lim (Dasturlashtirilgan ta’lim) harakat (operatsiya) lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi “dastur” terminidan kelib chiqadi. *Dastur* – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo‘lib, uning yordamida ta’lim oluvchilarga ta’lim-tarbiya berishda o‘quv rejasi va

dasturlarini og‘ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi. *Dasturlashtirilgan ta’lim* – o‘quv jarayonini muayyan tartib (dastur) asosida tashkil etishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning yordamida o‘quv jarayonini olib borishning optimal variantlariga erishiladi. U kibernetika, informatika, matematik logika, hisoblash texnikasi asoslari va psixologiya fanlarining samarali tamoyillari va murakkab tizimlaridagi boshqarish vositalarining pedagogikada joriy etilishi natijasi ko‘rinishida XX asrning 50 yillarida paydo bo‘ldi. Dasturlashtirilgan ta’lim o‘quv materialini kichik-kichik qismlarga bo‘lish, ushbu qismlarning biridan ikkinchisiga o‘tish tartibi(qoidalari)ni belgilash, xususan, har bir qismni o‘zlashtirish yuzasidan aniq ko‘rsatmalar, topshiriqlar berish, o‘z-o‘zini nazorat qilishni ta’minlash kabi yo‘llar bilan amalga oshiriladi. U ta’lim oluvchining bilim egallashi yo‘lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, qiyinchiliklarni oldini olish, qiziqishini yo‘qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o‘quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo‘naltiriladi. Dasturiy ta’limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

o‘quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;

o‘quv jarayonining bilimlarini o‘zlashtirish bo‘yicha bilimlarning muayyan miqdorlari (bo‘laklari) va fikrlash (mantiqiy) amallaridan iborat bo‘lgan ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lishi;

har bir bosqichning nazorat bilan yakunlanishi;

nazorat topshiriqlarini to‘g‘ri bajargan ta’lim oluvchining yangi materialni o‘zlashtirish uchun olish imkoniyati va navbatdagi bosqichni bajarishga kirisha olish [65; 113-b.];

to‘g‘ri javobni topishda ta’lim oluvchining yordamchi va qo‘shimcha tushuntirishlarni olishi;

har bir ta’lim oluvchining mustaqil ishlashi, intellektual salohiyati yetarli bo‘lgan mavzular bo‘yicha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi;

natijalar monitoringi, ya’ni barcha nazorat topshiriqlari bajarilishi natijalarining qayd etilishi;

ta’lim jarayonida ta’lim beruvchining ta’lim tashkilotchisi va lozim topilganda mazkur jarayonda maslahatchi (boshqaruvchi) sifatida ishtirok etishi va individual yondashuvni amalga oshirishi;

ta’lim jarayonida o‘qitishning o‘ziga xos vositalarining keng qo‘llanilishi (kompyuterli o‘rgatuvchi dasturlar, intellektuallashtirilgan dasturlar, kasbiy kompyuterli o‘yinlar, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o‘qitish mashinalari va shu kabilar).

Kompyuterli ta’lim. Ma’lumki, o‘qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta’lim vujudga keldi.

Kompyuter – (ing. Computer - hisoblayman) – oldindan berilgan dastur bo‘yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Ta’lim-tarbiya jarayonlarini kompyuterlashtirishda zamonaviy kompyuterlar universal didaktik vositalar (qurilma) bo‘lib hisoblanadi va ularning ta’lim-tarbiya jarayonlarining optimal variantlarini topishdagi roli beqiyos. Shuningdek, kompyuter ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishda yangi dasturiy-texnik universal vositasi bo‘lib, ularning amaliy tafakkurini kengaytirish va chuqurlashtirib, ulardagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni yuqori darajaga ko‘taradi.

Maxsus ta’lim dasturlari bilan ta’minlangan kompyuterlardan deyarli barcha didaktik masalalarni hal etishda foydalanish mumkin. Ular: axborot berish, o‘qitish jarayonini boshqarish, natijalarni nazorat qilish va tuzatib berish, mashqlarni bajarish, o‘quv jarayoni rivojlanishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va shu kabilar.

Rivojlangan mamlakatlarda kompyuterlardan keng foydalanishning rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni aniqlashga imkon beradi:

alohida o‘quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya, chizmachilik va shu kabi fanlar) bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini oshirishni ta’minlash;

umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari – qo‘yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlar, kommunikativ malakalarni egallash(axborotni to‘plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko‘nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e’tiborni kuchaytirish.

Kompyuterlashtirishning asosiy *maqsadi*, ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish ishlarini avtomatlashtirishdan iborat bo‘lsa, uning asosiy *vazifalari* intellektual salohiyatni ko‘tarish, aqliy mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ta’lim-tarbiyada optimal variantlarni kafolatlashlardan iboratdir [65; 114-b.].

Kompyuterlar yordamida ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar qilishga imkoniyat yaratiladi va yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar yaratiladi hamda yangi ko‘rgazmalilik ta’minlanadi. Shuningdek, ulardan ta’lim-tarbiyada universal didaktik vosita sifatida foydalaniladi. Bu o‘qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi va natijada ta’lim jarayonidagi samaradorlik qo‘lga kiritiladi.

Dasturiy va kompyuterli ta’limlar o‘qitish algoritmlarini bajarishga asoslanadi. Ma’lumki, algoritm belgilangan (rejalashtirishgan) natijaga olib keluvchi mantiqiy jihatdan mukammal va izchil tuzilgan ketma-ket amallar (operatsiyalar, harakatlar) tizimi sifatida bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘la o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini ta’lim oluvchiga ko‘rsatadi. O‘quv dasturlari va kompyuterli ta’lim samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Kompyuterli ta’lim dasturlari, odatda *ikki xil*, ya’ni axborot ma’lumotli va nazorat ta’limiy tartibda o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘lgan turlarga bo‘linadi.

Ta’lim oluvchilarni masofadan turib o‘qitish mobaynida kompyuterlar ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zining bilimini sinovida ya’ni joriy va oraliq baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus ishlab chiqariladigan uskunaviy vositalardan foydalanish kompyuterli ta’lim dasturlarini yaratish jarayonini anchagacha yengillashtiradi. Ular yordamida kompyuter texnologiyalaridan boxabar bo‘lgan tarix, adabiyot, huquq va boshqa fan o‘qituvchilari ham bemalol ta’lim dasturini yaratish mumkin. Chop etilgan materiallar audio va vidio yozuvlar bilan birgalikda o‘quv materialiga kirishni kengaytirish va soddalashtirish, o‘quv materialini qulay va ko‘rgazmali tarkiblash uchun, shuningdek, oson harakatlanishi (navigatsiya) uchun foydalaniladi. Kompyuterli ta’limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

o‘qitish dasturlarining mukammalligi;

hisoblash texnikasining mukammalligi va o‘qitish jarayonida foydalanishdagi qulayligi.

Kompyuterli o‘qitish tizimi – bu quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beruvchi o‘quv-metodik va dasturiy-texnik vositalar majmuasi bo‘lib hisoblanadi:

bilimning aniq predmet sohasini o‘rganish;

o‘quv kurslarida ishlanmalarni qo‘llash;

o‘quv jarayonini boshqarish va shu kabilar.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini tashkil etishda qo‘llanilayotgan kompyuterli o‘qitish tizimini quyidagidek sinflarga ajratish mumkin [65; 115-b.]:

A) ma’ruzani immitatsiyalovchi va o‘rganuvchi materialni bayon etishda aniq rejaga ega bo‘lgan ma’ruzachi tipidagi tizimlar;

B) seminar, laboratoriya mashg‘ulotlarini immitatsiyalovchi assistent tipidagi tizimlar;

V) o‘rganilayotgan va yondash fanlar bo‘yicha foydalanishga mo‘ljallangan ma’lumotlar bazasini tashkil qiluvchi maslahatchi tipidagi tizimlar;

G) bilimlarning boshlang‘ich darajasini va o‘quvchining psixologik holatlarini tekshirishga imkon beruvchi repititor tipidagi tizimlar” [65; 116-b.].

Ta’lim metodlari tasnifi

Metodika – pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lib, insonni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to‘g‘risidagi hamda ta’lim-tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fandir. Metodika qisqacha qilib aytganda, ma’lum bir fanni o‘rganish, o‘qitish metodlari to‘g‘risidagi ta’limot. O‘qitish amaliyotida quyidagi tushunchalar foydalanilib kelmoqda:

ta’lim usuli;

ta’lim metodi;

ta’lim vositasi;

ta’lim texnologiyasi;

ta’lim shakli;

ta’lim tamoyillari.

Metod, o‘qitish metodi, usul, metodika, qoida kategoriyalarining farqi nimada? *Metod* so‘zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘l va usullar majmui deganidir.

Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilar o‘quv – bilish faoliyatini tashkil etish yo‘llari tushuniladi.

Ta’lim usuli – ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni.

Metodika – bu xususiy didaktika, ya’ni biror bir fanni o‘qitish nazariyasi.

Qoida – tanlab olingan metod bilan bog‘liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi meyoriy ko‘rsatmalardir.

Ta’lim metodlari tasnifi tadqiqotlarda aniqlangan (3.11-jadvalga qarang):

3.11-jadval.

Ta’lim metodlari tasnifi

Ta’lim metodlari tasnifi	Manbalari
An’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari	E.I.Golant, N.M.Verzilin va boshqalar
O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari	I.Y.Lerner va M.N.Skatkin
Asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari	M.A.Danilov va B.P.Esipov
Ta’limning binar metodlari	M.I.Maxmutov
Yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari	Y.K.Babanskiy
Ta’limning interfaol metodlari	

Ta’lim vositalari – bu yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta’lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko‘ra yondashish mumkin:

faoliyat subyektiga ko‘ra;

faoliyat obyektiga ko‘ra;

o‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra;

o‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra.

Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirishда quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

rejalashtirish – pedagogik tahlil natijalariga tayangan holda o’quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish yoki mihim hukm chiqarish;

loyihalashtirish – muayyan tuzilishga ega, ya'ni loyihani ishlab chiqish bosqichlarining ketma-ketligi va tarkibi, jarayonlar, jalb qilingan vositalar to'plami va jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'siri [60; 3-b].

Ta’lim jarayonida texnologiyalashtirish bilan bog‘liq quyidagi tushunchalar ham mavjud bo‘lib, maqsadiga qarab loyihalashtiriladi:

ta’lim texnologiyalari;

tarbiyada texnologiyalar;

innovatsion texnologiyalar;

axborot-kommunikatsion texnologiyalar;

pedagogik texnologiyalar.

Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1-bosqich: loyihani yaratish;

2-bosqich: talabalar faoliyatini tashxislash;

3-bosqich: pedagogik jarayonni tashkil etish;

4-bosqich: pedagogik jarayonning samarali kechishini ta’minlash;

5-bosqich: talabalar faoliyatini nazorat qilish.

Ta’lim olish shakllari. Ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta’lim;

oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;

katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;

inklyuziv ta’lim;

eksternat tartibidagi ta’lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash [1].

*Ta`lim tamoyillari* o`qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to`g`ri hal qilishning asosiy qonuniyatlaridir. Qonuniyat bu barqarorlik, zaruriyat, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o`rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa.

Ta’lim metodlari tasnifi amaliyotdan mavjud (3.10-3.11-rasmlarga qarang):



3.10-rasm. Ta’lim metodlari tasnifi

Xulosa qilib aytganda, o‘qitish amaliyotida yuqorida qayd etilgan tushunchalarning mazmun-mohiyatiga asosan foydalanish, qo‘llash hamda loyihalashtirish amalga oshirilsa, o‘qitishni to‘g‘ri tashkil etish imkoniga ega bo‘lish kuzatiladi.

Ta’lim vositalari

Ta’lim vositalari quyidagicha tanlanadi:

ta’lim beruvchi uchun;

ta’lim oluvchi uchun;

dars o’tkazich uchun (3.12-jadvalga qarang):

3.12-jadval.

Ta’lim vositalarini tanlash

Ta’lim beruvchi uchun	Ta’lim oluvchi uchun	Dars o’tkazich uchun
o`quv-metodik qo`llanmalar metodik tavsiyalar metodik ishlanmalar o`quv dasturlari dars rejasi ma’ruza matni	darslik o`quv qo`llanma jadvallar tarqatma materiallar yo`l-yo`riq texnologik xaritalar tipik xatolar xaritasi topshiriq varaqalari	plakatlar modellar maketlar jihozlar audiovizual vositalar texnik vositalar real vositalar

Ta’lim vositalari quyidagi turlarga ajratiladi (3.13-jadvalga qarang):

3.13-jadval.

Ta’lim vositalari tasnifi

Ta’lim vositalari tasnifi	Ta’lim vositalarining vazifalari	Ta’lim vositalari turlari
Matnli vositalar	Ma’lumot olish va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun	o`quv dasturlari, maxsus adabiyotlar, o`quv-didaktik materiallar, imtihon va nazorat varaqalari, kseroko`chirma o`quv materiallari



3.11-rasm. Ta’lim metodlari tasnifi

Tasvirli vositalar	Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun	fotosurat, tasvirlar, eskiz, chizma, shakllar, ramziy-tasvirlar, jadval, geografik xaritalar, simvollar, diagramma, grafikalar, plakatlar
Audiyovizual vositalar	Jarayonlar va ishlash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqali haqiqiy tasavvutlarni vujudga keltirish uchun	videofilm, film, diya-tovushli mahsulotlar, taqdimot, kompakt disk, audiokasetalar, elektron darsliklar
Yordamchi vositalar	Tasvir va matnni yozish hamda saqlash uchun	doskalar, pinbord doskasi, videoproek-tor, kadoskop, kompyuter, flipchart, audiomagnitafon, videomagnitafon, televizor, multimedia, videofilm
Modelli vositalar	O'rganilayotgan obyektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish uchun	modellar, maketlar, tranajerlar, mulyajlar
Haqiqiy vositalar	O'rganilayotgan obyektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun	asbob-uskunalar, jihozlar, dastgohlar, mashinalar, traktorlar, stanoklar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, xom ashyolar

Nazorat va muhokama savollari:

1. Qanday o'qitish shakllarini bilasiz?
2. O'qitishning qanday turlari mavjud?
3. Ta'lim jarayoni shakllari nimalardan iborat?
4. Ta'limni tashkil etish shakllari (an'anaviy sinf dars tizimi)?
5. Ta'limning ma'ruza seminar tizimi?
6. Ta'limni tashkil etish shakllari (yakka tartibdagi dars tizimi)?
7. An'anaviy bo'lmagan (noan'anaviy ta'lim shakllari).
8. Ma'ruza turlari va uning o'ziga xosliklari.
9. Seminar turlari va uning o'ziga xosliklari.
10. Ta'lim vositalari tasnifi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. "Metod", "ta'lim metodi", "usul", "qoida" tushunchalarining mohiyatini o'zlashtirishga doir blis-so'rov savollariga javob berish.

1. Metod deganda nima tushuniladi?
2. Ta'lim metodi tushunchasini qanday izohlash mumkin?
3. "Ta'lim metodlari" va "ta'lim usullari" tushunchalari bir xil mazmunga egami?
4. Ta'lim usullari deganda nima tushuniladi?

5. Ta’lim metodlarini qo‘llashda qandaydir ko‘rsatmalarga rioya etish zarurmi?

6. Ta’lim metodlarini qo‘llashga doir ko‘rsatmalar nima deb ataladi?

2. “Ta’lim metodlari” mavzusida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini tartiblash: 1. Suhbat. 2. Tushuntirish. 3. Ma’ruza. 4. Mashq. 5. Illustrasiya. 6. Demonstratsiya. 7. Didaktik o‘yin. 8. Kitob bilan ishlash. 9. Videometod. 10. Hikoya. 11. Amaliy. 12. Laboratoriya. Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma:

1) chalkashtirilgan holda berilgan ta’lim metodlari bilan tanishing;

2) metodlarni jadvalda ko‘rsatilganidek, mos ustun raqamlar yordamida yozib chiqing.

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy

3. Ta’lim metodlarini qiyosiy tahlil etishga doir konseptual jadvalni to‘ldiring.

Метод	Afzalligi	Kamchiligi	Mening taklifim
Og‘zaki			
Ko‘rgazmali			
Amaliy			

4. Ta’lim metodlari tasnifiga doir to‘ldirilmagan jadvallarni to‘ldirish. Quyidagi to‘ldirilmagan jadvallar bilan tanishing va ularni tugallang:

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy

Ta’lim metodining nomlanishi	O‘qituvchi faoliyti	O‘quvchi faoliyti

Ta’lim shakllari	Ta’lim metodlari	Ta’lim vositalari

§ 3.3. ZAMONAVIY DARS TIPOLOGIYASI VA UNGA QO‘YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR

Reja:

1. Ta’limning asosiy shakli – dars va unga qo‘yiladigan didaktk talabalar.
2. Dars turlari va tiplari. Darsga tayyorgarlik.
3. Nostandart darslar.

Tayanch so‘z va iboralar: dars turlari, dars tiplari, darsga tayyorgarlik, dars ishlanmalari, uyga vazifalar, o‘qitish tamoyillari, o‘qitish qoidalari, an’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari, o‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari, asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari, ta’limning binar metodlari, yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari, ta’limning interfaol metodlari, ta’limnig og’zaki metodlari, ta’limning ko’rgazmali metodlari, ta’limning amaliy metodlari, ta’limning rag’batlantirish va tanbeh berish metodlari, ta’limning muammoli izlanish, mustaqil ishlar, reproduktiv evristik metodlari, ta’limning induktiv va deduktiv metodi, ta’limning nazorat va o’z-o’zini nazorat qilish metodlari, matnli vositalar, tasvirli vositalar, audiyovizual vositalar, yordamchi vositalar, modelli

vositalar, haqiqiy vositalar, dars turlari, dars tiplari, darsga tayyorgarlik, dars ishlanmalari, uyga vazifalar, yangi bilimlarni bayon qilish darsi, o‘tilgan materialni mustahkamlash darsi, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish darsi, takroriy-umumlashtiruvchi dars, aralash dars, darsning diagnostika (tashxislash) bosqichi, darsning prognozlash bosqichi, yakuniy bosqichi, kognitiv tasnifidagi darslar, ijodiy turdagi darslar, faoliyat turidagi darslar, kommunikativ tipdagi darslar, mazmuniy-mantiqqa ega tipdagi darslar, o'zgartirilgan tashkiliy usullardagi darslar, fantaziyaga asoslangan darslar, fantaziyaga asoslangan darslar, didaktik o'yin ishtirokidagi dars, tashkiliy qismning standart usullarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan darslar, o'quv materialining asl tashkiliy qismiga asoslangan darslar, uyushgan tadbirlarga o'xshash darslar, faoliyatning ma'lum shakllari va usullari bilan analogiya bo'yicha darslar.

Ta’limning asosiy shakli – dars va unga qo‘yiladigan didaktk talabalar

Dars – maktab ta’limining asosiy tashkiliy shakli. Dars – muayyan miqdordagi doimiy o‘quvchilar tarkibi bilan qat’iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan didaktik tadbirdir. Dars – insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o‘quvchilarga juda qisqa vaqtda o‘rgatishning eng samarali usuli. Ta’limning dars shakli Turkistonda uzoq zamonlardan buyon qo‘llanilib kelgan. Darsni tashkil etish va uning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Turkiston maktablarida ta’limning tashqi shakliy jihatlariga emas, balki mohiyatiga ham e’tibor berilgan. Chunonchi, o‘quvchilarning tayyorligini aniqlash, ularni guruhlarga ajratishda bolalarning yoshi va maktabda qancha vaqt o‘qiganligiga emas, balki o‘tilgan mashg‘ulotlarni nechog‘li o‘zlashtirganliklariga tayanilgan. Turkiston maktablarida ta’limning dars shakli bo‘lganligi bilan mashg‘ulotlarni sinfdars tizimi tarzida uyushtirish tajribasi bo‘lmagan. Shuningdek, darsning davomiyligi, predmetlarning o‘rinlashuvi, kundalik mashgulotlarning miqdori singari ta’limiy chegaralar har bir o‘qituvchining uzi tomonidan belgilangan. Dars qadimiy turkiy maorif tizimida oliy va o‘rta ta’lim bo‘g‘inlarini ifoda etgan Madrasa ta’limida ham asosiy ish shakli hisoblangan. Madrasalarda dars belgilangan muayyan tartib asosida uyushtirilgan. Ayni vaqtda,

Madrasa darslarida talabalarning mustaqil o‘zlash-tirishlariga katta e’tibor qaratilgan. Qadimiy ta’lim muassasalari uchun darsning jamoa va individual shakllari xos bo‘lgan [10].

Dars ta’limning jamoa bo‘lib amalga oshirilish tarzi sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dars maktab yoshidagi bolalarni yalpi o‘qitishni osonlashtiradi, ularni jamoa sifatida tarbiyalashga hissa qo‘shadi, bolalarda ijtimoiy faollik va muomala madaniyatining shakllanishiga ko‘maklashadi. Darsda o‘quv mashg‘ulotlarining individual, guruhiy va umumsinf shakllari uyg‘unlashadi [10].

Har qanday jamiyatda dars jamiyat tomonidan ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Darsning vazifalari ta’lim jarayonining qonuniyatlari va muayyan jamiyatning komil shaxs borasidagi tushunchalari bilan qat’iylashadi [10].

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur talablariga ko‘ra zamonaviy dars o‘quv muassasasining mulkiy mansubligidan qat’i nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim: ta’limning tarbiyaviy maqsadlarga bo‘ysundirilganligi, o‘quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilganligi, ilmiyligi va izchilligi, tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlashga qaratilganligi, insonparvarlik yo‘nalishiga egaligi, tizimliligi, bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga qaratilganligi, amaliy axamiyatga egaligi va h.k [10].

Zamonaviy ta’lim tajribasida bir dars uchun belgilangan standart vaqt mavjud. Bu vaqt ta’lim muassasalarining tabiati, ta’limning bosqichlari va o‘quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib, 45, 40, 35 va 30 mininutni tashkil etadi [10].

Ta’lim tizimida dars va uy vazifasi munosabatlari o‘ta muhim sanaladi. Zamonaviy ta’lim tizimining turli bosqichlarida o‘quvchilarga uy vazifasi berilishi yoki berilmasligi, uning miqdori singari jiqatlar o‘quv muassasalarining nizomlarida aks ettiriladi [10].

Pedagogika fani va amaliyoti uchun darsning tarkibi masalasi ham muammoli. Uzoq vaqt davomida har bir dars yangi mavzuning bayoni, uni o‘quvchi xotirasida mustahkamlash, bilimlarni amaliyotda qo‘llash kabi qismlardan iborat bo‘lishi shart deb hisoblab kelingan. O‘quv jarayoni mantiqan bunday qat’iy tarkibni talab etmaydi. Dars va maktab tajribasi bu tizimni ma’qullamadi. O‘quv jarayonida darsni tashkil

etishning oldindan belgilab qo‘yilmagan va hamma uchun majburiy bo‘lmagan har xil yo‘llarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash hamisha mavzuni mustahkamlashning manbai bo‘lib kelgan va bu masalani dars tarkibida alohida ko‘rsatishning hojati ham yo‘q. Bir necha darsni yangi mavzuning bayoniga bag‘ishlash, ayrimlarini laboratoriya topshiriqlarini bajarishga ajratish ham mumkin. Muhimi, o‘tilayotgan mavzu o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilib, ularda ko‘nikma paydo bo‘lishi va bu ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llab malakaga aylantira bilishlaridir [10].

Dars tarkibi masalasi darsni tasniflash, ya’ni tipologiya bilan bog‘liq. Pedagogik adabiyotlarda darsni mazmunga, didaktik maqsadga, o‘tish yo‘llariga, ta’lim jarayonining xususiyatlari va uning qismlariga ko‘ra tasnif qilingan. Odatda, dars kirish, yangi bilim berish, mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, nazorat qilish va aralash kabi turlarga bo‘linadi. Ta’lim tajribasida bir dars jarayonida bir yoki bir necha dars turlari umumlashtirilgan holda ish olib boriladigan aralash dars ko‘p uchraydi. Dars o‘quv jarayonining yolg‘iz shakli emas. Turli sinflarda fakultativ mashg‘ulotlar, seminar, o‘quv konferensiyalari, bahslar, muammoli darslar, amaliy ishlar, ustaxonada ishlash kabi darslar mavjud [10].

Darsga quyidagicha umumiy talablar qo`yiladi:

ilm-fanning eng yangi yutuqlaridan foydalanish, ilg'or pedagogik amaliyot, o'quv jarayoni asosida dars ishlab chiqish;

darsda hamma didaktik tamoyillar va qoidalarni amalga oshirish;

talabalar faoliyati, ularning qiziqishlari, tendentsiyalari va ehtiyojlari asosida ta’lim oluvchilarning kognitiv faoliyatini ta’minlash;

talabalar tomonidan fanlararo aloqalarni anglash;

ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni talabalarning erishilgan rivojlanish darajasi bilan bog'lash;

shaxsning barcha sohalarini rivojlantirish uchun motivatsiyalash va faollashtirish;

o`quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlari mantiqiyligi;

pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

hayot, ishlab chiqarish faoliyati, talabalar shaxsiy tajribalari bilan bog'lash;

amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda tafakkur va faoliyatning oqilona usullaridan foydalanish

o'rganish qobiliyatini shakllantirish, bilimlar hajmini doimiy ravishda to'ldirish ehtiyoji;

har bir darsni to'liq diagnostika qilish, prognozlash, loyihalash va rejalashtirish [52].

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo‘yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to‘g‘riligi.

2. Darsning ta’limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.

3. O‘qitishning yaxlit dars va uning ma’lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan ta’lim oluvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash.

4. Mashg‘ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo‘shib olib borish.

5. Ta’lim beruvchining rahbarlik vazifasi bilan ta’lim oluvchining faol bilish faoliyatini birga olib borish.

6. Darslarning o‘zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo‘lishiga erishish.

7. Ta’lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

8. Darsda ta’lim oluvchilarni o‘qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.

9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.

10. Darsda ta’lim oluvchilar erkinligini ta’minlash (3.14-jadvalga qarang):

3.14-jadval.

Darsga qo`yiladigan didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvci talablar

Didaktik talablar	Tarbiyaviy talablar	Rivojlantiruvchi talablar
• har bir darsning tarbiyaviy maqsadlarini aniq belgilash; • darsning axborot mazmunini mazmunan foydali qilish, ijtimoiy va shaxsiy	• o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini, darsdagi faoliyatni aniqlash, real tarzda erishiladigan ta'lim	• ta'lim va kognitiv faoliyat, qiziqishlar, ijodiy tashabbus va faoliyatni ijobiy niyatlar, ularning rivojlanishi;

ehtiyojlarni hisobga olgan holda mohiyatini optimallashtirish; • kognitiv faoliyatning eng yangi texnologiyalarini joriy etish; har xil turlar, shakllar va usullarning oqilona kombinatsiyasini yo'lga qo'yish; • dars tuzilmasini shakllantirishga ijodiy yondashish; • jamoaviy faoliyatning turli shakllarini talabalarning mustaqil faoliyati bilan uyg'unlashtirish; • tezkor qayta aloqa, samarali nazorat va boshqaruvni ta'minlash; ilmiy hisoblash va dars olib borish mahorati	maqsadlarini qo'yish va shakllantirish; • faqat dars jarayonining maqsadi va mazmunidan uzviy kelib chiqadigan tarbiyaviy vazifalarni belgilash; • o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarga o'rgatish, hayotiy fazilatlar: qat'iyatlilik, tartiblilik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, mustaqillik, tezkorlik, ehtiyotkorlik, halollik, kollektivizm va boshqalarni shakllantirish; o'quvchilarga e'tiborli va xushyor munosabatda bo'lish, pedagogik qoida talablariga rioya qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik qilish va ularning muvaffaqiyatiga qiziqish	• talabalarning rivojlanish va psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda hisobga olish, "eng yaqin rivojlanish zonasini" loyihalash va hisobga olish; • rivojlanishda yangi sifatli o'zgarishlarni joriy qilishga olib keluvchi "yetakchi" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish; talabalarda aqliy, hissiy, ijtimoiy rivojlantirish o'sishlarni faraz qilish va shakllanayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlarini qayta qurish

Demak, ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirishda mashg'ulotning asosiy qismini ishg'ol qilgan ta'lim shakli u yoki bu ko'rinishdagi dars turini tashkil etar ekan [65; 124-b.].

Tasvirlarni o'rganish jarayonida agar obyekt, odamlar va hayvonlarning kattaligi e'tiboringizni tortsa, bolalar bilan nimaga o'lchovga ikki marta qaraganingiz haqida o'ylang. Rassomning maqsadini qabul qilishi haqida gaplashing. Rassom uning tasvirigi qanday javob qaytarishlarini tassavvur qiling [17; 211-b.].

Dars turlari va tiplari. Darsga tayyorgarlik

Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil variantlari paydo bo'ladi [65; 124-b.]. Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi;
4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.

5. Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg‘ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars turining qismlari bo‘lishi mumkin. Misol uchun ta’lim muassasalarida eng qo‘llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin: yangi bilimlarni bayon qilish; yangi bilimlarni mustahkamlash; yangi bilimlar ustida mashq o‘tkazish; yangi bilimlarga bog‘liq holda uyga vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta’lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo‘lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo‘ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars *yangi bilim berish darsi* deb ataladi. Muayyan dars turi bilan ish ko‘rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Darsning tarkibiy tuzilishi u yoki bu dars turining umumiy holati, uning qismlari mohiyatini anglatadi. Dars jarayonida qo‘llanilayotgan har qanday didaktik usul dars tuzilishini ifodalashga har doim ham xizmat qilavermaydi.

Didaktik usullar ta’lim metodi bilan baholanganda dars tuzilishining o‘zgarishiga, ta’lim metodlarining o‘zgarishi ham dars tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o‘zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi. Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o‘tishi va shu orqali darsning shakl va metodlarining o‘zgarishi *dars bosqichi* deb yuritiladi. Bu borada xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, turi darsning shakl va metodlari hamda ular negizidagi dars tuzilishlariga bevosita bog‘liqdir.

Dars mashg'ulotiga o'qituvchini tayyorlash uch bosqichda amalga oshiriladi: diagnostika (tashxislash*)*, prognozlash, loyihalash (rejalashtirish). Bunda o'qituvchi asl materialni yaxshi bilgan holda o'z o'quv dasturiga oson moslasha oladi, deb taxmin qilinadi. U o'zining mavzusiga doir papkalarini yoki ish kitoblarini yuritib boradi va to'ldiradi, o'zi ta'lim beradigan fanga doir muammoli savollar, topshiriqlar, test materiallari va hokazolarni kiritib boradi. Darsga yetarli darajada tayyor bo'lish uchun

o'qituvchida faktik topshiriqlar bilan muammo bo'lmasligi, o'quv materialini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi muhim.

Quyida dars turining tuzilishi haqidagi ko‘rinishni keltiramiz [65; 125-b.] (3.15-jadvalga qarang):

3.15-jadval.

Dars turlarining tarkibiy-tashkiliy-tuzilishi

Dars turi	**Tashkiliy qism**	**Uy vazifalarini so‘ rash va tekshirish**	**Yangi materialni bayon qilish, tushuntirish, hikoya qilish, ma’ ruza va suhbat**	**Yangi materialni mustahkamlash, suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash**	**Uy vazifasini topshirish (tushuntirish, suhbat)**	**Darsni yakunlash**
Aralash dars	+	+	+	+	+	+
Yangi mavzu bayoni darsi	+		+	+	+	+
Mustahkamlash darsi	+		+		+	+
Sinov darsi	+		+			+

Umumlashtiruvchi dars – bu o‘quv dasturining ma’lum bir qismi (bob, bo‘lim yoki ayrim mavzu) o‘tib bo‘lganidan keyin o‘tiladigan dars mashg‘uloti. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida ba’zi o‘quv materiallarining ma’lum qismi yoki yirik mavzuni boshlashdan avval kirish dars ham olib boriladi. Bunday darslar, odatda, ijtimoiy fanlar bo‘yicha o‘tkaziladi [65; 125-b.].

Darsning diagnostika (tashxislash) bosqichida darsning barcha holatlarini "aniqlashtirish" orqali amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilarning imkoniyatlari, ularni faoliyatga undovchi motivlar va hatti-harakatlari, so'rovlari va moyilliklari, qiziqishlari va qobiliyatlari, talab qilinayotgan o'qitilganlik darajasi, o'quv materialining harakteri, uning o'ziga xos taraflari va amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, shuningdek, o'quv jarayonida barcha xarajatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish, yangi axborot, konsolidatsiya va tizimlashtirish, bilim hamda ko'nikmalarni boshqarish va tuzatish. Ushbu bosqich mashg'ulotlarning samaradorligini ko’rsatib beruvchi omillar aniq ko'rsatilgan dars taxliliy xaritasini tuzish bilan yakunlanadi. Omillar optimal sharoitlarda bo'lganida eng yaxshi natijaga erishiladi.

Darsning prognozlash bosqichida darsni olib borish va ular orasidan eng optimalini tanlash uchun turli xil variantlarni baholashga qaratilgan. Zamonaviy prognozlash quyidagi usulda dars samaradorligini aniqlash imkonini beradi: Darsning maqsadi bo'lgan bilim (ko'nikma) hajmi 100% deb shakllanihi qabul qilinadi. Teskari (to’sqinlik qiluvchi) omillarning ta'siri tabiiy ravishda bu ideal ko'rsatkichni pasaytiradi. Yo'qotish darajasi (u maxsus metodika yordamida aniqlanadi) ideal natijadan kelib chiqqan holda hisoblanadi va o'qituvchi tomonidan tuzilgan sxema bo'yicha dars samaradorligining haqiqiy ko'rsatkichini aniqlaydi.

Agar ko'rsatkich o'qituvchini qoniqtirsa, u darsga tayyorgarlikning *yakuniy bosqichiga – loyihalash(rejalashtirish)ga* o'tadi va agar bo'lmasa, o'qituvchi ta'sirini o'zgartirishi mumkin bo'lgan omillardan foydalangan holda yanada rivojlangan tashkiliy sxemani izlashga majbur bo'ladi. Loyihalash (rejalashtirish) – dars tayyorlashning yakuniy bosqichi bo'lib, u talabalar ilmiy faoliyatini boshqarish bo'yicha dasturni yaratish bilan yakunlanadi.

Ta’lim amaliyotida ijodiy va nostandart darslarning turlaridan foydalanib kelmoqda. Evristik ta’lim tarafdori Andrey Xutorskaya ijodiy darsni o‘quvchilarning ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratadigan va bu jarayonni faollashtiradigan dars deb ataydi. “Zamonaviy didaktika” qo‘llanmasida Xutorskaya ijodiy darslarning besh tasnifi va ularning turlarini ajratib ko‘rsatadi [51] (3.16-jadvalga qarang):

3.16-jadval.

Ijodiy darslarning turlari

№	Ijodiy darslarning turlari	Ijodiy darslar
1.	Kognitiv tasnifidagi darslar	kuzatish darsi, tajriba darsi, obyektni o‘rganish darsi, qidiruv darsi, laboratoriya-amaliy dars, muammolarni shakllantirish va ularni hal qilish darsi, tushunchalarni (qoidalar, frazalar) shakllantirish darsi, nazariyalarni loyihalash darsi, asosiy manbalar bilan ishlash darsi (madaniy va tarixiy analoglar), integral dars, fanlararo dars
2.	Ijodiy turdagi darslar	muammolarni tuzish va hal qilish darsi, dialog darsi, paradoks darsi, fantaziya darsi, ixtiro darsi, texnik (ilmiy, amaliy, badiiy, ijtimoiy, madaniy, pedagogik) ijodkorlik darsi, modellashtirish darsi, evristik vaziyat darsi, kashfiyotlar darsi, kompozitsiya (vazifalar-ertaklar, hisoblash xonalari, yilnomalar va shunga o'xshash narsalar), biznes o'yini, rolga kirishish o'yinlari, sayohat darsi (haqiqiy, virtual), teskari dars (o'qituvchi talaba rolida bo'ladi), kelajak maktabidagi dars, tahliliy dars, ijodiy ishlarni himoya qilish darsi, olimpiada darsi, ijodiy umumlashtirish darsi

3.	Faoliyat turidagi darslar	maqsadlarni belgilash darsi, qoidalarni yaratish darsi, individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish darsi, individual o'quv dasturlarini himoya qilish darsi, guruh bilan darslar, loyiha darsi (loyiha usulidan foydalangan holda), maslahat darsi (o'zaro maslahat), o'z-o'zini baholash darsi (o'zaro baholash), dars-reflekslar
4.	Kommunikativ tipdagi darslar	binar dars (ikkita o'qituvchi dars beradi), retsenziya harakteridagi dars, o'zaro nazorat darsi, ochilish darsi, ko'rgazma darsi, kim oshdi savdosi darsi, konferensiya darsi, musobaqa darsi, KVN darsi, "hodisa ustidan sud jarayoni" darsi, spektakl darsi, "davra suhbati" darsi, dars-panorama, ijodiy hisobot
5.	Mazmuniy-mantiqqa ega tipdagi darslar	o'z-o'zini bilish darsi, o'z yo'nalishini o'zi belgilash darsi, o'zini anglash darsi, meta-fan darsi, ijodkorlik ramzi darsi, tarixni "o'zgartirish" darsi (tarixiy vaziyatlarga yyechimi) taklif qilish, konseptsiya darsi (dunyoni tasvirlash yoki uning bir qismini qurish), falsafiy umumlashtirish darsi

Zero ushbu talab amaliyotda o'z isbotini topgan bo'lib, hech kim bo'lajak darsni tashkil etishning barcha tafsilotlarini tushunmasdan turib o'z kasbining ustasi bo'la olmaydi. Muhim tuzilmalar yetarli darajada o'rganilganidan keyingina mumkin qisqartirilgan yozuvlarga o'tish mumkin, reja hajmini asta-sekin pasaytirib, uni ma'lum bir harakat dasturiga aylantirsa bo'ladi. O'qituvchining rejasida quyidagi fikrlar aks ettirilishi kerak:

dars o'tkaziladigan sana va uning tematik rejaga muvofiq raqami;

u o'tkaziladigan dars va sinfning nomi;

maktab o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalari va maqsadlari;

dars tuzilishi, uning bosqichlari ketma-ketligi va ushbu bosqichlar bo'yicha vaqtning taxminiy taqsimlanishi;

o'quv materialining mazmuni;

darsning har bir qismida o'qituvchining ishlash usullari va yo'llari;

darsni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv instrumentlari;

uy ishi.

Nostandart darslar

Nostandart darslar – bu an'anaviy o‘qitish usullaridan farq qilgan, o‘quvchilarning faolligini oshirish, ijodkorlikni rivojlantirish va o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan darslar. Ular o‘quvchilarga faqat darslikdagi materiallarni yodlashdan tashqari, yangi bilimlarni yaratish, tahlil qilish, muammolarni hal qilish va jamoa bilan ishlash kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga

yordam beradi. Nostandart darslar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin (3.12-rasmga qarang):



3.12-rasm. Nostandart darslarning xususiyatlari

1. Interaktivlik. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faol muloqot va hamkorlik, talabalarga savollar berish, muhokama qilish, tajribalar o‘tkazish yoki loyihalar yaratish imkoniyatlari.

2. Ijodiy yondashuv. Darslar o‘quvchilarga yangi fikrlar yaratish, o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatlarini beradi. Masalan, o‘quvchilar o‘z mavzulari bo‘yicha taqdimotlar yoki g‘oyalar ishlab chiqishlari mumkin.

3. Loyihalar asosida o‘qitish. O‘quvchilar jamoada ishlash orqali real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun loyiha ishlari o‘tkazishadi. Bu ularga mas'uliyatni his qilish va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

4. Multimedia va texnologiyalardan foydalanish. Onlayn platformalar, video, simulyatsiyalar, o‘yinlar yoki virtual laboratoriyalar orqali o‘qishning yangi shakllari. Bu metodlar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va mavzuni yanada tushunarli qilishga yordam beradi.

5. Mavzularni integratsiyalash. Bir nechta fanlarni birlashtirish orqali kompleks muammolarni hal qilish. Masalan, matematika, fizika va biologiyani birlashtirgan holda o‘rganish.

6. Darslarning ochiqligi va moslashuvchanligi. O‘quvchilarni o‘z tezligi bilan o‘qishga, o‘z qiziqishlariga qarab turli mavzularni tanlashga imkon beruvchi metodlar.

Nostandart darslar o‘quvchilarga faqat nazariy bilimlar olish emas, balki o‘rganishni yanada qiziqarli, interaktiv va amaliy qilishga yordam beradi. Bu o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb qiladi.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning bir necha o'nlab turlarini ajratib olishga imkon berdi. Ularning nomlari maqsad, vazifalar, bunday darslarni o'tkazish usullari haqida bir oz ma'lumot beradi. Nostandart darslarning eng keng tarqalgan turlarini sanab o'tamiz [70] (3.17-jadvalga qarang):

3.17-jadval.

Nostandart darslarning eng keng tarqalgan turlari

№	Nostandart darslar	Nostandart darslar turlari	
1.	O'zgartirilgan tashkiliy usullardagi darslar	Dars-“paradoks” ma'ruzasi. Ma'ruza-sharh. Bilimlarni himoya qilish. G'oyalarni himoya qilish. Ikki kishilik dars. Dars-uchrashuv. O'zaro nazorat darsi. Ijodiy dastur darsi	
2.	Fantaziyaga asoslangan darslar	Dars-ko'rsatma. Ertak darsi. Ijodkorlik darsi. Dars-ijodiy hisobot. Dars-insho. Dars-ko'rgazmani tekshirish. Dars-vernisaj. Teatr darsi (spektakl, ertak, studiya, syurpriz). Dars-psixodrama. Simulyatsiya darsi. Madaniyatlar o'rtasidagi muloqot darsi	
Turli faoliyat yoki ish turlarini taqlid qiladigan darslar			
		Dars turi	**Dars shakli**
3.	Ekskursiya-dars	o'quv materialining mazmuniga ko'ra (tematik, kompleks); o'tkaziladigan joyda; mavzularni o'rganishda ushbu ekskursiyaning asosiy didaktik maqsadi va o'rniga ko'ra. O'rganilayotgan mavzuning vaqtiga ko'ra: kirish, dastlabki, joriy, qo'shimcha, yakuniy yoki yakuniy; murakkab	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha tarixiy ekskursiyalar, kino, televizion ekskursiyalar. Ekskursiya shaklida mavzu, bo'lim, kurs bo'yicha umumiy takrorlash darslari. Dars-sirtqi ekskursiya. Dars-keng qamrovli ekskursiya. Dars-ekspeditsiyalar. Dars-turizm loyihalarini himoya qilish. Dars – “jonli” gazetani nashr qilish. O'tmishga (kelajakka) sayohat. Mamlakat bo'ylab sayohat
Bellashuv-o’yin uslubidagi darslar			
4.	Dars-o'yin texnologiyalari. Didaktik o'yin ishtirokidagi dars	Ta’limga oid, nazorat qiluvchi va umumlashtiruvchi didaktik o'yinlar. Dars-rolli o'yin turlari: taqlid (ma'lum bir professional harakatni taqlid qilishga qaratilgan), situatsion (kichik aniq muammoni hal qilish bilan bog'liq o'yin holati), shartli (masalan, ta'lim yoki ishlab chiqarish mojarolarini hal qilish)	Rollarni taqsimlash asosida munozaralar. Matbuot anjumanlari. Dars-"loyihani o'ylab toping" o'yini. Dars-tekshirish krossvord. "Lotto" shaklidagi dars. Lotto darslarini umumlashtirish. Domino Darsi. Bellashuv darsi. Dars-o'yin (munozara). Dars-turnir. Dars-blits turniri. “Biluvchilar tergovni olib boradilar” kabi dars “biluvchilar klubi” o'yini. Dars-biznes o'yini

		ishlab chiqarish, tashkiliy-faoliyat, muammoli, tarbiyaviy va kompleks. KVN darsi. Umumlashtirish o'yini. “"Nima? Qayerda? Qachon?”. Dars “Nima? Qayerda? Qanaqasiga?”. Estafeta darsi. Dars-sayohat (turlari: o'quv, nazorat va umumlashtiruvchi didaktik o'yinlar). Talabalar loyihalarini ixtiro qilish yoki himoya qilish bo'yicha dars. “Bir soatlik xotiralar yoki o'tmish bilan uchrashuv” darsi. Dars-“Dengiz jangi” o'yini. Dars-jang. Dars-“Kim yaxshi biladi va eslaydi” o'yini. Dars-“Toqqa chiqish” o'yini. “Baliq ovlash” darsi. Dars-“Tic-Tac-Toe” o'yini. Umumiy dars viktorina. Dars musobaqasi. Dars-tanlov. “Qadimgi davrga sho'ng'ish” darsi. Trening o'yinlari. “Baxtli soat”. Umumlashtiruvchi dars-himoya. “Mo’jizalar maydoni”
5.	Tashkiliy qismning standart usullarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan darslar	Seminar darsi. O'yin ko'rinishidagi seminar-dars. Yakuniy intervyu. Dars-kredit. Dars-guruh hisobi. Dars-suhbat. Maslahat darsi (yetakchilik: tematik va maqsadli, xatolar ustida ishlash darslari, test natijalari va yoki test natijalarini tahlil qilish darslari va boshqalar). Dars-seminar. Modellashtirish darsi
6.	O'quv materialining asl tashkiliy qismiga asoslangan darslar	O'zaro o'rganish darsi. Talabalar tomonidan o'qitiladigan darslar. “Evrika” darsi. Dars-mulohaza. Takrorlash darsi. Dars-yechim. Dars xulosasi. Monologik dars. Xotira darsi. Ochiq fikrlash darsi. “O'z-o'zini anglash chizig'i” darsi. “Mening shoirim” darsi. Insho janrini tushunish darsi. Panorama darsi. Ochiq xat darsi. Dars-og'zaki jurnal. Falsafiy dars. Hayot darsi. Dars tartibi. Dars-dialog. Rad etish darsi. Portret darsi (turlari: “montaj darsi”, “taqdimot darsi”)
7.	Uyushgan tadbirlarga o'xshash darslar	Auksion darsi. Dars-yarmarka. Dars-konferensiya. Dars matbuot anjumani. Dars-dissertatsiya himoyasi. Yubiley darsi. Dars-hukm. Tematik dars. Dars-“nashr”. Konferensiya-munozara. Kasbga yo'naltirish maqsadida dars konferensiyasi. Dars-“foydali ishlash”. Dars-tibbiy maslahat. Dars-konsert
8.	Faoliyatning ma'lum shakllari va usullari bilan analogiya bo'yicha darslar	Dars-tadqiqot. Dars-intervyu. Munozara darsi. Dars-munozara (boshlovchi: dialoglar, guruh, ommaviy munozaralar). Dars-tuzilgan munozara. Dars-muammoli loyiha muhokamasi dars-ekspertiza. Dars-imtihon. Dars tartibga solingan munozara. O'yin simulyatsiyasi elementlari asosidagi muhokama. Dars-jamoaviy muhokama (bahs). Dars-juftlik muhokamasi. Munozara-“davra suhbati”. Dars-kinostudiya. Dars-“aqliy hujum”
9.	Kompyuter darslari	Taqdimot darslar (prezentatsiyalar)

Nazorat va muhokama savollari:

1. Ta’limning qanday shakllari mavjud?
2. Pedagogik tizimlarning qanday turlari mavjud?
3. Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim nima?
4. Muammoli o‘qitish nima?
5. Dasturiy ta’lim nima?
6. Kompyuterli ta’lim nima?
7. Dars qanday turlari va tiplari mavjud?
8. Ta’lim tamoyillari nima?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “Sevimli o‘qituvchimning darsi qiziqiqarli bo‘lishining sababi shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozish. Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o‘z nuqtai nazaringizni baën ɔting.

2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.

3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

2. Dars va unga qo‘yiladigan talablarning o‘zlashtirilishiga doir ijodiy testni yechish.

1. Kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying. ... bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

2. Gapni davom ettiring. Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi quyidagi o‘ziga xos belgilarga ega: ...

3. Gapni tugallang. Darsga qo‘yiladigan didaktik (yoki ta’limiy) talablarga har bir darsning ta’lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko‘rinishlaridan mos ravishda foydalanish ...

4. Kerakli so‘zni topib qo‘ying. O‘quv materialining tarbiyaviy imkoniяtlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo‘yish, faqat o‘quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar(tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish kabilarning darsga qo‘yiladigan ... talablarni o‘zida aks ettiradi.

5. Gapni davom ettiring. Darsga qo‘yiladigan rivojlantiruvchi talablarga o‘quvchilarda o‘quv-o‘rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o‘quvchilarning idrok etish imkoniyatlari

darajasini o‘rganish, hisobga olish, “rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o‘zib ketish” darajasidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish ...

3. Quyida keltirilgan dars turlarining tuzilishi bilan tanishing va yo‘l qo‘yilgan chalkashlikni aniqlang.

1) aralash dars:

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash;

v) o‘quvchilarni baholash;

g) yangi mavzuni baën qilish;

d) uy vazifasi.

2) yangi bilimlarni bayon qilish darsi:

a) yangi mavzuni bayon qilish;

b) o‘rganilganlarini mustahkamlash;

v) o‘quvchilarni baholash;

g) uy vazifasi.

3) o‘rganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘quvchilarni baholash;

v) uy vazifasi.

4) o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilganlarini takrorlash;

v) o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash;

g) uy vazifasi.

4. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash asosida aralash darsni ko‘rsatib berish: 1-guruh uchun topshiriq: darsning tashkiliy qismi va o‘tilgan mavzuni takrorlashni ko‘rsatib berish; 2-guruh uchun topshiriq: yangi o‘quv materialini baën qilish tartibini tushuntirib berish; 3-guruh uchun topshiriq: o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash, o‘quvchilarni baholash va uy vazifasi berishni ko‘rsatib berish.

4-MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA AMALIY FAOLIYAT SOHASI

§ 4.1. IJTIMOIY PEDAGOGIKA AMALIY FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA (O`ZBEKISTONDA IJTIMOIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI. IJTIMOIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR)

Reja:

1. Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari.
2. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.
3. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.
4. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda qo`llaniladigan metodlar.
5. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar.

Tayanch so`z va iboralar: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy pedagogik faoliyat va ijtimoiy ta’lim, tarbiya va ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv, ijtimoiy pedagogik jarayon, ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi sifatida, ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar, tadqiqot obyekti, ijtimoiy buyurtma, ilmiy maqsad, ijtimoiy tadqiqot usullari, ilmiy kuzatishlar, ilmiy tadqiqot tiplari, ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalari, ijtimoiy tadqiqot usullari, ilmiy kuzatishlar, ilmiy tadqiqot tiplari, ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalari, xayriya, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy diagnostika metodlari, intervyu, monitoring, ijtimoiy so‘rov, ekspertiza, biografik metod, ijtimoiy profilaktika metodlari, preventiv metod, ijtimoiy davolash, sotsiodrama, qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy nazorat metodlari, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy vasiylik, ijtimoiy-tibbiy g‘amxo‘rlik, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy reabilitatsiya metodlari, mehnat terapiyasi, guruh terapiyasi, maqom o‘zgarishi, inqiroz kelishi, ijtimoiy iqtisodiy metodlar, imtiyoz metodlari.

Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantirishi belgilangan.

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 47-moddasida ta’lim oluvchilarning huquqlari yoritilgan [1]. Ta’lim oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

bepul asosda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olish;

yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga qabul qilinish;

ta’lim olish shakllarini erkin tanlash;

davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq sifatli ta’lim olish;

ta’lim olish uchun o‘zining ruhiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;

davlat ta’lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, professional ta’lim va oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o‘zi oladigan ta’limning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish;

pedagog xodimlar va ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog‘lig‘iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo‘ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalanish;

ta’lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta’tillar olish;

akademik ta’tillar va stipendiyalar olish, o‘qishni tiklash va o‘qishini boshqa ta’lim tashkilotlariga, bir ta’lim shaklidan, kasbdan, ta’lim yo‘nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko‘chirish;

ta’lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

ta’lim olish jarayonida ta’lim tashkilotining o‘quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy obyektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;

ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish [1].

Ta’lim oluvchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilarni ta’lim olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 48-moddasida ta’lim oluvchilarning majburiyatlari yoritilgan [1]. Ta’lim oluvchilar:

o‘quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi, mashg‘ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko‘rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi;

ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo‘ravonlik ishlatmasligi va ularning o‘z majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilmasligi;

ustav (ta’sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta’lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi;

axloqiy, ma’naviy va jismoniy kamol topishga hamda o‘z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;

ta’lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart [1].

Ta’lim oluvchilarning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 49-moddasida ta’lim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qo‘yiladigan talablar yoritilgan [1]. Ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Maktabdan tashqari ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash turlari bo‘yicha nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi nodavlat ta’lim tashkilotlari ta’lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablarni mustaqil belgilashga haqli. Ta’lim

oluvchilarning ayrim toifalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan kiyim-bosh bilan ta’minlanadi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 50-moddasida ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilarni vaqtincha yashash joylari bilan ta’minlash yoritilgan. Kunduzgi ta’lim shaklidagi ta’lim tashkilotida ta’lim oluvchilarga, shuningdek sirtqi ta’lim shaklida yakuniy va oraliq attestatsiya davrida vaqtincha yashash joylari, ular mavjud bo‘lgan taqdirda beriladi. Vaqtincha yashash joylari ta’lim oluvchilarga ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan tartibga muvofiq beriladi. Vaqtincha yashash joylariga muhtojlar mavjud bo‘lgan hollarda, ushbu joylardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Vaqtincha yashash joylaridan foydalanish uchun ta’lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq haq to‘lanadi. Vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun to‘lov miqdori ta’lim tashkiloti tomonidan belgilanadi. Davlat ta’lim muassasalari ayrim turdagi ta’lim oluvchilar uchun vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun to‘lov qiymatini kamaytirishga yoki ularni to‘lovdan to‘liq ozod qilishga haqli. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek o‘qitish davrida yetim bo‘lib qolgan bolalar, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun haq to‘lashdan ozod qilinadi [1].

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 51-moddasida voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari yoritilgan [1]. Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o‘qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas’uldir. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ta’lim tashkilotlari voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarni tarbiyalashda, ularning jismoniy hamda ruhiy sog‘lig‘ini muhofaza qilish va mustahkamlashda, shuningdek individual qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ota-onasiga hamda boshqa qonuniy vakillariga ko‘maklashadi. Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarga, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga oilada ta’lim olish imkoniyatini berish;

oilada ta’lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda uning o‘qishini ta’limning har qanday bosqichida ta’lim tashkilotida davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ta’lim tashkilotlariga xayriya yordami ko‘rsatish bo‘yicha takliflar kiritish;

ta’lim tashkilotining ustavi va (yoki) boshqa ta’sis hujjati, litsenziyasi, davlat akkreditatsiyasi to‘g‘risidagi sertifikati, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari bilan tanishish;

ta’limning mazmuni, qo‘llanilayotgan ta’lim va tarbiya usullari, ta’lim texnologiyalari bilan, shuningdek o‘z bolalarining o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi natijalari bilan tanishish;

ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

ta’lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish [1].

Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari:

o‘z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

bolalarining umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim yoki boshlang‘ich professional ta’lim olishini ta’minlashi;

bolalarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishini ta’minlash va o‘zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

o‘z bolalarining intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o‘z bolalarining ta’lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 52-moddasida ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish berilgan. Ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilar qonunchilikka muvofiq imtiyozlar, stipendiyalar va vaqtincha yashash joylari bilan ta’minlanadi.To‘lov-shartnoma asosida ta’lim oluvchilarga imtiyozli bank kreditlari berilishi mumkin. Nodavlat ta’lim tashkilotlari ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilishni qonunchilikka, o‘z ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjatiga muvofiq amalga oshiradi. Davlat ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash maqsadida kam ta’minlangan oilalardagi bolalar, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun, shuningdek mazkur toifadagi ta’lim oluvchilarning kasbiy o‘sishi uchun shart-sharoitlar yaratadi [1].

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 53-moddasida ta’lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish berilgan. Ta’lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi. Ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi belgilanadi, haq to‘lanadigan har yilgi uzaytirilgan ta’til va boshqa imtiyozlar va kafolatlar taqdim etiladi. Ta’lim tashkilotlarining pedagog va boshqa xodimlariga sanitariya-gigiyenaga oid, epidemiyaga qarshi hamda profilaktika choralari bilan amalga oshiriladigan sog‘liqni saqlash kafolatlanadi. Ta’lim tashkilotlari mehnatga haq to‘lash uchun mavjud bo‘lgan mablag‘lar doirasida mustaqil ravishda ish haqiga,

lavozim maoshlariga tabaqalashtirilgan ustamalar belgilashga va mehnatga haq to‘lash hamda uni rag‘batlantirishning turli shakllarini qo‘llashga haqli [1].

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 54-moddasida yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni o‘qitish va ularning to‘liq ta’minoti yoritilgan. Yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni o‘qitish va ularning to‘liq ta’minoti O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi [1].

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 55-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish hamda tarbiyalash yoritilgan. Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim olishini ta’minlaydi [1].

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etiladi. Ta’lim oluvchilarni ushbu ta’lim muassasalariga yuborish va ulardan chetlatish ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi. Davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar davlat ta’minotida bo‘ladi [1].

O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonunning 56-moddasida ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalash berilgan. Alohida sharoitlarda o‘qitish va tarbiyalanishga muhtoj bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ularning ta’lim olishini, kasbiy tayyorgarligini va ijtimoiy reabilitatsiya qilinishini ta’minlaydigan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi. Ozodlikdan mahrum qilish tarzida jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan bolalarning (shaxslarning) ta’lim olishi, tarbiyalanishi va mustaqil ta’lim olishi uchun sharoitlar yaratiladi [1].

Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi

Ijtimoiy pedagogika – bu jamiyat va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishi, ular bilan ishlash metodlari va prinsiplari bilan shug‘ullanadigan pedagogika sohasidir. Ijtimoiy pedagogika, odatda, jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal qilish, ijtimoiy ta'lim va tarbiya, shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu soha o‘zining rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, bu tarix quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Dastlabki bosqich (XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida). Ijtimoiy pedagogikaning boshlang‘ich rivojlanishi 19-asrning oxirida va 20-asrning boshlarida, ayniqsa sanoat inqilobi va shaharlarning tez o‘sishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu davrda ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yuzaga keldi, masalan, bolalar mehnati, ijtimoiy tengsizlik, ta'limning cheklanganligi va boshqalar. Shuning uchun, ta'lim tizimida bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishini, ularning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlanmalar paydo bo‘ldi.

J.Dewey (Amerikalik pedagog) va L.Vygotskiy ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlar sifatida tanilgan. Dewey, o‘zining "demokratik ta'lim" konsepsiyasi orqali, ta'limni faqat bilim berish emas, balki ijtimoiy o‘rganish va jamiyatga integratsiyalash sifatida ko‘rdi. Vigotskiy esa bolalar o‘rganish jarayonida jamiyat va madaniyat bilan doimiy aloqada bo‘lishi kerakligini ta'kidlagan.

2. Ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi (XX asrning o‘rtalari). 20-asrning o‘rtalariga kelib, ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanib, jamiyatda ijtimoiy ta'lim va tarbiya vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan. Shu davrda ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishni bir-biridan ajratish boshlanadi, chunki ijtimoiy ish asosan ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy izolyatsiya qilishni kamaytirish, psixologik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq edi.

I.M.Sechenov va A.N.Leontyev kabi olimlar ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar va amaliyotga tadbiq etdilar. Bu davrda ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

ta'lim tizimida ijtimoiy muammolarni hal qilish;

ijtimoiy moslashuvni qo‘llab-quvvatlash;

ta'limni jamiyatning ehtiyojlariga moslashtirish.

3. Ijtimoiy pedagogikaning bugungi rivojlanishi (XXI asr). XXI asrga kelib, ijtimoiy pedagogika yanada kengayib, o‘zining yangi metod va yondashuvlarini ishlab chiqdi. Ijtimoiy pedagogikaning bugungi kun uchun ahamiyatli jihatlaridan biri – bu o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab ta'limni tashkil qilish, hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga (masalan, ijtimoiy izolyatsiya, oila muammolari, jinoyatchilik, psixologik va emotsional qo‘llab-quvvatlash) yyechimlar ishlab chiqishdir.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogika, ayniqsa, bolalar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy nohaqlik, tenglikni ta'minlash, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarga katta e'tibor qaratadi. Pedagogik jarayonda ijtimoiy tarmoqlardan, onlayn resurslardan va virtual ta'lim platformalaridan foydalanish ham muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi jamiyatning o‘zgarishi va ijtimoiy talablar bilan bog‘liq bo‘lib, ta'limni nafaqat ilmiy bilimlar berish, balki ijtimoiy muhitga moslashtirish, shaxsni ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga qaratishga e'tibor qaratgan. Ushbu fan bugungi kunda ijtimoiy muammolarni hal qilishda, ijtimoiy moslashuvni ta'minlashda va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy pedagogik faoliyatda qo`llaniladigan metodlar

O‘z kasbining xususiyatlarini o‘rganib chiqqan ijtimoiy pedagog oldida bu bilimlarni bolalar ijtimoiylashuvida, ularni deviant xulq-atvorini oldini olishda ularga yordam berish jarayonida amaliy tatbiq etish muammosi ko‘riladi. Bu muammoni hal qilish uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalarini bilish zarur. Avvalambor, bu tushunchalarning ta’rifini aniqlab olish lozim. Olimlarning fikricha, ijtimoiy pedagogik amaliyotidagi metodlar-bola ijtimoiylashuvi yoki reabilitatsiyasiga yordam beruvchi ijobiy ijtimoiy tajriba to‘planishini ta’minlovchi ijtimoiy pedagogik va bolaning o‘zaro bog‘liq faoliyati bo‘lganligi uchun ijtimoiy pedagogika metodlari haqida gapirish hali erta. Ular hozir shakllanish bosqichidalar. Shuning uchun ijtimoiy

pedagog o‘z amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishda qo‘llanayotgan metodlardan foydalanadi.

Metoddan tashqari ijtimoiy pedagogikada “usul” va “vositalar” tushunchalari qo‘llaniladi. Usul metodning ifodasi sifatida tushunilib, metodga nisbatan xususiy, bo‘ysunuvchan xarakterga ega. Aslida har bir metod amaliyot tomonidan to‘plangan, nazariya tomonidan umumlashtirilgan usullar majmuasi orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagogning u yoki bu usulni qo‘llashi aniq ijtimoiy pedagogik vaziyatga, bola xulq-atvoriga, zaxiradagi usullarga bog‘liq vosita usul va metoddan ko‘ra kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki usul va metod faqatgina muayyan holatlarda vosita vazifasini bajarishlari mumkin.

Vositalar – ijtimoiy pedagog tomonidan oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishi uchun qo‘llanadigan moddiy, emotsional, aqliy va boshqa shartlar majmuasidir. Vositalar o‘z mohiyatiga ko‘ra, faoliyat usullari hisoblanishmaydi, faqatgina biror-bir pedagogik maqsad (masalan, o‘yin, suhbat, disput, konferensiya, trening va boshqalar)ga etishishi uchun qo‘llanilganida faoliyat usuliga aylanishadi.

Biroq ijtimoiy pedagogika xususiyatlarini qamrab oluvchi metodlar tasnifi quyidagi ko‘rinishga ega (4.1-jadvalga qarang):

4.1-jadval.

Ijtimoiy pedagog tomonidan qo‘llaniladigan asosiy metodlar tasnifi

Ijtimoiy ish metodlari	Psixologik metodlar	Pedagogik metodlari
Ijtimoiy diagnostika metodlari: intervyu; monitoring; ijtimoiy so‘rov; ekspertiza; biografik metod **Ijtimoiy profilaktika metodlari:** preventiv metod; ijtimoiy davolash; sotsiodrama; qo‘llab-quvvatlash **Ijtimoiy nazorat metodlari:** ijtimoiy nazorat; ijtimoiy vasiylik; ijtimoiy-tibbiy g‘amxo‘rlik; ijtimoiy xizmat ko‘rsatish **Ijtimoiy reabilitatsiya metodlari:** mehnat terapiyasi;	**Psixotashxis:** intelekt va qobiliyatlar testlari; shaxsiy so‘rovnomalar; loyihaviy testlar; rasmli testlar; sotsiometriya **Psixokorrektsion metodlar:** o‘yin terapiyasi; tajriba ijtimoiypsixologik trening; xulq-atvor treningi **Psixologik maslahat berish metodlari:** empatik tinglash; sharhlash; identifikatsiya; fasilitatsiya;	**Tashkiliy metodlar:** pedagogik eksperiment **Pedagogik tashhis metodlari:** pedagogik kuzatuv; tabiiy eksperiment **Ta’lim metodlari:** og‘zaki (hikoya, suhbat, bahs, ma’ruza); ko‘rgazmali (namoyish, darslik bilan ishlash); amaliy (mashqlar, laboratoriya ishlari, didaktik o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar); tarbiya metodlari; namuna; ishontirish; o‘qitish;

guruh terapiyasi; maqom o‘zgarishi; inqiroz kelishi **Ijtimoiy iqtisodiy metodlar:** imtiyoz metodlari; kompensatsiya metod-lari; ijtimoiy patronaj; tibbiy patronaj; ijtimoiy-iqtisodiy choralar **Tashkiliy metodlar:** reglamentlashtirish; normalashtirish; tanqid; ijro nazorati	gipotezalarni ilgari surish **Psixoterapiya metodlari** suggestil; o‘z-o‘zini ishontirish; ratsionallashuv; psixotahlil; tranzakt tahlil; guruh terapiyasi; xulq-atvor terapiyasi; oilaviy psixoterapiya	jazolash; maqtash; mashq; istiqbol; o‘yin; ishonch; muvaffaqiyat; o‘z-o‘zini tarbiyalash
Ijtimoiy pedagogik metodlar		
Ijtimoiy tarbiya bo‘lagi sifatidagi metodlar: Harakatga ko‘niktirish metodlari Mustahkamlash Hamkorlik	**Ta’sir metodlari:** Ongga ta’sir Hissiyotlarga ta’sir xulq-atvorga ta’sir qiluvchi metodlar	**Ijtimoiy pedagogik hamkorlikni tashkil qilish metodlari:** Faoliyatni tashkil qilish Muomala metodi Baholash metodi O‘z-o‘zini amalga oshirish metodi

Ba’zi olimlar ijtimoiy pedagogika metodlarini umumiy pedagogika metodlariga mos qilib tasniflashadi: ishontirish; talab qilish; hikoya; suhbat va bahs; jazolash va maqtash. Shunday qilib, ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi ijtimoiy pedagogik faoliyat shakllari, metodlari, vositalari va nazorati mazmunining majmuasi hisoblanadi. Turli metodlarning maqsadga muvofiq birikishi ijtimoiy pedagogik texnologiyaning mohiyatini tashkil qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar

Ilmiy-ijtimoiy tadqiqotlarning mohiyati bo‘lajak izlanishlarning ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi. Dastur hayot haqiqatidan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlangan bo‘lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo‘lishi ana shu omillarga bevosita bog‘liqdir. Dastur bo‘lajak tadqiqot materiallarini to‘plash, qayta ishlash va ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot obyekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarni xarakterlab berish, ish farazi (ilmiy tahmin)ni belgilash, usullarini aniqlash, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil etish sxemasini chizib

olish kabi qismlarni oʻzida mujassamlashtiradi. Shunday qilib, dastur, asosan ikki katta boʻlim, ya’ni metodologik-nazariy va amaliy-uslubiy boʻlimlardan iboratdir.

Nazariy-metodologik boʻlim mavzu tanlash, tadqiqotni xarakterlash, maqsad va vazifalar, faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni oʻz ichiga olsa, *amaliy-uslubiy* boʻlim ma’lumotlarni toʻplash usullarini bayon etish, yigʻilgan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va tavsiyalar tayyorlash singari amaliy faoliyatlarni mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar nazariy asoslarini ishlab chiqish va faktlarni yigʻish bir paytda amalga oshirilmaydi, ammo ular mushtarak birlikda umumiy vazifalarga boʻysungan xolda amalga oshiriladi. Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhimdir. Birinchidan, ishlab chiqilgan nazariy umumlashmalardan real tadqiqot jarayonlariga oʻta bilish va ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yigʻilgan empirik materiallardan nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish koʻnikmalariga ega boʻlish ana shu talablar mazmunidir. Bu ikki talabga rioya qilish bir jihatdan ijtimoiy tadqiqotlar oʻtkazishni tizimli yoʻlga qoʻyish, jamiyat ijtimoiy muammolarini tadqiq etish ishlarini uzluksiz amalga oshira borishni ta’minlasa, ikkinchi jihatdan, ilm-fan turli sohalarining uzviy rivojlana borishi uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Dastur mazmunida jamiyatda turli ta’sirlar oqibatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy muammoli vaziyatlari aniq-yorqin ifoda etilmogʻi lozim. Ilmiy muammoning qoʻyilishi muayyan soha amal qilayotgan bilimlar hamda amaliy andozalar doirasidan qoniqmaslik, bu bilimlar chegarasini kengaytirish demakdir. Zero, muayyan tadqiqot boshlangunga qadar ma’lum boʻlgan bilimlar doirasida hamisha ham ijtimoiy muammoli vaziyat hal etilavermaydi.

Odatda ijtimoiy muammo amaliy vositalar bilan hal etilmagan holatda ilmga, tadqiqot oʻtkazishga murojaat qilinadi. Bu murojaat ilmda ijtimoiy buyurtma deb ataladi. Shu tariqa ijtimoiy tadqiqotlar ikki yoʻnalishda: ijtimoiy buyurtma va shaxsan ijtimoiy pedagogning tashabbusi asosida amalga oshirilishi mumkin. Ammo pedagogning shaxsiy tashabbusi ham real hayot muammolari asosiga qurilishi shart.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy maqsad muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo‘nalishlarda bo‘lishini ko‘rsatuvchi mo‘ljal vazifasini o‘taydi. Maqsadni amalga oshirish jarayonida bir qator ijtimoiy ziddiyatli holatlarga duch kelish mumkin. Zero, hamma narsani oldindan aniq belgilash mumkin emas. Shu bilan barcha tadqiqotchi kutilgan natijalardan tashqari yana qo‘shimcha natijalar paydo bulishini ham nazardan qochirmasligi kerak. Antik dunyo mutaffakkiri Dekart, «Agar siz qandaydir o‘ylanmagan, kutilmagan, hayolingizga keltirmagan narsani topishni o‘ylamaydigan bo‘lsangiz, siz bu narsani hech qachon topa olmaysiz» degan edi.

Sotsiologik tadqiqotlar ilmiy atamalari va tushunchalari qatorida *obyekt va predmet* tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Tadqiqotchi ijtimoiy muammo vaziyatini samarali hal etishi uchun obyekt va predmetni to‘g‘ri belgilashi muhim ahamiyatga ega. Obyekt odatda mustaqil tushuncha sifatda tadqiqotchi ilmiy-amaliy faoliyatlarining umumiy sarhadlarini ifodalaydi. Predmet esa tadqiqotchi tomonidan muayyan shaklga solinadi va maxsus tadqiqot ko‘lami sifatida o‘rganiladi. Obyekt predmetdan ma’no doirasi jihatidan ancha keng, predmet obyektning hosilasidir. Zero, birgina obyekt zamirida bir necha alohida tadqiqot predmetlarini ajratib olib o‘rganish mumkin. Ba’zan tadqiqotchi dastlab maxsus o‘rganiladigan masala, ayni predmetni aniqlab oladi va shundan so‘ng shu masala tevaragidagi muhit, masalaga qon-qarindosh jihatlar doirasini, ya’ni obyektni belgilaydi. Obyekt va predmet masalasida ilm ahli davrasida turli munozaraviy yondashuvlar mavjud. Ayrim mualliflar obyekt deganda odamlar yoki turli ijtimoiy tabaqa vakillari deb tushunishadi. Biz bunday yondashuvga umuman qo‘shila olmaymiz. Negaki, inson keng ma’noda tadqiqot obyekti bo‘lishi juda qiyin. Ayniqsa, ijtimoiy sohada (sotsiologiya, pedagogika va psixologiya va b.) insonning jismi, fiziologik tuzilishi emas balki uning ruhiy-ma’naviy dunyosi, faoliyati yoki faoliyatining muayyan jihatlari o‘rganiladi [85].

Shu boisdan ham ijtimoiy fanlarda obyekt deganda o‘quvchi ko‘z ungida mavhum tarzda odamlar emas, balki ularning hatti-harakatlari, faoliyati, turmush tarzi, hulq-atvori gavdalanmog‘i lozim.

Ilmiy tadqiqotning tiplari. F.Bekon fanda o‘z-o‘zicha foyda keltirmaydigan, lekin “sabablar va aksiomalar”ni bilishga ko‘maklashadigan tajribalar hamda foydali kashfiyotlar va ixtirolarga eltadigan tajribalar borligini ta’kidlagan edi. Yangi davrdan boshlab, fan o‘zining birinchi toifadagi tajribalari ikkinchi toifadagi tajribalarga yo‘l ochishga qarab ko‘proq mo‘ljal oladi. Hozirgi zamon fanining amaliyotga qarab mo‘ljal olishi mazkur fanga xos bo‘lgan xususiyat va shu bilan bir vaqtda jamiyat fanga qo‘yuvchi muhim talablardan biridir.

O‘z navbatida, amaliyot ham fanga tobora tayanmoqda. Fanning amaliyot sari harakatining turli bosqichlariga ilmiy tadqiqotlarning bir-biri bilan bog‘langan, lekin shunga qaramay turli uch tipi muvofiq keladi: 1) fundamental tadqiqotlar; 2) amaliy tadqiqotlar; 3) tadqiqotchilik loyiha-konstruktorlik ishlanmalari (innovatsion loyihalar).

Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalari. Ijtimoiy pedagogikada va pedagogik sotsiologiyada ilmiy tadqiqotlar ma’lum maqsadga qaratilgan vazifalarni bajaradi. Biz quyida ushbu vazifalar ko‘rib chiqamiz.

Fundamental tadqiqotlar. Fundamental tadqiqotlar voqelik hodisalari va qonunlari haqida yangi bilim olishga qaratiladi. Ular biron-bir amaliy maqsadlarga erishishni bevosita ko‘zlamaydi. Bu yerda tadqiqotchini haqiqat o‘z-o‘zicha qiziqtirmaydi, u mazkur haqiqatning tagiga yetish qanday foyda keltirishi mumkinligini bilmasdan uni izlaydi. Fundamental tadqiqotlar ikki xil: erkin va aniq maqsadga qaratilgan bo‘ladi.

Erkin tadqiqot (izlanish) odatda individual xususiyat kasb etadi yoki ish maqsadini mustaqil belgilash va unga zarur bo‘lgan mablag‘larni o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘lgan olim tomonidan boshqariladi. Erkin izlanish rejimida ish olib borayotgan olim o‘z faoliyati metodlari va yo‘nalishlarini tanlashda erkin bo‘ladi. Uning aqlida kutilmagan g‘oyalarning paydo bo‘lishi, agar ular olimga qiziqarli bo‘lib tuyulsa yoki tabiat qonunlarini yanada teranroq tushunishni va’da qilsa yoinki tadqiqotning yangi sohalarini ochish imkoniyatini bersa, ilmiy izlanish yo‘nalishini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Aniq maqsadga qaratilgan fundamental tadqiqotda ilmiy izlanish yo‘nalishi aniq belgilangan bo‘ladi va tadqiqotchilardan qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lidan og‘maslik talab etladi. Odatda, bunday tadqiqot muayyan tashkilot tarkibida, jamoa bo‘lib amalga oshiriladi. Unda jamoa ishiga ma’muriy rahbarlik qilish tizimi ulkan rol o‘ynaydi. Ixtisoslashtirilgan ilmiy guruhlar, laboratoriyalar, bo‘limlar tashkil etiladi, ularning faoliyati muvofiqlashtiriladi. Agar tadqiqot yo‘li lozim darajada aniq bo‘lsa, uni rejalashtirish, har bir bosqichda olinishi kerak bo‘lgan natijalarni hamda buning uchun zarur texnika va moddiy vositalarni nazarda tutish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Amaliy tadqiqotlar. Amaliy tadqiqotlarning xususiyati shu bilan belgilanadiki, ular amaliy vazifalarni yechish uchun kerakli bo‘lgan bilimni olishga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri mo‘ljal oladi. Bunda gap ayrim turdagi amaliy vazifalarni yechish haqida boradi. Ilmiy xodim boshqa imkoniyatlarni o‘rganish uchun, hatto ular qiziqarli natijalarni va’da qilayotgan bo‘lsa ham, mazkur tadqiqot chizig‘idan chetga chiqishi mumkin emas. Ish rejalari va grafiklarini hamda ularni bajarish to‘g‘risida hisobotlarni vaqti-vaqti bilan taqdim etish odatda amaliy tadqiqotlarni moliyalashtirish sharti hisoblanadi.

Tadqiqotchilik loyiha-konstruktorlik ishlanmalari. Amaliy tadqiqotlardan farqli o‘laroq ular konkret texnik vazifani bajarish maqsadini ko‘zlaydi. Bu, masalan, biron-bir apparat èki inshoot loyihasini yaratish, ishlab chiqarishning texnologik sxemalarini tayyorlash bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchilik ishlanmalari odatda biron-bir prinsipial yangi ilmiy bilimlarni olish yo‘lidagi izlanishlar bilan bog‘liq bo‘lmaydi, lekin konkret loyiha-konstruktorlik vazifalarini yechish uchun fundamental va amaliy fan natijalaridan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazishni talab etadi. Bu yerda gap kashfiyotchilik haqida emas, balki ixtirochilik haqida boradi. Fundamental va amaliy tadqiqotlarda olim amalda mavjud bo‘lgan, lekin noma’lum narsa yoki hodisani tavsiflash va tushuntirishga harakat qilsa, loyiha-konstruktorlik ishlanmalari ustida ishlovchi ilgari mavjud bo‘lmagan narsani o‘ylab topish va yaratish haqida g‘am chekadi. Birinchi holda narsani tabiat yoki inson qanday qilib yaratganligini bilish va tushunish kerak bo‘lsa, ikkinchi holda narsani qanday yaratish mumkinligini bilish va tushunish talab etiladi. Bu holat tadqiqotchilik loyiha-konstruktorlik ishlanmalarining

fan tizimidagi alohida oʻrnini belgilaydi. Ular, bir tomondan, ilmiy faoliyatning alohida turi sifatida qaralishi mumkin, boshqa tomondan esa – texnik va texnologik vazifalarni «tayyor» ilmiy bilimlar asosida yechishdan iborat boʻlgan muhandislik faoliyati sifatida amal qiladi.

Masalan, aerodinamika sohasidagi fundamental tadqiqotlar gaz muhitida gazlar va jismlar harakatining qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Olimlar aerodinamik jarayonlarning mohiyatini tushunishga harakat qilib modellar va nazariy sxemalarni tuzadilar, umumiy teoremalarni taʼriflaydilar. Aerodinamika sohasida amaliy tadqiqotlar muayyan amaliy vazifalarni yechish nazariyasini yaratish maqsadida olib boriladi. Mazkur tadqiqotlarda qanot nazariyasi, vint nazariyasi, samolyot dinamikasi, aerodinamik vibratsiyalar nazariyasi va hokazolar rivojlantiriladi. Nihoyat, tadqiqotchilik ishlanmalari konkret uchish apparatlarining loyihalarini yaratishda qoʻyiladigan texnik vazifalarni yechishga qaratilgan tadqiqotlarni oʻtkazish bilan bogʻliqdir. Bunda aerodinamikaning oʻzidangina emas, balki fanning boshqa sohalaridan ham maʼlumotlarni keng jalb qilishga toʻgʻri keladi (masalan, kimyodan – berilgan xossalarga ega boʻlgan alohida sunʼiy materiallarni ishlatish zaruriyati tugʻilganda).

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi. Fundamental, amaliy tadqiqotlar va tadqiqotchilik ishlanmalari oʻrtasida aniq chegara mavjud emas, ular koʻpincha bir-biri bilan bogʻlanadi. Tadqiqotchilik ishlanmalari turli xil loyiha-konstruktorlik ishlari sohasiga fanni bevosita kiritadi. Bu soha fan sohasi bilan qisman kesishadi va qisman uning chegarasidan chetga chiqib, tajriba namunalarini yaratish va sinovdan oʻtkazish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va undan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish va oʻzlashtirish bilan bogʻliq amaliy ishlarni ham oʻz ichiga oladi. Oʻz navbatida, mazkur ishlar yakunlovchi bosqichlarda ishlab chiqarish sohasi bilan tutashadi. Bunda ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish zaruriyati loyiha-konstruktorlik ishlari jarayonida ham, ishlab chiqarish jarayonida ham (ayniqsa ishlab chiqarilayotgan mahsulotni va uni tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish munosabati bilan) yuzaga kelishi mumkin. Ilmiy bilim daraxtida yangi va yangi novdalar kurtak otadi. Yangi fanlar qanday paydo boʻladi? Avvalambor, shuni esga olish lozimki, hozirgi fanlarning aksariyati falsafadan

ajralib chiqqan (masalan, fizika, kimyo, tibbiyot, psixologiya, mantiq va h.k.) Yangi fanlarning shakllanishi biron-bir murakkab obyekt haqidagi yagona umumiy fan qismlarga ajralishi va ular ayni shu obyektning turli tomonlari yoki elementlari haqidagi ozmi-koʻpmi mustaqil alohida fanlarga aylanishi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Masalan, biologiyada jonli organizmlarni turli tomonlardan oʻrganish bilan anatomiya (organizm tuzilishi), fiziologiya (uning faoliyat koʻrsatishi), embriologiya (homila holati), sitologiya (hujayralar tuzilishi) shugʻullanadi. Yangi fanlar biron-bir turdagi obyektlarga doir bilimlarning yigʻilishi va yaxlit bir butunga birlashtirilishi natijasida paydo boʻlishi mumkin. Bu holda «kollektor dasturi» («faqat u haqda» prinsipiga muvofiq) yangi fanni shakllantirish mexanizmiga aylanadi. Masalan, bunday dastur mamlakatshunoslikka xos («faqat Gresiya haqida»). Ornitologiya (faqat qushlar haqidagi fan), ixtiologiya (baliqlar haqidagi fan), entomologiya (hasharotlar haqidagi fan) kabi biologik fanlar ham ayni shu prinsipga muvofiq tashkil etilgan. Ilgari odamlarga maʼlum boʻlmagan (èki maʼlum boʻlsa ham ilmiy oʻrganilmagan) yangi obyektlarni bilish natijalari ham yangi fanga aylanishi mumkin. Masalan, XVIII asrda moziydan oldin yashagan hayvonlarning qoldiqlarini oʻrganish natijasida paleontologiyaga asos solingan. XX asrda ilgari odamlarga maʼlum boʻlmagan mikrodunyo fizik tadqiqotlarning yangi sohasiga aylanadi va bu atom fizikasi, kvant mexanikasi, yadro kimyosi va boshqa fanlar yaratilishiga olib keladi. Kompyuterlarning yaratilishi natijasida yangi turdagi mazkur texnikani ishlab chiqish va undan foydalanish bilan bogʻliq bir qancha ilmiy fanlar paydo boʻladi.

Bilimlarning biron-bir sohasi alohida fanga aylanishiga baʼzan jamiyatda muayyan vazifani yechishga tugʻilgan ehtiyoj – «ijtimoiy buyurtma» ham sabab boʻladi. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida konfliktshunoslik mustaqil fan maqomini kasb etadi. 1970-yillarda eʼlon qilingan bir qator ilmiy ishlarning mualliflari oʻz tadqiqotlari sohasini dam olish va turizmni tashkillashtirishning geografik jihatlari haqidagi fan – «rekreatsion geografiya» deb nomlaydilar.

Yangi fan vujudga kelishi uchun asos boʻlib turli obyektlarni oʻrganishda qoʻllaniladigan biron-bir metod èki metodlar guruhi xizmat qilishi ham mumkin (masalan, spektral tahlil metodi). Metodlar bir fandan boshqa fanlarga oʻtkazilishi

ba’zan ular tutashgan joyda yangi fanlar paydo bo‘lishiga olib keladi (masalan, astrofizika, fizik kimyo, biofizika, geobotanika, iqtisodiy geografiya, gen injeneriyasi va sh.k.).

Nihoyat, yangi fanlar turli, ba’zan hatto bir-biri bilan uncha bog‘lanmagan fanlarni materiali sintez qilinishi va yangicha nuqtai nazardan umumlashtirilishi natijasida paydo bo‘ladi. Bu yo‘lda nisbatan mustaqil ilmiy fanlarni birlashtiruvchi kompleks fanlar tashkil topishi ham mumkin (masalan, ba’zan «kompleks fanlar» deb nomlanadigan kibernetika, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik, ekologiya va boshqa fanlar).

Fanlar paydo bo‘lishining ko‘rsatilgan yo‘llari turli sabablarga ko‘ra birikishi ham mumkin. Masalan, muhim ijtimoiy vazifa yuzaga kelgan va uni yechish uchun turli fanlarning ma’lumotlaridan foydalanish talab etilganida. Bu holda yangi fanning shakllanish manbaiga aylanishga qodir bo‘lgan fanlararo tadqiqotlar o‘tkazishga to‘g‘ri keladi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari.
2. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanish tarixi.
3. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda qo`llaniladigan metodlar.
4. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar.
5. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalarini aytib bering.
6. Ijtimoiy pedagogik faoliyat nima?
7. Ijtimoiy pedagogik mexanizmlarga nimalar kiradi?
8. Ijtimoiy pedagogika fanining tamoyillari yoritib bering.

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Ijtimoiy pedagog tomonidan qo‘llaniladigan asosiy metodlarni **“**Insert jadvali” metodi asosida tahlil qiling:

Mulohazalar	**V**	**+**	**-**	**?**
Ijtimoiy diagnostika metodlari				
Ijtimoiy profilaktika metodlari				
Ijtimoiy nazorat metodlari				
Ijtimoiy reabilitatsiya metodlari				
Ijtimoiy iqtisodiy metodlar				
Tashkiliy metodlar				

2. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalarini “Toifalash jadvali” metodi asosida tahlil qiling.

Fundamental tadqiqotlar	**Erkin tadqiqot (izlanish)**	**Amaliy tadqiqotlar**

3. Ijtimoiy pedagogik g‘oyalar va nazariyalarning shakllanishida muammo va yechimlar mavzusini FSMU metodi asosida tahlil qiling:

Fikr	**Sabab**	**Misol**	Umumiy xulosa

4. “Pedagogika”, “Sotsiologiya”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya”da ilmiy tadqiqot, ijtimoiy modellashtirish, ijtimoiy bashorat berish, sotsial-tibbiy, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy pedagogik profilaktika, ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash, Ijtimoiy rivojlanishi vaziyatini ijtimoiy pedagogik to‘g‘irlash ….. so’zlari ishtirokida “ESSE” yozing.

5. «Ikki qismli kundalik» metodi darsning yangi “Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari” mavzusi o‘rganilayotgan qismida yangi terminlar, tushunchalarni mustahkamlashda foydalaniladi. Bu metod bilan ishlash, asosan, yozma shakli amalga oshiriladi. Bunda talaba o‘zining konspekt daftarini ikki qismga ajratadi. Yangi o‘rganilgan tushuncha, ta’rif yoki izohlar daftarning birinchi tomoniga yoziladi. Ikkinchi tomoniga esa har bir talaba berilgan ta’rifdan kelib chiqib, o‘z ta’rifini bir nechta variantda yozishi kerak. Masalan:

Berilgan ta’rif	**Ta’lim oluvchining ta’rifi**
1. Ijtimoiy pedagogika – bu jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi, insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, guruhlarga birlashish sabablarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi	Ijtimoiy pedagogika – bu…

2. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi	Shaxs – bu …
3. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi	Muhit – bu …

§ 4.2. SHAXSNI RIVOJLANISHI, IJTIMOIYLASHUVI VA TARBIYALASH MASALALARI (IJTIMOIYLASHUV OMILLARI VA VOSITALARI. BOLANING SOTSIUMDA RIVOJLANISHI)

Reja:

1. Makroomillarning ijtimoiylashuviga ta’sirining asosiy manbalari.
2. Mezoomillarning ijtimoiylashuviga ta’sirining asosiy manbalari.
3. Ijtimoiylashuvning mikroomillarida shaxs tarbiyasi.
4. Ijtimoiylashuvning megaomillarida shaxs tarbiyasi.

Tayanch so`z va iboralar: ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv jarayoni, omillar, vositalar, mikro omil, mezo omil, makro omil, mega omil, bola, bolaning ilk ijtimoiylashuv davri, bolaning ilk ijtimoiylashuv faoliyati, muloqot, anglash, sotsium, ijtimoiy maqom, ijtimoiy moslashuv, etnos, jamiyat, davlat, bolalar, o'smirlar, yoshlar, kattalar, qariyalar, huquqiy va qonuniy me'yorlar, madaniy va ijtimoiy muhit, jtimoiy xizmatlar, tashkilotlar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, kosmos, yer shari, planeta.

Makroomillarning ijtimoiylashuviga ta’sirining asosiy manbalari

Makroomillar – inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar – ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqalar. Makroomillarning sosializatsiyaga ta’sir etuvchi asosiy manbalari mamlakat, millat, jamiyat hamda davlatdan iborat.

Mamlakat geografik-madaniy hodisa bo'lib, o'zining o'ziga xos tabiiy sharoitlari, madaniy an'analari, iqtisodiy va siyosiy tizimi bilan ajralib turadi. Mamlakatning chegaralari ma'lum bo'lib, ular xalqaro huquq asosida tan olinadi. Shu bilan birga, mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy farqlar ham mavjud bo'lib, ular ko'pincha tarixiy, etnik, diniy va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi suverenitet masalasi ham muhim. Suverenitet mamlakatning o'z ichki va tashqi

ishlarida mustaqil qarorlar qabul qilish huquqini anglatadi. Ba'zan, mamlakatlar o'rtasida hududiy bo'linish yoki hukmronlik masalalari paydo bo'lishi mumkin, bunda bir hudud biror davlat tomonidan boshqariladi yoki mustamlakaga aylanadi, bu esa tarixda ko'plab misollarni keltiradi, masalan, Germaniya va Vetnamning bo'linishi yoki Xitoy va Koreyaning tarixiy va siyosiy aloqalari. Tabiiy-iqlim sharoitlari turli mamlakatlarda farq qiladi va ular aholi va uning faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Geografik va iqlim sharoitlari mamlakat aholisi avloddan-avlodga mavjud qiyinchiliklarni yengish yoki mehnatni osonlashtirishga majbur qiladi, shuningdek, mamlakatning xo'jalik rivojlanishiga ta'sir qiladi (Ya. Shchepanskiy).

Mishel Montenning nazarida, odamlar yashaydigan joylarining iqlimiga qarab, ko'proq yoki kamroq jangovar, ko'proq yoki kamroq mo'tadildir, itoatkorlikka yoki itoatsizlikka moyil, fanlar yoki san'atlarga qiziqishadi. Bu fikr asosli, garchi iqlimning odamning xulq-atvoriga ta'sirini ortiqcha baholamaslik kerak. Mamlakatning geografik sharoitlari va iqlimi tug'ilish darajasi va aholi zichligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ikki orol - Kuba va Islandiya deyarli bir xil maydonga ega. Ammo geografik joylashuvi va iqlimi ko'p jihatdan sabab bo'ldi, shuning uchun Kubaning aholisi Islandiyaga nisbatan yigirma baravar ko'p. Buning ustiga, Islandiya aholisining yashash darajasi Kubaga nisbatan ancha yuqori. Geoiqlim sharoitlar mamlakat aholisi salomatligiga, bir qator kasalliklarning tarqalishiga, nihoyat, uning aholisining etnik xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Etnos (yoki millat) – tarixiy rivojlangan, barqaror odamlar jamiyati bo'lib, ular umumiy mentalitet, milliy o'zlikni anglash va xarakterga, barqaror madaniyat xususiyatlariga ega bo'lib, shuningdek, o'z birliklarini va boshqa shunga o'xshash tuzumlardan farqlarini anglashadi («etnos» va «millat» tushunchalari bir xil emas, lekin biz ularni sinonim sifatida ishlatamiz). Odamlarning etnik mansubligi bilan bog'liq bo'lgan psixika va xulq-atvor xususiyatlari ikkita tarkibiy qismdan tashkil topadi: biologik va ijtimoiy-madaniy. Biologik tarkibiy qism, alohida shaxslar va butun xalqlar psixologiyasida bir qator omillar ta'sirida shakllangan. Minglab yillar davomida barcha millatlar o'z etnik hududida rivojlangan (Bunday hududning mavjudligi etnosning shakllanishi uchun majburiy shartdir, lekin uni saqlash uchun majburiy emas

— hozirda ko'plab xalqlar tarqalgan holda yashamoqda). Asrlar davomida odamlar ma'lum bir iqlimga, landshaftga moslashgan, har bir tabiiy zona uchun maxsus xo'jalik faoliyatini yaratgan va o'z hayot ritmini shakllantirgan.

Etnik mansublikning biologik tarkibiy qismini tan olish, bir irqning boshqasidan ustunligi, bir millatning boshqa millatlardan ustunligi haqidagi da'volar bilan birga bo'lmasligi kerak (bu rasizm, shovinizm, fashizmni anglatadi), faqat etnik farqlarning chuqur asoslarini tasdiqlaydi, lekin ushbu farqlarning aniq zamonaviy insonning psixikasi va xulq-atvorida ustunlik qilishi haqidagi da'vo qilmaydi. Hozirgi hayotda insonning psixikasi va xulq-atvorida ijtimoiy-madaniy tarkibiy qism katta rol o'ynaydi. Zamonaviy modernizatsiyalashgan mamlakatlarda insonning milliy mansubiyati, bir tomondan, u o'zini ona tili deb hisoblaydigan til va bu tilning orqasida turadigan madaniyat bilan, ikkinchi tomondan, o'z oilasi ma'lum bir millatga mansub ekanligini anglab, yaqin atrofdagilar tomonidan unga shu millatga mansub deb qaralishi bilan katta darajada, ko'pincha asosan belgilanadi. Shu bilan birga, masalan, rus – bu o'zini rus tarix va madaniyati bilan, shuningdek, barcha ijtimoiy hayot shakllari nihoyat ushbu madaniyatga va mazkur millat uchun umumiy bo'lgan tarix va qadriyatlar tizimiga yo'naltirilgan mamlakat bilan identifikatsiya qiluvchi shaxsdir. Demak, etnos, millat – bu tarixiy-ijtimoiy-madaniy hodisa. Etnosning insonning ijtimoiylashuvi uchun uning hayot yo'li davomida tutgan roli, bir tomondan, inkor etilishi mumkin emas, boshqa tomondan esa uni abslutlashtirish ham lozim emas.

Jamiyat – asosan siyosatshunoslik va sotsiologiya tushunchasi. U mamlakatdagi odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar yig'indisini tasvirlaydi, uning tuzilmasini esa oila, ijtimoiy, yosh, kasbiy va boshqa nomzodlar va haqiqiy guruhlar, shuningdek davlat tashkil etadi. Jamiyat o'zining jinsiy-yosh va ijtimoiy tuzilmalariga, iqtisodiyotiga, ideologiyasi va madaniyatiga ega bo'lgan va odamlarning hayot faoliyatini ijtimoiy tartibga solishning ma'lum usullariga ega bo'lgan butun bir organizmdir. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatni ijtimoiylashuv faktori sifatida alohida ko'rib chiqish zarur, chunki Rossiyada hatto eng so'nggi davrlarigacha jamiyat, haqiqatda ham, ideologik jihatdan ham davlat bilan tenglashtirilgan, va oddiy anglashda hozirgacha ham bu tenglashtirish davom etmoqda. So'nggi yillarda

Qo'shnichilik bu odamlarning bir joyda yashaydigan, bir binoda, ko'chada yoki hududda yashovchi odamlar guruhidir. Qo'shnilar va tengdoshlar bilan munosabatlarda bolalar yangi so'zlar, odatlar, stereotiplar va ba'zan oilada qabul qilinadiganlardan boshqacha bo'lgan norma va fikrlarni o'rganadilar. Ushbu muloqotda ular o'zlarining oilalarida o'rgangan hayotiy qadriyatlar va yashash uslublaridan farqli bo'lgan narsalarni o'rganadilar, shuningdek, jinsiy-rol xulq-atvorining me'yorlarini va uslubini o'zlashtiradilar. Ular, shuningdek, ma'lum bir madaniyat qatlamiga, shu jumladan bolalar submadaniyatiga kiradilar, qo'shnilar bilan yangi ma'lumotlar va xalq og'zaki adabiyoti almashadilar.

Qo'shnilar bilan muloqot qilish orqali bolalar yangi turdagi ijobiy va salbiy ijtimoiy sanktsiyalarni o'rganadilar va ijtimoiy amaliyotda bu sanktsiyalar qaysi shaxsiy va xulq-atvor namoyishlari uchun qo'llanilishini bilib olishadi.

Bolani yoshi kattalashgan sari, uning ijtimoiylashuviga tengdoshlar va qo'shni atrof-muhitning roli oshadi. Masalan, besh yoshli bola onasining uni o'yinda

tengdoshlarining o'rnini bosishini taklif qilishiga: «Menga bolalar kerak, sen esa bola emassan» deb javob berishi mumkin.

Bolalar uchun qo'shnilar bilan muloqot nafaqat hayot faoliyati muhitidir, balki kuchli ijtimoiylashuv omilidir. Bu ularga tengdoshlar jamiyatiga tegishliligi, jamiyat tomonidan qabul qilinishini his qilish imkonini beradi (boshqa bir joyda, asosan, yashash joyida). Tengdoshlar qo'shnilari yo'q yoki ular bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar bo'lsa, bu bolalar ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki kechikkan salbiy ta'sirga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, intensiv qo'shnichilik aloqalari bolalik va o'spirinlik davrida ijtimoiylashuvda, ham ijobiy, ham salbiy sifatda muhim rol o'ynaydi. Bu obyektiv omil bo'lib, uning ta'siri ko'p jihatdan oilaning ta'siri bilan hamda boshqa hayotiy holatlar va faktorlar bilan bog'liq bo'ladi, ular o'sib borayotgan shaxsni ijtimoiylashtiradi. Bolalar uchun qo'shnichilik – bu oiladan tashqariga chiqish, yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, yangi ijtimoiy tajriba orttirish va jamiyatga moslashish bosqichi.

Kattalar uchun qo'shnichilik ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, yashash joyining turiga, ijtimoiy-madaniy maqomiga va odamning yoshiga bog'liq.

Bola-yoshlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va odatda kichik o‘spirinlar qo‘shnilar bilan juda faol muloqot qiladilar. Bu ularga oiladan tashqariga chiqish, yangi ijtimoiy rollarni o‘rganish, yangi ijtimoiy tajriba orttirish va jamiyatga moslashish imkonini beradi.

Qo‘shnilar bilan muloqotda bolalar yangi so‘zlarni, odatlar, stereotiplar va ba’zan oiladagi me’yorlardan farq qiluvchi normativlarni o‘rganadilar. Ushbu muloqotda ular o‘z hayotidagi qadriyatlar, yashash uslublari, oilada o‘rganilganlardan farqli bo‘lgan me’yorlarni o‘zlashtiradilar va jinsiy rolga oid xulq-atvorni o‘rganadilar. Ular ma’lum bir madaniyat qatlamiga, bolalar va bolalarga xos folklor, bolalar submadaniyatiga qo‘shiladilar va qo‘shnilar bilan yangi ma’lumotlar almashadilar.

Xususan, bola, o‘spirin yoki yoshlarning qaysi tengdoshlar guruhiga kirishi katta ahamiyatga ega. Bolalikda ular odatda qo‘shnilardan tashkil topadi, ammo o‘spirinlik davrida va ayniqsa yoshlikda bu guruhlar qo‘shni aloqalari bilan juda oz yoki umuman bog‘lanmagan bo‘lishi mumkin.

Qo‘shnichilik va tarbiya. Ijtimoiy tarbiya jarayonida o‘qituvchilarga o‘z tarbiyalanuvchilari, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘spirinlar bilan bog‘liq qo‘shni atrof-muhitning xususiyatlarini bilish juda muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rganish, o‘qituvchilarga ularni o‘rgatish jarayonida qanday ijobiy va salbiy ta’sirlar bo‘lishi mumkinligini hisobga olish imkonini beradi. Bu ta’sirlar nafaqat tengdosh qo‘shnilar va kattaroq yoshdagi tengdoshlar, balki kattalar qo‘shnilar tomonidan ham bo‘lishi mumkin.

Qo‘shnichilik ta’sirini hisobga olish, bolalar va o‘spirinlarga individual yordam ko‘rsatishning zarurati va yo‘nalishini belgilashda foydali bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, qo‘shnichilikning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olib, o‘qituvchilar uning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini belgilaydi va salbiy ta’sirlarni kamaytirish yoki kamida qisman ularning ta’sirini kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rishadi.

Ijtimoiylashuvning megaomillarida shaxs tarbiyasi

Megaomillar – kosmos, yer shari va planetalar. Mega omil: (mega-eng katta) – kosmos, planeta, dunyo shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarini ham kiritsa bo’ladi. Ular boshqa omil guruhlari orqali yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta’sir ko’rsatadi. Mega ... (yun. megas – katta) – qo‘shma so‘z bo‘lagi. 1) Katta ulchamni, biror narsaning kattaligini ifodalaydi (mas, Megafon); 2) Birlikning million (106) marta kattalashtirilganligini ko‘rsatuvchi old qushimcha.

Kosmos (yoki koinot) va uning insonlar hayotiga ta’siri muammosi yer sayyorasida qadimgi mutafakkir olimlarning e’tiborini o‘ziga tortdi. Garchi bugungi kungacha tabiiy fanlar vakillarining ko‘pchiligi inson hayotining koinotga bog‘liqligi haqidagi g‘oyaga shubha bilan qarashsada, butun o‘tmish tarix davomida koinotning turlicha ta’sirlari, o‘sha davrdagi mualliflari va ularning izdoshlari ko‘rgan ta’limot va nazariyalarda makon insoniyat jamiyati va shaxs hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan manba ekanligini ko‘rsatdi.

Sayyora – osmonni bildiruvchi astronomik tushuncha jism, shakli bo‘yicha sharga yaqin, quyoshdan yorug‘lik va issiqlikni qabul qiluvchi va uning atrofida elliptik shaklda aylanadigan orbita. Katta sayyoralardan biri - Yerda tarixiy rivojlanish jarayonida har xil unda yashovchi odamlarning ijtimoiy hayot shakllari mavjud. Bu holda dunyo sosiologik va siyosiy tushuncha bo‘lib, bizning sayyoramizda mavjud bo‘lgan jamoaviy insoniyatni anglatadi.

Sayyora va dunyo bir-biriga uzviy bog‘liq tushunchalardir. Dunyo tabiiy va iqlim sharoitida paydo bo‘lgan va rivojlangan, bu Yer sayyorasini boshqa sayyoralardan ajratib turadi. Bu jarayonida dunyoning rivojlanishi o‘z navbatida sayyora holatiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir XX-asrda eng yaqqol namoyon bo‘lib, global sayyora-dunyo jarayonlari va muammolarini keltirib chiqardi: ekologik (atrof-muhitning ifloslanishi va boshqalar), iqtisodiy (mamlakatlar va qit’alarning rivojlanish darajasidagi tafovutning oshishi), demografik (nazoratsiz aholi o‘sishi ba’zi mamlakatlarda uning sonining kamayishi va boshqalarida), harbiy-siyosiy (mintaqaviy mojarolar soni va xavfining ortishi, yadroviy qurollarning tarqalishi, siyosiy beqarorlik) va hakozalar.

Bularning barchasi va boshqa muammolar va jarayonlar bevosita va bilvosita yosh avlodning ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi. Shunday qilib, 50-yillarda XX asr global sifatida Yerdagi hayotga atom tahdidi muammolari global muammolarning va bundan insoniyatning xabardorligi sosializatsiya ta’siriga bevosita misoldir. Bu ogohlik katta rol o‘ynadi, deb aslida o‘smirlarning muhim qismi va rivojlangan mamlakatlardagi yigitlar hayot istiqbollariga emas, balki faqat bevosita ehtiyojlarga e’tibor qarata boshladilar. Bu istaklar, intilishlar, hayotning "bu yerda va hozir" qiymati tushunchasi (o‘zi bu yo‘nalish o‘zi uchun tabiiydir; u tashvishlanishi kerak bo‘lgan narsa shu (agar u yagona bo‘lsa). Atrof-muhit muammolari 80-90-yillarning avlodlariga ham xuddi shunday ta’sir ko‘rsatdi.

Global jarayonlar va muammolarning bilvosita ta’siri yosh avlodlarning ijtimoiylashuvi haqida turli jihatlarda namoyon bo‘ladi. Atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladigan iqtisodiy faoliyat butun yer shari aholisining turmush sharoitida (demak, ijtimoiylashuvida) o‘z aksini topadi (tabiiyki, ba’zi qismlarida ko‘proq, boshqalarida kamroq). Ma’lum bir mamlakatdagi odamlarning hayoti, ya’ni yalpi milliy

mahsulotining mudofaa, ishlab chiqarish, ijtimoiy investisiyalar, iste’mol va jamg‘arish sohalari o‘rtasida taqsimlanishiga ta’sir qilishi jahon iqtisodiy va siyosiy jarayonlari shart-sharoitlarini belgilaydi.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi shuni ta’minladiki, sayyora va dunyo to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sir o‘tkazishi mumkin, chunki OAV insonga "joyidan turmasdan" dunyoning har qanday burchagida odamlar qanday yashashini ko‘rish imkonini beradi. Shu bilan birga, "haqiqiylik" chegaralari kengaydi. Bunga qo‘shimcha ravishda, bunday jarayon hayotni qabul qilishda o‘zgarishlarga olib keldi. Modernizatsiyalashgan jamiyatlardagi bolalar, o‘smirlar, yoshlarning rejalari va orzulari nafaqat o‘zlarining bevosita atrof-muhitida xos bo‘lgan me’yorlar va qadriyatlar asosida, balki ularga jozibador bo‘lib, hatto erishib bo‘lmaydigan namunalar asosida ham shakllana boshladi.

Megaomillarning ijtimoiylashuvdagi mavjudligi va roli, tarbiyalashning vazifalari, maqsadlari va mazmunini belgilashda inobatga olinishi zarur. Shuning uchun tarbiyaning tabiiylikka moslik prinsipini amalga oshirish katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarbiyaning tabiiylikka moslik tamoyilining g‘oyasi Antik davrda paydo bo‘lgan va bizgacha Demokrit, Platon, Aristotelning asarlarida yetib kelgan. Tarbiyaning tabiiylikka moslik prinsipini XVII asrda Yan Amos Komenskiy formulalagan va u XVIII-XIX asrlarda pedagogikada keng tan olingan. Tabiat va inson haqidagi fanlarning XX asrda rivojlanishi tarbiyaning tabiiylikka moslik prinsipining mazmunini sezilarli darajada boyitdi. Maxsus ahamiyatga ega bo‘lgan narsa – buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy tomonidan noosfera haqidagi ta’limotning yaratilishi.

Noosfera, ya'ni aqil sferasi, bu atama, biologik sferaning rivojlanishining bunday bosqichini aks ettiradi, bunda insonning ongli faoliyati global muammolarni yuzaga kelishi va hal qilinishiga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda tarbiyaning tabiiylikka moslik prinsipining talqini shuni anglatadiki, u tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy tushunishga asoslanishi kerak, tabiat va insonning umumiy rivojlanish qonunlariga mos bo‘lishi, uni jinsiga va yoshiga qarab tarbiyalashi, shuningdek, uning o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘z holati va kelajakdagi evolyutsiya uchun mas’uliyatni shakllantirishi lozim.

Tarbiyaning tabiiylikka moslik prinsipiga muvofiq, insonda tabiatga, sayyoraga va biosferaga nisbatan ma’lum etik qarashlarni, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash fikrlashini va xulqini rivojlantirish zarur. Shuningdek, tarbiya insonda quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga intilishi kerak:

o‘zini Koinot fuqarosi sifatida anglash;

sayyoradagi jarayonlarni va mavjud global muammolarni tushunish;

Noosfera va insoniyat jamoalarining hayot faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash.

tabiat va jamiyatga uning bir qismi sifatida bog‘lanish hissini rivojlantirish;

noosferani insoniyat faoliyatining muhit va mahsuloti sifatida shaxsiy mas'uliyatini shakllantirish;

o‘zini noosferani yaratuvchi subyekt sifatida anglash, uni oqilona va xavfsiz tarzda "iste’mol qilish", saqlash va qayta ishlab chiqarish.

Ijtimoiyllashuv jarayonida mega omillar global darajada ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda global miqyosda ko‘plab ijtimoiy muammolar mavjud, jumladan, ekologik inqirozlar, urushlar, kiber jinoyatchilik, inson huquqlari buzilishlari va boshqalar. Pedagogika, bunday muammolarni hal qilish uchun yangi pedagogik yondoshuvlar va metodlarni ishlab chiqish orqali jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy pedagogikaning xalqaro tajribalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham qiziqarli. Mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish ijtimoiy pedagogikani yanada rivojlantirish va rivojlangan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Yoshlarni ijtimoiy holatiga e'tibor berish va ularni ma'naviy jihatdan o'stirishga qaratilgan dasturlar yaratish muhimdir. Ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish, ta'lim muassasalari o'rtasida to'g'ri hamkorlik o'rnatish, shuningdek uzoq muddatli ijtimoiy tadbirlarga e'tibor berish zarur.

Ijtimoiyllashuv jarayonida mega omillar jamiyatda ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy kontekstini o'rganadi. Ushbu soha ta'lim jarayonining ijtimoiy omillarga qanday ta'sir

ko'rsatishini tahlil qiladi. Nazariy asoslari ijtimoiy strukturalar, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq elementlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiyllashuv jarayonida mega omillar o'zgaruvchan jamiyatda yangi tarbiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqadi va bu jarayonda innovatsion metodlar va strategiyalarni qo'llaydi. Ushbu yo'nalishda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, shuningdek ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Megaomillar pedagogikada, jamiyatda, Global miqyosdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda, shaxsni ijtimoiyllashuv jarayonida, shuningdek, xalqaro miqyosda ta'lim va tarbiyani birlashtiruvchi vosita sifatida shakllanadi. Yurtlar o‘rtasidagi ta'lim aloqalari va madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy pedagogikaning o‘rni shunchalik katta bo‘lib, u global ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga yordam berisg jarayonida mega omillar orqali o’z ta’sirini ko’rsatadi, o‘quvchilarga va yoshlarni madaniy va axloqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish orqali jamiyatning umumiy barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Ijtimoiylashuv qanday jarayon?
2. Ijtimoiylashuv-ijtimoiy pedagogik hodisa bo‘la oladimi?
3. Ijtimoiylashuv omillariga nimalar kiradi?
4. Ijtimoiylashuv vositalari shaxs ijtimoiylashuvida qanday rol o‘ynaydi?
5. Shaxs ijtimoiylashuvida biologik omillarning ta’siri yuqorimi yoki ijtimoiy muhit ta’siri yuqorimi?
6. Ijtimoiylashuv tushunchasining kelib chiqishi va jamiyat uchun zaruriy jarayon ekanligini tavsiflang.
7. Ijtimoiylashuv vositalarini tavsiflang.
8. Ijtimoiylashuv omillarini tavsiflang.

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Mega omillar, makro omillar, mikro omillar, mezo omillar, oila, ta`lim-tarbiya muassasalari, mahalla, din, madaniyat va jamiyat….. so’zlari ishtirokida esse yozing.
2. Ijtimoiylashuv-ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiylashuv omillari va vositalarini «T- jadvali» metodi asosida loyihalshtiring:

Ijtimoiylashuv omillari va vositalari		
Afzalliklar		**Kamchiliklar**

3. Ijtimoiylashuv omillari va vositalarini «6 x 6» metodi asosida loyihalshtiring. Muammo:

1. Ijtimoiylashuv omillari, asosan, nimalarga bog‘liq?

2. Ijtimoiylashuvda vositalarning o‘rni qanday?

3. Shaxs ijtimoiylashuvida ta’lim tarbiyaviy omillarning ta’siri yuqorimi yoki ijtimoiy muhit ta’siri yuqorimi?

4. Tarbiya qanday hodisa?

4. Shaxs ishtimoiy shakllanishida tashqi omillar ta’sirini FSMU metodi asosida tahlil qiling:

Fikr	**Sabab**	**Misol**	**Umumiy xulosa**

5. Ijtimoiylashuv omillari va vositalarini «Tushunchalar tahlili» metodi asosida loyihalshtiring:

Tushunchalar	**Mazmuni**
ijtimoiy omillar	
tashqi omillar	
ichkii omillar	
ijtimoiy vositalar	

§ 4.3. OILADA SOG‘LOM MA’NAVIY MUHITNI BARQARORLASHTIRISH. MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR VA MAHALLA BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT

Reja:

1. Yosh avlod tarbiyasida oila va oiladagi sog‘lom ma’naviy muhitning o‘rni.
2. Oila turlari va tipologiyasi.
3. Mahalla va oilaning hamkorlikdagi eng muhim vazifalari.
4. Tarbiyada maktab, oila va mahalla eng muhim ijtimoiy pedagogik omil sifatida.

Tayanch so‘z va iboralar: oila, mahalla, tarbiya, muhit, ma’naviy muhit, ijtimoiy muhit, nuklearlik, hamkorlik, monogam oila, kvaziavtonom detotsentrik oila, detotsentrik oila, ambivalent detotsentrik oila, to‘liqligiga ko‘ra oila, to‘liq oila, noto‘liq oila, qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oila, bo‘g‘inlar soniga ko‘ra oila, nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo‘lgan) oila, ko‘p bo‘g‘inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a’zolari birga yashovchi) oila, bolalar soniga ko‘ra oila, farzandsiz oila, bir bolali oila, ikki bolali oila, 3-4 bolali oila, 5 va undan ortiq bolali oila, ko‘p bolali oila, er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra oila, ishchilar oilasi, dehqonlar oilasi, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila, er-xotinning ma’lumot saviyasiga ko‘ra oila, oliy ma’lumotlilar oilasi, o‘rta-maxsus ma’lumotlilar oilasi, o‘rta ma’lumotlilar oilasi, tugatilmagan o‘rta ma’lumotlilar oilasi, maxsus yordamchi maktab ma’lumotiga ega bo‘lgan qayliqlardan tashkil topgan oila, yoshga ko‘ra oila, yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega), o‘rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi), qayliqlarning ota-ona oilasi(ota-onasi)ning moddiy ta’minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mos oila, qayliqlarning ota-ona oilasi(ota-onasi) orasida katta tafovut mavjudligi bo‘yicha bir-biriga mos oila, qayliqlarning ota-ona oilasi(ota-onasi) orasida katta tafovut mavjudligi bo‘yicha bir-biriga mos bo‘lmagan oila, regional jihatlariga ko‘ra oila, shaharlik oila, qishloqlik oila, aralash tipdagi oila, nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko‘ra oila, ajralish saviyasidagi oila, nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo‘lgan oila, nikohdan qoniqqanlik darajasi o‘rta saviyada bo‘lgan oila, nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila, ayol yoki erkak yetakchiligiga ko‘ra oila, er yetakchi

bo‘lgan oila, xotin yetakchi bo‘lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila, er-xotin orasidagi munosabatlariga ko‘ra bo‘lgan oila, avtoritar bo‘lgan oila, demokratik bo‘lgan oila, liberal bo‘lgan oila, aralash tipdagi oila, er-xotinlarning millatiga ko‘ra bo‘lgan oila, bir millatli bo‘lgan oila, baynalmilal oila.

Yosh avlod tarbiyasida oila va oiladagi sog‘lom ma’naviy muhitning o’rni

Ma’lumki, mahalla va oila tarixiy davrlar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan insonlarning ijtimoiy birligi bo‘lib, demokratik institutlar qatoriga kiruvchi qadriyatdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning: “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlagan marralarga albatta yetamiz. Yangi O‘zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz” [9], - degan so‘zlari mahalla va oilaga, ular orqali yoshlarimizga bo‘lgan ishonchning isbotidir.

Qadimdan o‘zbek xalqi oilaviy qadriyatlarga tayanib, qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘y bilan hamjihatlikda yashab kelgan va yosh avlod tarbiyasida ularning roli kattadir. Oila bu tarbiya maskani, tarbiya bu o‘zbek oilasining eng muhim vazifalaridan biridir. Farzand dunyoga kelibdiki, ota-onadan nafaqat genetik hususiyatlarini oladi, balki ulardagi hatti-xarakati, axloq-odob qoidalarini ham andoza qilib oladi. “Oila – jamiyat negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratiyaga asos solinadi, odamlarning talab – ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi”. Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarurligini davlatimiz Prezidenti bir necha bor ta’kidlaydilar.

Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik xilma-xil va murakkab bo‘lishiga qaramay, ayniqsa, XXI asrda ro‘y berayotgan buyuk o‘zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o‘z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtayi nazaridan sog‘-omon saqlanib qolgan fuqarolik jamiyatining eng katta tuzilmasidir.

Respublikamizda oilaning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq barcha masalalarni o‘zida mujassam etgan quyidagi yo‘nalishlarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy ma’rifatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma’naviy–axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko‘p bolali, kam ta’minlangan nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg‘izlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilada ma’naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Tarixan qisqa davr ichida o‘zbek oilasi hayotida qanday ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi? Uni sarhisob qiladigan bo‘lsak, avvalo mustaqillik sharofati tufayli oila va uning manfaatlarini har tomonlama muhofaza etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi olamshumul voqea bo‘ldi

Ikkinchidan, adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurish jarayoni shaxdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustivorligini ta’minlash zamirida oila, onalik va bolalikning huquqiy manfaatlarini, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Oliy Majlisning XII sessiyasida yangi mazmundagi “Oila Kodeksi” qabul qilindi. Huquqiy demokratik jamiyatning asosiy mezonlaridan biri hisoblangan inson huquqlari shu jumladan, oila, onalik va bolalikning huquqiy manfaatlarini muhofaza etuvchi maxsus tizim yaratildi. (Inson huquqlari bo‘yicha Milliy Markaz, Ombudsman instituti, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari Monitoringi instituti, yuridik universiteti huzuridagi huquqiy targ‘ibot Markazi va boshqalar tashkil etildi va xalqaro huquqiy hujjatlarni (Konvensiya, Deklaratsiya, pakt va boshqalar) ratifikatsiya qilindi.

Oila huquqining asosiy manbai, keng qamrovli oilaqonunchiligining negizi O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksidir

Uchinchidan, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko‘p bolali, kam ta’minlangan, qarovchisini yo‘qotgan nochor oilalarni, nogiron, yetim – yesirlar, yolg‘iz keksalar, bemorlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilada jamiyat talablariga mos komil insonlarni tarbiyalash borasida chora tadbirlar belgilandi.

To‘rtinchidan, respublikamiz Birinchi Prezidenti tomonidan ayolsiz oila, oilasiz davlat va jamiyat bo‘lishi mumkin emasligi amaliy isbotini topdi. Oilaning tinch totuvligi, mustahkamligi, barqarorligi va farovonligi davlat va jamiyatning taraqqiyotida asosiy omil ekanligi keng jamoatchilik tomonidan yangicha munosabat asosida tan olindi. Zero, insoniyatning paydo bo‘lishi, oilalarning vujudga kelishi, ularni qadriyat sifatida himoya qilish zamirida jamiyat tashkil topgan. Oilalarning har tomonlama mustahkamligi, tinch-totuvligi jamiyatning barqarorligini ta’minlaydi. Shuning uchun oila jamiyatning asosiy va tayanch bo‘g‘ini ekanligini quyidagilar bilan izohlash mumkin: insondagi barcha insoniy fazilatlarning poydevori oilada tarbiyalanadi: shaxs esa jamiyatning bir bo‘lagi sifatida oilada olgan hayot falsafasini jamiyat taraqqiyotiga tatbiq etadi, o‘zining bor qobiliyati, imkoniyati, tarbiya qirralarini millat, xalq, mamlakat, jamiyat ravnaqi uchun safarbar etadi.

Oila nima? Keling, ushbu muhim ijtimoiy guruhni tasniflashning asosiy usullarini tushunishga harakat qilaylik. “Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o‘taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo‘lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oila – nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada,

jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.

Ota-ona o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar ona suti bilan, ota ibrati bilan, oila a’zolari mehri va namunasi bilan bola hulqi, hatti-xarakatiga singib boradi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan hikmatli so‘zlar o‘zbek oilasining tarbiya negizini tashkil etadi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir. Bolaning nasl-nasabi qanchalik muhim bo‘lmasin, tarbiya hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Bolaning tug‘ilgan dastlabki kunidan to har tomonlama rivojlanib kamol topgan shaxs bo‘lib voyaga yetishgunicha ota-ona mehr-muhabbati roli beqiyosdir. Shuningdek, bola tarbiyasiga ongli va to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi lozim.

Qadimda bola tarbiyasi muammosi turli munozalarga sabab bo‘lib kelgan. Bolaning sog‘lom o‘sishi uchun ota-onalar tarbiyalash ishini maxsus mutaxassislarga ishonib topshirish va ular yordamida bolani aqlli va odobli shaxs bo‘lib yetishishiga erishish kerakmi, degan mavzudagi bahs-munozara ming yillardan beri davom etib kelmoqda. Bir vaqtlar Aflotun ham yer yuzidagi barcha illatlar odamlarning xudbinligi, ularning notekis tabaqalanishi, eng avallo, bola tarbiyasi uchun oiladagi sharoit bir tekis baravar emasligi tufayli kelib chiqadi, degan g‘oyani o‘rtaga tashlagan edi. Ota-onalarning o‘z farzandlarini haddan tashqari yaxshi ko‘rishlari xudbinlikka olib keladi. Bu illat esa odamlarni bir-biridan ajratgan, ular o‘rtasida turli nizolarni keltirib chiqaradigan xususiyatlarni vujudga keltirishga zamin hozirlaydi, degan xulosaga kelgan edi.

Bugungi kunda mahallaning eng muhim vazifalaridan biri mahallani jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish, yoshlarni ma’naviy yuksalishlarida keksa va fahriylar boy hayotiy tajribasidan foydalanish, yolg‘iz keksalarga g‘amho‘rlik qilish, mahalalardagi oilalarni mustahkamlash, oilada bola tarbiyasini jamoatchilik asosida nazorat qilishdan iborat. Jumladan, mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jamoa vazifasini bajarsa, oila ota-ona, farzandlar, qarindosh urug‘chilikka asoslanib shakllangan jamoa

bo‘lib kelgan. Binobarin, jamiyat ma’naviyatini rivojlanishi ma’lum darajada olib borilayotgan madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligi bilan bog‘liq.

Mahalla orqali oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda oila bilan jamoatchiliik hamkorligini ta’minlash bugungi kunda umumdavlat ahamiyatiga molik ishga aylandi. Bu esa o‘bek xalqining an’anaviy milliy qadriyatlaridan birini tiklanishi hisoblanadi. O‘zbek mahallalari kecha yoki bugun paydo bo‘lmagan, har bir mahallaning o‘ziga xos tarixi mavjud. Ayni vaqtda, mahallaning oilaga, oiladagi bolalar tarbiyasiga bo‘lgan ta’siri masalasi dolzarb bo‘lib, xalqimizning milliy qiyofasi mahalla faoliyati va uning mahallalardagilarga ta’siri bilan belgilanadi.

Ma’naviy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz, avvalo, mahallada tarkib topadi, keyin oilalarga kirib keladi. Shuning uchun, bugun davlatimiz tomonidan xalqimizning tarixan tarkib topgan udum va an’analarini avaylab-asrash va boyitishga har tomonlama ko‘maklashish, kam ta’minlangan oilalar, nogironlar, yetimlarga va yolg‘izqolgan qariyalarga nisbatan insonparvarlik va mehr-shavqat munosabatida bo‘lish, ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsaishdan iborat.

Hozirgi kunda yoshlarni ma’naviy-axloqiy shakllantirishda oila mahalla hamkorligidagi tarbiyaviy ishlar o‘ta dolzarbdir. Bunday illatlarni oldini olishda, yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga solishda mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘shni, Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari va ularning yoshlar ishlari maslahatchilari muhim tarbiyaviy ta’sir kuchiga egadirlar. O‘zbek xalqiga mansub qadriyatlardan biri har bir ishni boshlashdan oldin kattalar bilan maslahatlashib, duosini olib, so‘ng amalga oshirishdir.

Mahallaning biror bir oilasi to‘y yoki boshqa marosimlarini mahallaning obro‘li faxriylari yoki faollari bilan maslahatlashib keyin o‘tkazadi. Mahalladoshlar orasida mehr-oqibat, odamgarchilik har doim ham kuchli bo‘lgan. Eng asosiysi, ko‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘y yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, mahalla faxriylari yoshlar uchun, yosh oilalar uchun o‘zlarining pand nasihatlarini, maslahatlarini kanda qilmaydilar. Mahallani har bir oilaga bo‘lgan ijobiy ta’siri har doim ham sezilarli bo‘lgan. Mahallaning risoladagidek bo‘lishi uchun mahalladagi oilalarning tinch-totuv yashashi, qo‘ni-qo‘shnilarning, mahalla – ko‘yning ahilligi kabi omillarning ta’siri kuchlidir. Zero, qo‘ni –qo‘shnilarning tinch-totuv yashashlari shartligi, “Qo‘shning

tinch-sen tinch”, “Agar gilam sotmoqchi bo‘lsang, qo‘shninga sot, bir chetida o‘zing o‘tirasan”, “Uzoqdagi qarindoshingdan yaqindagi qo‘shning afzal” kabi hikmatlar bejiz aytilmagan. Mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘shnilar yaxshi-yomon kunlarda, quvonchli to‘ylarda, boshga og‘ir kun kelganda, musibatli damlarda kuningizga birinchi bo‘lib yaraydi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o‘rni katta. O‘smirlar obro‘li mahalla oqsoqollaridan hayiqib turadilar, ularning salobati ta’sirida o‘zlarini nojo‘ya hatti-xarakatlardan tiyadilar. Qizlar hayo va iboni dastlab oilada. keyin mahallada o‘rganadilar. Mahallaning kattalaridan dakki eshitmay deb ochiq-sochiq ko‘cha-ko‘yga chiqavermaydilar. Bo‘lajak kelin yoki kuyovlarning kimligini ota-onalar mahalla kattalaridan surishtiradilar. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-onadek ma’sul” degan hikmatni hammamiz yoshligimizdan eshitib kelganmiz. Shuning uchun ham yoshligimizda biror bir qo‘shnimiz bizga nojo‘ya xarakatimizga tanbeh bersa, biz uni qabul qilganmiz va darhol o‘zimizni “to‘g‘rilab” olganmiz. Chunki qo‘ni-qo‘shnilarimiz ham biz uchun ota-onamizdek qadrli insonlarimiz ekanini va bizning tarbiyamizda ularning ham haq-huquqi bor insonlar ekanini yaxshi tushinib yetganmiz.

Afsuski, hozirgi globalizatsiya sharoitida bizning bunday qadriyatlarimiz yo‘qolib borayotgani achinarli hol albatta. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy amaliy tadqiqotlarga nazar tashlasak, xususan “Mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy, ma’naviy muhitni qaror toptirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida olib borilgan tadqiqotda o‘rganilgan mahalla va oilalarda uchrab turgan muammolar fikrimizni isbot qiladi. Jumladan, bugungi kunda ayrim oilalarda ma’naviy muhitning buzilishi, mehr-oqibat, hamjihatlikning yo‘qolib borishi, o‘zaro munosabatlarda salbiy tendensiyalarning kuchayib borishi sabablarini o‘rganishda quyidagi holatlar aniqlangan. “Birinchidan, oila a’zolari, avvalo, inson bolasi tug‘ilgan kunidan ona sutiga, oq o‘rab, oq tarashiga, otasining ta’minotiga va boshqa hayot talablariga ehtiyojli ekanligini unutmoqdalar yoki mazkur masalaga befarq bo‘lib borishmoqda; ikkinchidan, er va xotin nikohlanib, oilali bo‘lgandan keyin ularning har biri ikkinchisi oldida bir qancha vazifani zimmasiga olishi mas’uliyatini anglamayotgani yoki suiiste’mol qilayotgani va ba’zi oilalarda:

oilada erkak kishining mas’uliyati, o‘z ahli ayoli oldidagi ham ijtimoiy, ham jismoniy, ham moliyaviy burchiga, farzandlar tarbiyasidagi ulushi va ta’siri, oila muhitining barqarorlashuvidagi ibrat va namunaning holati, oilada erkakning mavqeyi pasayib borayotgani;

ayol kishining oiladagi o‘rni, maqeyi, itoati va go‘zal xulqi, nafosati ro‘zg‘or boshqaruvidagi didi, farosati, farzandlar tarbiyasidagi mas’uliyati va salohiyati yetishmayotgani;

har bir shaxs, avvalo, oilaga e’tiborini ongli ravishda tubdan o‘zgartirishi kerak.

Chunki oila a’zolarini, avvalo, ijtimoiy jihatdan himoyalash, e’zozlash, qo‘llab-quvvatlash – bu shaxsan uning o‘zini ertangi kuni va istiqboli uchun muhim va dolzarb ekanligini tushunishi va anglashi kerakligi; ayrim oilalarda farzandlar tarbiyasi faqat onalar zimmasiga yuklangan, oila erkaklari, jumladan, otalar esa farzand tarbiyasiga be’tibor bo‘lib borayotgani” [19] kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Guruch kurmaksiz bo‘lmagani kabi yoshlarimiz xulq-atvorida ham bizni o‘ylantirib qo‘yayotgan masalalar yo‘q emas.

Farzandlarimiz oilamizning yuzidir. Bolani hatti-xarakati, xulq-atvori, o‘zini tutishiga qarab oilaning ma’naviy holatiga baho berish qiyin emas. O‘zini noo‘rin tutayotgan bolaga qarab “xay, o‘zingni yig‘ishtirib ol”, desang “sizni menga tanbeh berishga haqqingiz yo‘q, siz mani ota-onam emassiz”, degan javobni yuzingizga tap tortmay aytishlari ham uchrab turibdi. Bunda esa, albatta, ota-onaning o‘z vaqtida kattalarni hurmat qilish, kattalar oldida o‘zini tuta bilish kabi odoblar haqidagi tushunchalarni bolaga bermaganini tushinamiz. Bular ertaga birovning xonadaniga boradigan biri kelin, biri kuyov bo‘ladigan farzandlarimiz emasmi? Shu borada yuqorida aytganimizdek har birimiz kelajagimiz qo‘llarida bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida doim xushyor bo‘lishdan charchamasligimiz, bir bolaga yetti qo‘shni, mahalla-ko‘yning ma’sulligini doimo nazarda tutmog‘imiz va yoshlarimizdagi kuch-quvvat, g‘ayrat-shijoatni to‘g‘ri yo‘naltirib turishimiz joiz.

Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning nuroniy, keksalarimizga qaratib: “Men, bugungi imkoniyatdan foydalanib, keng jamoatchilikka, avvalambor, ko‘pni ko‘rgan mo‘tabar nuroniylarimizga, oqila va mehribon onalarimizga murojaat

etmoqchiman. Bu og‘riqli masalada bizga yordam beringlar, deb iltimos qilaman. Oilaviy nizolarning oldini olish, ajrimlarni kamaytirish borasida siz, aziz yoshlarimiz ham tashabbus va faollik ko‘rsatsangiz, men barchangizdan cheksiz minnatdor bo‘lar edim,” – degan purxikmat iboralari naqadar o‘rinli va mahalla bilan ishlashda dasturul amal bo‘la oluvchi xikmat desak xato bo‘lmaydi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorrini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar”, – deya ta’kidladi O‘zbekiston yoshlari forumida.

Konstitutsiyaning XIV bobi oila, bolalar va yoshlarga bag‘ishlangan bo‘lib, quyidagi moddalarda o‘z ifodasini topgan:

76-modda. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

77-modda. Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.

78-modda. Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

79-modda. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

80-modda. Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938 sonli “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy qilib, Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmasida bir qator o‘zgarishlar bo‘lib, yangi tarkibiy tuzilma joriy qilindi [4]. Shular bilan bir qatorda fuqarolar yig‘ini raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi hamda fuqarolar yig‘ini raisining keksa va fahriylar ishlari bo‘yicha maslahatchisi lavozimlari joriy etildi, unda aholini osoyishtaligini ta’minlash, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, nuroniylar ijtimoiy faolligini oshirish, mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va mavqeini yanada mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.

Bugungi kunda mahallaning eng muhim vazifalaridan biri mahallani jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish, yoshlarni ma’naviy yuksalishlarida keksa va fahriylar boy hayotiy tajribasidan foydalanish, yolg‘iz keksalarga g‘amho‘rlik qilish, mahalalardagi oilalarni mustahkamlash, oilada bola tarbiyasini jamoatchilik asosida nazorat qilishdan va qator vazifalardan iboratdir. Yoshlar masalalari har qanday zamon

va makonda ham davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan ustivor masala hisoblangan. Shunday ekan, bu borada nafaqat ota-ona, balki har bir inson o‘z burchi va ma’suliyatni chuqur his etgan holda, Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan holda faoliyat olib borishi maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, Abdurauf Fitrat ham bu borada shunday deydi. “Xalqning aniq maqsad sari xarakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq” [75].

Oila turlari va tipologiyasi

Zamonaviy tadqiqotchilar oilalarning turlarini aniqlash uchun turli tasniflardan foydalanadilar.

Oila uni xarakterlovchi turli tiplari mezonlarga ko‘ra quyidagilarga farqlanadi:

1. To‘liqligiga ko‘ra: To‘liq, noto‘liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.

2. Bo‘g‘inlar soniga ko‘ra**:** nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo‘lgan) va ko‘p bo‘g‘inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a’zolari birga yashovchi) oilalar.

3. Bolalar soniga ko‘ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli mamlakatlar-da bu mezonlar turlichadir. Masalan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda 3-4 bolali oilalar ko‘p bolali oilalar hisoblanadi. O‘zbekistonda bunday oilalar farzandlar soni o‘rtacha bo‘lgan oilalar sarasiga kiradi.

3. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila.

4. Er-xotinning ma’lumot saviyasiga ko‘ra: oliy ma’lumotlilar, o‘rta-maxsus, o‘rta, tugatilmagan o‘rta, maxsus yordamchi maktab ma’lumotiga ega bo‘lgan qayliqlardan tashkil topgan oila.

5. Oilaning «yoshiga» ko‘ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo‘lgan oilalar), o‘rtayoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi).

6. Qayliqlarning ota-ona oilasi (ota-onasi)ning moddiy ta’minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mosekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo‘yicha bir-biriga mos va mos bo‘lmagan oilalar.

7. Regional jihatlariga ko‘ra**:** shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

8. Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko‘ra: ajralish saviyasida, nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo‘lgan oila, o‘rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.

9. Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko‘ra: er yetakchi bo‘lgan oila, xotin yetakchi bo‘lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.

10. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko‘ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

11. Er-xotinlarning millatiga ko‘ra: bir millatli yoki baynalmilal oilalar.

Oila jamiyat tarixida ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo‘lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo‘jalikka ega bo‘lmagan. Bu davrda tabiiy omil o‘z vazifasini tugalladi, ya’ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish – chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mahsulot ishlab chiqarishda ulushi ortdi, binobarin, ularning ijtimoiy mavqei ham tubdan o‘zgardi. Mavjud qoida tartiblar - farzandlarning onagagina tegishli bo‘lishi, ona mulkiga merosxo‘r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid kelib qoldi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Shunday qilib, hozirgi individual oilaning o‘tmishdoshi-monogam oila vujudga kelgan (qarang: Monogamiya).

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga - jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi [86].

Ijtimoiy pedagogikada zamonaviy oilaning turlari va tiplari quyidagicha talqin qilinadi:

Ambivalent detotsentrik oiladagi bola ko‘proq ota-onaning hissiy-emotsional g‘amxo‘rligi ta’sirida bo‘ladi. Masalan, bu agar qiz bo‘lsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisining doimiy erkalashlari og‘ushida katta bo‘lib, oxir-oqibat shunday holatga ko‘nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo‘lsa kerak, degan fikr ba’zan o‘zi mustaqil oila qurganda, uning yangi xonadonga ko‘nikishiga jiddiy xalaqit beradi.

Kvaziavtonom detotsentrik oilada bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o‘z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo‘ladi. Buning albatta, ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor.

Er-xotin oilasi XX asrning 60-chi yillarida paydo bo‘lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi. Bunday oiladagi o‘zaro munosabatlar asosan erkak va xotin o‘rtasidagi muomalaga, uning qanchalik samimiy, iliqligiga bog‘liq bo‘ladi. Ayolga o‘z xohish-irodasini mumkin qadar namoyon etish, unga ma’lum ma’noda mustaqil erishish imkoniyati yaratiladi. U ko‘p holatlarda turmush o‘rtog‘iga suyukli, erka va zarur yor rolini o‘ynaydi.

Er-xotinning bir-birlariga yaqin bo‘lishlarining 4 xil jihati farqlanadi: simpatiya (yoqtirish), samimiyat, minnatdorlik va erotik jihatdan bog‘liqlik.

Monogam bo‘lmagan oila toifasi chin ma’noda nikoh munosabatlariga tayanmaydi. Bunday oilaning uch xil ko‘rinishi mavjud: *Ajrimlar tufayli paydo bo‘lgan noto‘liq oila* – XX asrning oxirlarida ko‘payib ketgan noto‘liq oila turi. Ajrim bo‘lgan oialalrning 70 foizi yosh oilalar bo‘lib, ularda o‘rtacha 2,5 ta bola chala etim bo‘lib qoladi. Bu kabi noto‘liq oilalarda o‘ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo

bo‘ldaiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto‘liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy t omonidan ham uning ma’naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko‘proq tashvishga soladi.Qaysi tipga kirishiga qaramasdan oilaning ta’limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy funktsiyalari o’ mohiyatini kamaytirmaydi.

Mahalla va oilaning hamkorlikdagi eng muhim vazifalari. Bugungi kunda mahalla va oilaning hamkorlikdagi eng muhim vazifalari:

mahallani jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish, yoshlarni ma’naviy yuksalishlarida keksa va fahriylar boy hayotiy tajribasidan foydalanish, yolg‘iz keksalarga g‘amho‘rlik qilish, mahalalardagi oilalarni mustahkamlash, oilada bola tarbiyasini jamoatchilik asosida nazorat qilish;

yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish: sport, san’at, xoreografiya, drama, to‘garaklari, turli pishiriqlar pishirish, bichish-tikish, tillarni o‘rgatish markazlarini mahalla hududida tashkillashtirish;

yoshlarda oila a’zolaringizda bir-biriga ko‘mak berish, hissini shakllantirish, axloqiy fazilatlar: o‘z so‘zida tura olish, ma’suliyat, olijanoblik, insonparvarlik, vatanparvarlik hissini rivojlantirish kabi masalalarni qamrab oladi.

Shundan kelib chiqib mahallada yoshlar bilan olib boriladigan ishlar va tadbirlarga quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish tavsiya etiladi:

1) mahalla yoshlari bilan munosabatda yosh davrlari psixologiyasi va odob-ahloq qoidalariga qat’iy rioya etishlari shart;

2) mahallaning yoshlar qatlami bilan ishlashni yo‘lga qo‘yishida “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida ishsiz va uyushmagan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitishni amaliyot bilan uyg‘un holda amalda ta’minlash;

3) mahalla yoshlarining muammolari bilan yaqindan qiziqib, ularga yyechim topish yo‘llarini izlash: “Har bir tadbirkor - yoshlarga madadkor” tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafar ishsiz yoshni biriktirilishini ta’minlash, bunda birinchi navbatda “Yoshlar daftari”ga tushgan yoshlarni ish bilan ta’minlanishini amalda amalga oshirish;

4) mahalla hududida istiqomat qilayotgan fahriy ustozlar: hunarmand, kasanachi, boshqa kasb ustalari tajribasini yoshlarga o‘rgatish, yoshlarni qiziqishiga qarab “Ustoz-shogird” an’analarini tiklash;

5) tadbirkorlik bilan shug‘ullanish maqsadida yurgan yoshlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlar siyosati doirasida davlat byudjetlari, hamda banklar tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlarni ta’minlanishida ko‘maklashish, mahalla hududining zahirasidagi bo‘sh yerlar, bo‘sh bino xonalarini yoshlarga ajratish choralarini ko‘rish va doimiy monitoringini olib borish;

6) mahalla yoshlari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, mahalla yoshlarini ommaviy sportga jalb qilish: oilalar, mahalla, tuman, shahar va respublika miqyosida ommaviy sport musobaqalari uyushtirish;

7) mahalla yoshlari o‘rasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mahalla hududida kutibxona, elektron kutubxona yaratish, qiziqarli asarlar bilan to‘ldirib borish, mahalla yoshlari o‘rtasida ko‘rik-tanlovlar, taniqli madaniyat arboblari ishtirokida badiy kechalar tashkillashtirish;

8) mahalla yoshlariga mahalla hududida to‘garaklar, mahalla binosining bo‘sh xonalaridan foydalanib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda turmush ro‘zg‘orida kerak bo‘ladigan malakalariga o‘rgatish maqsadida, qandolat, pishiriklar, milliy taomlar, bichish-tikish, ustachilik va x.k (mahalla yoshlari qiziqishidan kelib chiqgan holda), oila psixologiyasi, muomala madaniyati mavzularida doimiy davra suhbatlari tashkillashtirish;

9) yoshlarga odob-axloq, tarbiya masalalarida nuroniylar nasihati va maslahatidan, hayotiiy tajribalaridan foydalanish maqsadida yoshlar hamda fahriylar o‘rtasida davra suhbati muntazam tashkillashtirib borish;

10) imom-xatiblar bilan yoshlar o‘rtasida sog‘lom avlod tarbiyasi masalasida turli mavzularda mahalalalarda davra suhbatlarini tashkillashtirish.

Bolani barkamol bo‘lib shakllanishi uchun ota-ona, qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘yning har birining xatti-xarakatining ta’siri bor. Yosh avlodning aqliy, axloqiy, jismoniy kamoloti uchun hamma baravar javobgar. Barchamiz bu javobgarlikni yaxshi xis etishimiz muhim [31].

Tarbiyada maktab, oila va mahalla eng muhim ijtimoiy pedagogik omil sifatida

O‘zbekistonda bugungi kunda barcha sohalarda inson, inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan ulkan islohotlar olib borilmoqda. Xususan, ta’lim-tarbiya sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan innovatsion g‘oyalar mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yoshlarni hamkorlikda milliy va zamonaviy ruhda tarbiyalab, ularga innovatsion g‘oyalarni singdirish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asnoda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda. O‘zbekistonda bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasi oila, mahalla va ta’lim muassasi ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hamkorligining bosh, ustuvor masalasi hisoblanadi. Shu maqsadda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligida olib boriluvchi ma’naviy-ma’rifiy ishlar negizini to‘la yoritish uchun “mahalla”, “ma’naviyat” va “ma’rifat” tushunchalarining lug‘aviy ma’nolarini tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ma’naviyat arabcha so‘z bo‘lib “ma’nolar majmuyi” – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari yig‘indisini bildiradi. Butun insoniyat o‘zining ming yillik tarixiy taraqqiyotida hayotiy tajriba to‘plab, uni o‘rab turgan tabiat, borliq bilan hamkorlik qilib, tabiat hodisalari, hayot, Vatan, millat, xalq oldidagi burchlari va shaxsning shaxs bo‘lib shakllanishidagi barcha ma’lumotlarni, faoliyatni o‘zidan keyingi avlodga o‘rgatib kelgan. Shu jumladan, o‘zbek xalqi ham o‘ziga xos bilimlar majmuyini asrlar davomida to‘plab keldi. Lekin 120 yildan ortiq davom etgan milliy mustamlakachilik milliy ma’naviyatimiz taraqqiyotiga o‘zining juda katta salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Butun bir millatni o‘zining ming yillik tarixidan, o‘z ajdodlaridan ma’naviy uzoqlashtirishdek vayronkor siyosat amalga oshirildi. Shuning uchun O‘zbekiston milliy mustaqilligining ilk yillaridan boshlab xalqimizning o‘ziga xos milliy ma’naviyatini – milliy ma’nolar majmuyini tiklash, rivojlantirish va yanada shakllantirish davlat

siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Chunki har bir millatning o‘z ma’naviyatini aniqlashi, bilishi va o‘z ixtiyori bilan aql-idrokining, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatni mustahkamlaydi, uning o‘ziga bo‘lgan ishonch-e’tiqodi va qadr-qimmatini mustahkamlaydi. Albatta, bu sobiq tizim davridagi hukmron mafkuraga zid edi. Shu sababli “Ma’naviyat” tushunchasi tilimizdan siqib chiqarilgan edi .Ma’rifat tushunchasi harakatni ifodalab, arabcha “bilmoq” degan ma’noni bildiradi. Ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar yig‘indisi asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat “ma’rifat” so‘zining lug‘aviy mazmunini tashkil qiladi. Ma’rifat so‘zi tasavvuf ta’limotining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ilmlarni zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) bilimlarga ajratgan so‘fiylar ma’rifatni “ilmi botiniy” deb qabul qilishgan. Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning nazariy o‘rganilganini yoritish jarayonida, avvalo, barkamol avlodni tarbiyalashdagi uch omilning (oila,maktab,mahalla) ijtimoiy hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy hamkorlikning mazmun-mohiyatini yoritishda muammoning ijtimoiy pedagogik jihatlarini yoritish zarurati tug‘iladi. Bu sohani o‘rgangan ijtimoiy-tarixiy, tahliliy manbalardan ham ko‘rinadiki, ijtimoiy hamkorlik murakkab tarzda namoyon bo‘ladigan shaxs manfaatlari, shaxslararo munosabatlar va har bir inson faoliyatining mazmuni hamda davlat va nodavlat tashkilotlari, ya’ni oila, mahalla va ta’lim muassasalarining birgalikdagi faoliyatini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi mexanizm hisoblanadi. Bu esa bizni muammoning metodik qirralarini o‘rganishdan oldin shaxslararo hamda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ijtimoiy hamkorlik faoliyati masalasini pedagogik jihatdan yoritishga undaydi. Ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishda, avvalambor, oila, mahalla va ta’lim muassasalari mavjud holatlarni o‘rganishni talab etadi.

Pedagogika fanlari doktori M.Inomova yoshlarni oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyalash xususida olib borgan doktorlik dissertatsiyasida “Oilaviy tarbiya” pedagogik tushuncha bo‘lib, u ota-onalarning o‘z hayotiy faoliyatlari, turmush tarzlari, an’analari yordamida bola shaxsiga siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar,

g‘oyalar va tasavvurlarni shakllantirishni nazarda tutib, bir maqsadga qaratilgan holda muntazam olib boriladigan izchil ma’naviy ta’sir o‘tkazish jarayonini ifodalaydi” degan xulosaga kelgan. Bu esa oilaviy tarbiyaning mazmun-mohiyati uni pedagogik jarayon sifatida tadqiq etishning keng imkoniyatlari mavjudligini ochib beradi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, oila mustahkamligini ta’minlashda ularning ota-onalari saviyasi, turmush tarzi, xarakter xususiyati va kasb-kor darajasiga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda o’g’il-qizlarni birday oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oilaviy tarbiyaning asl mazmun-mohiyatini ongli ravishda yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Bu esa yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishni ijtimoiy pedagogik hamkorlik vazifalariga aylantirishda qimmatli ahamiyatga ega. Xozirgi kunda oila, maktab va mahalla oldida yoshlar o‘rtasida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarimiz samaradorligini oshirishdan ham muhimroq ish yo‘q. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimizda o‘z ma’naviy qiyofasini boyitishga imkon beradigan sog‘lom ehtiyojni shakllantirish o‘ta zarur. Darhaqiqat, bugungi glolallashib borayotgan davrda yoshlarimizning ongi va qalbini yod, tashqi buzg‘unchi mafkuraviy jarayonlardan asrash uchun ularda sog‘lom mafkuraviy immunitetni aynan oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida shakllantirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari, ko‘rsatkichlari, darajalari va fazilatlarini o‘lchashning uch qatlamli o‘lcham sistemasi alohida ahamiyatga ega. Zero, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy g‘ururlik, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik, milliy odob va milliy mafkuraviy onglilikni uyg‘un shakllantirishda ilmiy va xalq pedagogikasining amaliy birligidan yani oila, maktab va mahallaning amaliy birligidan kelib chiqib yondashish rivojlanayotgan shaxsning milliy tuyg‘usiga bevosita va bilvosita bog‘lanuvchi fazilatlar hisoblanadi. Ushbu yondashuvda axloqiy, ma’naviy, milliy, mafkuraviy, siyosiy, ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlarining o‘zaro aloqadorligi ta’kidlanadi.

Zero, oila, maktab va mahalla hamkorligini yoshlar tarbiyasidagi muhim ijtimoiy omil sifatida uning faoliyat mazmunini quyidagicha belgilaymiz:

har bir ta’lim muassasasi va mahallalarda yillik reja asosida muntazam, uzluksiz ijtimoiy hamkorlik olib borilishi shart.

ta’lim muassasalari va mahallalarda “Ota-onalar universitetlari tashkil etilishi zarur.

har bir oila kitobxon tamoyili asosida oila va mahallalarda ta’lim muassasalari yordamida kutubxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq.

mahalla va ta’lim muassasalarida tashkil etilgan to‘garaklar faoliyati muntazam nazorat qilib borilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan hissiyotlariga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Demak, tarbiya ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshadigan hodisa bo‘lib, insonning shaxs bo‘lib, shakllanishini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma’naviy qadriyatdir. Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish hamda bu borada xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan ilmiy markazlar faoliyatini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda ishchi reja tuzish, rejani uzviylik va izchillik asosida ijroga yo‘naltirish samarali natijadorlikni ta’minlaydi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Yosh avlod tarbiyasiga oila va oiladagi sog’lom ma’naviy muhit ta’sir qiladimi?

2. Oila qanday turlari va tipologiyasi mavjud?

3. Mahalla va oilaning hamkorlikdagi qanday eng muhim vazifalar bor?

4. Tarbiyada maktab, oila va mahallani eng muhim ijtimoiy pedagogik omil sifatida qanday tahlil qilasiz?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ni “Insert jadvali” metodi asosida tahlil qiling:

“V” Buni oldindan bilardim	“+” Men uchun yangi ma’lumot	“-” Bu ma’lumotni aniqlashtirish yoki to`ldirish kerak	“?” Tushunmadim yoki ochiq qolgan savollar

2. Ushbu “Keys”ni tahlil qiling. Keys: “Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg`ayadi. Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevori chi? Darhaqiqat, oilaning barpo etilishida kimlar yoki nimalar muhim rol o‘ynaydi, tashqi ta’sirlar chi? Mavjud oilalar va yangi barpo etilayotgan kichik bir oila o‘z mavqeini qanchalik asramoqda? Oila – muqaddas qo`rg`on, oila – ma`naviy kamolot maskani va boshqa bir qancha so‘z va iboralar bilan oilaning mavqeini belgilaymiz. Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma`naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, piru badavlat otaxon va onaxonalar ko`z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o‘ylantirgan masala bu – oila qo`rg`onining buzilishiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi omil sifatida g‘arbona yashash tarzining o`zlashtirilishi bo`lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma’naviy jihatdan etarli tayyorgarlikka ega bo`lmaslik masalasidir. Ma`naviy tahdid sifatida baholanayotgan g‘arbona madaniyat, g`arbona yashash, g`arbona muomala, g‘arbona hayot tarzi va hokazolar bizning muqaddas qo`rg`onimizga qanchalik salbiy ta`sir ko`rsatayotganini etarli darajada o`ylab ko`rmayapmiz. Oddiy hol sifatida qabul qilayotganimiz turli filmlar, seriallar, kliplar

aslida shovqinli, jangari, toshbag`ir bir hayot tarzini bizga in`om etmayotganmikin. G`arb seriallarida kelinini erkalayotgan qaynota, turmush o`rtog`ini ochiqdan ochiq haqorat qilayotgan xotin yoki uning eriga xiyonat qilayotgan dugona, yarim yalang`och qizdan mamnun ona, oiladan xalovat topmagan farzandning giyohvand moddalarga berilishi va boshqalar bizning farzandlarimiz tarbiyasiga, oilaviy muhitning nosog`lom bo`lishiga olib kelmasmikin. Aksariyat oilalar bunday hayot tarzini qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmoqda. Ko`p hollarda, bizning mentalitetimizga, yashash tarzimizga to`g`ri keladimi, yo`qmi, buni o`ylab ko`rmayapmiz. Natijada oilalar arzimas muammo oldida dosh berolmay, engil elpi, havoyi bir nafs qurboniga aylanishmoqda. G`arb taklif etayotgan xudbinlik, toshbag`irlik, egoizm kabi illatlarni aksariyat insonlar yashashning mazmuni sifatida olmoqda. Buning oqibatida ayol kimningdir qo`g`irchog`iga aylanmoqda, go`daklar mehrdan mosuvo holda etimlikka mahkum etilmoqda”.

3. Oila va jamiyat munosabatlari: muammo va yechimlar mavzusini FSMU metodi asosida tahlil qiling:

Fikr	Sabab	Misol	Umumiy xulosa

4. Monogam, kvaziavtonom detotsentrik, ambivalent detotsentrik oilla, nuklearlik, tarbiya, mahalla, kodeks, jamiyat….. so’zlari ishtirokida “ESSE” yozing.

5-MODUL. PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA PEDAGOGIK MAHORAT

§ 5.1. PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA UNGA XOS SIFATLAR

Reja:

1. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari va uning mazmun-mohiyati.
2. Pedagogning kommunikativ kompetentligi.

3. Kasbiy kompetentlik sifatlari.
4. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

Tayanch so`z va iboralar: pedagogning kommunikativ komptentligi, pedagogik muloqot turlari, pedagogik muloqot uslublari, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik kasbiy kompetentlik, avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari va uning mazmun-mohiyati

Bizga ma’lumki, jamiyatning haqiqiy boyligi, bu inson va uning avlodidir. Shuningdek, har qanday shaxsning el-yurtiga, vataniga sadoqati, iymon-e’tiqodi butunligi, mard va jasurligi, malakasi yetukligi, ma’naviyati yuksakligi kabi boyliklari har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbai ekanligiga shubha yo‘qdir. “Har bir kasbning o‘z sohibi, o‘z ustasi bo‘ladi. Dunyoda kasb-hunar ko‘p, ammo haqiqiy kasb egasi, haqiqiy hunar sohibi kam uchraydi. Ilmu fanda ham haqiqiy olim bo‘lish uchun kishiga Yaratganning o‘zi nazar qilgan bo‘lishi kerak.

Mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda kompetensiya, kasbiy tushunchalari, kreativlik tushunchalarining tahlili pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligini amaliyotdagi holatini kuzatish imkonini beradi.

Kompetensiya – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik [67; 62-b.]. *“Kompetensiya”* (lot. competo - erishayapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba [81; 682-b.]. Kompetensiya so‘zining 16 xil ma’nolarini psixologlar tomonidan 7 xil baholash shkalasidan foydalanishdi (internet-uyushma psixologlar ekspert). Ekspertlar tomonidan qayd etilgan tushunchalar quyidagilardan iborat:

... ishlab chiqarish masalalarini yecha olish qobiliyati; aniq vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyati;

... kasbiy standart tavsifiga mosligi;

... tashkilot tomonidan subyektning sifatli faoliyatini shakllantirish maqsadida ishchiga qo‘yilgan talab;

... ishchining xulq-atvor me’yorlari tashkilotga mosligi;

... bilim, ko‘nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy tushunchasi;

... sifatli ishga tayyorgarligi va ko‘nikmasi;

... lavozim vazifalariga mas’ulligi va vakolati;

... BKM+kasbiy muhim sifatlar;

... kompetensiyaning turli jihatlari;

... kasbiy muhim sifatlar tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda;

... kasbiy tajribani chuqur anglanishi;

... shaxsiy xususiyat, individuallik;

... muvaffaqiyatli faoliyatda inson omili;

... samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari;

... ijodkorlik;

... aniq tashkilotlarda ishlab chiqarish vazifalari.


Natijada *kompetensiya* – bu shunday bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, sabab omillari, shaxsiy sifatlar, maqsadli vaziyatlarning umumiy uyg‘unligi bo‘lib, qaysikim aniq tashkilot, aniq guruh, aniq ish joyida, aniq ishlab chiqarish jamoasi ijrochilarining samarali yyechimlarini ta’minlab beradi [46; 87-89-b.].

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi [50].

Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi

N.A.Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda *tayanch, umumiy va maxsus kompetentlik darajalarini* shakllantirish muhimligini aniqlagan. Tayanch kompetentliklar – ta’lim oluvchining ta’lim jarayoni nihoyasida ega bo‘lgan barcha tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalaridir. Xulq-atvori va fikrlashi keng ma’nodagi “kompetentlik” tushunchasiga kiritiladi. Ta’lim jarayonining maqsadi ta’lim oluvchining kompetentliklarini rivojlantirishni rag‘batlantirish hisoblanadi.

Tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarida kompetensiya tushunchasining turli ta’lim yo‘nalishlarida tahlil ishlarini olib borganlar. Bugungi zamon talablarga javob beradigan mutaxassis o‘z sohasining bilimdoniga aylanishi ta’lim jarayonida kompetensiya tushunchasidan foydalanilib kelishi loyiha ishida *kompetensiya* so‘zi bilan bog‘liq yana qanday tushunchalar mavjudligi, nazariy tipologiyasi hamda yo‘nalishlari qanday namoyon bo‘ladi kabi savollarga javob berishga harakat qildik (5.1-rasmga qarang):



5.1-rasm. Kompetensiya va kreativ tushunchalari

Kompetentliklarni ikki turga ajratish mumkin:

1) o‘quv fani yoki ta’lim yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kompetentliklar – ixtisoslikka oid maxsus kompetentliklar;

2) barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ham muhim hisoblanadigan kompetentliklar – umumiy kompetentliklar.

Umumiy kompetentliklar ba’zan “transversal ko‘nikmalar” deb ataluvchi, ya’ni, barcha yoki ko‘pchilik fanlar yo‘nalishlariga xos bo‘lgan ko‘nikmalarga o‘xshab ketadi. Umumiy kompetentliklarning qanchalik muhimligi to‘g‘risidagi bilimlarni rivojlantirish maqsadida ularning eng muhimlarining ro‘yxatini tuzib olish zarur, ularning ahamiyati va oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirilayotgan kompetentliklarga mos kelish darajasi aniqlanishi kerak. Kompetentlik turlarining umumiy tomonlari va farqlari aniqlanib, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus kompetentliklar ro‘yxati shakllantirilishi kerak. Maxsus kompetentliklar guruhidan ularning qaysi birlari birinchi bosqichda, qaysisi ikkinchi bosqichda va qaysilari uchinchi bosqichda muhimligi, shuningdek, qaysi bosqichlari ularni rivojlantirish kerakligi aniqlanadi [57; 9-10-b.].

Shuningdek, o‘z tadqiqotida masalali-faoliyatli modelda ta’lim mazmuni uch darajada:

tayanch kompetentlik (o‘quv rejasidagi barcha blok fanlari uchun);

fanlararo kompetentlik (o‘quv rejasidagi bir blok fanlari to‘plami uchun);

predmet doirasidagi kompetentlik (o‘quv rejasidagi bir fan yuzasidan) shaklida keltirilgan [57; 127-b.].

Tadqiqotchi tomonidan kasbiy kompetensiyaga oid ishlar olib borilgan. Davlat ta’lim standarti tomonidan belgilangan baholash nazoratidan farq qiluvchi baholash vositalari sifatli nazoratga yo‘naltirilishi talabada shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar integral, kompleks xarakterda kasbiy yetuklik darajasiga xizmat qiladi [71; 126-b.]. Bunda talabaning joriy, oraliq va yakuniy baholashlariga ham kompetensiyani shakllanishiga e’tibor berilishi kerakligi e’tiborga olingan.

A.G‘.Eminov o‘z tadqiqotida o‘qituvchilarning kompyuter grafikasi bo‘yicha kompetentligini mazmuni ilmiy asoslab berdi, zamonaviy pedagogik va axborot

texnologiyalaridan foydalanilgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning kompyuter grafikasi bo‘yicha kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan “Informatika va AT” o‘quv fani bo‘yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarning metodik ishlanmalari hamda mustaqil ishlarni ishlab chiqdi hamda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Informatika va AT” o‘quv fanini o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kompyuter grafikasi bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi, bosqichlari va baholash mezonlarini ishlab chiqdi [79; 7-b.]. Tadqiqotchi predmet doirasidagi kompetensiyani tahlil qilgan. Bizning tadqiqotimiz sotsiolingvistik kompetentsiyani takomillashtirishda faqat ingliz tili mutaxassislarini o‘rganishga qaratilgan.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajalarini umumiy tavsifi tahlil qila olish, tizimli ravishda fikrlay olish, tanqidiy fikrlashga qodirlik, noan’anaviy fikrlay olish, refleksiyaga qodirlik, mantiqiy fikrlay olish, analogiyaga keltirish, taqqoslay olish, amaliy fikrlay olish, mas’uliyatli fikrlashga qodirlik, jamoaviy fikrlashga qodirlik, o‘z vaqtini rejalashtirish va tashkillashtira olish, muammolarning yyechimini topa bilish, qarorlarni qabul qilishga qodirlik, mustaqil ravishda ta’lim olishga o‘rganishga qodirlik, o‘z faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtira olish, kompyuter savodxonligi, ma’lumotlar bazasi bilan ishlay olish, og‘zaki muloqot madaniyati, yozma muloqot ko‘nikma va malakalari, chet tilini bilishlik, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun ichki faoliyati shaxsan mas’ullik va ehtiyojni his etish, bag‘rikenglik, mushkul vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tuta bilish, xushxulqlik, shaxslararo o‘zaro faoliyatga qodirlik, jamoa bo‘lib ishlashga qodirlik, nizolarni hal eta olish va muzakoralar olib borishga qodirlik, betakrorlik (kreativlik), tadbirkorlik, innovatsion faoliyatga qodirlik, maqsadga intiluvchanlik, loyihalarni boshqarishga qodirlik, sifatni ko‘zlash, natijani ko‘zlash, peshqadamlikdan iborat ekanligi ta’kidlangan [59; 10-12-b.]. Mazkur jarayonda N.A.Muslimov tomonidan kasbiy kompetentlik darajalarida chet tilini bilishlikka e’tibor qaratilgan. Pedagogning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

ta’lim jarayonida tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish motivlarini rivojlantirish;

tadqiqotchilik faoliyatining metodologik asosini o‘rganish;

shaxsiy kasbiy tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish.

Natijada tadqiqotchilik faoliyatga qadriyatli yondashuv, kasbiy sohada tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish motivlarini rivojlantirish, tadqiqot natijalari bo‘yicha axborot va nashr ishlarini tayyorlashning umumiy prinsiplarini bilish, ta’lim sohasidagi tadqiqida dolzarb muammolarni aniqlash ko‘nikmasi, qo‘yilgan maqsadni tatbiq etishda vazifalarni tanlash, nazariy va empirik metodlarni qo‘llash, tadqiqot natijalarini og‘zaki va yozma shaklda tayyorlash, tadqiqot uchun axborotlarni tanlash hamda tadqiqotchilikka tayyorlik kuzatiladi [76; 151-b.]. Bizning tadqiqotimizda bo‘lajak mutaxassis bakalavriat va magistratura talabasining tadqiqotchilik kompetensiyasini sotsiolingvistik jarayonga yo‘naltirishni rejalashtirdik.


Bo‘lajak mutaxassisda *shaxsiy va kasbiy kompetentligini* shakllantirishda ta’lim vositalari(real, texnik, chop etilgan o‘quv materiallari, ko‘rgazmali qurollar)ning o‘rni muhimligini G‘.Abduqodirov, M.Yuldashev, X.Mo‘minovlarni hammualliflikdagi maqolasida bayon etilgan. Lekin ta’lim vositalarining turlari aniq ko‘rsatilganda ko‘rgazmali qurollar qaysi vositaning tarkibiy qismi ekanligi ajratilgan bo‘lar edi [40; 22-b.].

Ta’lim mazmunining o‘quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to‘plami uchun) va predmetli (ma’lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois kompetentlikni namoyon etuvchi uch darajani, ya’ni tayanch, fanlararo hamda bitta predmet bo‘yicha kompetentlikka ajratilgan. Shuningdek, kompetentlikning *yaxlit-mazmunli, ijtimoiy-madaniy, o‘quv-bilish, axborot olish, kommunikativ, ijtimoiy-faoliyatli va amaliy faoliyat* turlari tahlil etilgan [39; 41-b.]. Mazkur ma’lumotlar ham tadqiqotchi N.Muslimovning doktorlik dissertatsiyasida (132-133-betlarida) ham o‘z ifodasini topgan [58]. Faqat shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirish kompetentligi o‘rniga amaliy faoliyat kompetentligi bilan o‘zgartirilgan.

Odatda bitiruvchi mutaxassisning kompetentligi kasbiy layoqatlilik, o‘z sohasini yaxshi bilishi, kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi, o‘z ustida ishlab borishi va

o‘zining qabul qilgan qarorlariga mas’ulligi kabi ko‘rsatkichlarga qarab aniqlanadi [41; 52-b.].

Kompetentlik tushunchasi deganda ma’lum bir sohada talaba (masalan, bo‘lajak o‘qituvchi) tomonidan egallangan kompetensiya, ya’ni ma’lum bir sifatlarning to‘liq shakllangan majmui tushuniladi [42; 55-b.]. Amalda barcha lug‘at tuzuvchilar “kompetentlik” va “kompetensiya” kategoriyalarini chegaralab qo‘yadi. Yuqorida qayd etilgan tahlillar asosida kompetensiya tipologiyasini aniqladik (5.2-rasmga qarang):



5.2-rasm. Kompetensiya tipologiyasi


I.T.Aliyev pedagogning *kasbiy kompetentligi* mazmunini asosiy, umumkasbiy va maxsus kompetensiya tashkil etishini ta’kidlagan. Shuningdek, *asosiy kompetensiyalar*

konseptual, instrumental, qadriyatli-etik, integrativ, kontekstual, moslashuvchanlik va kommunikativ kompetensiyalarni o‘z ichiga olishini o‘rgangan. Ta’limiy kompetentsiyalar o‘quvchi yoki talabaning kelajakdagi faoliyatini belgilab beradi [42; 55-56-b.]. Asosiy kompetensiyalardan kommunikativ kompetensiya ijtimoiy hayotda tilni o‘rganishda muhimdir.

Ijtimoiy-perseptiv kompetentlik rivojlanishining kutilgan (yoqimli), barqaror (turg‘un), qoniqarsiz va tanqidiy darajalari mavjud. Bo‘lajak mutaxassislarda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya’ni perseptiv, kognitiv, refleksiya, empatiya, motivatsion va prognostik jihatlarining taraqqiy etishiga e’tibor qaratish lozim [83; 55-56-b.].

Psixologik kompetentlik pedagogda bir tekisda shakllanmaydi, professional hayot davomida sodir bo‘ladi, bu ichki diagnostikani ko‘rish – demak, unga baho berish, uning shaxsiy kasbiy rivojlanishini prognozlash [38; 39-b.]. Shuningdek, psixologik kompetentlik sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishda talabalik hayoti davomida sodir bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Kompetentlilik tushunchasi (lotinchadan *competenlia*, *compete* so‘zidan olingan bo‘lib – “birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to‘g‘ri kelaman” degan ma’noni beradi) lug‘atlarda esa “nimadir to‘g‘risida fikr yuritishga yo‘l beradigan bilimlarga ega bo‘lish”, “xabardor bo‘lmoq, huquqli bo‘lmoq” degan ma’noni bildiradi [54]. Kompetentlik ta’rifi o‘xshash va bir-birini o‘rnini egallaydi (to‘ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so‘zi uchun yagona izohlash yo‘q, bu tushuncha “vakolatlar yig‘indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo‘yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar”, “nimanidir to‘g‘risida fikr yuritishga yo‘l beradigan bilimlarga ega bo‘lish (egalik qilish)”, “kimdir yaxshi xabardor bo‘lgan savollar to‘plami (sohasi)” tushuniladi [67; 209-210-b.]. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni,



5.3-rasm. Kasbiy kompetentlikning o‘ziga xos xususiyatlari

muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi [50].

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova, va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. Kasbiy kompetentlikning o‘ziga xos xususiyatlarini 3-rasm asosida ifodaladik (5.3-rasmga qarang).

“Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi.

Pedagogning kommunikativ kompetentligi

Pedagogning kommunikativ kompetentligi uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o‘zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo‘lishiga intiladi.

> Pedagogning kommunikativ kompetentligi – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbati

Ta’lim jarayonida pedagogning kommunikativ kompetentligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

pedagogning alohida talaba bilan muloqoti;

pedagogning alohida talaba orqali guruh bilan muloqoti;

pedagogning butun guruh bilan muloqoti;

pedagogning guruh orqali alohida talaba bilan muloqoti.

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta’sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo‘lishini ta’minlash pedagogning zimmasiga katta mas’uliyatni yuklaydi. Agarda to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo‘rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug‘ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq meyorining buzilishi kabilarga sabab bo‘lsa, aksincha,

nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda o‘qishga va mustaqil o‘rganishga, fikrlashga bo‘lgan qiziqish ortadi. Pedagogik muloqot o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar bajariladi:

1) shaxsni o‘rganish (bilish);

2) axborot almashish;

3) faoliyatni tashkil etish;

4) hamdard bo‘lish.

Muloqot jarayonida talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Talaba shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo‘lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik talaba shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi. Muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi talabaning o‘zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma’lumotlar almashishini ta’minlaydi. Pedagog va talabalar o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi samarali ro‘y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog talabalarning eng yaqin maslahatchisi, yo‘lboshchisi va rahbariga aylanadi. Muloqot chog‘ida talabalar tomonidan o‘z shaxsini, “meni”ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o‘z oldidariga hayotiy maqsadlarni qo‘ygan holda olg‘a intilishlarini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Muloqot jarayonida axborot almashish vazifasining hal qilinishi quyidagi vositalar asosida ro‘y beradi:

1) nutq;

2) paralingvistik (yun. “pará” – “yaqin”, muloqot tarkibida so‘zli, g‘oyaviy ma’lumotlarni so‘zsiz vositalar bilan birgalikda uzatilishi) va ekstralingvistik (ing. “exterior” – “tashqarida”, nemischa “linguistik” – gapirayotgan shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog‘liq holda nutqning tashkil etilishi – nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo‘talish, nafas olish, yig‘lash, tutilish va b.) tizimlar;

3) muloqotning tashkiliy ko‘lami va vaqti;

4) ko‘z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa;

5) belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – qo‘l va oyoq harakatlari).

Pedagog rahbarligi yoki uning yo‘l-yo‘riqlari, ko‘rsatmalariga asosan o‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasini namoyon bo‘ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o‘ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda talabalarning o‘zlari ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Biroq, bu degani, ta’limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o‘rni va roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo‘ladi va talabalarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri uyushtirishga yo‘naltiradi. Pedagogik muloqotning muhim vazifalaridan yana biri – pedagog va talabalarning o‘zaro hamdard bo‘la olishlari (pedagogik empatiyaga egaliklar) sanaladi.

Pedagogik hamdardlik – pedagog tomonidan talabalar, ota-onalar va hamkasblarining xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me’yorda tashkil etilishini ta’minlash

Pedagogik hamdardlik asosida pedagog talaba shaxsi, uning istaklarini tushunish va u orqali talabalarga samarali ta’sir etish zarurligini anglaydi. Pedagogik muloqotni tashkil etishda pedagog, ayniqsa, yordamiga muhtoj talabalarga alohida e’tibor berish, har bir talabada turli o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga qiziqtirish usullarini, hamkorlik, ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o‘ylab qo‘yish lozim. Pedagogik amaliyot pedagog tomonidan tashkil etilayotgan muloqotni bir necha turga ajratish mumkinligi ko‘rsatadi. Pedagoglar o‘z faoliyatlarida muloqotning quyidagi turlariga tayanib ish ko‘radi:

1) o‘zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot;
2) o‘zaro do‘stona munosabatga asoslangan muloqot;

3) muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot;

4) qo‘rqitish, tahdid qilishga asoslangan muloqot;

5) hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan muloqot.

Pedagog tomonidan jamoa bilan muloqotni uyushtirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma’lum vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida talabalar faoliyatlarini boshqaradi. Bu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo‘layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi muloqot usullari quyidagi uch turga ajratiladi (5.1-jadvalga qarang):

5.1-jadval.

Pedagogning rahbar sifatidagi muloqot usullari

№	Muloqot usullari	Muloqot usullarining mazmun-mohiyati
1.	Avtoritar uslub	Bunga ko‘ra talabalar tomonidan barcha turdagi faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalarning har qanday tashabbuslari rag‘batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko‘rsatma, yo‘llanma berish, shuningdek, jazolash choralarini ko‘rish orqali talabalarga ta’sir etiladi. Hatto talabalarning faoliyatlari ijobiy baholangan vaqtda ham ularga bo‘lgan ta’sir turli kesatiqlar bilan bayon etiladi. Ya’ni: “Sendan ijobiy xatti-harakatni kutmagan edim?!”, “Buni qara-ya, nahotki o‘zgargan bo‘lsang!?”, “Qara-ya, birgina a’lo baho olish bilan o‘zingni yaxshi inson bo‘lib qolgan deb hisoblaysanmi!?” va h.k. mazmundagi rag‘batlar, ular asli ijobiy holatni e’tirof etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, talabani yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi. Aksincha, unda ta’lim olishga, ta’lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi
2.	Demokratik uslub	Unga ko‘ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko‘radi. O‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir talabaning fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog‘ida barcha talabalarning ishtiroklari ta’minlanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu uslubdan foydalanayotgan pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina talabalarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglab yetadi. Asosiy e’tiborni talabalarning yutuqlarini e’tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o‘zlariga anglatgan holda samarali tarbiya chorasini ko‘rishga qaratadi. Har bir talabaning yutug‘i alohida e’tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko‘radigan pedagog har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to‘g‘ri taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilaydi.

		Pedagog talabalar bilan muloqotni o‘rnatishda iltimos, maslahatga tayanib ish ko‘radi
3.	Liberal uslub	Odatda bu uslub pedagog va talaba munosabtlarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta’minlaydigan uslub sifatida e’tirof etiladi. Bu uslubga ko‘ra ish yuritadigan pedagog talabalar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga ham e’tibor bermaslikka intiladi. Talabalarni tartibga chaqirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to‘g‘ri baholab, jazolash zarur bo‘lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa talabalarning odobsiz, yalqov, mas’uliyatsiz bo‘lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma’qul ko‘radigan pedagog talabalar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo‘lgan fikrlarni ham birdek ma’qullaydi. Bu tahlitda ish ko‘radigan pedagog obro‘ga ega bo‘lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat o‘zi, balki uning ijobiy ta’siri asosida talabalar ham muloqot madaniyatini o‘zlashtirib borishlari lozim. Ta’lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida pedagoglar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishidan dalolat beradi: ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshni ortiqcha majburlash; sustkashlik, o‘zini juda yuqori yoki past qo‘yish; haddan tashqari jonbozlik ko‘rsatish. Pedagog talabalarga samarali kommunikativ ta’sir ko‘rsatish malakalarini o‘zlashtira olishi zarur.

Kommunikativ ta’sir ko‘rsatish – talabalar bilan muloqotda bo‘lish, ularga to‘g‘ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta’sir etish

Mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik takt ham o‘ziga xos o‘rin tutadi:

Pedagogik (nazokat) takt – pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondashish malakalariga egaligi

Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g‘oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo‘ladi:

Takt (dahldorlik) – axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo‘lib, o‘zida barcha obyektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan subyektiv qabul qilishni avvaldan ko‘ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo‘llarini izlashning namoyon bo‘lishi

O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik takt ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakatdir (5.2-jadvalga qarang):

5.2-jadval.

Pedagogga xos bo‘lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari va tarbiyalanayotgan elementlar

Pedagogga xos bo‘lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari	Pedagogik taktning elementlarini tarbiyalash
1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish; 2) yuksak talabchanlik; 3) suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qayg‘urish malakasi; 4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og‘ir vazminlik; 5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so‘zlay olish; 6) qat’iyatlilik (qaysarlik emas); 7) talabalarga nisbatan e’tiborli va xushyor bo‘lish	- talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik; - turli faoliyat bo‘yicha talabalarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariga oqilona pedagogik rahbarlik qilish; - talabaning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qo‘yish; - talabalarga ishonish va ularning faoliyatini nazorat qilib borish; - ular bilan muloqotni tashkil etishda o‘zini oqlagan ishchan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qo‘shib olib borish

Pedagogning pedagogik taktga egaligi uning yurish-turishi, vazminligi, o‘zini tuta bilishida namoyon bo‘ladi. Ushbu sifat talabaga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. Talabaga ishonchsizlik bilan qarash pedagogning pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida pedagogning pedagogik taktga ega emasligi yotadi. Har qanday qo‘pollik, kesatiq va koyishlar, talabalarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularga ishonchsizlik bildirish pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Pedagogik takt, shuningdek, pedagogning talaba javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e’tibor qaratishida, bordi-yu, talaba xatoga yo‘l qo‘yadigan bo‘lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to‘g‘rilashda, talaba faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo‘yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda javob berayotgan talabaga jilmayish, turli imo-ishoralar bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari, qo‘l harakatlari bilan uning javoblarini ma’qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mahoratli pedagog talabalar faoliyatini baholashda ehtiyotkor bo‘lishi lozim. Zero, noto‘g‘ri qo‘yilgan baho talaba shaxsiga salbiy ta’sir ko‘rsatib qolmay, balki uning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi. Talabalar faoliyatini baholashda

V.A.Suxomlinskiyning pedagogik tajribasiga tayanib ish ko‘rish maqsadga muvofiqdir:

1. Talabaga amaliy yondashish (“Talaba bo‘lgandan keyin o‘qib kelish kerak-da” tarzida emas), balki unga shaxs sifatida munosabatda bo‘lish (“Talabam, eng avvalo, shaxs, bola, so‘ngra esa talaba. Men unga qo‘yadigan baho uning bilimi o‘lchovi emas, balki mening unga nisbatan insoniy munosabatimdir” tarzida yondashish).

2. Har bir baho talabani kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashi zarur; u talabaning mehnatini rag‘batlantirishi, biroq, uning dangasaligi va qobiliyatsizligi uchun jazo vositasi bo‘lmasligi zarur.

Nazorat va muhokama savollari:

1. Pedagogik kompetentlik tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini izohlang?
3. Kasbiy kompetentlik va kompetensiya talablarini izohlang?
3. Ijtimoiy kompetentlik tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
4. Maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ) kompetentlik tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
5. Shaxsiy kompetentlik nima, izoh bering.
6. Texnologik kompetentlikka izoh bering.
7. A.V.Hutorskiy pedagogik kompetensiyalarni qanday tavsiflaydi?
8. Didaktik kompetensiya talablarini ayting.

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Kompetensiyaga oid tushunchalarni “Tushunchalar tahlili” asosida loyihalashtiring:


Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
Pedagogik kompetensiya	
Kasbiy kompetensiya	

Umummadaniy kompetensiya	
Didaktik kompetensiya	
Shaxsiy kompetentlik	
Kommunikativ kompetentlik	
Pedagogning o‘z ustida ishlashi	


2. Pedagog kasbiy kompetentligi yo‘nalishlari pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish mahorati, ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari, o‘zini-o‘zi kasbiy rivojlantirishga tayyorgarlik yo‘nalishlari bo‘yicha “Toifalash” jadvali asosida loyihalashtiring:

Maqsadi va vazifalari	**Pedagogik-psixologik tayyorgarlik**	**Mashg‘ulotlar ni tashkil qilish va o‘tkazish mahorati**	**Ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari**	**O‘zini-o‘zi kasbiy rivojlantirishga tayyorgarlik**
Maqsadi				
Vazifalari				

3. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini “Venna diagrammasi” metodi asosida loyihalashtiring:



4. Zamonaviy pedagog kompetensiyasida jarayonni boshqarishning vazifalarini “Klaster” metodi yordamida loyihalashtiring:



5. Shaxsiy kompetensiya va umummadaniy kompetensiyaga oid xususiyatlarga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing: 1) ma’suliyatlilik; 3) insonparvarlik; 4) ishchanlik; 11) umuminsoniy qadriyatlarga egalik; 5) bag‘rikenglik; 2)

moslashuvchanlik; 6) sog‘lom turmush tarziga amal qilish; 8) muloqatchanlik; yetakchilik; 10) boshqa millatlarning madaniyatini xurmat qilish; 9) milliy madaniyatga ega bo‘lish; 7) faollik va tashabbuskorlik; 12) mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish.

Tushunchalar	Javoblar
Shaxsiy kompetensiya	
Umummadaniy kompetensiya	

§ 5.2. PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Reja:

1. Pedagogik mahorat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va tarkibiy qismlari.
2. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish.
3. Zamonaviy pedagog imidji.
4. O`qituvchining vazifalari.

Tayanch so`z va iboralar: mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik deontologiya, pedagogik muloqot turlari, pedagogik muloqot uslublari, pedagogik nazokat (takt), nizo, pedagogik nizo, pedagogik nizo turlari, pedagogik nizolarni hal qilish yo‘llari, individual rivojlantirish dasturi, pedagogning individual rivojlanish dasturi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogning o‘z ustida ishlashi, pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari, o‘z-o‘zini baholash, moderator, trener, tyutor, fasilitator, mentor, kouch, konsultant, lektor, ekspert, innovator, menejer, spekter, assistent, sekretar, texnolog, metodist.

Pedagogik mahorat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va tarkibiy qismlari

“Pedagogik mahorat” tushunchasi o‘tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanib, OTMda mustaqil fan sifatida o‘qitila boshlagan. “Pedagogik texnologiya” fani o‘qitila boshlagach esa “Pedagogik mahorat” fanining asoslari uning mazmuniga singdirib yuborildi. Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kasbiy

mahoratlari haqida so‘z yuritishdan avval “mahorat” va “pedagogik mahorat” tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.

Mahorat (a. “mahorat” – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish. Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o‘ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi

Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko‘rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo‘lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta’lim jarayonining faol ishtirokichisi bo‘lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo‘lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko‘zga tashlanadi. Pedagogik faoliyatda pedagogik deontologiya muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik deontologiya (pedagogik majburiyat) – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsi, u tomonidan pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda pedagog quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur: muayyan mehnat vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish; talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etish; tanlagan kasbiga, talabalar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash. Pedagogik majburiyatlar sirasidan, yana shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo‘lish, o‘ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va pedagogik malakasini oshirishga intilish, talabalar va ularning ota-onalari bilan o‘zaro hurmatga asoslangan va

talabchan munosabatni o‘rnatish, murakkab pedagogik nizolarni ijobiy hal qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish kabilar ham o‘rin oladi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri – nizo sanaladi.

Nizo – qarama-qarshi, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan kuchlar to‘qnashuvi, ikki yoki undan ko‘p taraflar orasida o‘zaro kelishuvning yo‘qligini, manfaatlar to‘qnashuvini ifodalovchi ziddiyat.

Pedagogik nizo – pedagog va talaba, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o‘rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to‘qnashuvi, o‘zaro qarama-qarshilik

Pedagogik nizoning belgilari, keltirib chiqaruvchi omillari, turlari, yordam ko‘rsata olish turlari hamda hal etish yo‘llari mavjud (5.3-jadvalga qarang):

5.3-jadval.

Pedagogik nizoning belgilari, keltirib chiqaruvchi omillari, turlari

Pedagogik nizo belgilari	**Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar**	**Pedagogik nizo turlari**
Inqiroz; anglashilmovchilik; kutilmagan hodisa; zo‘riqish; noqulaylik, ichki yoki tashqi xavotir, bartaraf etish qiyin bo‘lgan qo‘rquv	Axborot omili; Munosabat omili; Hulq omili	Tezda yakun topadigan nizolar; Kuchsiz, sust kechadigan nizolar; Uzoq muddat davom etadigan; Kuchli, tez kechadigan nizolar
Yordam ko‘rsata olish turlari	**Pedagogik nizoning** hal etish yo‘llari	
Maslahat berish; Axborotli yordam ko‘rsatish; Tashxislash; Amaliy treninglar uyushtirish	1. Nizoning ta’sir doirasini kengaytirmaslik. 2. Qulay yyechimlarni taklif qilish. 3. Man etilgan usullarni qo‘llamaslik, shakllardan foydalanmaslik. 4. Shikoyatlar sonini qisqartirish. 5. Ikkinchi darajali masalalarni ham uzviy ravishda hal qilib borish. 6. Nizoga kirishgan subyektlar shaxsini kamsitadigan so‘zlardan foydalanmaslik	

Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator usullar ham qo‘llaniladi. Ular orasida eng samarali usullar quyidagilar sanaladi (5.4-jadvalga qarang):

5.4-jadval.

Nizoni hal qilishning pedagogik va ma’muriy usullari

Nizoni hal qilishning pedagogik usullari	**Nizoni hal qilishning ma’muriy usullari**
1) suhbat; 2) iltimos; 3) ishontirish;	1) nizoga kirishuvchilar manfaatlarini kuch bilan bostirish; 2) ularni boshqa ishga o‘tkazish;

4) nizoga kirishuvchilarga qo‘yilgan talablar yoki ishtirokchilarning xatti-harakatlari noto‘g‘riligini tushuntirish va b.	3) nizo qatnashchilarini turli ko‘rinishlarda o‘zaro ajratish; 4) axloq komissiyasining qarori; 5) rahbar buyrug‘i; 6) sud qarori

Zamonaviy pedagog imidji

Pedagoglar har tomonlama ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishi bilan birga o‘zlarining tashqi qiyofasiga ham e’tibor berishi lozim. Tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o‘zini namoyon qila olish, o‘ziga og‘dira olish va e’tiborni qarata olish dars jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda faqatgina iste’dodining o‘zi yetarli emas, balki o‘quvchilarga yoqa olishni ham bilishi kerak. Lug‘aviy jihatdan “imidj” (ing. “image”) tushunchasi “siymo”, “timsol”, “qiyofa” va “obraz” ma’nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko‘ra esa ushbu tushuncha yordamida “joziba”, “maftunkorlik” ma’nolarini ifodalaydi. Imidj - aniq bir insonga bo‘lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir.

Pedagogik imidj – pedagogning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik va mutanosiblikdir. O‘qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati:

1. Gavdani tutish-to‘g‘ri tutish (yurishda, o‘tirib turishda), qo‘llarning o‘qituvchi stolida erkin holatda bo‘lishi, batartibligi, ixchamligi.

2. Kiyim - ozodaligi, shinam va bashangligi, kamtarligi, ranglning mos holda tanlanishi, kiyimning yoshiga va kasbiga mosligi, kiyimni modaga muvofiqligi, bijuteriya, taqinchoqlarning ko‘p va kamligi, ishiga mosligi.

3. Pardozning me’yordaligi, yoshi, kasbi va ishiga mosigi.

4. Soch turmagi (sochning ma’lum bir tartibliligi).

5. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi.

O‘qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik va pantomimik ifodalari ham muhim o‘rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o‘qituvchining imo ishorasida, ma’noli qarashlarida, rag‘batlantiruvchi yoki kinoyali tabassumida namoyon bo‘ladi va ular o‘qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta’sir ko‘rsatishida,

o‘quvchi-talabalarga mashg‘ulotlarni ta’sirchan, qiziqarli, samarali va mazmunli o‘tish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

Mimika-his-hayajonning ifoda etishi, yuz mushaklarining, ma’noli harakatlarning so‘zlayotgan nuqtaga gapga mosligi. Mimika- bu o‘z fikrlarini, kayfiyati, holati, hissiyotini tinglovchi bajarayotgan ishdan roziligi yoki norizoligini bildirish maqsadida uchun yuz, qosh, ko‘z muskullarini harakatga keltira olish san’atidir. Ba’zan yuzning va nigohning ifodasi o‘quvchilarga katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma’lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o‘zlashtirish uchun imkon yaratadi. O‘quvchi pedagogga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «o‘qib» oladilar. Shuning uchun uydagi ba’zi noxushliklar o‘quv mashg‘ulotlariga ta’sir ko‘rsatadi. Mimik ifodalar o‘quvchining o‘quv kayfiyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg‘ulotlariga xos ta’sirini ko‘rsata bilishi talab etiladi. Bu o‘quv - tarbiya topshiriqlarini yechish o‘quvchilar ta’limi va tarbiyasiga ijobiy yo‘nalish bera oladigan ko‘rinishlarni ifodalashi lozim. Yuz ifodasi, esa o‘z navbatida nutq va munosabat xarakteriga mos bo‘lishi kerak. U ishonch, ma’qullash, ta’qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarda ifodalanishi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qayd qilinganidek qosh, ko‘z, yuz ko‘rinishi va muskullari ishtirok etadi. Ko‘z, qosh, yuz o‘quvchi-talabalar javobidan qoniqish, xursand bo‘lish, faxrlanish yoki e’tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo‘lish va boshqa belgilarni ifodalasa, ta’lim oluvchilar diqqatini bo‘lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta’lim - tarbiya ishlarini olib borish muvaffaqiyatli kechadi. Shuni ham alohida e’tirof etish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o‘qituvchining nigohi o‘quvchi-talabalarga, yoki ayrim o‘quvchilarga qaratilgan bo‘lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko‘rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

Pantomimika – qo‘l, oyoq, gavda harakatlari: yurish, qadam tashlash, erkin harakat qilish, jestlar va boshqalar. Pantomimika – bu gavda, qo‘l, oyoq harakatidir. O‘qituvchi darsda o‘quv ma’lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali

ma’lumotlarning obrazini chizadi, o‘quvchi-talabalar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg‘ulari, ularning tashqi hissiyotlari bilan qo‘shilib butun borliq ma’lumotlar mazmunini o‘zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to‘liq bayon qila turib qo‘l, boshni turli harakatlarga keltirish o‘qituvchining o‘z bilimiga, kuchiga ishonchini anglatadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, o‘qituvchi talabalar oldida o‘zini tuta bilsa, harakatlarini tartibga keltira olsa, o‘quv-tarbiya jarayoni samarali bo‘ladi. Ma’ruzada oyoqlar 12-15 sm. oraliqda bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish bu o‘qituvchining fanini mukammal bo‘lishi, uni tushuntira olishiga ishoradir. O‘qituvchining ishoralari ma’noli bo‘lib, u ortiqcha harakatlardan xoli bo‘lmog‘i darkor. Masalan, keraksiz hollarda qo‘llari bilan imo-ishoralar qilish, boshini uyoq-buyoqqa tashlash, oyoqlarini kerib o‘tirish va h.k. Bunday holatlar o‘quvchi-talabalarning g‘ashini keltiradi va o‘quv faniga, o‘qituvchiga nisbatan hurmatsizlik his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

O‘qituvchi auditoriya (sinf)da yurgan paytida faqat oldin va orqaga qarab yurishi tavsiya etiladi. Chunki, agar u yon tomonlarga, ya’ni, u yondan, bu yonga yursa talabalar fikri bo‘linadi va ular tez charchab qoladilar. Old tomonga yurayotganida, o‘qituvchi eng muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda talabalar o‘qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo‘ladilar. Yuzi talalabalarga teskari holda yurayotganda uncha ahamiyatga molik bo‘lmagan fikrlarni aytish, dalillar keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bu vaqtda o‘quvchi-talabalar bir oz erkin holatda o‘zlarini his qilayotgan bo‘ladilar.

O‘z hissiyotini boshqara olish malakasi. O‘qituvchining pedagogik texnikasi tizimida o‘z hatti-harakati, hissiyotini idora qilishi va ruhiy (psixik) holatini boshqara olishi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi ta’sir ko‘rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg‘ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o‘z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo‘lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo‘la olishi ham pedagogik texnika tizimining muhim elementidir.

Buyuk rus pedagogi A.S.Makarenko aytganidek: «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, yoki jahldor bo‘lishini bilishi lozim, U o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o‘qitsin». Bunday malakaga ega

bo‘lgan pedagog o‘z-o‘zini nazorat qila oladi, pedagogik faoliyati davomida sog‘lom asab tizimini o‘zida tarbiyalay oladi, asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo‘riqishlardan o‘zini asraydi. O‘z xatti-harakati, hissiy holatini nazorat qilishda pedagog, avvalo, o‘zida quyidagilarni shakllantirishi lozim: hayrixohlik va optimizm ruhida bo‘lish; o‘z hulqini nazorat qilish, (muskul zo‘riqishini, harakatini, nutq tempini, nafas olishini tartibga solish); faoliyatni dam oldirish, ya’ni lirik, musiqaviy, yumoristik, jismoniy daqiqalarni yaratish; o‘z-o‘ziga salbiy ta’sir ko‘rsatishning oldini olish va h. k.

O‘qituvchining aktyorlik va rejissyorlik malakalari. O‘qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun o‘qituvchi pedagogik texnikasi tizimidan o‘rin olgan yana bir malaka – bu o‘qituvchining aktyorlik va rejissyorlik malakasidir. Xususan, adabiyot, odobnoma, ma’niviyat asoslari, tarix o‘qituvchilari uchun aktyorlik malakasi nihoyatda zarur. Ma’lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni tavsiflayotganda aktyorlik, o‘quv ma’lumotlarini so‘rash, o‘quvchi-talabalar faoliyatini tashkil etishda esa, o‘qituvchiga rejissyorlik malakalari zarur. Bu malakalar o‘qituvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi talabalarning aql-idrokkina emas, balki ularning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish, ularga olamga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasini o‘zlashtirishga yordamlashadi. Shunday qilib, o‘qituvchida yuqorida qayd etib o‘tilgan pedagogik texnika ko‘nikmalarini tarbiyalangan bo‘lsa, u yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash, va ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi. Ta’kidlanganidek shaxsiy-kasbiy malakalar o‘qituvchining ijtimoiy – gumanitar, ixtisoslik hamda maxsus fanlar bo‘yicha bilimlarini boyitadi pedagogik mahoratni egallashga intilishni kuchaytiradi, o‘z kasbiga qiziqish va burch, hamda mas’uliyatni his qilishni rivojlantiradi. Va bu malakalar yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ‘ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi. Kiyimning vazifasi – bu nafaqat insonni issiqdan, sovuqdan himoya qilish, balki o‘ziga jalb etishni ham uddalashi kerak. Kiyimga qarab insonga baho beriladi albatta, ozoda, yarashgan va sipo kiyim kishining ishiga talabchanligi va ichki kamtarligi haqida ma’lumot beradi. Pedagogning ijobiy qiyofasi va jozibasi, o‘quvchilarga psixoterapevtik ta’sir o‘tkazadi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi [50; 28-32-b.].

Zamonaviy pedagog imidji – bu o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, kasbiy kompetentsiyasi va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy tasavvurdir. Bugungi kunda pedagogning imidji nafaqat uning kasbiy malakalarini, balki o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarini, o‘zini tutish tarzini, innovatsiyalarga bo‘lgan yondashuvini va shaxsiy fazilatlarini ham aks ettiradi. Zamonaviy pedagog imidji quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kasbiy kompetentsiya va bilim darajasi. Zamonaviy pedagog o‘z sohasida chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Bu nafaqat an'anaviy o‘qitish metodlariga, balki yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta'lim, raqamli vositalar va onlayn platformalardan samarali foydalanishga ham bog‘liq. Zamonaviy o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallab borishi kerak:

pedagog zamonaviy o‘qitish usullarini (masalan, flipped learning, gamifikatsiya, loyiha asosida o‘qitish) o‘z darslarida qo‘llashi zarur;

o‘qituvchi raqamli resurslar, onlayn darslar, virtual laboratoriyalar kabi zamonaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lishi kerak.

2. Shaxsiy fazilatlar va o‘zini tutish. Zamonaviy pedagog o‘zining shaxsiy fazilatlari bilan o‘quvchilarni ilhomlantirish va ularni yaxshi tomonga o‘zgartirishga qodir bo‘lishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

pedagog o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunib, ularga yordam bera olish qobiliyati;

o‘qituvchi o‘quvchilar bilan samimiy, do‘stona munosabatda bo‘lishi va ularning fikrlariga e'tibor qaratishi zarur;

pedagog o‘zining shaxsiy his-tuyg‘ularini nazorat qilishda muvaffaqiyatli bo‘lishi va stressli vaziyatlarda sabrli bo‘lishi kerak.

3. Kommunikatsiya va o‘zaro aloqalar. Zamonaviy pedagog yaxshi kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqotda bo‘lishi zarur. Pedagogning imidji shu orqali shakllanadi:

o‘qituvchi o‘quvchilarni tinglab, ularning fikrlarini qadrlashi va ularni qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga undashi kerak;

oʻqituvchi ota-onalar bilan doimiy ravishda aloqada boʻlib, ularning farzandlari haqidagi ma'lumotlarni oʻrtoqlashishi va darslarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordam berishi kerak.

4. Koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv. Zamonaviy pedagog faqat bilim bermasdan, oʻquvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam berishi kerak. Bu:

oʻqituvchi oʻquvchilarni yangicha fikrlashga undashi va ularga kreativ yondashuvni oʻrgatishi lozim;

oʻqituvchi oʻquvchilarga ijtimoiy mas'uliyatni, jamoada ishlashni, boshqalar bilan hamkorlik qilishni va emotsional barqarorlikni oʻrgatishi kerak.

5. Kasbiy etik va professionalism. Zamonaviy pedagog oʻz ishida yuqori professional etikaga ega boʻlishi zarur. Bu oʻzining kasbiy vazifalarini mukammal bajarishni, mas'uliyatni his qilishni va oʻz ishiga ehtiyotkorlik bilan yondashishni oʻz ichiga oladi:

pedagog oʻquvchilarga teng munosabatda boʻlishi va adolatli boʻlishi kerak;

oʻqituvchi oʻz bilimini va kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib borishga intilishi kerak.

6. Tashqi koʻrinish va imidj. Zamonaviy pedagogning tashqi koʻrinishi ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogning kiyinish uslubi, soʻzlash tarzidan tashqari, u qanday imidj yaratgani ham oʻquvchilar va jamiyat tomonidan qabul qilinishida katta rol oʻynaydi:

pedagogning toʻgʻri kiyinish uslubi va ozoda koʻrinishi oʻqituvchining kasbiy imidjini kuchaytiradi;

pedagogning oʻziga boʻlgan ishonchi va professionalligi uning tashqi koʻrinishiga, xulq-atvoriga va ishiga yuksak ta'sir qiladi.

Zamonaviy pedagog imidji – bu oʻqituvchining shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilimlari, muloqotdagi uslubi va jamiyatdagi roli bilan bogʻliq boʻlib, u oʻquvchilarga ta'lim berishda samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Yaxshi pedagog imidji oʻquvchilarni ragʻbatlantiradi, ularga ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi va jamiyatda oʻqituvchilarning oʻrni va ahamiyatini oshiradi.

O`qituvchining vazifalari

O‘qituvchining vazifalari – bu o‘qituvchining ta'lim jarayonida bajaradigan asosiy funksiyalari va maqsadlari bo‘lib, ular o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan ta'minlash, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shish, o‘quvchilarning jamiyatga moslashishini ta'minlashga yo‘naltirilgan. O‘qituvchining vazifalari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo umumiy jihatlar quyidagi asosiy nuqtalarda namoyon bo‘ladi:

1. Bilim berish va o‘rgatish. O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarga bilim berish. Bu darsni to‘g‘ri tashkil etish, o‘quvchilarni ta'lim mazmuni bilan tanishtirish va mavzuni tushunarli tarzda yetkazishdan iboratdir. O‘qituvchi mavzuni yaxshi o‘zlashtirib, o‘quvchilarga to‘liq va aniq tushunishga yordam beradi. O‘qituvchi darsni qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etadi, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

2. Ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish. O‘qituvchi o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki amaliy ko‘nikma va malakalarni ham rivojlantirishi kerak. O‘quvchilarga mustahkam va samarali ko‘nikmalarni o‘rgatish, ular orqali o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam berish. O‘qituvchi o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va yaratish yondashuvini o‘rgatishi lozim.

3. Ijtimoiy va emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash. O‘qituvchi o‘quvchilarning faqat aqliy rivojlanishi bilan cheklanmaydi, balki ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlashi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarning his-tuyg‘ulariga e'tibor qaratadi, ularga o‘zini ifodalash va muammolarini hal qilishda yordam beradi. O‘quvchilarga jamoada ishlashni, boshqalar bilan hamkorlik qilishni va ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatish.

4. Motivatsiya va ilhomlantirish. O‘qituvchi o‘quvchilarni ta'limga qiziqtirish va ularni motivatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishda, o‘z maqsadlariga erishishda ilhom berishi kerak. O‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan istagini kuchaytirish, o‘quv jarayoniga qiziqish uyg‘otish.

5. Pedagogik nazorat va baholash. O‘qituvchining yana bir vazifasi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, ularning o‘rganish jarayonini nazorat qilish. O‘qituvchi o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini va kamchiliklarini aniqlash, kerakli taklif va maslahatlarni berish. O‘qituvchi har bir o‘quvchining o‘ziga xos imkoniyatlarini hisobga olib, uning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

6. Ota-onalar bilan hamkorlik. O‘qituvchi o‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlaydi, chunki o‘quvchilarning muvaffaqiyati ko‘pincha oilaning ta'limga bo‘lgan yondashuvi bilan bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarning yutuqlari va muammolari haqida ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lishi kerak. Ota-onalarga o‘quvchilarni uyda qo‘llab-quvvatlash va tarbiya berish bo‘yicha maslahatlar berish.

7. O‘z malakasini oshirish. Zamonaviy o‘qituvchi o‘z malakasini doimiy ravishda oshirib borishi kerak. Ta'limda yangi metodlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish, o‘z kasbiga bo‘lgan intilish – bu o‘qituvchining muvaffaqiyati uchun muhimdir. O‘qituvchi pedagogik va psixologik bilimlarni kengaytirish, yangi metodlarni o‘rganish uchun doimiy ravishda kurslar va seminarlar o‘tkazib turadi. O‘qituvchi ta'limda yangi texnologiyalarni va pedagogik innovatsiyalarni tatbiq qilishga harakat qiladi.

O‘qituvchining vazifalari juda keng va murakkab. U faqat bilim berish bilan cheklanmay, o‘quvchilarning ijtimoiy, emotsional va shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shishi kerak. O‘qituvchi o‘z kasbiga yuksak mas'uliyat bilan yondoshib, o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki hayotga tayyorlanishda yordam beradigan ko‘nikmalarni ham o‘rgatishi zarur.

Bunda bir mashg‘ulot jarayonida mashg‘ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu vazifalarni bajarishi ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg‘ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo‘llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko‘ra quyidagicha nomlanadilar:

1. Moderator – ta’lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.

2. Trener – o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassis.

3.Tyutor – masofadan o‘qitish dasturlarini yaratuvchisi va bajarilishini ta’minlovchi.

4. Fasilitator – darsda ko‘makchi, yo‘naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

5. Mentor – ustoz, o‘rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

6. Kouch – ta’lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg‘ulotni olib boradi, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish).

7. Konsultant – maslahat beruvchi, tushuntiruvchi, qo‘shimcha ma’lumot beruvchi.

8. Lektor – nazariy ma’lumotlar bilan tanishtiruvchi.

9. Ekspert – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

10. Innovator – yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi.

11. Menejer – tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etuvchi.

12. Spekter – kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

13. Assistent – mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

14. Sekretar – zarur ma’lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

15. Texnolog – pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

16. Metodist – ta’lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

Nazorat va muhokama savollari:

1. “Mahorat” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Pedagogik mahorat nima?
3. Pedagogik mahorat qanday muhim tarkibiy qismlardan iborat?

4. Pedagogning kommunikativ qobiliyati nimalarda aks etadi?

5. Pedagogik muloqotning qanday turlari mavjud?

6. Pedagoglar talabalar bilan muloqot jarayonida qanday uslublarni qo‘llaydi?

7. Pedagogik nazokat (takt) nima?

8. Pedagogik nizo nima va unga xos belgilar qaysilar?

9. Pedagogik nizo qanday yo‘llar bilan hal etiladi?

10. Zamonaviy pedagogning imidji qanday bo‘lishi zarur?

Mustaqil ta' lim topshiriqlari:

1. Pedagogik esseni kalit so‘zlar ishtirokida ilmiy-pedagogik mazmunda esse yozing! Pedagog, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, o‘qituvchining kasbiy tayyorligi, zamonaviy axborot texnologiyalari, “ilg‘or o‘qituvchi”, “ijodkor o‘qituvchi”, “novator o‘qituvchi”, pedagogik muloqot, pedagogik nazokat.

2. Pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari mavzusiga oid tushunchalarni “Tushunchalar tahlili” asosida loyihalashtiring:

“Tushunchalar tahlili” metodi

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
pedagogik mahorat	
pedagogik texnika	
pedagogik hamkorlik	
pedagogik nazokat	
pedagogik qobiliyat	
nutq madaniyati	
pedagogik ijodkorlik	

ilg‘or o‘qituvchi	
ijodkor o‘qituvchi	
novator o‘qituvchi	

3. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalana olmaslik muammolarini “FSMU” metodi asosida tahlil qiling.

Fikr	Sabab	Misol	Umumiy xulosa

4. Keys bayoni. Ta’lim innovatsiyalaridan samarali foydalanishda pedagoglarning kasbiy mahorati, kompetentliligi, iqtidori va ish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog qanchalik darajada kasbiy mahorat, kompetentlilik, iqtidori va ish tajribasiga ega bo‘lsa, u ta’lim innovatsiyalarini o‘z faoliyatida shunchalik faol qo‘llaydi va samarali natijalarga erishadi.

Keys topshirig‘i. Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

Holat	**Mezonlar**
Pedagogning innovatsion salohiyati	

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.

2. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni. 2020-yil 6-noyabr.

3. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son Qarori. 2020-yil 6-noyabr.

4. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF5938-son Farmoni. 2020 yil 18 fevral.

5. Maktabdan tashqari ta’lim tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respubilkasi Vazirlar Mahkamasining 331-son Qarori. 2021 yil 27 may.

6. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.

7. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 19 oktabrdagi 35-2021-son buyrug‘i.

8. Хорижий давлатларда таълим олганлик тўғрисидаги ҳужжатларни тан олиш тартибини такомиллаштириш ҳақида. Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 620-сон қарори. 2019 йил 24 июнь.

9. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

10. Dars. Dars - Vikipediya (wikipedia.org)

11. Globallashuv nima - globallashuvning ijobiy tomonlari va kamchiliklari va uning oqibatlari. Elektron resurs: Globallashuv - bu zamonaviy dunyo globallashuvining salbiy ifodasi nima? (unistica.com). Murojaat sanasi: 20.02.2022.

12. Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi. Elektron resurs: Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi | infoCOM.UZ Murojaat sanasi: 20.02.2022.

13. Ijtimoiy pedagogika: darslik. N.Egamberdieva. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.

14. Imtiyozlar. Elektron resurs: Imtiyozlar (edu.uz). Murojaat sanasi: 19.02.2022.

15. Jaborov I. O‘zbek xalq etnografiyasi / Mas’ul maiarrir: K.N.Shoniyozov / - T.: O‘qituvchi, 1994. –320 b.

16. Jaipul L. Roopnarine, James E. Johnson. Approaches to Early Childhood Education. – Pearson, 2013. – 452 p.

17. Katie Wood Ray. In Pictures and In Words. – Heinemann: Portsmouth, 2010. – 291 p.

18. Mead M.: a biography. 2nd ed. Amherst, 2011.

19. Qaxxorova M., Musurmanova A., Nurmatova M. Mahalla ва oilada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.

20. Qo‘shma ta’lim dasturlari. Elektron resurs: Qo'shma ta'lim dasturlari (edu.uz). Murojaat sanasi: 19.02.2022.

21. Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. – T.: 2004.

22. Oila. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila

23. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Elektron resurs: Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish (edu.uz). Murojaat sanasi: 19.02.2022.

24. Shahrizoda Ibodullayeva Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari // Science and Education. 2023. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogika-fanining-ilmiy-tadqiqot-metodlari. (дата обращения: 31.10.2023).

25. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Darslik. - Toshkent: «Tafakkur Bo`stoni», 2013. – 288 b.

26. Talabalar o`qishini ko`chirish, qayta tiklash va o`qishdan chetlashtirish. Elektron resurs: Talabalar o`qishini ko`chirish, qayta tiklash va o`qishdan chetlashtirish (edu.uz). Murojaat sanasi: 19.02.2022.

27. Tuxliyev N. Osiyo taraqqiyoti modeli. – T.: O‘zbekiston, 2015. – 110 b.

28. UWC қандай ташкилот? Электрон ресурс: UWC Uzbekistan - UWC қандай ташкилот?. Мурожаат санаси: 13.02.2022.

29. Xorijiy talabalarni qabul qilish. Elektron resurs: Xorijiy talabalarni qabul qilish (edu.uz). Murojaat sanasi: 19.02.2022.

30. Young University Rankings 2022. Electrnic resourse: https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2022/young-university-rankings#!/page/0/length/25/locations/UZB/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/stats.

31. Yo'ldosheva S. Yosh avlod tarbiyasida oila va mhalla hamkorligi // AL-BUXORIY jurnali. – № 1. – T., 2022. – B. 68.

32. O'zbekistonda xorijiy universitetlar. Elektron resurs: O'zbekistondagi xorijiy universitetlar filiallari – Nodirbek.uz. Murojaat sanasi: 19.02.2022.

33. O'zbek tilining izoili lujati. 2 jildlik. P tom. – M.: "Rus tili" nashriyoti, 1991. – 125 b.

34. 1.4. Система педагогических наук (отрасли и разделы). Электрон ресурс: 1.4. Система педагогических наук (отрасли и разделы) (studfile.net).

35. 1.5. Связь педагогики с другими науками. Электронный ресурс: 1.5. Связь педагогики с другими науками (studfile.net). Дата обращения: 18.09.2023.

36. 3.4. Научное исследование в педагогике, его основные характеристики. Электронный ресурс: 3.4. Научное исследование в педагогике, его основные характеристики (studfile.net)

37. Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш.: Дис. ... пед.фан.бўйича фалсафа док. – Тошкент, 2019. – 152 б.

38. Абдуллаева Д., Исроилова С. Педагогик компетентликнинг психологик жиҳатлари // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 39.

39. Абдуллаева Қ.М., Норбўтаева Д. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 41.

40. Абдуқодиров Ғ., Юлдашев М., Мўминов Х. Бўлажак ўқитувчиларнинг шахсий ва касбий компетентлигини шакллантиришда таълим воситаларининг ўрни // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 22.

41. Айтенов Б., Абдирасилов С. Олий таълим битирувчисининг компетентлигини масаласи // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 52.

42. Алиев И.Т. Педагогнинг касбий компетентлиги // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 55-56.

43. Асқаров А., Ахророва З., Рўзиматов Э., Садикова Ш., Содиков У. “Умумий педагогика” фани бўйича ЎУМ. – Тошкент, 2018. – 374 б.

44. Атоева Н., Салаева М., Ҳасанов С. Умумий педагогика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2013. – 860 б.

45. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. М.: Просвещение, 1982. - 192 с.

46. Базаров Т.Ю., Ерофеев А.К., Шмелов А.Г. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания // Вестник Московского университета. – Москва, 2014. № 1. Серия 14. Психология. – С. 87-99.

47. Гегель Георг Вильгельм Фридрих Сочинения.Т. 8: Философия истории / Гегель; Пер. А. М. Водена; — Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 1935. — 470 с.

48. Ибраимов Х., Қуронов М. Умумий педагогика. Дарслик. – Т.: Саҳҳоф, 2023. – 416 б.

49. Илк қадам. Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. – Тошкент, 2018. – 60 б.

50. Инновацион таълим технологиялраи ва педагогик компетентлик УМК. – Б. 31.

51. Какие бывают типи уроков в педагогике. Типи уроков: от советской “классики” до совеременности / Skillbox Media.

52. Лекция 14. Форми обучений. Урок – основная форма учебного процесса в школе. Samuseva. Urok-OFUP.pdf (bspu.by).

53. Макаренко А.С. Методика организации воспитательного процесса. - С. 306.

54. Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 209-210.

55. Методы научно-педагогического исследования. Электронный ресурс: Методы педагогических исследований: классификация и применение (kursach37.com). Дата обращения: 18.09.2023.

56. Мудрик А.В. Социальная педагогика. – М.: Академия, 2000. – 100 с.

57. Муслимов Н.А., Қўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарияси ва методикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – 80 б.

58. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: - Фан, 2004. – 126 б.

59. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 10-12.

60. Олий таълим муассасаларида ўқув-тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишга йўналтирилган инновацион ўқитиш методлари ва технологиялари. – Тошкент, 2014. – 25 б.

61. Орипов М. Инсонийлик моҳияти. / Гулистон, 1990 йил 12-сон.

62. Основы системы педагогических наук: понятие, структура и взаимосвязь. Электронный ресурс: Основы системы педагогических наук: понятие, структура и взаимосвязь (nauchniestati.ru)

63. Отрасли педагогики: характеристики. Электронный ресурс: Отрасли педагогики: характеристики и методы обучения. Дата обращения: 18.09.2023.

64. ПЕДАГОГИКА. Учебник для студентов педагогических учебных заведений // Под редакцией заслуженного деятеля науки РФ, член-корреспондента РАО, доктора педагогических наук, профессора Павла Ивановича Пидкасистого. – 334 с.

65. Педагогика назарияси (Дидактика). – Жиззах, 2008. - 282 б.

66. “Педагогиканинг тараққиёт тенденциялари ва инновациялари” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2017. – 295 б. – Б. 33.

67. Педагогикадан атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 2008. – 196 б. – Б. 62.

68. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: учеб. для студ. высш. учеб. заведений: в 2 кн. / — М.: Гуманитар, изд. центр ВЛАДОС, 2004. — Кн. 2. Процесс воспитания. — 256 с.

69. Природа научных категорий. Электронный ресурс: Читать онлайн «Философия науки. Учебное пособие», Ирина Петровна Никитина – Литрес, страница 2 (litres.ru).

70. Самусева. Урок-ОФУП.pdf. (bspu.by)

71. Сафиханов Р.Я., Яппарова Э.Н. Компетентностный подход в оценке результатов обучения студентов // Педагогические образование и наука. № 5. – Москва, 2014. – Стр.126.

72. Тема 2. Категориальный аппарат педагогики. Электронный ресурс: Тема 2. Категориальный аппарат педагогики (studfile.net).

73. Университет 3.0 – фан-таълим ва инновация модели. Электрон ресурс: «Университет 3.0» — фан-таълим ва инновация модели (yuz.uz). Мурожаат санаси: 12.02.2022.

74. Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 492 б. – Б. 193.

75. Фарзанд - азиз, она - мўътабар: тўплам таҳрир ҳайъати: В.Каримова, О.Мусурмонова, Х.Султонов ва бошқалар. – Т.: Ўзбекистон, 2001.

76. Хамидуллина Л.К., Рахматуллин Т.Г. Формирование исследовательской компетентности педагога в процессе обучения в Вузе // Педагогические образование и наука. № 5. – Москва, 2014. – Стр.151

77. Хасанов Абдушоҳид Абдурашид Ўқитиш жараёнида фанлараро алоқадорликни амалга оширишнинг психологик-педагогик асослари // Современное образование (Узбекистан). 2017. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/itish-zharayonida-fanlararo-alo-adorlikni-amalga-oshirishning-psihologik-pedagogik-asoslari (дата обращения: 01.11.2023).

78. Педагогическая классика: А. Дистервег, Г. Спенсер: хрестоматия / Н. Б. Баранникова, сост. М., 2013.

79. Эминов А.Ғ. Бўлажак ўқитувчиларнинг компьютер графикаси бўйича компетентлигини ривожлантириш методикаси (“Инфаорматика ва ахборот технологиялари” ўқув фани мисолида).: Автореф. пед.ф.н. – Тошкент, 2012. – Б. 7.

80. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. К. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 479 б. – Б. 332.

81. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Конигил. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедяси, 2002. – 704 б. – Б. 682.

82. Қурбанов Ш. Таълим сифатини бошқариш. – Т.: Турон-Иқбол, 2006. – 592 б. – Б. 146.

83. Қурбонова З., Раҳматуллаева З. Бўлажак педагогларда ижтимоий-перцептив компетентликни шакллантиришнинг психологик хусусиятлари // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 55-56.

84. https://tdi.uz/upload/top-1000-2021.pdf

85. https://fayllar.org/chet-elda-ijtimoiy-pedagogikaning-rivojlanish-tarixi-reja-v2.html?page=2#:~:text=Uchinchi%20bosqich%2D20,yaqqol%20ko%E2%80%98rishimiz%20mumkin.

86. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila

87. Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari. Электрон ресурс: Globallashuv: tarixi, xususiyatlari, sabablari, oqibatlari - Fan - 2022 (warbletoncouncil.org) Мурожаат санаси: 20.02.2022.

88. https://www.wikiwand.com/ru/articles

89. Nazarov Q. G‘arb falsafasi. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 719 b.

90. Морозов А В. Формирование креативности преподавателя высшей школы в системе непрерывного образования: Дис. ... д-ра пед. наук. – М., 2004. – 445 с.

91. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – М.: Флинта, 1998. – 200 с.

92. Eshqobilova S.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish: Ped. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) … dis. avtoref. – Termiz, 2023. – 52 b.

93. https://si-sv.com/Posobiya/teor-pedag/Tema_5.html

94. https://fayllar.org/chet-elda-ijtimoiy-pedagogikaning-rivojlanish-tarixi-reja-v2.html?page=2#:~:text=Uchinchi%20bosqich%2D20,yaqqol%20ko%E2%80%98rishimiz%20mumkin.

GLOSSARIY

O`zbekcha	Ruscha	Inglizcha
3-4 bolali oila	семья с 3-4 детьми	family with 3-4 children
5 va undan ortiq bolali oila	многодетная семья (с 5 и более детьми)	large family (with 5 or more children)
adabiyotlarni o’rganish metodi	метод изучения литературы	method of studying literature
abiturientlar uchun oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishdagi imtiyozlar	льготы для абитуриентов при поступлении в вузы	benefits for applicants entering higher education institutions
ajralish saviyasidagi oila	семья на стадии развода	family at the stage of divorce
akmeologik yondashuv	акмеологический подход	acmeological approach
akmeologik yo‘nalish	акмеологическое направление	acmeological direction
aksiologik yondashuv	аксиологический подход	axiological approach
amaliy metod	практический метод	practical method
amaliyotlar	практики	practical training / practice sessions
ambivalent detotsentrik oila	амбивалентная детоцентристская семья	ambivalent child-centered family
an’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari	традиционные (по источнику) методы обучения	traditional (by source) teaching methods
androgogika	андрагогика	andragogy
anglash	осознание / понимание	awareness / understanding
anjuman-ma’ruza	лекция-конференция	lecture-conference
aqliy tarbiya	умственное воспитание	intellectual education
aralash dars	комбинированный урок	combined lesson
aralash tipdagi oila	семья смешанного типа	mixed-type family
asinxron bog‘lanish	асинхронная связь	asynchronous communication
asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari	методы обучения по основным дидактическим целям	teaching methods by main didactic goals
assimilyatsiya qonuni	закон ассимиляции	law of assimilation
assistent	ассистент	assistant
audiyovizual vositalar	аудиовизуальные средства	audiovisual aids
avtoritar bo‘lgan oila	авторитарная семья	authoritarian family
avtoritar uslub	авторитарный стиль	authoritarian style
axborot ta’minoti usuli	метод информационного обеспечения	information support method
axborot xurujlari	информационные атаки	information attacks
axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari	средства информационно-коммуникационных технологий	information and communication technology tools
axborotni uzatish funksiyasi	функция передачи информации	information transmission function
axloq tuzatish pedagogikasi	педагогика нравственного исправления	pedagogy of moral correction
axloqiy tarbiya	нравственное воспитание	moral education
axloqiy tarbiya prinsiplari	принципы нравственного воспитания	principles of moral education

ayol yoki erkak yetakchiligiga ko‘ra oila	семья с женским или мужским лидерством	family with female or male leadership
badiiy pedagogika	художественная педагогика	art pedagogy
bahs metodi	метод дискуссии	discussion method
baynalmilal oila	интернациональная семья	international family
bilim	знание	knowledge
bilimli skeptitsizm	образованный скептицизм	educated skepticism
binar-ma’ruza	бинарная лекция	binary lecture
biografik metod	биографический метод	biographical method
bir bolali oila	семья с одним ребёнком	one-child family
bir millatli bo‘lgan oila	однонациональная семья	single-nationality family
bolalar soniga ko‘ra oila	семья по количеству детей	family by number of children
bola	ребёнок	child
bolalar ijodini o’rganish metodi	метод изучения детского творчества	method of studying children's creativity
boshqaruv	управление	management
boshqaruv vazifalari	функции управления	management functions
bolaning ilk ijtimoiylashuv davri	период первичной социализации ребёнка	period of primary socialization of the child
dars ishlanmalari	разработки уроков	lesson designs
dars tiplari	типы уроков	types of lessons
dars turlari	виды уроков	kinds of lessons
darsga tayyorgarlik	подготовка к уроку	lesson preparation
darslik bilan ishlash metodi	метод работы с учебником	method of working with the textbook
darsning diagnostika (tashxislash) bosqichi	диагностический этап урока	diagnostic stage of the lesson
darsning prognozlash bosqichi	прогностический этап урока	prognostic stage of the lesson
dasturlashtirilgan ta’lim yoki kompyuterli o‘qitish	программированное или компьютерное обучение	programmed or computer-based learning
davlat	государство	state / government
davlat ta’lim standartlari	государственные образовательные стандарты	state educational standards
davlat ta’lim talablari	государственные требования к образованию	state requirements for education
davolash pedagogikasi	лечебная педагогика	therapeutic pedagogy
davomli bog‘lanish	непрерывная связь	continuous communication
dehqonlar oilasi	крестьянская семья	peasant family
demokratik bo‘lgan oila	демократическая семья	democratic family
demokratik uslub	демократический стиль	democratic style
detotsentrik oila	детоцентристская семья	child-centered family
diagnostik eksperiment metodlari	методы диагностического эксперимента	methods of diagnostic experiment
dialogli seminar	диалогический семинар	dialogical seminar
didaktik funksiya	дидактическая функция	didactic function
didaktik kategoriyalar	дидактические категории	didactic categories
didaktik o‘yinlar metodi	метод дидактических игр	method of didactic games

didaktik o'yin ishtirokidagi dars	урок с элементами дидактической игры	lesson with elements of didactic game
didaktik yo‘nalish	дидактическое направление	didactic direction
didaktika	дидактика	didactics
diniy tarbiya	религиозное воспитание	religious education
ekologik tarbiya	экологическое воспитание	environmental education
eksperiment-tajriba, sinov usuli	метод эксперимента (опыта, испытания)	experimental (trial) method
ekspert	эксперт	expert
ekspertiza	экспертиза	expertise / evaluation
elektron forum	электронный форум	electronic forum
elektron nashr	электронное издание	electronic publication
elektron o‘quv nashri	электронное учебное издание	electronic educational publication
elektron o‘quv qo‘llanma	электронное учебное пособие	electronic study guide
elektron pochta	электронная почта	e-mail
elektron ta’lim resurslari	электронные образовательные ресурсы	electronic educational resources
elektron uslubiy qo‘lanma	электронное методическое пособие	electronic methodological guide
empatik tinglash	эмпатическое слушание	empathic listening
empirik kategoriyalari	эмпирические категории	empirical categories
er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila	семья с совместным лидерством мужа и жены (биархат)	family with joint leadership of husband and wife (biarchic family)
er yetakchi bo‘lgan oila	семья с мужским лидерством	family with male leadership
erkin tarbiya	свободное воспитание	free education / liberal upbringing
er-xotin orasidagi munosabatlariga ko‘ra bo‘lgan oila	семья по характеру отношений между супругами	family based on the nature of spousal relationships
er-xotinlarning millatiga ko‘ra bo‘lgan oila	семья по национальности супругов	family by spouses’ nationality
er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra oila	семья по социальному происхождению супругов	family by spouses’ social background
er-xotinning ma’lumot saviyasiga ko‘ra oila	семья по уровню образования супругов	family by spouses’ level of education
estetik tarbiya	эстетическое воспитание	aesthetic education
etnopedagogika	этнопедагогика	ethnopedagogy
etnos	этнос	ethnos / ethnic group
evristik seminar	эвристический семинар	heuristic seminar
falsafiy yo‘nalish	философское направление	philosophical direction
fanlar bo‘yicha amaliy materiallar	практические материалы по предметам	practical materials by subject
fanlar bo‘yicha didaktik materiallar	дидактические материалы по предметам	didactic materials by subject
fanlar bo‘yicha nazariy materiallar	теоретические материалы по предметам	theoretical materials by subject
fanlararo aloqadorlik	межпредметная связь	interdisciplinary connection

fanlararo kategoriyalar	межпредметные категории	interdisciplinary categories
fanlararo kompetentlik	межпредметная компетентность	interdisciplinary competence
fantaziyaga asoslangan darslar	уроки, основанные на фантазии	fantasy-based lessons
faoliyat turidagi darslar	уроки по видам деятельности	activity-type lessons
faoliyatni tashkil etish va jamiyat xulq-atvorining tajribasini shakllantirish metodlari	методы организации деятельности и формирования опыта социального поведения	methods of organizing activity and forming experience of social behavior
faoliyatning ma'lum shakllari va usullari bilan analogiya bo'yicha darslar	уроки по аналогии с определёнными формами и способами деятельности	lessons by analogy with specific forms and methods of activity
farzandsiz oila	бездетная семья	childless family
fasilitator	фасилитатор	facilitator
fasilitatsiya	фасилитация	facilitation
fundamental tadqiqotlar	фундаментальные исследования	fundamental research
funksiya	функция	function
fuqarolik tarbiyasi	гражданское воспитание	civic education
gender pedagogikasi	гендерная педагогика	gender pedagogy
gipermedia kitoblar	гипермедийные книги	hypermedia books
